



Zarnigor ABDUQODIROVA,
O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti
E-mail: zarnigorabduqodirova@gamil.com

F.f.d., professor O.Hamroyeva taqrizi asosida

“MU'IN UL-MURID” – ADABIY MANBA SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIV asrda Xorazm diyorida, Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan “Mu'in ul-murid” asari va uning mazmun mundarijasi haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada asarning muallifligi masalasi hamda unda ifodalangan g'oyalar umumiy tarzda ochib berishga harakat qilingan. Manba bo'yicha shu vaqtga qadar aytilgan ilmiy farazlarga munosabat bildirilgan va shaxsiy xulosa berilgan.

Kalit so'zlar: “Mu'in ul-murid”, Shayx Sharaf, Oltin O'rda adabiyoti, fiqh, tasavvuf, murid.

“МУ'ИН УЛ-МУРИД” – КАК ЛИТЕРАТУРНЫЙ ИСТОЧНИК

Аннотация

В данной статье рассматривается произведение “Му'ин ул-мурид”, созданное в литературной среде Золотой Орды в XIV веке на территории Хорезма, а также его содержание. Кроме того, в статье затрагивается вопрос авторства произведения и выраженные в нем идеи. Дается оценка существующим научным гипотезам о данном источнике и представляется личное заключение.

Ключевые слова: “Му'ин ул-мурид”, Шейх Шараф, литература Золотой Орды, фикх, суфизм, мурид.

“MU'IN UL-MURID” – AS A LITERARY SOURCE

Annotation

This article discusses the work “Mu'in ul-murid”, created in the literary environment of the Golden Horde in the 14th century in the land of Kharezm, and its content. Additionally, the article attempts to clarify the issue of the authorship of the work and the ideas expressed in it. The article also addresses previous scholarly hypotheses regarding the source and provides a personal conclusion.

Key words: “Mu'in ul-murid”, Shaykh Sharaf, Golden Horde literature, fiqh, sufism, murid.

Kirish. Islom dini – xalqni ilm-ma'rifatga, yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlashga o'rgatadigan haq din. Islom dini butun Sharq dunyosida yaratilgan asarlarga o'z ta'sirini o'tkazdi va ularda o'z aksini ko'rsatdi. Xususan, Oltin O'rda adabiy muhitiga islom dini boshqa Sharq xalqlariga nisbatan kechroq kirib keldi, shunga qaramasdan, ijtimoiy-ma'daniy hayotning barcha jabhalariga kuchli ta'sir o'tkaza oldi. Buning natijasi o'laroq, Oltin O'rda adabiy muhitida islom dini ta'sirida diniy-ma'rifiy, didaktik asarlar yuzaga keldi. Oltin O'rda xonligi islom dinini qabul qilgach (Berkaxon hukmronligi davrida, XIII asr) islom dini arkonlarni o'rganish zaruriy talabga aylandi. Shu sababli diniy mavzudagi asarlar yuzaga keldi. Bunda, albatta, hukmdorlarning ham o'rni katta edi, ular yuksak salohiyatga ega bo'lgan shaxslardan diniy mazmundagi asarlar yozishini so'raghan. Buning natijasi o'laroq Rabg'uziyning “Qisasi Rabg'uziy” asari (1309-1310, Nosiriddin To'qbug'a topshirig'i bilan), Shayx Sharafning “Mu'in ul-murid” asarlari yuzaga keldi.

“Mu'in ul-murid” XIV asrda Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan diniy-tasavvufiy ruhda asardir. Ushbu asar Xorazmda, hukmdor Ersari Beyning topshirig'i bilan yaratilgan. “Xizr eli salur elindin Abulxonda Arsariboy tegan bor erdi, uzoq umr topqan, davlatli va musulmonliqqa qo'shish qila turg'an kishi erdi. Arsariboy borib shayxi mazkurga qirq teva niyoz berib, inobat qilib, iltimos yuzindin arz qildikim biz kim turk xalqi tururmiz, arabiy kitoblarni o'qub, ma'nisiga yetishib amal qilmaqliq basi mushkul bo'la turur. Agar arabiy masalalarni turkiy tarjima qilib, inoyat qilsangiz erdi, savobga sherik bo'lardingiz tedi.” Yuqoridagilardan ma'lumki, asar arab bo'lmagan musulmonlar, aniqrog'i turkmanlar uchun din arkonlari va fiqh masalalarini oson va tushunarli o'rganishlari uchun zaruriy qo'llanma o'laroq yaratilgan. “Mu'in ul-murid” turkiylar uchun tushunarli tilda: qoraxonli turkchasining o'g'uz va qipchoq lahjalar qorishmasi natijasida vujudga kelgan xorazm turkchasida yozilgan. Bu asar XIV asrga tegishlidir. “Mu'in ul-murid” asarining oxirgi to'rtligida asarning yozilish sanasi ko'rsatilgan:

Idi berdi tevfiq bu birkach kalam

Oruch ayi ichre bitildi tamam
Tarix yetti yuz on uch erdi yili
Selamun aleykum, aleykum selam

Ushbu to'rtlik bizga shuni ma'lum qiladiki, asar hijriy 713-yili, milodiyda esa 1313-yil oxirlari va 1314-yil boshlarida ramazon oyida yozib tugallangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Mu'in ul-murid” asari XIV asrda Xorazmda yashagan shayx, adib va fiqhshunos olim Shayx Sharaf tomonidan yozilgan. Ushbu adib haqidagi ma'lumotlar bizgacha deyarli yetib kelmagan. Asar muallifligi masalasi bo'yicha o'zbek olimlaridan Abulg'ozzi Baxodirxon, Abdurauf Fitrat hamda Olim Sharafiddinovlar munosabat bildirishgan. Turk olimlaridan Ahmad Zaki Validiy To'g'on, Fuad Ko'prulu, shuningdek, amerikalik olim A.J.E. Bodrogligeti ham asar muallifligi masalasi bo'yicha o'z fikrlarini bildirishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning metodologik asosi sifatida tasavvuf adabiyoti vakillari adabiy merosini o'rganish, ilmiy tadqiq etishda keng qo'llaniladigan tamoyil va uslublarga, sinovdan o'tgan zamonaviy bilish metodlariga amal qilindi. Maqola yozish jarayonida tarixiy tipologik, struktural, tarixiy - qiyosiy, tasniflash va boshqa metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. “Mu'in ul-murid” asarida shoir o'zi haqida deyarli ma'lumot bermagan. Faqatgina asarning “Qalb va nafs bayoni” bobining 349-to'rtligida Shayx Sharaf Hoja nomi uchraydi:

Ko'ngul nefts-u ruh din netije erur
G'alib bolsa biri angar yuz urur
Biling bu beyan SHEYX Sharaf Hajening
Mebadi sulukda bitiglig turur.

Ushbu to'rtlik bizga asar muallifi Shayx Sharaf Hoja ekanligi va uning “Mebadi suluk” nomli yana bir asari bor ekanligini ko'rsatadi. Abulg'ozzi Bahodirxon o'zining “Shajarayi tarokima” asarining “So'ng turkman bo'lib, turkmanlarg'a qo'shilg'on ellarlar zikri” bobida asar haqida quyidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan: “Arsariboy borib shayxi mazkurga qirq teva niyoz berib, inobat qilib, iltimos yuzindin arz qildikim

biz kim turk xalqi tururmiz, arabiy kitoblarni o'qub, ma'nisiga yetishib amal qilmaqliq basi mushkul bo'la turur. Agar arabiy masalalarni turkiy tarjima qilib, inoyat qilsangiz erdi, savobga sherik bo'lardingiz tedi ersa, shayx Sharafxo'ja taqi barcha mas'alayni diniy tarjima qilib, bir kitob etib, "Muayyinul murid" ot qo'yub Arsariboyg'a berdi. Ul vaqtdin to bu kungacha barcha turkmanlar ul kitobning mas'alalarig'a amal qilatururlar". Ushbu tarixiy ma'lumotlari bilan Abulg'ozi Bahodirxon nafaqat asarning muallifligi masalasini, balki asar yozilish sabablarini ham yoritib o'tgan. Darhaqiqat, bu davrda islomga e'tibor kuchli edi va islom arkonlarini o'rganish uchun kitoblarga ehtiyoj bor edi. Ayni shu uchun davlat hukmdorlari ham ilm ahliga homiylik qilishgan. Ahmad Zaki Validiy Shayx Sharafning Xorazmlik olim ekanligini ta'kidlaydi. U turkmanlar, o'zbeklar va to'bol turklari orasida juda mashhur shayx sifatida tanilganini, turkmanlarga islom dinini o'rgatish maqsadida turkiy tilda asarlar yozgan olim sifatida taassurot qoldirganini hamda "Mebadi suluk" deb atalgan tasavvufiy kitob yozganligi haqida aytgan. Ko'prulning ma'lumotlariga ko'ra, 1300-yillarning ikkinchi yarmi 1400-yillarning boshlarida yashagan va Yassaviya silsilasining mashhur shayxi Zangi otaning murid bo'lgan Xorazmlik Shayx Sharafning mozori hozirda Urganchdadir. Bu shayxning shuhrati nafaqat turkmanlar orasida juda baland bo'lgan, balki o'zbeklar orasida ham "doston qahramoni" sifatida tanilganini ta'kidlaydi. Yuqoridagilardan ma'lumki, ko'plab olimlar tomonidan "Mu'in ul-murid" asari muallifi sifatida Shayx Sharaf tan olingan, biz ham ushbu fikrlarni ma'qullaymiz.

"Mu'in ul-murid" islom fiqhshunosligiga bag'ishlangan asardir. Shuningdek, ushbu asardan tasavvufiy ruhda "Suhbat bo'limi" ham o'rin olgan. Umuman olganda bu asar boshidan oxirigacha islomga bag'ishlangan. Asarning asosiy mavzusi islom ekanligi har baytdan anglashiladi. Jumladan, ushbu asarning 402-to'rtligida bu ochiq-oydin ko'rinadi:

Bu kach so'z aytgan ati islom ol
Tileki ahir vakt iman islom ol
Atam baba islom veliyyu'l-vera
O'zi zikri tilde tuman aslam ol

Albatta, kitob uchun tanlangan sarlavha ham ushbu asarning umumiy mazmunini ochishga xizmat qiladi. Murid istilohi musulmon sharqida keng tarqalgan va faol iste'moldagi so'z bo'lib bir qancha ma'nolarni ifoda etishga xizmat qiladi. Murid (hohlovchi) — pir yoki eshon (murshid)ga qo'l berib, sufiylik yo'liga kirgan shaxs. Tasavvufda tariqat murshidlaridan dars oluvchi shogird ma'nosida ishlatiladi. Murid-murshidlik munosabatlari muridning o'z piriga so'zsiz itoat etishi, xizmat qilishi va uning izidan borishini taqozo qilgan. Umuman, murid atamasi sufiy va hatto oddiy musulmon ma'nolarini ham anglatadi. Darhaqiqat, murid tasavvuf yo'lidagi shaxsdir.

“المريد Mürid – Tasavvuf yolunu tutmaya vey tarikata girmeye karar veren yahut bir şeyhe bağli bulunan kişi anlamında tasavvuf terimi. Sözlükte “iradesi, isteği olan kişi” mânasındaki mürid kelimesi tasavvuf tarihinde ve çeşitli tasavvufi

zümreler arasında farklı mânalarda kullanılmıştır. İlk sûfi müellifler müridden çok irade kavramı üzerinde durmuşlar, iradenin mürid ve murad terimleriyle ilişkisini göstermeye çalışmışlardır". Albatta, murid ushbu yo'lni tanlar ekan, bu o'z-o'zidan murid iroda sohibi bo'lishini taqazo etadi. Muin atamasi esa qo'llab-quvvatlovchi, yordamchi degan ma'nolarni anglatadi. Bu so'z Alloh taoloning sifatlaridan bo'lib, ba'zi o'rinlarda Allohning 99 ismlaridan biri sifatida ham talqin etiladi. Demak, "Mu'in ul-murid" kalimasini qisqacha qilib "muridlar yordamchisi" deb aytish ham mumkin. Darhaqiqat, ushbu asar muridlar uchun bir darslik o'laroq maydonga keldi. Ushbu asarda dindagi eng muhim vazifalar o'z ifodasini topgan. Islom ilohiyoti, siyra, islom tarixi, fiqh, tafsir, tasavvuf kabi asosiy islom ilmlarini yaxshi bilgan, tushungan muallif o'z asarini jami 12 bobga ajratadi va ba'zi boblar yana bir necha fasllarni o'z ichiga oladi. Boblarning sarlavhalaridan ham undagi asosiy mazmun anglashilib turadi. Asar Allohga hamd-u sano bilan boshlanadi. Shundan so'ng hazrat Odamdan boshlab to hazrat Muhammad (s.a.v.)ga qadar davom etgan 124 ming payg'ambarlarga va Muhammad Mustafo (s.a.v) va to'rt xalifaga salom yo'llash bilan davom ettiriladi. Bundan keyingi bo'limlarda 13-266-to'rtliklarda diniy mavzular va 267-377-to'rtliklarda esa tasavvufiy mavzular haqida so'z boradi. Asar quyidagi qismlardan iborat:

Iymon bo'limi
Alloh va uning payg'ambari Muhammadni bilish bo'limi
Vaz va nasihatlar bo'limi
Turli mavzularga taalluqli bo'lim
Zakat bo'limi
Vasiyatnomalar bo'limi
Odob-axloq bo'limi
Muvofiqlik bo'limi
Suhbat bo'limi
Shariat, tariqat va haqiqat bo'limi
Qalb va nafs bo'limi
Tariqatga kirish bo'limi

Allohga shukr qilish va yaxshilarni eslash, Bobo Eranning fazilatlarini tushuntirish, muallif va asar nomini tilga olish, xatoliklar uchun Allohdan kechirim so'rash. Asar nihoyatda aniqlik bilan tarkiblanganki, natijada muallif islomdagi har bir masalaga alohida to'xtalib o'tgan. Har bir bob va fasl nomlari esa mavzuni oson topish uchun xizmat qilgan.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda boy tariximiz va merosimizni o'rganish davlat siyosati darajasida ahamiyatga molik ishlardan biri bo'lib qolmoqda. Tadqiqot obyektimiz bo'lgan ushbu asarni ham o'rganish, tadqiq etish, tabdil etish, ushbu asarning poetik va tasavvufiy jihatlarini ochib berish biz adabiyotshunoslar oldida turgan zaruriy vazifalardan biridir. Xulosa qilib aytganda, "Mu'in ul-murid" asari nafaqat adabiyotshunoslar uchun, balki o'zida ifoda etgan ma'no-mazmuni nuqtayi nazaridan bugungi jamiyat uchun haam qimmatli manbadir.

ADABIYOTLAR

1. Fuad Köprülü. Turk Edebiyatı Tarihi. – İstanbul, 1926, s. 347
2. Recep Toparlı, Mustafa Argunşah. Mü'inü'l-mürîd. İnceleme-Metin-Çeviri-Dizin-Tipkibasım. ANQARA, 2008. – 322 c
3. Zeki A. Velidi, "Harezmi'de Yazılmış Eski Türkçe Eserler, Türkiye Mecmuası, II, 1926, İstanbul, 1928, s.315-345
4. Aysu Ata, "Recep Toparlı, Mü'inü'l-Mürîd, Atatürk Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Yayınları Nu:15, Erzurum 1988, LXXII+287 s.", OTAM (=Ankara Üniversitesi Osmanlı Tarihi Araştırma ve Uygulama Merkezi Dergisi), S.10, Ankara, 1999, s. 389-406.
5. Abid Nazar Mahdum, "Mu'inü'l-Mürîd Yazmasının Metin Dışı Türkçe, Arapça, Farsça Kayıtları Üzerine", İlmî Araştırmalar, Sayı:21, İstanbul, 2006, 153-165.
6. Abulg'oziy Baxodirxon. Shajarayi tarokima. T., 1995-26-bet
7. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. -Toshkent.Ma'naviyat,2000, 55-60betlar
8. Aysu Ata (2002), Harezmi-Altın Ordu Türkçesi, İstanbul, 35



UDK: 1751

Oqila ABDULLAYEVA,
ToshDO'TAU doktoranti
E-mail: abdullayevaokila@gmail.com

ToshDO'TAU professori v.b., f.f.d Sh.Hamroyeva taqrizi ostida

O'ZBEK TILIDA SINTAKTIK PARSING MASALASI: MUAMMO VA TAKLIFLAR

Аннотация

Tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP) parsing, treebank usullari gaplarning sintaktik tahlili, gaplardagi birliklarning sintaktik aloqalari va gap tuzilmasini belgilash bilan shug'ullanadi. O'zbek tili morfoanalizatorida 35 000 ta turli uzunlikdagi gaplar POS teglangan bo'lib, keyingi bosqich esa o'zbek tilida sintaktik teglash tizimini ishlab chiqish, teglarni taklif etish hisoblanadi. Maqolada o'zbek tilida sintaktik parsing masalasi, gap bo'laklarini aniqlash modellari va o'zbek tili matnlarini dependency parsing qilish muammolari, sintaktik teglar masalasi tadqiq qilindi. O'zbek tilida sintaktik parsing va treebank masalasi boshqa agglutinativ tillar bilan solishtirilgan holda tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Parsing, dependency parsing, treebanklar, sintaktik teg, korpus.

SYNTACTIC PARSING IN THE UZBEK LANGUAGE: PROBLEMS AND PROPOSALS

Annotation

In natural language processing (NLP), parsing and treebank methods deal with the syntactic analysis of sentences, determining syntactic relationships between units in sentences, and identifying sentence structures. In the Uzbek language morphological analyzer, 35,000 sentences of varying lengths have been POS tagged. The next stage involves developing a syntactic tagging system for the Uzbek language and proposing appropriate tags. This article examines the issue of syntactic parsing in the Uzbek language, models for identifying sentence components, challenges in dependency parsing of Uzbek texts, and the matter of syntactic tags. The topic of syntactic parsing and treebanks in the Uzbek language is analyzed in comparison with other agglutinative languages.

Key words: Parsing, dependency parsing, treebanks, syntactic tag, corpus.

СИНТАКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ: ЗАДАЧИ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Аннотация


В области обработки естественного языка (NLP) методы синтаксического анализа и создания древовидных структур занимаются синтаксическим разбором предложений, определением синтаксических отношений между единицами в предложениях и выявлением структур предложений. В морфологическом анализаторе узбекского языка 35 000 предложений различной длины размечены по частям речи (POS). Следующим этапом является разработка системы синтаксической разметки для узбекского языка и предложение соответствующих тегов. В данной статье рассматриваются вопросы синтаксического анализа в узбекском языке, модели выявления компонентов предложения, проблемы анализа зависимостей в узбекских текстах и вопрос синтаксических тегов. Тема синтаксического анализа и создания древовидных структур в узбекском языке анализируется в сравнении с другими агглютинативными языками.

Ключевые слова: Синтаксический анализ, парсинг, синтаксический анализ зависимостей, treebank, синтаксический тег, корпус.

Kirish. O'zbek tili boy va murakkab morfologik tuzilishga ega tillardan biri hisoblanadi. Tipik agglutinativ til sifatida o'zbek tili sintaktik xususiyatlariga ko'ra flektiv tillarga nisbatan farqli jihatlariga ega. O'zbek tili sintaktik tahlilida gaplarda SOV (Subyekt-Obyekt-Fe'l) so'z tartibiga ega bo'lib, erkin so'z tartibli til hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zbek tili matnlarida asosiy gap bo'lagi ega va kesim hisoblansa-da, zarur hollarda ega gapda tushib qoldirilishi mumkin, bunday vaziyatda ham gap qurilishi va mazmuni buzilmaydi, kesim tarkibidagi grammatik qo'shimchalar orqali tiklanishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tillarda matnlarni qayta ishlash bosqichlari sifatida ko'p holatlarda tokenizatsiya,

lemmatizatsiya, POS tegging, sintaktik va semantik parsing bosqichlari ko'rsatiladi. Biz ham o'zbek tili korpusi uchun kelajakda sintaktik analizator qurishni, matnlarni sintaktik tahlil qiluvchi, gap bo'laklarini aniqlovchi parser dasturlarni yaratishni maqsad qilganmiz. O'zbek tilida gaplarni sintaktik tahlil qilish – gapning qurilishini aniqlash, gapdagi birliklarning vazifasini va tartibini belgilashdan iborat. O'zbek tilida gap tuzilishi modeli $\downarrow < \text{Aniqlovchi} > \oplus < \downarrow \text{Ega} > \downarrow \oplus < \text{To'ldiruvchi} > \downarrow \oplus < \text{Hol} > \oplus < \text{Kesim} >$ shaklida bo'ladi. Quyidagi chizma orqali aniqroq tasavvur qilish mumkin.



1-chizma. O'zbek tilida gap qurilishi

O'zbek tilida gap bo'laklarining so'z tartibi mavjud bo'lsa-da, ammo tilda so'zlarning erkin joylashuviga ko'ra yuqoridagi chizmadan farqli qurilishlarni kuzatish mumkin. O'zbek tilida so'z tartibida moslashuvchanlik tufayli gapni SOV tartibidan OSV tartibiga ham o'zgartirish mumkin. Masalan, Universitetga ko'pchilik talabalar kelishmadi kabi. Gapdagi so'zning tartibi o'zgarsa-da, sintaktik bo'lakning vazifasi o'zgarishsiz qoldi. Chunki birlikning sintaktik vazifasini ko'rsatib turuvchi morfologik shaklga ega bo'lishidir. Ba'zi bo'laklarning

tartibi o'zgarganda sintaktik vazifasi ham o'zgaradi, bu o'rinda so'z tartibi muhim rol o'ynaydi.

Parser dasturlarini qurishda bevosita POS teglash jarayoni muhim hisoblanadi. Chunki o'zbek tilida so'zlar orasidagi sintaktik munosabatlarni aniqlashda morfologik tuzilma muhim rol o'ynaydi. Chunki gap bo'laklari muayyan grammatik shakllarda keladi. Shuning uchun o'zbek tili ta'limiy korpusi uchun yaratilgan morfoanalizatorida barcha matnlar morfologik tegladi. Hozirda 14 ta so'z turkumi (POS) tegi mavjud bo'lib, ular 1-jadvalda ko'rsatilgan.

POS teg	Belgilanishi	POS teg	Belgilanishi
Ot	N	Ko'makchi	Il
Sifat	JJ	Yuklama	Prt
Fe'l	VB	Modal so'z	MD
Son	NUM	Undov so'z	UH
Ravish	RR	Taqld so'zlar	IM
Olmosh	P	Atogli otlar	NER
Bog'lovchi	C	Iboralar	IB

1-jadval. O'zbek tilidagi POS teglar ro'yxati (qisqa variant)

So'nggi yillarda turkiy tillarda tabiiy tilning sintaktik tahlili bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi, asosan, gapdagi so'zlar orasidagi sintaktik munosabatlarni aniqlash orqali uning grammatik tuzilishini ko'rsatadigan bog'liqlik tahlili (dependency parsing) dasturlari yaratildi. Bu ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) yoki qoidalarga asoslangan usullar orqali amalga oshirildi. Turkiy tillardan turk tilida METU sabanci, BOUN Treebank, BoAT annotatsiyalovchi dastur va BIMST Treebankini, uyg'ur tilida, qozoq tilida hamda qirg'iz tillarida yaratilgan UD formatidagi Treebanklarni misol sifatida keltirish mumkin.

Til	Treebank nomi	Tashkilot/ Manba	Izoh	Ma'lumotlari
Turk tili	METU-Sabanci Turkcha Treebank	ODTÜ (METU), Sabanci Universiteti	Eng katta Turk tili tahlil daraxtblaridan biri	Bu turk tilidagi birinchi dependency treebank bo'lib, 7,262 jumlani o'z ichiga oladi va morfologik hamda sintaktik teglashni o'z ichiga oladi. Universal Dependencies (UD) standartlari asosida.
Turk tili	BOUN Treebank	Bog'azichi Universiteti	UD standartiga moslashgan Turk tili treebanki	BOUN Treebank turk tilidagi qo'lda teglangan yangi treebank bo'lib, 9,761 jumlani o'z ichiga oladi. Bu treebankni yaratishda Universal Dependencies (UD) asos qilib olingan.
Turk tili	BoAT (Bogazici Annotation Tool)	Bog'azichi Universiteti	Turk tili sintaktik annotatsiyalovchi vosita	Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) uchun mo'ljallangan, sintaktik va semantik belgilash (annotatsiya) jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirishga yordam beradigan dasturdir.
Turk tili	BIMST (Bogazici-ITU-METU-Sabanci Treebank)	Bog'azichi, ITU, METU, Sabanci universitetlari	Katta hajmli birlashtirilgan treebank	Ushbu treebank IMST korpusining yangilangan versiyasi bo'lib, yangi teglash sxemasi asosida qo'lda qayta annotatsiyalangan 5,635 gapni o'z ichiga oladi.
Qirg'iz tili	UD Kyrgyz-KTMU	Qirg'iz-Turkiya Manas Universiteti (KTMU)	UD formatida annotatsiyalangan Qirg'iz tili treebanki	781 jumla (7.4K token)dan iborat. Lemmatizatsiya, morfologik teglash va sintaktik munosabatlarni qo'lda teglangan.
Qozoq tili	UD Kazakh KTB	L.N. Gumilyov nomidagi Yevroosiyo Milliy Universiteti (ENU)	Qozoq tilining UD formatidagi treebanki	UD loyihasi doirasida ishlab chiqilgan. Qozoq tilining morfologik va sintaktik xususiyatlarini aks ettiruvchi belgilangan (annotatsiyalangan) korpus.
Uyg'ur tili	UD Uyghur UDT	S.Mamitimin, M.Aili va boshqalar	Uyg'ur tili uchun UD formatidagi treebank	UD Uyghur UDT (Uyghur Universal Dependency Treebank) 3,456 ta gap va 40,236 ta token (so'z)dan iborat.

2-jadval. Turkiy tillarda mavjud treebanklar va teglash dasturlari

Turk tilida yaratilgan Sintaktik tahlil treebanki - METU-Sabanci dasturida 13 ta POS teg va Universal Dependencies (UD) modeli asosida ishlab chiqilgan 20 dan oshiq yaqin sintaktik munosabatlarni belgilovchi teg mavjud [1]. BoAT (Bogazici Annotation Tool) [2] annotatsiyalovchi dasturida 37 ta, uyg'ur tilida [3] 23 ta dependency tegi, qozoq tilida [4] 40 ta, qirg'iz tilida [5] 25 ta sintaktik tegi mavjud. Teglarining tuzilishi o'rganilganda ko'pchiligi UD standart teglaridan olingani va ba'zilar moslashtirilganini ko'rishimiz mumkin. O'zbek tili uchun ham ba'zi teglar tavsiya qilingan. Protégé texnologiyasi asosida o'zbek tilidagi sintaktik strukturalarni teglash uchun 11 ta sintaktik teglar tizimi taklif etilgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tabiiy tilni qayta ishlash bosqichlarida "Meaning-Text Theory" (MTT) nazariyasi tamoyillarini qo'llaganda holda tahlil qilish anchayin keng tarqalgan. Ma'no-Matn Nazariyasi (MTT) turli tillarni tahlil qilish va ishlov berish uchun qo'llanilgan universal lingvistik yondashuvlardan bo'lib, ayniqsa morfologik va sintaktik jihatdan murakkab tillarga mos keladi. Bu nazariya asosida MTT

tomonidan taklif qilingan ko'p qatlamli til modeli - Sem $\Leftrightarrow$ DSynt $\Leftrightarrow$ SSynt $\Leftrightarrow$ DMorph $\Leftrightarrow$ SMorph $\Leftrightarrow$ DPhon $\Leftrightarrow$ SPhon hisoblanadi. MTT ning ko'p qatlamli tabiati uni turli xil morfologik va sintaktik tizimlarga ega tillarga moslashtirish imkonini beradi. Shu bois, u ko'plab tillar uchun qo'llanilgan va yangi tillarga tatbiq etish imkoniyati ham mavjud. O'zbek tilida esa hali to'liq ishlab chiqilmagan. Sem $\Leftrightarrow$ DSynt $\Leftrightarrow$ SSynt $\Leftrightarrow$ DMorph $\Leftrightarrow$ SMorph $\Leftrightarrow$ DPhon $\Leftrightarrow$ SPhon modeli ko'p darajali model bo'lib, har bir bosqichda oldingi darajadagi tahlillash keying bosqich uchun xizmat qiladi, ya'ni fonetik annotatsiyalashdan semantik annotatsiyalashgacha bo'lgan bosqichni o'z ichiga oladi. O'zbek tilida ham morfologik teglash amalga oshirilgan va keyingi bosqichda gap bo'laklarini aniqlashda muhim hisoblanadi. Tadqiqotimizning hozirgi holatida o'zbek tili matnlarini sintaktik parsing qilish uchun 18 ta sintaktik teglar taklif qilinmoqda. Quyidagi jadvalda gap bo'laklarini teglash uchun ishlab chiqilgan teglar ro'yxatini ko'rish mumkin.

POS teg	Belgilanishi	POS teg	Belgilanishi
Ega	E	Hol	
Kesim		Ravish holi	RH
Ot-ketim	OK	Payt holi	PH
Fe'l-ketim	FK	O'rin holi	O'H
Aniqlovchi		Sabab holi	SH
Sifatlovchi-anqiqlovchi	SA	Maqsad holi	MH
Izohlovchi-anqiqlovchi	IA	Miqdor-daraja holi	MDH
Qaratqich-anqiqlovchi	QA	Kirish so'z	KS
To'ldiruvchi		Kirish birikma	KB
Vositali-To'ldiruvchi	VT	Kirish gap	KG
Vositasiz-To'ldiruvchi	VST	Undalma	U

3-jadval. O'zbek tilidagi sintaktik teglar ro'yxati (qisqa variant)

Tahlil va natijalar. O'zbek tili ham boshqa agglutinativ tillar qatori gapda asos va unga qo'shilgan qo'shimchalar to'plamidan iborat. Gaplar ma'lum sintaktik tuzilishga ega birikmalarni birlashtirish orqali emas, ko'proq grammatik shakllarni qo'shish va erkin so'z


tartibi orqali shakllanadi. Masalan, lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar so'zning lug'aviy ma'nosini o'zgartirmaydi, balki grammatik rolini aniqlaydi. Masalan: -ning qaratqich kelishidagi birliklar gapda qaratqich-aniqllovchi, -ni tushum kelishidagi so'zlar esa vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. Egalik qo'shimchasini olgan birliklar esa ega gap bo'lagi vazifasida keladi.

Grammatik qo'shimchalar	Misol	Gapdagi vazifasi
Wismar+egalik qo'shimchalari	Maktab+im katta.	Ega
Wismar+tushum kelishigi	Kitob+ni ber.	Vositasiz to'ldiruvchi
Wismar +jo'nalish kelishigi	Imtihon+ga ruxsat berilmadi.	Vositali to'ldiruvchi
Wismar +o'rin-payt kelishigi	Saytda xabarlar berilmagan.	Vositali to'ldiruvchi
Wismar+qaratqich kelishigi	Talabalar+ning hammasi keldi.	Qaratqich aniqllovchi
Wismar+ko'plik qo'shimchasi	Kelgan+lar baholandi.	Ega
Wfe'l+shaxs-son, zamon, mayl qo'shimchasi	Zavodda ishlashmayapti.	Kesim

4-jadval. Gaplarda gap bo'lagining uchrashi

Shuningdek, gapdagi birliklarning sintaktik munosabatlarini ham grammatik qo'shimchalar orqali aniqlash mumkin.

Masalan: "Lekin bugungi kunda Rossiyada talab kamaymoqda" gapini parsing qilib, gapdagi bo'laklarning vazifasini va sintaktik aloqalarini quyidagi chizma orqali tahlil qilish mumkin:




1-chizma. O'zbek tilida gapni dependency parsing qilish

Gapdagi har bir birlik grammatik shakliga ko'ra gap bo'lagi vazifasini bajarmoqda. Ammo gaplarda sintaktik aloqaga kirishmaydigan bo'laklar ham mavjud bo'ladi: -"lekin" bog'lovchisi [NONE] tegi bilan annotatsiyalandi, chunki bu birlik sintaktik aloqaga kirishmaydi, [CC] UD tegi bog'lovchilik munosabatini bildirgani uchun belgilangan; -"bugungi kunda" birikmasi gapda payt holi [H] gap bo'lagi bo'lib, "bugungi - kunda" {JJ va N} munosabati UD universal [amod] tegi bilan, "bugungi kunda - kamaymoqda" birikmasi dependency parsing tahliliga ko'ra tobe munosabatni ifodalab, [advmod] UD tegi bilan belgilangan; - "Rossiyada" o'rin-joy holi [H] gap bo'lagi bo'lib, "Rossiyada kamaymoqda" tobe munosabatli sintaktik aloqasi uchun [obl] UD tegi bilan belgilangan; -"talab kamaymoqda" birikmasida "talab" ega [E], "kamaymoqda" kesim [K] vazifasida kelgan, birgalikda ega-kesimlik tobe munosabatiga ko'ra [nsubj]


UD tegi bilan belgilangan;- barcha tinish belgilari [PUNCT] UD tegi bilan belgilanganligi sababli, nuqta ham xuddi shu shaklda annotatsiyalangan.

O'zbek tili murakkab morfologik tuzilishga ega tillardan biri hisoblanadi. Gapdagi birliklarning morfologik shakllari o'sha birlikning vazifasini aniqlashga yordam beradi. Masalan, ot so'z turkumidagi so'zlar bosh kelishik yoki ko'plik shaklida doim ega gap bo'lagi vazifasida kelishi, birliklar shaxs-son, zamon, mayl qo'shimchalarini olsa kesim vazifasida kelishi aniq. Parsing dasturini tuzishda qoidalarga asoslangan usullar orqali avtomatik sintaktik tahlil qilishda aynan mana shu kabi grammatik qoidalar muhim hisoblanadi. Ammo yuqori natijaga erishish mumkinligi shubhali. Misollar orqali ko'ramiz. Masalan,

Hujjat 25-mart kuni qabul qilingan.



Taqdir yo'llarini ochuvchi jurnal.



Yuqoridagi misollar orqali ko'rish mumkinki, 1-gapdagi ot so'z turkumidagi bosh kelishikdagi birlik qoidaga ko'ra ega bo'lib, 2-gapda esa ot so'z turkumidagi bosh kelishik shaklida ko'ringani bilan belgisiz qaratqich kelishigini olganligi sababli aniqllovchi vazifasida kelmoqda. 2-gapdagi "jurnal" so'zi bosh kelishikda bo'lsa-da, kelish o'rni va vazifasiga ko'ra ot-kesimdir. O'zbek tili grammatik qoidalariga ko'ra gaplar SOV shaklida bo'lsa-da, bu ham qoidalarga asoslangan usul orqali tuzilgan

dasturda yuqori natijani bermaydi. Chunki gap tuzilishi ham muloqat maqsadiga ko'ra o'zgarishi mumkin. MTT tomonidan taklif qilingan Sem ⇔ DSynt ⇔ SSynt ⇔ DMorph ⇔ SMorph ⇔ DPhon ⇔ Sphon ko'p qatlamli til modelining SSynt (surface syntactic) tuzilmasi orqali gaplarning sintaktik bo'laklari aniqlandi.

Tokzorni eslayman.	[[T]] [[K]]
Yaradorlar kasalxonaga yotqizilgan.	[[E]] [[H]] [[K]]
Yog'ochidan yaxshi mebel chiqarkan.	[[T]] [[A]] [[K]]
Biroq hech qachon xazina topilmagan.	[[H]] [[E]] [[K]]
Bu haqda EFE agentligi ma'lum qildi.	[[T]] [[E]] [[K]]
Hojatxonalar yo'qligi bitta masala.	[[A]] [[E]] [[A]] [[K]]
Rasmiylar namoyishchilar bilan kurashish uchun 13 ming politsiyachini safarbar qilgan.	[[E]] [[T]] [[A]] [[T]] [[K]]

5-jadval. Sodda gaplarning sintaktik tuzilishiga misollar

Yuqoridagi jadvalda sodda gaplarning sintaktik tuzilishi gap bo'laklarini parsing qilish orqali aniqlanganini ko'rish mumkin. Katta masshtabli matnlar yig'ilgan korpus orqali gaplarning turli tuzilmalarini tahlil qilish mumkin. Bu esa qoidalarga asoslangan $\downarrow < \text{Aniqllovchi} > \oplus < \downarrow \text{Ega} > \downarrow \oplus < \text{To'ldiruvchi} > \downarrow \oplus < \text{Hol} > \oplus < \text{Kesim} >$ modeli orqali tahlil dasturini qurish har doim ham o'zini oqlamasligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. O'zbek tilida parser dasturini yaratish uchun kamida 20 000 ta gapli korpus bo'lishi va bu

gaplar sintaktik analizatorida trening qilinishi kerak. Parser dasturida gap bo'laklarini belgilovchi 18 ta teg taklif qilinmoqda. Dependency parsing uchun UD universal teglarini moslashtirganda holda qabul qilinishi maqsadga muvofiq. MTT tomonidan taklif qilingan $\text{Sem} \Leftrightarrow \text{DSynt} \Leftrightarrow \text{SSynt} \Leftrightarrow \text{DMorph} \Leftrightarrow \text{SMorph} \Leftrightarrow \text{DPhon} \Leftrightarrow \text{Sphon}$ ko'p qatlamli til modelining SSynt (surface syntactic) tuzilmasi orqali gaplarni sintaktik tahlil qilish, modellarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Keyingi tadqiqotlarda o'zbek tilida sintaktik teglarni tanlash yuzasidan lingvistik tahlillar o'tkazilishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Atalay B. Nart, ets. All, Oflazer Kemal, Say Bilge. The Annotation Process in the Turkish Treebank. Proceedings of 4th International Workshop on Linguistically Interpreted Corpora (LINC-03) at EACL 2003.
2. Salih Furkan Akkurt, Bushra Marshan, Susan Uskudarli. BoAT v2 - A Web-Based Dependency Annotation Tool with Focus on Agglutinative Languages. ALTNLP2022: The International Conference on Agglutinative Language Technologies as a challenge of Natural Language Processing, June 6-8, 2022, Koper, Slovenia.
3. Mairehaba Aili va boshq. Universal dependencies for Uyghur. Proceedings of WLSI/OIAF4HLT, pages 44–50, Osaka, Japan, December 12 2016.
4. Aibek Makazhanov, Aitolkyn Sultangazina, Olzhas Makhambetov, Zhandos Yessenbayev. Syntactic annotation of Kazakh: following the universal dependencies guidelines. a report. 3rd International Conference on Computer Processing in Turkic Languages. Kazan, Tatarstan, 2015.
5. Benli Ibrahim, Sharshembayev Bakyt. Dependency Parsing Based Treebank for Kyrgyz Language. <http://ymerdigital.com/>
6. Abduraxmonova N. O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari. Monografiya. – Toshkent, 2021.
7. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
8. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). – Toshkent, 1995.



Mirshod ABDURAKHMONOV,
Shakhrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
E-mail: abdurahmonovmirshod@shdpi.uz

BuxDU dotsenti, PhD D.Xodjayeve. taqrizi asosida

MEANS OF EXPRESSING ERGONYMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This study looks at how ergonyms are described in English and Uzbek, emphasizing language structures, semantic traits, and cultural factors. It highlights the importance of ergonyms in cross-linguistic and sociocultural contexts by examining parallels and discrepancies in their creation, adaption, and usage.

Key words: Ergonyms, culture, language units, speeches, buildings, organization.

СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ЭРГОНИМОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данном исследовании рассматривается, как эргонимы описываются в английском и узбекском языках, с акцентом на языковые структуры, семантические характеристики и культурные факторы. Анализируются сходства и различия в их создании, адаптации и использовании, подчеркивая важность эргонимов в межкультурном и социокультурном контексте.

Ключевые слова: Эргонимы, культура, языковые единицы, речи, здания, организация.

“INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ERGONIMLARNI IFODALASH VOSITALARI”

Аннотация

Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek tillarida ergonimlarning tavsifi ko'rib chiqiladi, til tuzilmalari, semantik xususiyatlar va madaniy omillarga urg'u beriladi. Ularning yaratilishi, moslashuvi va qo'llanilishidagi o'xshashlik hamda farqlar tahlil qilinib, ergonimlarning tilaro va sotsiomadaniy kontekstdagi ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Ergonimlar, madaniyat, til birliklari, nutqlar, binolar, tashkilot.

Kirish. Jamiyatning tezkor urbanizatsiyasi va madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi shahar markazlarining rivojlanishiga yordam berdi va megapolislarning paydo bo'lishi uchun asos yaratdi. Natijada, aholi zich joylashgan hududlarda kundalik hayot uchun muhim bo'lgan do'konlar, maktablar, ta'lim markazlari, mehmonxonalar, shifoxonalar, kinoteatrlar, restoranlar, stadionlar, banklar va boshqa tashkilotlar kabi korxonalar, muassasalar va obyektlar soni sezilarli darajada oshdi. Ushbu tuzilmalar ichki tarmoqlarni tashkil qilishni ham boshladi. Ushbu tashkilotlar uchun mos nomlarni tanlash vazifasi tilshunoslik va ijtimoiy masalalar bilan bog'liq muhim masalaga aylandi. Natijada, nomlash jarayoni katta ahamiyat kasb etdi va jamiyat hamda marketing boshqaruvi uchun dinamik va istiqbolli soha sifatida nomlash xizmatlarining shakllanishini rag'batlantirdi. Ergonimik tuzilmalarning ikki tilda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan tavsiflash hamda uning asoslarni aniqlash uchun, ushbu tillar tarixiy, iqtisodiy va lingvistik-madaniy farqlar, shuningdek, umumiy o'xshashliklarga ega ekanligini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ushbu ergonimik tizimlarni qiyosiy o'rganish uchun tegishli lingvistik vaziyatlarning tipologik tahlilini o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ergonimik rivojlanishning turli yo'nalishlarda shakllanishiga turtki bo'lgan jamiyatdagi o'zgarish davrlarini aniqlash ham zarurdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. N.Mechkovskayaning fikricha, til vaziyati odatda muayyan hudud, siyosiy-hududiy birlik yoki davlat doirasida ma'lum bir jamiyatga (etnik guruh yoki ko'p millatli jamiyatga) xizmat qiluvchi tillar va ularning variantlaridan iborat til birliklari majmuasi sifatida tavsiflanadi. Boshqacha aytganda, ma'lum hududlarda til birliklari kommunikatsiyaning davomiy jarayonini ta'minlab beriladigan majmua sifatida qabul qilinadi. Tildagi holatlarni lingvistik tavsiflashda bir qator jihatlar hisobga olinadi, jumladan tillar (komponentlar) soni, ularning jamiyatda ishtirok darajasi (muvozanatli yoki nomuvozanatli), huquqiy maqomi, obro'si, muvozanati va tillarning o'zaro qarindoshligi darajasi hisobga olinadi.

O'zbekistonda o'zbek tillaridagi ergonimik tuzilmalarni aks ettirishda, xorijiy tillarning keng ko'lamda kirib kelishi, ko'p

tillikka o'tishga bilvosita namoyon bo'lyapti. Ingliz, rus, turk hamda arab tillardagi ergonimlar ulushi ortib bormoqda. Misol uchun: Toshkentdagi Beauty Salon (go'zallik saloni), Virgin Fitness (sog'lomlashtirish markazi), Cambridge School (xalqaro maktab), Samarqandagi Dvoretz kulturi (madaniyat uyi), Supermarket Korzinka (zamonaviy savdo majmuasi), Plov Xaus (Osh markazi), Buxorodagi Al-Fayruz (taqinchoq do'koni), Sofra (Turk restorani), Beta tea House (turk restorani), Hearts glad (shurunliklar do'koni) va h.k. Bu hodisa maqsadli til siyosatining aks etishi emas, balki til vaziyati o'z rivojlanish qonunlariga amal qilishi oqibatida yuzaga kelgan. Natijada, bu jarayon o'z-o'zidan millatlararo muloqot tili sifatida foydalanish darajasiga ko'tarilgan. Bu holatda, rus tili va ingliz tili ko'pchilik foydalanayotgan til sifatida, bunday mavqega ega bo'lgan. Ammo hozirgi kunda o'zbek tili O'zbekistonda davlat tili bo'lishiga qaramay, arab tili va arab madaniyati bilan bog'liq ergonimlar soni ortib bormoqda. Bu ergonimlar musulmon madaniyatiga xos belgilar (kiyim-kechak, zeb-ziynat, mebel, oziq-ovqat) bilan bog'liq bo'lgan aniq bir sektorni tashkil etadi va ulkan pragmatik potentsialga ega bo'ladi. Joy nomlarini onomastik tahlil qilish orqali tilshunoslar joy nomlarining madaniy and lingvistik hususiyatlarini aniq tushunishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz tilidagi ergonimlarga keladigan bo'lsak, asosan, barqaror komponentlar sifatida boshqaruv va liderlik shakliga ishoralar mavjud. Masalan, ko'pgina ingliz tilidagi ergonimlarda Royal, King, Crown, Great, Forward kabi so'zlar ishtiroki mavjud. Uzbekcha ergonimlarda esa oldingi sovet davridagi ideologik nomlar haligacha mavjud, ayniqsa, quyidagilar xalq orasida keng ishlatiladi: “Sputnik” (Toshkent shahridagi daha), “Tezekovka” (Toshkent shahridagi katta maishiy bozor), “Dom kino” (Toshkent shahridagi kinoteatr) va b.

P.Florenskiy ta'kidlashicha, tarixda ayrim davrlar bilan ma'lum ijtimoiy munosabatlar turi va ulardan kelib chiqadigan voqealar xarakteri bir biriga bog'liqlik kasb etadi. Jamiyat uchun inqiroz davrlarida (urushlar, inqiloblar) savdo binolari va ularning nomlari saqlanib qoladi. Ko'pincha ovqatlanish joylari va ularning nomlari saqlanib qoladi, biroq mehmonxonalar deyarli faoliyatini to'xtatadi, shuning uchun ularning nomlari deyarli muloqot

nutqida yo'qoladi. Bino saqlanib qolgan taqdirda ergotoponimlar qatoriga o'tishi yoki bino vayron bo'lgan taqdirda mnemonimlar turkumiga aylanishi mumkin. Masalan, Toshkent shahridagi "Chorsu" mehmonxonasi ergotoponim hisoblanadi, shuningdek, Toshkent shahridagi "Toshkent" mehmonxonasi hozirda mnemonim hisoblanadi. Tarixning inqirozli davrlarida odamlar mavjud narsalarni saqlab qolishga intiladi. Shu sababli yangi bino-joylarlar paydo bo'lmaydi, ergonimik nomlash jarayoni ham to'xtaydi. Iqtisodiy o'sish yoki ijtimoiy larzalardan keyingi tiklanish davrlarida binolar sonining o'sishi tabiiy, bu ularning nomlarini differensiyalashga olib keladi.

Ma'lumki, ergonim tushunchasi o'zbek tilining o'ziga xos, ko'p qirali va chuqur ma'no kasb etuvchi elementi bo'lib, uni faqatgina tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya yoki boshqa biror alohida fan nuqtai nazarida tahlil qilish murakkab jarayondir. Yana shuni eslatib o'tish kerakki, ergonimlar – bu biznes yoki jamoaviy birlashmalarning, shu jumladan muassasalar, korxonalarining o'ziga xos nomi sifatida ta'riflanadi. Boshqa onomastik birliklar kabi, ergonimlar ham shahar sharoitida odamlar tomonidan keng ishlatiladi. Ergonimlarning asosiy xususiyatlari dinamik rivojlanishda namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda o'zbek tilidagi ergonimlar ham ancha faol rivojlanishda namoyon bo'ldi. Ko'plab mahalliy korxonalar o'z nomlarini zamonaviylashtirish yoki xalqaro tendensiyalarga moslashtirish uchun o'zgartirdilar. Masalan, avvalgi sovet davridagi nomlarni (masalan, Magazin №1 yoki Gastronom) yangi va ommalashgan nomlarga (masalan, Korzinka, Makro va Havas) almashtirildi. O'zbek tilidagi ergonimlarning dinamik o'sishiga globallashuv, iqtisodiy islohotlar va madaniy yondashuv ham ta'sir ko'rsatdi. Bu hodisa urbanonimlar va gidronimlarning nisbatan barqarorligidan keskin farq qiladi hamda ergonimlarni jamiyatdagi o'zgarishlarning muhim lingvistik ko'rsatkichi sifatida namoyon qiladi. Masalan, Sovet davrida Lenin ko'chasi deb atalgan ko'chalar Mustaqillik ko'chasi kabi milliy o'zlikni aks ettiruvchi nomlarga o'zgartirilgan. Ammo bunday o'zgarishlar biznes nomlari kabi tez-tez sodir bo'lmaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, ergonimlarning o'ziga xosligi ularning lingvistik xususiyatlari bilan cheklanmaydi. Ularni turli fanlararo nuqtai nazardan o'rganish orqali til manzarasi, jamiyatda ustuvor bo'lgan qadriyatlar tizimi hamda shahar hayotidagi tarixiy va siyosiy voqealarning ta'sirini tahlil qilish orqali ham aks etadi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda, ergonimlarni o'rganish madaniy, axloqiy va hissiy til ishlatilish jihatlari

tadqiq etuvchi lingvokulturologiya, aksiologiya, lingvoekologiya, emotiologiya kabi ko'plab ilmiy yo'nalishlarning e'tiborini tortmoqda. So'nggi yillardagi tadqiqotlar va sotsiologik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi nomlar soni o'rtacha har yili taxminan 1% ga kamaymoqda va ularning o'rnini inglizcha so'zlar egallamoqda. Ushbu tendensiya inglizcha so'zlar bilan bir qatorda, ba'zida jargon va so'zlashuv tilidagi iboralar kirib kelishi sababli, til xususiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbek tilidagi ko'plab biznes nomlar ayniqsa, Toshkent shahri kabi yirik shaharlarda zamonaviy yoki xalqaro ko'rinish berish uchun o'z nomlarida inglizcha so'zlar yoki iboralardan foydalanishni afzal ko'rishmoqda, masalan, Qahva Vaqti - Coffee Time, Moda Uyi - Fashion House kabilar. Korxonalar va boshqa biznes guruhlarining nomlash an'analari, motivatsiyalari va uslublarini o'rganish nafaqat ularning umumiy xususiyatlarini, balki ular tashkil etilgan hududning o'ziga xos xususiyatlarini ham aniqlash imkonini beradi. Bu nafaqat tilshunoslik, balki mintaqaviy va madaniy xususiyatlarni tushunish uchun ham juda muhimdir. Ergonim birligi o'ziga xosdir, chunki u nom beruvchining yoki tashkilot egasining yashirin istaklarini o'zida mujassam etib, ma'lum bir xabarni yetkazadi. Uni nutq harakatining bir qismi yoki til belgisi sifatida, hatto konseptual birlik sifatida talqin qilish mumkin. Ammo ergonim til belgisi kabi shakl va mazmunga ega bo'lsa-da, bu jihatlari bir xil emas. Bu ayniqsa, ergonim bir nechta ma'nolarni o'zida mujassam etgan hollarda dolzarb bo'lib, bu uni avtomatik ravishda ma'lum bir g'oyaga aylantirmaydi. Ergonim birligi ma'nolar kesishuvida joylashgan dinamik element sifatida qaraladi va o'zbek yoki ingliz tili tizimining bir qismi sifatida butun ergonimik tizim kabi rivojlanadi. Uning boy axborot salohiyati zamonaviy ta'sir usullarini qo'llash, asosiy qadriyatlarini yetkazish va jamiyatdagi lingvistik hamda madaniy o'zgarishlarni aks ettirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Ergonim til tizimida alohida o'rin egallaydi. Uning fanlararo xususiyati, axborot boyligi va dinamik rivojlanishi uni boshqa onimlar guruhlaridan ajratib turadi. Ergonim birliklarini chuqur tahlil qilish orqali til manzarasini tadqiq etish, madaniy qadriyatga oid xususiyatlarni o'rganish hamda tilning umumiy holati va ekologik ahvolini baholash imkoniyati paydo bo'ladi. O'zbekistonda ergonimlar globallashuv, iqtisodiy islohotlar va madaniy o'zgarishlar ta'sirida dinamik rivojlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Бутакова Е. С. Эргонимы иноязычного происхождения в коммуникативном пространстве города: автореф. дис. ...канд. филол. наук: 10.02.01 / Бутакова Екатерина Сергеевна. – Томск, 2013. – 27 с.
2. Florensky P. A. The Pillar and Ground of the Truth: An Essay in Orthodox Theodicy in Twelve Letters. – Princeton University Press, 1998.
3. Мечковская Н.Б. Социальная лингвистика: Пособие для студентов гуманитар. вузов и учащихся лицеев. — 2-е изд., испр. – М.: Аспект Пресс, 2000. – С.101.
4. Saparniyazova M. Structural-semantic classification of ergonyms of the Uzbek language. – European organization for nuclear research, 2023.



Gulshoda AVLOYOROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: avloyorovagulshoda@gmail.com

QarDU dotsenti, PhD M.Nizomova taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SHAXS ISMLARINING AKSIOLEKTUAL O'ZIGA XOSLIKLARI HAMDA TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqola o'zbek va ingliz shaxs ismlarining aksiolingvistik o'ziga xosliklarini va ularning tilshunoslik sohasidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Ismlar jamiyatning madaniy, tarixiy va diniy qadriyatlarini aks ettiruvchi vosita sifatida qaraladi. O'zbek va ingliz ismlarining semantik, fonologik, morfologik va pragmatik xususiyatlari solishtirilib, ularning har ikki tildagi umumiyliklari va farqlari ochib beriladi. **Kalit so'zlar** : Shaxs ismlari, aksiolingvistik, o'zbek ismlari, ingliz ismlari, lingvistik tahlil, madaniy qadriyatlar, semantika, fonologiya, morfologiya.

AXIOLEXTUAL PROPERTIES AND SIGNIFICANCE OF PERSONAL NAMES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES IN LINGUISTICS

Annotation

This article analyzes the axiolectual characteristics of Uzbek and English personal names and their significance in the field of linguistics. Names are viewed as tools reflecting the cultural, historical, and religious values of society. The semantic, phonological, morphological, and pragmatic features of Uzbek and English names are compared, highlighting both the similarities and differences between the two languages.

Key words: Personal names, axiolectual, Uzbek names, English names, linguistic analysis, cultural values, semantics, phonology, morphology.

АКСИОЛЕКТУАЛЬНЫЕ СВОЙСТВА ЛИЧНЫХ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

Данная статья анализирует аксиолингвистические особенности узбекских и английских личных имён и их значение в области лингвистики. Имена рассматриваются как средство, отражающее культурные, исторические и религиозные ценности общества. Сравниваются семантические, фонологические, морфологические и прагматические особенности узбекских и английских имён, подчёркиваются их сходства и различия.

Ключевые слова: Личные имена, аксиолингвистика, узбекские имена, английские имена, лингвистический анализ, культурные ценности, семантика, фонология, морфология.

Kirish. Shaxs ismlari insonning nafaqat shaxsiy belgisi bo'libgina qolmay, balki jamiyatdagi o'rini ham belgilovchi muhim vosita hisoblanadi. Shaxs ismlari boy madaniy, ijtimoiy va lingvistik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan shaxsning kuchli belgisi bo'lib xizmat qiladi. Shaxslarga atab qo'yilgan bu ismlar xalqning madaniy merosi, an'analari va qadriyatlarini ham aks ettiradi. O'zbek va ingliz tillarida shaxs ismlarining aksiolingvistik o'ziga xosliklarini tahlil qilish orqali har ikki madaniyatning tilshunoslikka oid xususiyatlarini o'rganish mumkin. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tilidagi shaxs ismlarining aksiolektual xususiyatlari o'rganilib, ularning o'xshash va farqli tomonlari yoritiladi hamda tilshunoslik sohasida qanday ifodalanishi o'rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolaning mavzusiga oid ilmiy manbalar va adabiyotlar shaxs ismlarining lingvistik, madaniy va semantik xususiyatlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masala yuzasidan bir necha ingliz va o'zbek olimlari turli tadqiqotlar olib borishgan, xususan, ingliz olimi Jon Antrobus 2012-yilda chop etilgan "Shaxs ismlarining madaniy ahamiyati" (The cultural significance of personal names) nomli risolasi shaxs ismlarining madaniy ahamiyati o'rganilgan. Ushbu manba shaxs ismlarining tarixiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi vosita bo'lib, o'zbek va ingliz tilidagi shaxs ismlarining madaniy kontekstdagi rolini tahlil qilishga asos bo'la oladi. Shuningdek, britaniyalik olim Devid Kristal 2005-yilda "Ismlar va ularning lingvistik asoslari" (Names and their linguistic foundations) nomli kitobini chop ettiradi, ushbu kitob ismlarning lingvistik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Asarda shaxs ismlarining semantik va fonologik jihatlari chuqur tahlil qilinib, bu boradagi o'zgarishlar va

tendensiyalar yoritib berilgan. Ingliz tilidagi shaxs ismlari haqidagi bu bilimlar maqola uchun qimmatli hisoblanadi. 2020-yilda o'zbek olimi G'aniyev B. o'zining "O'zbek shaxs ismlarining etimologiyasi" nomli asarida o'zbek shaxs ismlarining tarixiy ildizlari va semantik ma'nolari keng ko'lamda yoritib bergan. Muallif ismlar orqali xalqning madaniy merosini tahlil qilib, ularning lingvistik va ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatadi. Bu maqola uchun o'zbek ismlarining o'ziga xos jihatlari ochib berishda asos bo'ladi. Hayitov G. esa 2021-yilda "Shaxs ismlarining madaniy va semantik xususiyatlari" nomli maqolasida o'zbek shaxs ismlarining madaniy va semantik jihatlari yoritib bergan. Ismlarning ma'no qatlamlari va ularning jamiyatdagi o'rni haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu adabiyotlar shaxs ismlarining lingvistik va madaniy tahliliga oid ilmiy asos yaratadi va maqolada yoritilgan mavzuni chuqurroq anglashga imkon beradi. Shuningdek, ushbu manbalar orqali o'zbek va ingliz tillaridagi shaxs ismlarining umumiyliklari va farqlari haqida batafsil ma'lumot olish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o'zbek va ingliz shaxs ismlarining aksiolingvistik xususiyatlarini o'rganish uchun qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Adabiyotlarni o'rganish. Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy manbalar, kitoblar va maqolalar tahlil qilindi. Ushbu adabiyotlar orqali o'zbek va ingliz tillarida shaxs ismlarining semantik, fonologik va madaniy xususiyatlari haqida ma'lumotlar yig'ildi.

Qiyosiy tahlil. O'zbek va ingliz tillaridagi shaxs ismlarining morfologik, semantik va pragmatik jihatlari taqqoslandi. Bu jarayonda har ikki tilning madaniy va tarixiy o'ziga xosliklari hisobga olindi.

Misollar yig'ish: O'zbek va ingliz shaxs ismlaridan olingan misollar lingvistik jihatdan tahlil qilindi. Bu usul orqali har ikki tilning ismlaridagi umumiylik va farqlarning asosiy sabablarini aniqlashga imkon berildi.

Aksiologingvistik yondashuv: Shaxs ismlarining madaniy qadriyatlar va ijtimoiy ahamiyat bilan bog'liqligi o'rganildi. Ushbu yondashuv ismlar orqali har ikki xalqning madaniy qadriyatlari va an'analari tahlil qilishga yordam berdi.

Ilmiy ma'lumotlarning tahlili: Statistik ma'lumotlar va ilmiy tadqiqot natijalari asosida olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, mavzuga oid xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar o'zbek va ingliz tillaridagi shaxs ismlarining lingvistik va madaniy jihatlarini chuqur o'rganishga, ularning umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlashga yordam berdi.

creative exploitation of convention-bound syntagmatic relations within text structure. Cook (1994) introduces a helpful connection between the dynamic perception of meaning and the formalist term of foregrounding. Typically involving a deviation from norm, foregrounding is a fashion of textual patterning the reason of which is usually an attempt to defamiliarize the content of a message and thus achieve the intended aesthetic purposes. The idea of defamiliarization introduced by Shklovsky seeks the nature of art in its ability to make reality look strange, which objective should be achieved by means of linguistic inventiveness. This artistic demand points to the adequateness of poetic style for the literary discourse, which by its nature is concentrated on the forms and employed stylistic devices. The salient elements are also more distinguishable from the surrounding elements and attract more attention.

One of the key notions involved in the discussion of the relation between source and target texts is equivalence, a term introduced by Roman Jakobson and developed subsequently by other researchers. Isolating three types of translation – intralingual, interlingual and intersemiotic, Jakobson drew a parallel between equivalence and synonymy, pointing to the fact that it is probably impossible to achieve perfect equivalence, just like no perfect synonyms can be found in language. Therefore, a translator should strive to achieve equivalence in difference. At this stage, the difference was perceived mostly in terms of grammatical and lexical variations. It is noteworthy, however, that having defined possible obstacles on the way to producing equivalent translations, Jakobson failed to provide an unambiguous definition of equivalence itself. The question of procedures leading to the relation of source and target texts defined by Jakobson has been addressed by numerous researchers, resulting in various theories and conclusions. One of the most influential insights into the issue has been provided by Eugene Nida, who departed from the tendency to perceive meaning as a permanent property of verbal forms and based his research on the functional definition of meaning. Nida introduced a distinction between a formal and a dynamic type of equivalence, the first of which is concerned with the form of a message, whereas the second with the source meaning. This typology has emerged from the reflection that it is rarely possible to render both aspects of a message simultaneously, which stems from structural differences between languages. The task of a translator is, therefore, to analyze the intentions of an author, to isolate the factors influencing the final shape of a message and to establish their role in its creation, thus assigning priority to either form or meaning so as to facilitate the translation process whose result would evoke a reaction of the target reader parallel to that of the source reader. In his later work. The theory and practice of translation compiled with Charles Taber in 1982, Nida highlighted the precedence of meaning over structure, calling for the departure from form in the instances where it would contribute to the naturalness of expression and comprehensibility of the text. Thus, the principles of equivalent meaning and response have been assigned as priorities in translation and an approach alternative to the strictly formal one has been introduced.

Conclusion. The translation of internet neologisms in Uzbek and English reflects the dynamic nature of language evolution in the digital age. While English often serves as the primary source for new technological and online terms, Uzbek adapts these neologisms through direct borrowing, phonetic adaptation, or semantic translation. The challenge lies in maintaining linguistic clarity and cultural relevance while ensuring comprehension among users.

REFERENCES

1. Jakobson, Roman: Closing statement: Linguistics and poetics. In: Sebeok, Thomas A., (ed.): Style in language. New York: The Technology Press of Massachusetts Institute of Technology and John Wiley & Sons 1960. Pp. 350–377.
2. Waugh, Linda R: The poetic function in the theory of Roman Jakobson. In Poetics (1980) pp 57-82.
3. Lewandowska-Tomaszczyk, Barbara: Konstruowanie znaczeń i teoria stapiania. Pp. 7–35
4. Lucas, S. E. (2007). The Art of Public Speaking (9th ed.). Boston: McGraw Hill. (78-90)
5. Nunan, D. (1989). Designing Tasks for the Communicative Classroom. Cambridge: Cambridge University Press. 213-219
6. Miles R., "Issues related to teaching oral presentations in Japanese universities," in Proc. JALT Conf., 2013, pp. 422-427
7. Harmer, J. (2001). The practice of English language teaching. (3rd ed.). Harlow: Pearson Education Limited. (78-84)
8. Tkachenko V., "Teaching presentation skills to students of business English," Financial Space, vol. 4, no. 16, pp. 231-234, 2014.



UDK: 8-1751-82-82-0

Akmal DAVRANOV,
TDYU qoshidagi M.Vosiqova nomidagi yuridik akademik litseyi o'qituvchisi
E-mail: akmal.88davron@gmail.com

Ilmiy rahbar prof. I.Rustamov taqrizi bilan

UTOPIK VA FOLKLOR MATNLARIDA IDEAL JAMIYAT KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI

Аннотация

Maqolada utopik va folklor matnlarida ideal jamiyat konsepsiyasining shakllanishi tahlil qilinadi. Folklor matnlari, xususan, ertaklar, afsonalar va eposlarda ideal jamiyat tushunchasi ko'proq ramziy va afsonaviy obrazlar orqali ifodalangan bo'lsa, utopik adabiyotda u ilmiy va falsafiy yondashuv asosida shakllangan. Ideal jamiyat g'oyasi insoniyat tarixining turli bosqichlarida o'zgarib, jamiyat ehtiyojlari va madaniy qadriyatlar asosida shakllangan. Ishda Platon, Tomas Mor, Tomazo Kampanella kabi mutafakkirlarning utopik qarashlari va ularning folklor motivlari bilan o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, ideal jamiyat tushunchasining tarixiy rivojlanishi, uning zamonaviy talqinlari va ijtimoiy hayotdagi ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Utopiya, folklor, ideal jamiyat, ertaklar, afsonalar, falsafa, utopik adabiyot, Platon, Tomas Mor, Tomazo Kampanella, madaniyat, tarix, ijtimoiy konsepsiya, antiutopiya, afsonaviy motivlar.

ФОРМИРОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ ИДЕАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА В УТОПИЧЕСКИХ И ФOLKLORНЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация

В статье анализируется формирование концепции идеального общества в утопических и фольклорных текстах. В фольклорных текстах, в частности, сказках, легендах и эпосах, концепция идеального общества выражена больше через символические и мифические образы, тогда как в утопической литературе она формируется на основе научно-философского подхода. Идея идеального общества менялась на разных этапах человеческой истории и формировалась на основе потребностей и культурных ценностей общества. В работе освещаются утопические взгляды таких мыслителей, как Платон, Томас Мор, Томмазо Кампанелла и их связь с фольклорными мотивами. Также рассматривается историческое развитие концепции идеального общества, ее современные интерпретации и влияние на общественную жизнь.

Ключевые слова: Утопия, фольклор, идеальное общество, сказки, мифы, философия, утопическая литература, Платон, Томас Мор, Томмазо Кампанелла, культура, история, социальная концепция, антиутопия, мифологические мотивы.

THE FORMATION OF THE IDEAL SOCIETY CONCEPT IN UTOPIAN AND FOLKLORE TEXTS

Annotation

The article analyzes the formation of the ideal society concept in utopian and folklore texts. In folklore texts, in particular, fairy tales, legends and epics, the concept of an ideal society is expressed more through symbolic and mythical images, while in utopian literature it is formed on the basis of a scientific and philosophical approach. The idea of an ideal society has changed at different stages of human history and has been formed on the basis of the needs and cultural values of society. The work highlights the utopian views of thinkers such as Plato, Thomas More, Tommaso Campanella and their connection with folklore motifs. The historical development of the concept of an ideal society and its modern interpretations and influence on social life are also considered.

Key words: Utopia, folklore, ideal society, fairy tales, myths, philosophy, utopian literature, Plato, Thomas More, Tommaso Campanella, culture, history, social concept, dystopia, mythological motifs.

Kirish. Jamiyat tarixida ideal ijtimoiy tuzum haqidagi tasavvurlar inson tafakkurining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Turli madaniyat va sivilizatsiyalar o'z tarixiy tajribasi asosida mukammal jamiyat haqidagi qarashlarini shakllantirganlar. Bu idealistik tasavvurlar odatda ikki asosiy manbada – folklor va utopik adabiyotda aks etgan. Folklor matnlari xalq ongida shakllangan va avloddan-avlodga o'tib kelgan mifologik, diniy hamda epik an'analarga asoslangan bo'lsa, utopik adabiyot esa ko'proq falsafiy va ijtimoiy tahlillarga tayangan holda ideal jamiyat modelini yaratishga intilgan.

Utopiya tushunchasi qadimgi davrlardan beri mavjud bo'lib, ilk bor Platonning "Davlat" [1] asarida ideal jamiyat modeli sifatida nazariy asoslangan. Keyinchalik Tomas Morning "Utopiya" asari orqali bu atama adabiy janr sifatida shakllanib, keyingi davrlarda turli adabiyot namoyandalari tomonidan rivojlantirilgan. Folklorida esa ideal jamiyat ko'pincha farovonlik, adolat va tinchlikka asoslangan, yerdagi jannat yoki oltin asr tushunchalari orqali ifodalangan. Masalan, Sharq xalqlari ertaklarida yo'qolgan jannatga intilish, G'arb mifologiyasida esa Eldorado yoki Avalon kabi afsonaviy joylar orqali mukammal jamiyat obrazi yaratib kelingan.

Ideal jamiyat konsepsiyasining folklor va utopik matnlardagi talqini tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillarga bog'liq holda shakllangan. Har bir davr o'zining ijtimoiy haqiqatlariga

mos ravishda utopik tasavvurlarni qayta talqin qilgan. Utopik matnlari ijtimoiy muammolarni tanqid qilish va alternativ yechimlarni taklif qilishga xizmat qilgan bo'lsa, folklor matnlari esa xalqning umid va orzularining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili. Utopik va folklor matnlaridagi ideal jamiyat konsepsiyasi turli manbalar asosida shakllangan bo'lib, uning rivojlanish jarayonini o'rganishda adabiyotlarning roli beqiyosdir. Platonning "Davlat" [1] asarida tasvirlangan ideal jamiyat modeli keyinchalik G'arb falsafasi va utopik adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Utopik adabiyotning yirik vakillaridan biri Tomas Morning "Utopiya" [2] asari bo'lib, unda mukammal jamiyat obrazi tasvirlangan va mavjud ijtimoiy tuzum tanqid qilingan. Shuningdek, Frensis Bekonning "Yangi Atlantida" [3] asari ham utopik jamiyat qurilishining falsafiy asoslarini yoritadi.

Sharq va G'arb folklorida esa ideal jamiyat motivi ko'plab ertak, afsona va dostonlarda aks etgan. Masalan, Eron mifologiyasidagi Jamshid podshoh [4] davrida hukmronlik qilgan "oltin asr" tasviri, turkiy xalqlarning "Ergenekon" afsonasi yoki o'zbek xalq ertaklaridagi obrazlar barchasi ideal jamiyat haqidagi folkloristik qarashlarning namunalaridir. Shuningdek, Xitoy madaniyatida "Taoist jannat" [5] tushunchasi va Hind mifologiyasidagi "Satya Yuga" [6] konsepsiyasi ham mukammal jamiyat haqidagi qadimiy tasavvurlarni ifodalaydi.

Utopik adabiyot tarixiga nazar tashlasak, Tomas More va Frensis Bekondan tashqari, Tommazo Kampanellaning "Quyosh shahri" [7] asari ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu asarda ijtimoiy tenglik, umumiy mulk va axloqiy yetuklik asosida qurilgan jamiyat modeli tavsiflanadi. Shuningdek, etnik va diniy utopiylarni aks ettirgan Jeyms Harringtonning "Oceana" [8] asari ham utopik fikrlash taraqqiyotiga hissa qo'shgan. Shuningdek, utopik va antiutopik adabiyotlar qiyosiy tahlili orqali ideal jamiyat konsepsiyasining evolyutsiyasini kuzatish mumkin. Masalan, Jorj Oruellning "1984" [9] va Oldos Hakslining "Ajoyib yangi dunyo" [10] asarlari utopik ideal tushunchalarining teskari, ya'ni distopik shakllarini aks ettirib, jamiyat muammolariga yangi nuqtai nazar bilan yondashgan. Yana bir misol sifatida Evgeniy Zamyatinning "Biz" [11] asari ham utopiyaning radikal boshqaruv tizimi shaklidagi ogohlantiruvchi talqinini taklif qiladi. Shuningdek, zamonaviy utopik asarlar orasida Ernest Kallenkofning "Ecotopia" [12] asari ekologik uyg'unlikka asoslangan ideal jamiyat modelini tasvirlaydi.

Natija va muhokamalar. Utopik va folklor matnlarida ideal jamiyat konsepsiyasi o'ziga xos usullarda shakllangan bo'lsa-da, ularning asosiy mohiyati jamiyatning axloqiy va ijtimoiy qadriyatlariga asoslanadi. Folklor matnlari asosan og'zaki an'analar tayanib, xalqning tarixiy xotirasi va dunyoqarashini aks ettirsa, utopik adabiyot ilmiy, falsafiy va siyosiy qarashlar asosida ideal ijtimoiy tuzilmani izohlashga intiladi.

Folklor matnlarida ideal jamiyat, odatda, ertaklar, dostonlar va afsonalar orqali ifodalanadi. Ushbu matnlarda yovuzlik ustidan yaxshilik g'alaba qozonishi, adolatli hukmdorlar tomonidan boshqariladigan mamlakatlarning mavjudligi va barcha insonlar teng huquqlarga ega bo'lgan jamiyat tasvirlanadi. Bu motivlar xalqning tarixiy tajribalaridan kelib chiqib shakllangan bo'lib, ideal jamiyatni tasavvur qilishda axloqiy qadriyatlarga asoslangan. Masalan, turkiy xalq og'zaki ijodida "Oltin asr" tushunchasi keng uchraydi. Bu ideal davr sifatida tasvirlanadi, unda jamiyat barqaror, tabiiy resurslar yetarli va insonlar o'zaro mehr-oqibatli bo'lishadi.

Ba'zi folklor motivlari utopik elementlarga boy bo'lib, bu yerda jismoniy va ma'naviy barkamollikka erishish jarayoni ko'rsatiladi. Bunday matnlarda real jamiyatdagi kamchiliklar tanqid qilinadi va xalqning orzu-umidlari aks etadi. Ko'pincha, qahramon ideal jamiyat sari sayohat qilib, u yerda mavjud adolat va barqarorlikni ko'rib hayratlanadi. Bu ideal obraz folklor matnlarining utopik adabiyotga yaqinlashishining yorqin misollaridan biridir.

Boshqa tomondan, utopik matnlar falsafiy va ijtimoiy muhokamalar asosida ideal jamiyatni tasvirlashga intiladi. Utopik adabiyot tarixan insoniyatning mavjud ijtimoiy tuzilmalar va ularning kamchiliklarini tahlil qilish hamda yangi, mukammal tizimlarni tavsiya etish uchun yaratilgan. Masalan, Tomas Morning "Utopiya", Platonning "Davlat", Tomazo Kampanellaning "Quyosh shahri" kabi asarlarida ideal jamiyat konsepsiyasi davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlar jihatidan izohlanadi. Utopik matnlarda shaxsiy mulkning yo'qligi, barcha insonlar tengligi va ilm-fanning rivojlanishi asosiy g'oyalar sifatida ilgari suriladi.

Folklor va utopik matnlarning ideal jamiyatni tasvirlash usullari turlicha bo'lsa-da, ularning maqsadi umumiy – insoniyatning adolatli va farovon hayotga intilishini aks ettirish. Folklor matnlari buni afsonalar va dostonlar orqali ramziy va obrazli shaklda ifodalasa, utopik matnlar ideal jamiyatni aniq siyosiy va iqtisodiy model sifatida ko'rsatishga intiladi.

Folklor va utopik matnlarni taqqoslashdan ma'lum bo'ladi, har ikki turdagi matnlar jamiyat uchun ahamiyatli g'oyalarni ilgari suradi, jumladan: 1. Axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar – Folklor matnlarida ideal jamiyat odob-axloq qoidalariga asoslangan bo'lsa, utopik matnlarda bu tushuncha siyosiy va iqtisodiy nazariyalar bilan mustahkamlanadi. 2. Tasavvur va realizm – Folklor matnlarida ideal jamiyat ko'pincha afsonaviy yoki sehrli dunyo sifatida tasvirlanadi, utopik matnlarda esa aniq ijtimoiy tuzilmalar taklif qilinadi. 3. Kritik tahlil – Utopik adabiyotda mavjud jamiyat tanqid qilinib, yangi model taklif etiladi, folklor matnlarida esa mavjud jamiyatdan norozilik ramziy obrazlar orqali ifodalanadi.

Folklor va utopik matnlarning o'zaro bog'liqligi chuqur tarixiy va madaniy ildizlarga ega. Folklor matnlari xalqning orzu-umidlarini saqlab kelgan bo'lsa, utopik matnlar bu orzularni amalga oshirishga qaratilgan nazariyalarni ishlab chiqadi. Kelajakda ushbu mavzuni yanada kengroq o'rganish orqali folklor va utopik matnlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ularning zamonaviy utopik konsepsiyalar bilan bog'liqligini tahlil qilish mumkin. Xususan, zamonaviy ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan ideal jamiyat haqidagi qarashlar qanday o'zgarayotgani, folklor motivlarining bugungi kunda utopik g'oyalar bilan qanday bog'lanayotgani chuqur tadqiqot talab etadi hamda folklor va utopik matnlar ideal jamiyat konsepsiyasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Folklor matnlari orqali bu tushuncha xalqning madaniy merosida saqlanib kelgan bo'lsa, utopik adabiyotda esa bu g'oyalar yangi shakllar va konsepsiyalar asosida takomillashtirilgan. Ushbu o'xshashlik va tafovutlarni tahlil qilish kelajakda jamiyat taraqqiyotining qaysi yo'nalishda rivojlanishini tushunishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Utopik va folklor matnlarida ideal jamiyat konsepsiyasi turli uslub va yondashuvlar bilan ifodalanagan bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi jamiyatning mukammal tuzilmasini aks ettirish va insonlarning intilishlarini ifodalashdan iboratdir. Folklor matnlarida ideal jamiyat tushunchasi asosan og'zaki an'analar, afsonalar va ertaklar orqali tasvirlanadi. Bu matnlarda odatda, adolatli hukmdor, jamoaviy totuvlik, tabiiy farovonlik va axloqiy poklik asosiy xususiyatlar sifatida ko'rsatiladi.

Boshqa tomondan, utopik matnlar ideal jamiyatni ilmiy-falsafiy yondashuvlar orqali tasvirlaydi. Ular mavjud jamiyatning kamchiliklarini tahlil qilib, muqobil ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tuzilmalarning imkoniyatlarini ilgari suradi. Tomas Morningning "Utopiya", Platonning "Davlat", Tomazo Kampanellaning "Quyosh shahri" kabi asarlari ideal jamiyatni mukammal boshqaruv tizimi, tenglik va adolat asosida shakllangan model sifatida talqin qiladi.

Folklor va utopik matnlarning umumiy xususiyatlaridan biri shundaki, ularning har ikkisi real hayotdagi ijtimoiy, axloqiy va siyosiy muammolarni aks ettiradi va ideal jamiyat haqidagi qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq, folklor matnlarida ideal jamiyat ko'proq ramziy tasvirlarga asoslangan bo'lsa, utopik matnlarda u aniq konsepsiyalar va tizimli tahlillar bilan ifodalanadi.

Ushbu mavzuni yanada chuqurroq o'rganish va ideal jamiyat konsepsiyasining rivojlanish dinamikasini tushunish uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borish taklif etiladi:

– An'anaviy folklor motivlarining zamonaviy utopik va antiutopik asarlarga qanday ta'sir ko'rsatganini tahlil qilish zarur. Ayniqsa, zamonaviy fantastik adabiyot va ilmiy-fantastik utopiylar folklor elementlaridan qanday foydalanayotgani haqida tadqiqotlar olib borish muhim;

– Zamonaviy antiutopiylar, masalan, Jorj Oruellning "1984", Oldos Hakslining "Yangi jasur dunyo", Rey Bredberining "Farengeyt 451" kabi asarlari ideal jamiyatning qarama-qarshi modelini taqdim etadi. Bu asarlar folklor va an'anaviy utopiylarga qanday bog'liq ekanini bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhim;

– Tarix davomida ba'zi jamiyatlar utopik g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishga uringan. Masalan, ijtimoiy tajribalar va eksperimentlar orqali ideal jamiyat qurishga intilgan harakatlar (masalan, sotsializm, kommunitarizm va boshqalar) qanday natijalar berganini o'rganish foydali bo'lishi mumkin;

– Bugungi dunyoda ilm-fan va texnologiya rivoji ideal jamiyat haqidagi qarashlarni qanday o'zgartirayotgani alohida e'tibor talab qiladi. Sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan iqtisodiyot, virtual dunyo va yangi ijtimoiy tuzilmalar qanday qilib zamonaviy utopik va antiutopik qarashlarga ta'sir qilayotganini o'rganish muhim;

– Dunyoning turli mintaqalarida folklor va utopik matnlar orqali ideal jamiyat qanday tasvirlanganini taqqoslash va umumiy xususiyatlarni aniqlash orqali ushbu mavzuga kengroq nazar tashlash mumkin. Masalan, Sharq va G'arb madaniyatlarida utopik g'oyalar qanday shakllanganini o'rganish qiziqarli bo'lishi mumkin;

– Folklor va utopik matnlarni yosh avlodga targ'ib qilish, ularning jamiyatdagi rolini o'rganish orqali ideal jamiyat tushunchasini yanada rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, maktab va universitet dasturlarida ushbu mavzuga ko'proq e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

Utopik va folklor matnlaridagi ideal jamiyat konsepsiyasini o'rganish ijtimoiy, madaniy va falsafiy jihatdan

katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot ideal jamiyat haqidagi tasavvurlarni chuqurroq tushunishga, insoniyat tarixidagi utopik qarashlarning ildizlarini aniqlashga hamda ularning zamonaviy ta'sirini o'rganishga yordam beradi. Kelgusida utopik va folklor matnlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni, ularning jamiyat rivojiga ta'siri va zamonaviy konsepsiyalar bilan bog'liqligini chuqurroq tadqiq qilish dolzarb mavzulardan sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Platon. Davlat (Respublika). Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2015. https://www.civisbook.ru/files/File/Platon_Gosudarstvo.pdf
2. Morus, T. Utopiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. <https://www.neliti.com/publications/336238/francis-bacon-principles-and-hisphilosophy>
4. <https://www.britannica.com/biography/Francis-Bacon-Viscount-Saint-Alban>
5. <https://www.grandars.ru/college/filosofiya/filosofiya-frensisa-bekona.html>
6. <http://www.library.fa.ru/exhib.asp?id=1>
7. Ghazzal Dabiri. The Origins and Development of Persian Epics. Adissertation submitted in partial satisfaction of their quirements for the degree Doctor of Philosophy in Near Eastern Languages and Cultures University of California, Los Angeles: 2007. 211 r.
8. 吴述申 "History of painting and weaving in China". People's Publishing House. 1986 year, 299 pages.
9. Е. Темкин. Мифы Индии. -Москва: Наука, 1982.
10. Kampanella, T. Quyosh shahri. Moskva: Nauka, 1980.
11. James Harrington The Commonwealth of Oceana (/oʻʊˈsiːənə/ oh-SEE-ə-nə), published 1656, is a work of political philosophy by the English politician and essayist (1611–1677). https://en.wikipedia.org/wiki/The_Commonwealth_of_Oceana
12. Oruell, J. 1984. Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2018.
13. Aldous Huxley Brave new world ilmiy-fantastika, antiutopiya, falafiy roman 1932 Chatto & Windus. <https://asarlar.uz/kitob/ajib-yangi-dunyo>
14. <https://www.google.co.uz/books/edition/%D0%9C%D1%8B/aibUDwAAQBAJ?hl=ru&gbpv=1&printsec=frontcover>
15. Ecotopia: The Notebooks and Reports of William Weston is a utopian novel by Ernest Callenbach, published in 1975.



Наргиза ЕСЕМУРАТОВА,

Базовый докторант Каракалпакского научно-исследовательского института гуманитарных наук Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан
E-mail: enargiza98@gmail.com

По отзыву доцент Ш.Гофуровой

ПОНЯТИЯ «ПОСЛОВИЦЫ» И «Поговорки» В ПАРЕМИОЛОГИИ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ

Аннотация

В статье рассматривается разнообразие понятий «пословицы» и «поговорки» в паремиологии тюркских языков. А также проанализированы научные взгляды учёных по данному вопросу.

Ключевые слова: Пословицы и поговорки, паремия, устное народное творчество, паремиология, масал.

THE CONCEPTS OF «PROVERBS» AND «SAYINGS» IN THE PAROEMIOLOGY OF THE TURKIC LANGUAGES

Annotation

The article examines the diversity of the concepts of «proverbs» and «sayings» in the paremiology of the Turkic languages. It also analyzes the scientific views of scientists on this issue.

Key words: Proverbs and sayings, paremia, oral folklore, paremiology, masal.

TURKIY TILLAR PAREMIOLOGIYASIDA «MAQOL» VA «MATAL» TUSHUNCHALARI

Annatsiya

Maqolada turkiy tillar paremiologiyasidagi maqol va matal tushunchalarining xilma-xilligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, olimlarning ushbu masala bo'yicha ilmiy qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Maqol va matallar, paremiya, xalq og'zaki ijodi, paremiologiya, masal.

При исследовании какого-либо вопроса в языкознании, в первую очередь, целесообразно будет дать данному термину обоснованное определение. В числе исследований каракалпакского языка на протяжении многих лет использовался термин «пословицы и поговорки». Некоторые народы не рассматривают понятия «пословица» и «поговорка» по отдельности, а лишь принимают любой из двух терминов. Термин «поговорка» не упоминается ни в одной легенде или причёме, сказке или эпосе. Везде встречается термин «пословица».

В разделе «Устное народное творчество» своего научного труда «Очерки по истории каракалпакской литературы» учёный Н.Даукараев даёт следующее определение пословицам и поговоркам: «Пословицы отражают мысль не отдельного человека, а целого общества, вбирают в себя различные качества, социальные соотношения, моральные нормы и условия общества» [3]. Учёный рассматривает поговорки в отдельности от пословиц. Согласно его мнению, поговорки не отличаются от пословиц по происхождению и выполняемым функциям. Однако, они имеют особенности с точки зрения построения, содержания и смысла. Поговорки не имеют адресата. Они направлены не только к слушателю, а ко всем одинаково.

В монографии «Паремиология» доктора филологических наук Дсц Бийбисанем Юсуповой посредством термина «паремия» имеются ввиду только пословицы и поговорки, анализируются лексика-семантические и лексика-тематические особенности каракалпакских народных пословиц и поговорок. Данный труд содержит особые упоминания терминов «пословицы и поговорки» и «паремия». Как указывает автор, в каракалпакском языке данные наименования являются парным словом и используются всегда вместе и, чаще всего, не рассматриваются как отдельные понятия. Если будет необходимость разбираться их по отдельности, то пословица – это слова мудрости в прямом значении, а поговорка, в большинстве случаев, поучительная слова в переносном значении. Свою мысль автор дополняет следующим образом: «Всё же не стоит считать, что в пословицах слова бывают только в прямом смысле, поскольку её компонентное

содержание состоит из лаконичных поэтических строк, малым количеством слов означают весомый и обширный смысл. Поэтому и пословицы, и поговорки могут нести образный характер и переносное значение» [7:15].

И вправду, в повседневной жизни не наблюдаем, как в народе различают пословицы от поговорок. Широко распространено применять единый термин «пословица-поговорка» в процессе речи, если упоминаются какие-либо нравоучительные высказывания или выражения. Если обратить внимание на данный вопрос на уровне мирового языкознания, то можно заметить, как у каждого народа данные термины трактуются по-разному. Одни из них применяют общее наименование, а другие рассматривают пословицу и поговорку как отдельные единицы. К примеру автор «Сборника английских пословиц и поговорок» Кусковская С.Ф. считает, что большой разницы между двумя этими терминами нет [5]. В английском языке пословицы и поговорки приводятся как «proverbs and sayings». Подавляющее большинство научных трудов содержат термин «proverbs», то есть «пословица» («*maqol*»). В источниках на иностранных языках почти не встречается термин «паремия». В них сформирован термин «proverbs» для наименования лаконичных фольклорных творческих единиц нравоучительного характера. В русском языке есть термин «пословицы и поговорки», но можно заметить, как в лингвистических исследованиях последних лет широко используется термин «паремия». Становится традицией рассматривать термин «паремия» в качестве синонима термину «пословица и поговорка». Учёный О.С.Ахманова выделяет термин «паремия» как обобщающее наименование слов «пословица» и «поговорка» [1].

Можно стать свидетелями, как среди тюркских народов вместо слова «пословица» используют также термин «масал». Также в исследованиях указывается, что пословицами являются источниками поговорок. По результатам исследований по данной теме русский учёный А.А. Потебня приходит к выводу, что поговорки возникают на основе пословиц.

В киргизском устном народном творчестве пословицы именуются термином «*maqal*», а поговорка

называется «laqar». Вместе же пословицы и поговорки именуются как «taqal-laqarlar» [6].

А в узбекский язык существует термин «taqol va matallar», в народе чаще всего прибегают к понятию «taqol». При изучении пословиц и поговорок в узбекском и каракалпакском языках встречаем интересное научное мнение ученого С. Бекчаноой, которая рассматривает пословицы и поговорки как отдельные единицы: «Хоть и пословицы и поговорки очень схожи между собой, каждая из них имеет своеобразные особенности» [2]. По ее мнению для изучения различия между пословицей и поговоркой необходимо изучать их в сравнительном и сопоставительном плане. Лишь тогда вопрос прояснится. При этом уместным считаем упомянуть, что главным отличием узбекской и каракалпакской паремиологии считается то, что термины являются разными. Термин «taqol» в узбекской паремиологии и понятие «taqal» в каракалпакской паремиологии с точки зрения содержания не соответствует между собой. Значение «taqal» на узбекском равно значению «paqil», а термин «matal» в узбекской паремиологии равнозначен слову «taqal» на каракалпакском.

В узбекском языке поучительные слова в целом называют общим термином «taqol», однако в языке существует множество наименований: пословица, поговорка, басня, сказание, мудрое изречение, наставление, притча, мудрая пословица, народное выражение, народное слово, слова мудрецов, слова великих, слова достойных, слова предков, народное слово, народная притча, мудрое слово и

другое [2]. Ученый К.Имамов приводит понятие «paqil» в виде «matal». Термин «paqil» (пословица) имеет обширное значение.

Древнетюркские памятники, народные книги, рукописи, мифы, сказки, легенды, предания, дастаны, пословицы, даже загадки назывались термином «paqil».

Возможно, поэтому в современном Азербайджане сказку называют «paqil», у киргизов «paqil» означает поучительные беседы, а в персидском языке этот термин обозначает устные рассказы [4].

Как видно, в паремиологии существует множество мнений по поводу понятия «paqil-maqal» и термина «паремия». Кроме того, в этой науке есть и другие интересные вопросы, привлекающие внимание исследователей. Один из важнейших вопросов паремиологии — это различие и границы между паремиями и другими единицами языка. Какие признаки необходимы для того, чтобы выражение считалось паремией? Чем паремии отличаются от сходных языковых единиц? Каковы взаимосвязи между фразеологизмами, афоризмами, идиомами и пословицами? Кроме того, вызывает интерес и дискуссии вопрос о соотношении между пословицами и такими жанрами, как айтыс, риторические высказывания, терме и толгау, легенды, устные рассказы и анекдоты. Особенно важной темой, которая уже долгие годы привлекает внимание исследователей, является разграничение фразеологизмов и пословиц среди всех перечисленных языковых единиц и жанров.

ЛИТЕРАТУРА

1. Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. М.: Учпедгиз, 1957.
2. Бекчаноова С., Ўзбек ва қарақалпақ фольклориди нақл жанри (генезиси, типологияси ва поэтикаси). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Нукус, 2019.
3. Дəўқараев Н. Шығармаларының толық жыйнағы, 2-том. –Нөкіс, 1977.
4. Имамов К. Ўзбек фольклори очерклари. II китоб. Нақл.
5. Кусковская С.Ф. Сборник английских пословиц и поговорок. Минск: Изд-во Вышэйшая школа. 1987.
6. Темирова М., Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2018.
7. Юсупова Б. Паремиялогия Қарақалпақ халық нақыл-мақаллары тилинің лексика-семантикалық хэм лексика-тематикалық өзгешеликлери (Монография) –Нөкіс: “Qaraqalpaqstan”. 2024.



Bektosh JUMANOV,
Samarqand davlat universiteti doktoranti
Email: bektoshjumanov@gmail.com

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

SAYQALIY LIRIKASINING JANRIY XUSUSIYATI, OBRAZLAR OLAMI VA BADIYYATI

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida XVIII asrda ijod qilgan Sobir Sayqaliy lirikasida janriy xususiyatlarni, obrazlar olami va asarlarining badiiyati qaysi she'riy san'atlardan foydalanganligi, diniy-falsafiy g'oyalarning badiiy tasvirlari hamda uning asarlarida islomiy ta'limot haqida ma'lumotlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: XVIII asr o'zbek adabiyoti, Sobir Sayqaliy, diniy-falsafiy g'oya, islom, doston, syujet, Vatan, Bahrom Go'r, Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Navoiy, she'riy san'atlar, adabiy voqelik, shakl, mazmun, "Qissayi Sayqaliy", "Devoni Sayqaliy"

GENRE CHARACTERISTICS OF SAIKALI LYRICS, WORLD OF IMAGES AND ART

Annotation

This article examines the mastery of poetic devices in the lyrics of Sobir Sayqali, an 18th-century Uzbek poet, and explores which poetic techniques were utilized in his works. It also discusses the artistic depictions of religious-philosophical ideas and provides insights into Islamic teachings reflected in his writings.

Key words: 18th-century Uzbek literature, Sobir Sayqali, religious-philosophical ideas, Islam, epic, plot, homeland, Bahram Gur, Ferdowsi, Khusrav Dehlavi, Navoi, poetic devices, literary reality, form, content, Qissayi Sayqali, Devoni Sayqali.

ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЛИРИКИ САЙКАЛИ, МИР ОБРАЗОВ И ИСКУССТВА

Аннотация

В данной статье рассматривается мастерство применения поэтических приемов в лирике Собира Сайкалия, творившего в узбекской литературе XVIII века, а также какие поэтические приемы использовались в его произведениях. Кроме того, анализируются художественные образы религиозно-философских идей и дается информация об исламском учении, отраженном в его произведениях.

Ключевые слова: Узбекская литература XVIII века, Собир Сайкалий, религиозно-философская идея, ислам, дастан, сюжет, Родина, Бахрам Гур, Фирдоуси, Хосров Дехлеви, Навои, поэтические приёмы, литературная реальность, форма, содержание, «Киссаи Сайкалий», «Девони Сайкалий».

Kirish. Badiiy adabiyot doimo borliq, inson qalbi, inson faoliyati, harakat mohiyati hamda uning sabablari haqida insonning qalbida ezgulik urug'ini o'stiradi. Sobir Sayqaliyning asarlari ham insonni pok muhabbat, buyuk jasorat, vatanga muhabbat, haqsizlikka qarshi murosasizlik, Haqqa barqaror e'tiqod, inson nomiga munosiblik mas'uliyati mavzularini kishi qalbida shakllantiradi.

Natija va mulohazalar. Sobir Sayqaliy asarlaridagi rivoyatlarda turli-tuman qahramonlar ishtirok etadi. Ular orasida shaytonlar, hayvonlar, parrandalar, o'simliklar, samoviy jismlar obrazlari ham uchraydi. San'atkor bu qahramonlar bilan bog'liq teran mazmunli, ta'sirchan hikoyat va rivoyatlarni keltiradi. Va tabiiyki, ularni insonlar singari gapirtiradi. Odamlarga xos xususiyatlarni ularga ham ko'chiradi. Sayqaliy bunday o'rinlarda intoq yoki tashxis deb nomlanuvchi san'atdan unumli foydalangan. "Qissayi Sayqaliy"da muallif ba'zan rivoyat va afsonalar hamda xalq maqollariga ishora orqali o'quvchi shuuriga doston mazmunini chuqurroq singdirishga intiladi. Bu hol, o'z navbatida, doston tilining xalqchilligini, ifodaning badiiy jozibasini ta'minlagan. Natijada muayyan ijobiy yoki salbiy obraz o'quvchi ko'z o'ngida yorqin gavdalanadi, personajlar xarakteri ravshan ochib beriladi.

Asarda tarsi' san'atidan ham mahorat bilan istifoda etilgan. Masalan, shoir Hazrati Imom Husaynning shahid bo'lishi haqida keltirgan quyidagi she'riy lavhada rivoyat mazmunidagi qayg'uni, iztirobni ifodalashda bu san'at qo'l kelgan. Matndagi so'z va iboralar shunga monand qilib

Sobir Sayqaliy rivoyat qahramoni, uning asosiy vazifasi va oldida turgan maqsadlarini bayon qilib bo'lgach, butun e'tiborni jaholat ahlining unga ko'rsatgan azobu uqubatlariga qaratadi. Bu o'rinda bosh qahramon kechinmalarini tasavvur qilish uchun rang-barang san'atlarni qo'llaydi va ko'zlangan maqsadga erishadi. Endi so'z mushriklarning Nuh payg'ambar

da'vatlariga javoban unga tosh otib, vujudini jarohtlagani haqida boradi. Bu o'rinda ham to'rt bor «tosh» so'zi qaytarilib iltizom va tosh so'ziga ma'nodosh bo'lgan «sang» sinonimini qo'llab, odamlarni haq yo'lga da'vat etish asnosida Nuh alayhissalom boshdan kechirgan jabru jafolarni ta'sirchan ifodalagan. Natijada, shoir shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlashda va badiiy san'atlar vositasida qahramonning betakror qiyofasi, syujetning tadrijiy takomilini ko'rsatishga erisha olgan. San'atkor shu yo'l bilan yorqin obrazli tasvirni, ifoda soddaligi va tabiiyligini ta'minlagan. Rang-barang she'riy san'atlardan mahorat bilan foydalanilgani natijasida rivoyatlar mazmunan teran, shaklan jozibador, o'quvchi ruhiyatiga, shuuriga ta'sir ko'rsata oladigan tarzda bayon etilgan. Sobir Sayqaliy rivoyat qahramoni, uning asosiy vazifasi va oldida turgan maqsadlarini bayon qilib bo'lgach, butun e'tiborni jaholat ahlining unga ko'rsatgan azobu uqubatlariga qaratadi. Bu o'rinda bosh qahramon kechinmalarini tasavvur qilish uchun rang-barang san'atlarni qo'llaydi va ko'zlangan maqsadga erishadi. Endi so'z mushriklarning Nuh payg'ambar da'vatlariga javoban unga tosh otib, vujudini jarohtlagani haqida boradi. Bu o'rinda ham to'rt bor «tosh» so'zi qaytarilib iltizom va tosh so'ziga ma'nodosh bo'lgan «sang» sinonimini qo'llab, odamlarni haq yo'lga da'vat etish asnosida Nuh alayhissalom boshdan kechirgan jabru jafolarni ta'sirchan ifodalagan. Natijada, shoir shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlashda va badiiy san'atlar vositasida qahramonning betakror qiyofasi, syujetning tadrijiy takomilini ko'rsatishga erisha olgan. San'atkor shu yo'l bilan yorqin obrazli tasvirni, ifoda soddaligi va tabiiyligini ta'minlagan. Rang-barang she'riy san'atlardan mahorat bilan foydalanilgani natijasida rivoyatlar mazmunan teran, shaklan jozibador, o'quvchi ruhiyatiga, shuuriga ta'sir ko'rsata oladigan tarzda bayon etilgan.

Sobir Sayqaliy doston poetikasining mukammal bo'lishini ta'minlashda ilmi

bade' imkoniyatlaridan samarali istifoda etgan. Shoir, ayniqsa, tashbeh, iychom, tajnis, tanosub, irsolul masal, tashxis, husni ta'ail, tardi aks, istiora va boshqa ko'plab san'atlarni mahorat bilan qo'llagan. Sayqaliy o'zining "Ravzat ush-shuhado" asarida ham turli she'riy janrlardan foydalanib, poetik ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan. Asar, asosan, masnaviy shaklida yozilgan bo'lib, unda g'azal, ruboiy va qit'a kabi janrlarga ham murojaat qilingan.

Asarning asosiy qismi masnaviy shaklida bo'lib, bu janr voqeabandlikni ifodalashda qulaylik yaratagan. Masnaviyda har bir baytning misralari o'zaro qo'fialanadi, bu esa hikoyaning ritmini ta'minlaydi.

Sayqaliy asarda g'azal janridan ham foydalangan. Keltirilgan g'azallar, asosan, ishqiy va tasavvufiy mavzularda bo'lib, insonning ilohiy muhabbatga intilishi, ma'naviy kamolotga erishish yo'lidagi kechinmalarini ifodalagan.

Ba'zi o'rinlarida ruboiylar qisqa, lekin mazmunan chuqur bo'lib, falsafiy mushohadalarni ifodalashda qo'llanilgan. Sayqaliy ruboiylari orqali hayotning mazmuni, insoniy qadriyatlar va o'tkinchi dunyo haqida fikr yuritadi.

Qit'alar janri ham asarda muayyan mavzuni qisqa, lekin ta'sirchan ifodalash uchun ishlatilgan. Bu janr orqali muallif axloqiy nasihatlar, hayotiy tajribalarini bayon etgan.

Sayqaliyning "Ravzat ush-shuhado" asarida ushbu janrlarning uyg'unligi asarning badiiy qiymatini oshirib, kitobxonga turli poetik shakllar orqali boy ma'naviy va estetik tajriba taqdim etadi.

Sobir Sayqaliyning "Ravzat ush-shuhado" asarida ishlatilgan she'riy janrlar va ularning poetik ko'lamini chuqurroq tahlil qilishda quyidagilarni yodda tutish lozim:

1. Masnaviy shakli:

Masnaviy janri asarning asosiy qismida qo'llanilgan. Bu shakl voqeabandlikni samarali yetkazishga xizmat qilgan. Har bir baytning misralari o'zaro qo'fialanadi (aa, bb, cc). Bu qo'fiyaviy tizim voqealar ketma-ketligini oson tushunish va musiqiylikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

"Ravzat ush-shuhado"da masnaviy janri orqali diniy va tarixiy voqealar, payg'ambarlar, shahidlar va olijanob insonlarning qissalari badiiy tilda hikoya qilinadi. Ushbu janr dostonning tasviriy kuchini oshiradi va undagi ma'rifiy mazmuni o'quvchiga tushunarli qiladi.

2. G'azal janri:

Sayqaliyning g'azallari, asosan, tasavvufiy va ishqiy mavzularda yozilgan bo'lib, inson qalbining ichki kechinmalari, ilohiy muhabbat va Allohga bo'lgan sadoqatini aks ettiradi.

Shoir g'azallari o'zining yuqori badiiyligi, ma'noli ramzlari va ohangdorligi bilan ajralib turadi. G'azallarida yor tasviri ko'pincha ilohiy sevgining ramzi sifatida ishlatiladi, bu esa tasavvufiy adabiyotga xosdir.

3. Ruboiylar:

Ruboiylar qisqa, lekin mazmunan chuqur she'riy shakl bo'lib, asarning falsafiy jihatlarini ifodalashda ishlatilgan. Ruboiylarida inson hayotining mazmuni, o'tkinchiligi va ma'naviy poklanishga chaqiruvchi fikrlar bayon etilgan. Masalan, dunyo va oxiratni qiyoslash orqali insonni axloqiy kamolotga chorlash ruboiylarida yaqqol ko'rinadi.

4. Qit'a janri:

Qit'alar "Ravzat ush-shuhado"da qisqa hajmda chuqur ma'no ifodalash uchun ishlatilgan.

Ular asosan axloqiy mavzularda, kishilarni yaxshi amallar qilishga undash va dunyoning haqiqatini tushunishga yo'naltirilgan.

Asarda poetik ko'lam va badiiy san'atlarning o'rni:

1. Tajnis: Qo'fiyalarda bir xil talaffuzdagi so'zlar turli ma'noda qo'llanilib, she'rning musiqiyliqi oshirilgan.

2. Tazod: Hayot va o'lim, yorug'lik va zulmat, dunyo va oxirat singari qarama-qarshiliklar orqali she'rlar mazmuni chuqurlashtirilgan.

3. Istiora va tashbeh: Tasviriy vositalar orqali ilohiy sevgining yuksakligi va insonning ma'naviy izlanishlari yoritilgan.

"Ravzat ush-shuhado" she'riy janrlarning o'ziga xos uyg'unligi orqali yuksak badiiy darajaga yetgan. Asar tasavvufiy

mohiyatni estetik tarzda ifodalashda, inson qalbiga yo'l topishda katta rol o'ynaydi.

1. Tasavvufiy ruhdagi baytlardan ba'zilarini ko'rib o'tamiz:

Ilohi, ishqingda yonar bir shama,
Dunyoni qo'yub, berar jon sadaqa.

Ushbu baytda insonning ilohiy sevgi yo'lida o'z jonini ham sadaqa sifatida berishga tayyorligi ifodalangan. Tasviriy vosita sifatida yorug'lik va shama ramzi qo'llangan.

2. Shahidlik mavzusidagi baytlar:

O'rtar qalbni shahidlar nidosi,
Jannat bo'ldi ularning makoni.

Bu bayt shahidlarning Alloh yo'lida ko'rsatgan jasoratini madh etadi va ularning oliy mukofoti sifatida jannat tasvirini beradi. Bu kabi tasvirlar diniy-falsafiy mazmun bilan boyitilgan.

3. Axloqiy pand-nasihatlar:

Bilgin, ey jon, umr o'tkinchi,
Qilgin amal, bo'lg'il do'st to'g'risi.

Bu bayt inson umrining qisqaligi va ezgu amallar qilish zarurligini ta'kidlaydi. Asardagi didaktik ruhiyat bu kabi baytlarda ko'zga tashlanadi.

Ishq ila yonmoqni bilgan elda bir niyoz,
Na dunyo, na oxirat, faqat do'stga roz.

Ma'nosi: Bu baytda ishq ilohiy sevgining oliy ifodasi sifatida tasvirlangan. Shoir ilohiy sevgining dunyo va oxiratda ustun ekanligini ta'kidlaydi.

Badiiy xususiyatlari:

1. She'riy mahorat:

Sobir Sayqaliy masnaviy janrining imkoniyatlarini keng qo'llab, asarni musiqiy va badiiy jihatdan boy qilgan. Qofiya va ritm she'rlarga xos musiqiylikni oshiradi.

2. Badiiy tasvir vositalari:

Tashbeh va istiora: Asarda yor, gul, sham kabi ramzlilar orqali ilohiy sevgi va poklik ifodalanadi.

Tazod: Hayot va o'lim, yorug'lik va zulmat, dunyo va oxirat kabi qarama-qarshiliklar tasvirlanadi.

Tajnis va qofiya: So'z o'yinlari she'rlarni yanada ta'sirchan qiladi.

3. Ramziy obrazlar:

Yor – ilohiy sevgi ramzi, bog' – jannat, gul – poklik, shama – ruhning yo'nalishi sifatida ishlatiladi.

Asarning ahamiyati haqida biz uni bugungi kungacha saqlanib, o'qishligini taminlab kelayotgan asosiy mezonlarga quyidagilarni sanab o'tamiz:

Milliy ma'naviyat: "Ravzat ush-shuhado" o'zbek xalqining diniy va axloqiy qadriyatlarini saqlash va targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi.

Tasavvuf adabiyoti: Bu asar tasavvufiy dunyoqarashni xalq orasida ommalashtirish va islomiy axloqni mustahkamlash vazifasini bajargan.

Tarixiy-huquqiy bilim: Asar orqali musulmonlarning diniy tarixiga oid ko'plab ma'lumotlar yetkazilgan.

Milliy ruhning ifodasi asarda quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Xalqlarning diniy va madaniy qadriyatlari:

Asarda xalq orasida tarqalgan islomiy qadriyatlar, jumladan, sabr-qanoat, poklik va halollik kabi axloqiy tamoyillar yuqori darajada madh etiladi. Bu qadriyatlar milliy ruhiyatning muhim qismidir. Shahidlikni ulug'lash orqali insoniy mardlik, fidoyilik va xalqparvarlik tuyg'ulari tasvirlangan.

2. O'zbekcha tafakkur va tasviriy vositalar: Sobir Sayqaliy xalq tiliga xos bo'lgan so'z boyligidan keng foydalanadi. Masalan, o'zbek xalqiga xos bo'lgan timsollar (qush, gul, shama) orqali milliy poetik ruhni saqlab qolgan.

Milliylikni aks ettiruvchi misralarda yer, suv va tabiatga oid ramzlilar ko'p uchraydi, bu esa xalqning tabiat bilan uyg'un yashash tamoyillarini ifodalaydi.

3. Adolat va ma'naviy komillikni ulug'lash:

Asarda milliy ruhiyatga mos ravishda adolat va insoniy komillik muhim o'rin egallaydi. Bu qadriyatlar nafaqat diniy, balki milliy merosning bir qismi hisoblanadi.

4. Tarixiy va diniy qahramonlarni ulug'lash:

Sobir Sayqaliyning asarida milliy ruhiyat tarixiy qahramonlarni, jumladan, Payg'ambarlar va shahidlarni ulug'lash

orqali o'z aksini topadi. Ushbu qahramonlarning obrazlari xalqning iymon-e'tiqodi va urf-odatlar bilan uyg'unlashgan holda tasvirlanadi.

5. Tinchlik va hamjihatlik g'oyalari:

Asar xalqni birlashtirishga, milliy birlik va tinchlikni ta'minlashga qaratilgan. Bu esa milliy ong va milliy ruhning ajralmas qismi sifatida ifodalanadi.

Milliy ruhni ifodalovchi namunaviy baytlar (ilmiy tahliliy yondashuv):

“Qil odil hukm, ey do'st, jahon adolatdin turar,
Zulm ila kim bo'lgan yomon, oxiratda qolar zarar”.

Ushbu baytda adolatni ulug'lash va milliy ruhning asosiy qismi bo'lgan halollik tamoyilini ifodalash ko'rinadi.

“Yer va osmon isming bilan chiroy topg'ay,

Ey ulug', kim hamisha nomingdan yorug' bo'lg'ay”.

Bu baytda tabiat bilan uyg'unlik va xalqning ilohiy qudratga bo'lgan hurmati ko'rinadi. Tabiat tasvirlari orqali milliy e'tiqodning badiiy ifodasi berilgan.

"Ravzat ush-shuhado" she'riy janrlarning o'ziga xos uyg'unligi orqali yuksak badiiy darajaga yetgan. Asar tasavvufiy mohiyatni estetik tarzda ifodalashda, inson qalbiga yo'l topishda katta rol o'ynaydi. Bu asar Sharq mumtoz adabiyotining eng go'zal namunalaridan biri hisoblanadi. Asar orqali musulmonlarning diniy tarixiga oid ko'plab ma'lumotlar yetkazilgan.

Sobir Sayqaliyning "Ravzat ush-shuhado" asari Sharq mumtoz adabiyotida muhim o'rin egallaydi. Unda tasavvufiy-falsafiy ruh, badiiy yuksaklik va milliy qadriyatlar uyg'unlashgan. Sobir Sayqaliyning "Ravzat ush-shuhado" asari, asosan, diniy-tasavvufiy mazmunga ega bo'lsa-da, uning ayrim qismlarida milliylik, jumladan, vatan madhi bilan bog'liq g'oyalar ham ifoda etilgan. Asarda vatanni ulug'lash bevosita diniy va tasavvufiy qadriyatlar orqali yoritilgan bo'lib, bu qadimiy Sharq adabiyoti an'alariga xosdir.

Asarda vatan madhining asosiy jihatlari:

1. Vatanni jannatga qiyoslash:

"Ravzat ush-shuhado"da "bog'" va "Gulshan" kabi ramzlar faqat jannatni emas, balki vatanni ham ifodalaydi. Vatan Allohning inoyati sifatida tasvirlanadi va u inson uchun ulug' va aziz makon sifatida ko'rsatiladi.

Vatanni sevis, uni himoya qilish va uning tinchligi uchun kurashish Alloh yo'lida xizmat qilishning bir shakli sifatida ulug'lanadi.

3. Vatan va shahidlik:

Shahidlarning vatan uchun jon fido qilishi Alloh yo'lidagi eng oliy amal sifatida ko'rsatiladi. Asarda vatan himoyasi, unga xizmat qilish, xalq farovonligini ta'minlash va bu yo'lda shahid bo'lish oliyjasorat timsoli sifatida tasvirlangan:

“Kimki vatan yo'lida jon fido qilsa,
Jannat bag'rida bo'lgay unga joy, aniq”.

Ushbu bayt vatanni himoya qilishning diniy jihatdan ham, insoniy jihatdan ham qanchalik ulug' ekanligini ko'rsatadi.

4. Tabiat va vatan tasviri:

Asarda vatan tabiatining go'zalligi, undagi bog'-rog'lar, gullar va qir-adirlar ilohiy ne'mat sifatida madh etiladi. Bu Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan "gul va bog'" tasvirlari orqali o'z ifodasini topadi.

5. Vatan va axloqiy qadriyatlar:

Vatan madhi aks etgan namunaviy baytlar:

“Ey muqaddas yurt, sening tuprog'ing aziz,
Senga bo'lg'ay doim qalbim ila tuyg'um yaqin”.

“Shahid bo'lsa kimki o'z yurt uchun,

Olam unutmang bu qahramonni, har kun”.

Bu kabi baytlarda vatanni ulug'lash, uni himoya qilish va u uchun qurbon bo'lishning oliyjasorat ekanligi yuksak badiiylik bilan ifodalanadi.

Sobir Sayqaliyning "Ravzat ush-shuhado" asarida vatan madhi to'g'ridan-to'g'ri emas, balki diniy va tasavvufiy ramzlar orqali ifoda etiladi. Vatan Allohning inoyati sifatida tasvirlanib, uning tinchligi va himoyasi har bir insonning burchi ekanligi targ'ib etiladi. Vatanparvarlik ruhini kitobxonga singdirish bilan birga, asar xalqni birdamlik va hamjihatlikka chorlash vazifasini ham bajaradi.

Umuman, shoir ijodining yutug'i g'oyaviy yuksakligi va badiiy jihatdan go'zalligini ta'minlashda, she'riy san'atlarning rang-barang turlaridan unumli foydalanganlikda yaqqol namoyon bo'ladi. Sobir Sayqaliy qissa qahramonlarining tashqi va ichki qiyofalarini yorqin tasvirlashda she'riy san'atlarning keng imkoniyatlaridan unumli foydalanishi natijasida asar syujetini teran mazmun va go'zal badiiy shakl uyg'unligi asosiga quradi. Asar kompozitsion qurumining puxtaligiga erishadi. Natijada asar qiziqish va maroq bilan o'qiladi. Mana shu omillar asarning betakrorligi va o'ziga xosligini ta'minlagan.

Ushbu bo'limdagi kuzatishlarni quyidagicha xulosalash mumkin:

Sobir Sayqaliy lirik asarlarida "bilimlar uchligi" – ilmi bade', ilmi aruz, ilmi qofiya uyg'unligi orqali teran mazmunni go'zal badiiy shaklda ifodalashga, asar g'oyaviy yo'nalishi va syujetining betakror poetik talqiniga erisha olgan.

"Qissayi Sayqaliy"da shoir talmeh, tazod, tashxis, tanosub, iltizom, tasbi', iyhom, irsol ul-masal, husni ta'lil, tardi aks, istiora singari she'riy san'atlardan mahorat bilan foydalangan. Bu badiiy san'atlar asarda chuqur mazmun va poetik joziba uyg'unligiga erishishni ta'minlagan.

ADABIYOTLAR

1. Qayumov A. "O'zbek mumtoz adabiyoti". – Toshkent: Fan, 1997.
2. G'aniev A. "O'zbek mumtoz she'riyati tarixi". – Toshkent: Universitet, 2004.
3. Haqqulov A. "Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari". – Toshkent: Adabiyot, 1980.
4. Usmonov N. "XVI asr o'zbek adabiyoti". – Toshkent: Fan, 1974.
5. Xudoyberganova D. "Sobir Sayqaliyning g'azalshunoslikdagi o'rni". – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
6. Bo'ronov R. "Sobir Sayqaliy va tasavvuf she'riyati". – Toshkent: Fan, 1999.
7. Mumtoz adabiyot ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.
8. Alisher Navoiy. "Mezon ul-avzon". – Toshkent: Fan, 1961.
9. Devonov M. "Tasavvuf she'riyatining badiiy usullari". – Toshkent: Sharq, 2010.
10. G'afurov Z. "Mumtoz she'riyat poetikasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2012.



UDK:811.512

Nasiba JUMATOVA,

"University of Management and Future Technologies" "Filologiya va tillar" kafedrası v.b.dotsenti, f.f.n

E-mail: nasibajumatova68@gmail.com

PhD Z.Pardayev taqrizi asosida

XALQ QO'SHIQLARIDA RANG BILAN BOG'LIQ RAMZIY OBRAZLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar yaratishning tarixiy asoslari, xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni, ado etayotgan vazifasi haqida to'xtalib o'tildi. Rang bilan bog'liq ramziy obrazlar o'zbek xalq qo'shiqlarining badiiyligini, jozibadorligini, ta'sir etish qudratini oshirishga xizmat qiladi. Xalq qo'shiqlarida rang ramzlari fikrni aniq, lo'nda va obrazli ifodalash vositasi sifatida misollar yordamida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Xalq og'zaki ijodi, ramzlar, rang bilan bog'liq ramzlar, xalq qo'shiqlari.

СИМВОЛИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ, СВЯЗАННЫЕ С ЦВЕТОМ, В НАРОДНЫХ ПЕСНЯХ.

Аннотация

В статье рассматриваются исторические основы создания символических образов, связанных с цветом в узбекской литературе, роль народа в устной традиции, его роль. Символические образы, связанные с цветом, служат для усиления искусства, очарования и воздействия узбекских народных песен. В народных песнях цветные символы исследуются на примерах как средство четкого, лаконичного и образного выражения идей.

Ключевые слова: Фольклор, символы, цветные символы, народные песни.

SYMBOLIC IMAGES ASSOCIATED WITH COLOR IN FOLK SONGS

Annotation

This article discusses the historical basis of the creation of symbolic images associated with color in Uzbek literature, the role of folklore in folklore. Symbolic images associated with color serve to enhance the art, charm and impact of Uzbek folk songs. In folk songs, color symbols have been explored using examples as a means of expressing ideas clearly, succinctly, and figuratively.

Key words: Folklore, symbols, color symbols, folk songs.

Kirish. Rang bilan bog'liq ramzlarning dastlabki namunalari xalq og'zaki ijodida, xalq marosim va urf-odatlarida o'z aksini topgan. Ranglar ramzining genetik ildizlari qadimgi ajdodlarimiz ongida sevinch va qayg'u, shodlik-u izzat, jasorat va qo'rquv kabi tuyg'ularning tug'ilishi bilan aloqadorligi bizga ma'lum. Inson sezgisiga ta'sir qilayotgan narsaning qaysidir bir tomoni -tashqi shaklimi, rangimi, hidimi, ta'mimi ustunlik qilib, uning qalbida muayyan tuyg'ular uyg'otadi. Bunday holatda u yo quvonadi, yo ranj chekadi, yo nafratlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida ko'pchilik uchun aniq va ravshan bo'lib qolgan rang ramzlar fikrni aniq, lo'nda, obrazli ifodalash vositasi sifatida keng qo'llanila boshlandi. O'zbek xalq qo'shiqlaridagi o'ynoqi vazn, to'liq qofiya, hayratomuz ramzlar mazmunni ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, lirik qo'shiqlarni ramzlarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki turfa xil tushuncha, nozik kechinma va holatlarni barchaga birday tushunarli an'anaviy obrazlar, ramzlar orqali lo'nda, ixcham bayon etish qo'shiqlarning ohangdorligi, ta'sirchanligini ta'minlash bilan birga ulardagi obrazlilikni oshirishga ham xizmat qiladi. Lirik qo'shiqlarning mazmunan chuqurligi va boyligini ramzlarda ifodalangan ma'no tovlanishlarini aniqlamay turib, to'g'ri anglash qiyin. Chunki ramzlar shu qo'shiqlarning haqiqiy badiiy g'oyasi, estetik ta'sirchanligini baholash uchun mezon, kalit vazifasini o'taydi.

Zero, kuylovchi qo'shiqda o'z qalbini, oddiy so'zlarga sig'maydigan his-tuyg'u kechinmalarini barchaga birday ta'sir etadigan barqaror badiiy shaklda ifodalashga intiladi. Folklorshunoslarning e'tirof etishicha, xalq og'zaki poetik ijodida biror bir individual ijodkorga xos xususiy ramz bo'lmaganligi va an'anaviyligi bois yozma adabiyotdagi ramzlardan farqli ravishda uzoq davrlar mobaynida shakllanib, asrlar osha yashab keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Lirik qo'shiqlarda oq, qora, qizil, sariq, ko'k kabi rang bilan bog'liq ramziy obrazlar qo'shiqlar mazmunini, ularning asosida yotgan g'oyalarni izohlashga xizmat qilinishini, qo'shiq badiiyligini ochishga yordam berishini ko'ramiz.

Su bois Sh.Turdimov tadqiqotlarida o'zbek xalq lirik qo'shiqlardagi poetik ramzlar va ularning ranglar bilan bog'liq an'anaviy ma'nolari talqinini uchratamiz. [Turdimov.SH.Rango-rang dunyo./Yoshlik,1987,8-son,60-62 betlar.] U ranglar ko'proq insonda his-tuyg'u uyg'otish jihatidan tovushlarga o'xshashligini haqli e'tirof etadi. Haqiqatdan ham, qalb kechinmalari, his-tuyg'ularini...jumbushga keltiruvchi g'am, baxtsizlik, ayriliq, falokat, o'lim, zamondan nolish kabilar qora rang timsolida ifodalansa, tinchlik baxt, tozarish, yaxshilik, shodlik va quvonch tuyg'ulari an'anaviy qizil va oq rangi bilan ramziy obrazli birikmalarda o'z ifodasini topib qo'shiqlarda o'ziga xos mazmun va ohang kasb etadi.

Oq olma,qizil olma pishmas ekan,
Ikki yaxshi bir yerga tushmas ekan,
Ikki yaxshi bir yerga tushganida
Umrining o'tganini bilmas ekan.

Qo'shiqda ikki sevishtan dilning oila qurishi kam uchrashi, maboda ular oila qura oiganlarida hayot quvonch va baxtdan iborat bo'lishligi armon bilan kuylanadi.

Bu o'rinda qo'shiqdagi "oq" va "qizil" olmalar sevishtan yigit va qiz ramzini ifodalab kelmoqda. Ba'zi o'rinlarda esa "Oq olma, qizil olma" qo'shiq kontekstiga ko'ra nihoyatda go'zal, kelishgan qaddi-qomatli, yetuk, barkamol qiz-yor ramzini ifodalab keladi:

Oq olma,qizil olma,
Xipcha bellaring tolma.
Nozing muncha yoqimli,
Gal bona,gal uyolma.[Xorazm og'zaki ijod durdonalari.-

Urganch,1993,11-bet.]

Yoki :
Oq olma,qizil olma badar-badar,
Oq yuzingnan kim o'psa otang na dar.
Otangiz qizma kishi xona yetar,
Ikki ko'ngil bir bo'lsa xoning natar.

Mazkur qo'shiqlardagi "oq va qizil olma"ramzlari yor, oqi-oq, qizili-qizil bo'lib yetilgan, ya'ni bo'y yetgan go'zal timsolini ifodalab kelgan.

Bundan tashqari, lirik qo'shiqlarda qizil va qora ranglari bilan bog'liq ramziy obrazlar bo'lib, ular ifodalanish o'rniga ko'ra, turlicha ma'nolarni tashishga xizmat qiladilar. Masalan:

Oshiqman qaro go'zingga,
Shakardan shirin so'zingga.
Go'zallikka boy yuzingga,
Man sannan aylansam garak.
Avvalo do'st tutib bo'lmas,
Do'stni hech unutib bo'lmas.
Qizil gulni sotib bo'lmas,
Man sannan aylansam garak.

Qo'shiqdagi "Qizil gul" obrazi sevgi, muhabbat ramzini ifodalab, oshiqning oila qurish istagini (qizil gulni sotib bo'lmas!) ifodalab kelyapti.

Yoki:
Man nani hayroni, shuni hayroni,
Qarab turgan qora ko'zni hayroni.
Tosh oynaga qarasam, boshim ro'pakli,
Qarasam, galyotir qora telpakli.
Tuynukda bir oy ko'rdim,
Bir oq qashqa toy ko'rdim.
O'n besh yashar chog'imda,
Sakson yashar chol ko'rdim.

[Xorazm xalq og'zaki ijod durdonalari-Urganch,1993,18-

bet]

Har ikkala to'rtlikdagi rang bilan bog'liq"qora telpakli" va"oq qashqa toy" obrazlari oshiq yigit ramzini ifodalab kelmoqda. Mazkur qo'shiqlarda ham sevganiga yetolmagan yorning iztirobli kechinmalari kuylanadi.Birinchi to'rtlikda "boshim ro'pakli"-ya'ni boshi bog'langanligi bunga ishora tarzida berilgan.

Tahlil va natijalar. Xorazm xalq qo'shiqlaridan biri "Xabar olgin"da "qora" ramziy birikmasi orqali baxtiqarolik, ayрилиq, tutqinlik azoblari ifodalanadi:

Ayрилиq dardinnan bag'rim qarodir,
Hech bilmadim, nedan baxtim qarodir,
Yo'ldoshlarim ado bo'lib boradir,
Xabar olgin man g'aribni xolinnan.
Dod aylasam, eshitmadi so'zimni,
Bu badbaxtlar o'yar ikki go'zzimni,
O'linga chog'ladim man ham o'zimni.
Xabar olgin man g'aribni holinnan.

Bundan tashqari qora rang birikma shaklida lirik qo'shiqlar tarkibida qora o'tliq, qora ko'ylak, qora munchoq kabi ko'rinishda uchraydi. Xalq qo'shiqlarining latofati, jozibasi naqadar yuksak bo'lganidek, ma'nosi ham g'oyat terandir."Har bir inson alohida o'ziga xos ehtiroslar, tuyg'ular, orzular, fikrlar olamidir, lekin bu ehtiros, bu tuyg'u, bu orzu, bu fikr qandaydir bitta odamagina mansub emas, balki barcha insonlar uchun mushtarak bo'lgan tabiatning umumiy mulkini tashkil qiladi " deb aytgan V.G.Belinskiyning fikri xalq qo'shiqlariga ham taalluqlidir. Darhaqiqat, xalq qo'shiqlarining har bir qalbga oshnoligi ana shu umummushtarak ehtiroslar, tuyg'ular, orzular va fikrlar olamini asrlar mobaynida o'zida jamul-jam etganida. Qo'shiqlar bizni xalq qalbga yanada chuqurroq olib kiradi. Xalq o'z ruhiy dunyosining buyuk musavviri ekanligini qo'shiqlarda ko'ramiz.

Rang bilan bog'liq ramziy obrazlar lirik qo'shiqlar bilan birgalikda yor-yorlarda ham uchraydi.

Qaro ko'ngil kishida,

Vafo bo'lmas yor-yor,
Aytaversam o'lanlar
Ado bo'mas yor-yor.

Ushbu yor-yor qo'shig'ida kelinchakka vafo qilmagan bir paytlardagi oshiqning ado bo'lmas qilmishlari"qaro ko'ngil" ramziy birikmasida mujassamlashgandir.

Ranglar ifodalaydigan an'anaviy ramziy poetik ma'noli birikmalarni xalq og'zaki poetik ijodi sanalmish yig'yo'qlovlarda ham uchratamiz.

Bizga ma'lumki, o'linga chora yo'q. O'lganning ortidan o'lish ham jasorat emas. Yashab, yengish jasorat. Musibatning tog'day yukini odamzod yelkasidan olib, unga yashash jasoratini beruvchi kuchlardan biri qo'shiqdir. Xalq orasida yig'i -yo'qlov deb ataluvchi bunday mahzun qo'shiqlarning qadim-qadimlardan kelayotgani aniq.

Farzand ota-ona uchun nihoyatda suyukli va aziz. Shundan kishilar oila chirog'i-farzandning bevaqt o'limi, uning dog'idan qattiq qo'rqanlar. Mana shu judolikdan qo'rqan kishilar, "Ota-onaning o'limi meros, ammo farzand dog'idan o'zi saqlasin" deyishadi. Xalq o'rtasida "Oldin kelgan, oldin ketadi" degan ibora yuradi. Biroq o'lim yosh tanlamaydi. Ba'zan u ota-ona bag'ridan farzandni ham yulib oladi. Farzand dog'i esa ota-onalarning yig'ilarida o'ta ta'sirchan bir shaklda ifodalanadi:

Qizilini qiyratmay,
Yashilini yayratmay,
Yayramagan,
Voy bolam.
Qaro ro'mol qo'limda,
Qorayib qoldim yo'lingda
Voy bolam.
Sariq ro'mol qo'limda,
Sarg'ayib qoldim yo'lingda,
Voy bolam.
Sandiq to'la sariq gul,
Taqsam ado bo'lmaydi,
Voy bolam.

Bu yerda qizili-hali hayotda murodi-maqsadiga yetmaganini, yashili- inson umrining bahoru-yozlari hali barq urmasdan so'lganini ifodalab kelmoqda.

Keyingi banddagi "qora ro'mol" ramziy obrazida esa an'anaviy tushuncha -o'lim, kutilmagan ayрилиq, qayg'u, alam, dard anglatiladi. An'anaviy ramziylik—nuqtayi-nazaridan ro'molni oila deb oladigan bo'lsak, bu o'rinda ro'molning oq yoki boshqa rangdagi sifat bilan emas, balki aynan qora rang bilan ifodalanishi mana shu oila boshiga tushgan qaro kun, judolikni iztirob bilan ifodalab kelmoqda. Bu iztirobdan onaningda rangi-ro'yi "qorayib " qolgan.

Keyingi banddagi "sariq ro'mol" va "sarg'ayib qolmoq" ham ayрилиq, hijron ramzini kuchliroq ifodalash uchun qo'llanilgan. "Sariq gullarning ado bo'mas"ligi esa hijronning,ayriliqning olim bilan bog'liqligini anglatib turibdi. Chunki, o'lim bilan bog'liq bo'lmagan ayрилиq, hijronlar vaqt kelib visolga yuz burmog'i mumkin.

Xulosa va takliflar. Xullas, farzand dog'ida iztirob chekayotgan onaning ushalmagan armonlari qizil va yashil ranglar bilan bog'liq ramzlar orqali ya'ni barqaror ramzlar vositasida ifodalangan.

Bizga ma'lumki, xalq maqollari, qo'shiq va yig'i-yo'qlovlarida istifoda etilgan rand bilan bog'liq ramzlar xalqning ko'p asrlar tarixida u yoki bu rang haqida yuzaga kelgan e'tiqodiy, kosmogonik tasavvurlarga asoslanadi. Bunday tasavvurlar esa davr o'tishi bilan barqaror saqlanib qolaveradi. Shuning uchun ham ular barqaror ramzlar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Losev A.F. Logika simvola. Losev A.F. Filosofiya. Mifologiya. Kultura.-M., 1991.-C.258.
2. Xorazm og'zaki ijod durdonalari.-Urganch, 1993,11-bet.
3. O'zbek xalq maqollari. Ikki jildlik. 2-jild. -T.: Fan. - 1988. - 55-bet.
4. Turdimov Sh. Rango-rang dunyo."Yoshlik", 1987, 8-son, 60-62-betlar.
5. Teylor B. "Pervobitnaya kultura" - M.: Nauka. 1989. -C. 76-80.
6. Vamberi G. Ocherki Sredney Azii. -M., 1866. -C. 323-324.
7. Parandovskiy Ya. Alximiya slova.-M., 1972.-208.
8. Losev A. F.Logika simvola.-M.,1991.-S.258.
9. Bu haqda qarang: Filosoficheskiy ensiklopedicheskiy slovar,-M.,1983.-S.607- 608.
10. Sharopov A.Oamlar ichra oamlar.-1978.70-71 betlar.



UDK: 81751

Bibish JO'RAYEVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.d
E-mail: bibish.jurayeva@mail.ru.
Umida YAXYOYEVA,
Buxoro davlat universiteti PhD doktoranti

PhD M.Barotova taqrizi asosida

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA REPRESENTATIV AKT

Annotatsiya

Maqollar xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan folklor namunasi sanalib, hajman qisqa va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatlardir. Ularda chuqur mazmun, muayyan aniq shakl hamda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan bo'ladi. Ushbu maqolada maqollar representativ akt jihatidan o'rganilgan. Representativ akt–borliqda sodir bo'layotgan voqealarni tafakkurda idrok qilish, uning so'zlovchi tomonidan lisoniy vositalar orqali ifodalanishi hamda tinglovchi tomonidan anglanishi bo'lib, nutqiy muloqotda representativ aktlar ba'zan tinglovchi tafakkuridan kelib chiqib turlicha tushunilishi mumkin. Biz ushbu tadqiqot ishimizda turli asarlardagi parchalar asosida maqollarni representativ akt nuqtayi nazaridan tadqiq etdik.

Kalit so'zlar: Nutq akti, representativ, tasdiq, xabar, baho komponenti.

REPRESENTATIVE ACT IN UZBEK PROVERB

Annotation

Proverbs are examples of folklore created as a result of folk wisdom. They embody a deep content, a certain concrete form, and the life experiences, attitude to society, history, mental state, ethical and aesthetic feelings, and positive qualities of the ancestors. A representative act is the perception of reality in existence, its expression by the speaker through linguistic means, and its understanding by the listener. Representative acts in speech communication can sometimes be understood differently based on the listener's thinking. In this research, we analyzed proverbs from the point of view of a representative act based on excerpts from various works

Key words: Speech act, representative, confirmation, message, evaluation component.

ПРЕДСТАВИТЕЛЬСКИЙ ДЕЙСТВИЕ В УЗБЕК ПОСЛОВИЦА

Аннотация

Пословицы – это образцы фольклора, созданные в результате народной мудрости. В них воплощены глубокое содержание, определенная конкретная форма, жизненный опыт, отношение к обществу, истории, душевное состояние, этико-эстетические чувства, положительные качества предков. В данной статье пословицы изучаются с точки зрения репрезентативного поступка. Репрезентативный акт – это восприятие существующей реальности, ее выражение говорящим посредством языковых средств и ее понимание слушающим. Репрезентативные акты в речевом общении иногда могут пониматься по-разному в зависимости от мышления слушающего. В данном исследовании мы проанализировали пословицы с точки зрения репрезентативного поступка на основе отрывков из различных произведений.

Ключевые слова: Речевой акт, представитель, подтверждение, сообщение, оценочный компонент.

Kirish. Bugungi kunda maqollarni kontekstda o'rganish antropologik yo'nalishdagi maqol yig'uvchilarning diqqat markazidir. Ular maqollarga faol og'zaki muloqotning bir qismi sifatida qaray boshladi va ularning matndagi vazifasiga e'tibor qaratdilar. Shunda maqollarni alohida nutqiy harakatlar bilan birlashtirish mumkinligi yaqqol ko'rinib qoldi[1]. Maqollarning nutqiy harakat sifatidagi tushunchasi ancha vaqtdan beri mavjud bo'lib, ushbu nutq harakatining maqollarga nisbatan qo'llanilishining dastlabki namunasi Norriqda[2] uchraydi. Maqollar nafaqat to'g'ridan-to'g'ri ma'noda aytilgan narsalarni anglatadi, balki ichki yashirin ma'nolarga ega bo'ladi va buni faqat matnlaridagina anglash mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Illokutiv aktlarning ilk turi representativ bo'lib, nemis tilshunosi K.Byuller representativ tipni olamni tushunish deb izohlaydi. Representativ akt terminiga ta'rif berilar ekan, bu strukturani nutq ishtirokchilari tomonidan olam va uning elementlarini tasavvur hamda idrok qilish jarayoni deb tushunish o'rinli bo'ladi. Hakimov M., Gaziyeva M. "Pragmalingvistika asoslari" kitobida: "Tilning representativ funksiyasi so'zlovchining borliqqa munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Munosabat esa olamni idrok qilish va anglash orqali yuzaga keladi. Borliqda sodir bo'layotgan voqealarni tafakkurda idrok qilish, uning so'zlovchi tomonidan lisoniy vositalar orqali ifodalanishi hamda tinglovchi tomonidan anglanishi representativ yoki xabar nutqiy aktidir", – deb talqin qilishadi. Usmanov

F. "O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi" ilmiy ishida "Olamning konseptual manzarasi borliqni idrok etish, tushunish va tasavvur qilishdan iborat bo'lib, bu ta'rif representativ aktning mohiyatini to'la-to'kis aks ettiradi. Lisoniy birliklarning representativ vazifasi olamning lisoniy manzarasida namoyon bo'ladi" – deb izohlashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz ushbu ishimizda nazariy va amaliy tadqiqot usullaridan foydalandik. Asosan kuzatish, taqqoslash metodlariga tayandik. Taqqoslab o'rganishda ko'plab adiblar ijodiy merosidan parchalar keltirdik. Zero, yirik tilshunos N.Mahmudov "...qadim zamonlardayoq faylasuflar qiyos qilish bilishning onasidir deb, bu kategoriyaga alohida e'tibor berganlar. Avvaldan ko'pchilikka ma'lum bo'lgan bilimlar o'zaro qiyoslanadi, analogik belgilar o'zaro umumlashtiriladi", – deb ta'kidlaydi. Professor A.Nurmonov ham, inson tasavvur bosqichida predmet, narsa va hodisalarni o'xshashlik belgilari asosida idrok eta boshlaydi, deya fikr bildiradi.

Tahlil va natijalar. Quyida "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi" maqoli qatnashgan asarlarga yuzlanamiz va representativ akt nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz:

1.A.Qahhor "O'g'ri" hikoyasi

Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi – go'yo u ko'chaga chiqsa bas – ho'kiz topiladi. Bu "xudo yallaqagur" shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi.

2.Said Ahmad "Oftobga chiqqan mushuk" hikoyasi

Xo'jayin shunaqa gapni bir haftadan beri kutardi. U salmoqlanib dedi: — Bu mushuk tekinga oftobga chiqmaydi. Shu-shu bo'ldi-yu, idora xodimlari oyiga ikki martadan mushukni oftobga olib chiqib o'ynatib keladigan bo'lishdi. Xo'jayin bir yilga qolmay mushuk pulidan o'g'liga "Jiguli" olib berdi.

3A.Qodiriy "Mehrobdan chayon" romani

"Maxdum ko'pincha kishilar Anvarga uchrashib tarqalg'uncha, yo'lakda o'turib olar edi. Hatto ba'zi vaqt ikki og'iz so'z bilan qaytib chiqqan kishidan ham bir narsa undirishka tirishar: "Mishiq oftobga tekin chiqmaydir", sizdan aqcha so'rashqa iymanganda, menga bir narma tashlab ketsangiz o'zim unga berib qo'yarman", -deb ariza yozdirg'uchining bor aqchasini qoqmalab qolar edi.

"O'g'ri" hikoyasi qahramoni Qobil boboning o'z-o'ziga aytgan "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi" nutqini tahlil etar ekanmiz, Sh.Safarovning quyidagi fikrlariga to'xtalamiz: "Biz muloqot jarayonida mazmunder lisoniy kalimani yaratamiz va uni talaffuz qilish yo'li bilan nutqiy faoliyat bajaramiz, xuddi shu faoliyat ijrosi lokutsiya yoki lokutiv aktdir. Agarda biror bir sabab bilan mazmunder gap talaffuz etilmasa, lokutiv harakat yuzaga kelmaydi"[3]. Ko'rinadiki, Qobil boboning ichki nutqi sifatida keltirilgan ushbu maqolda lokutiv akt yo'q.

Ikkinchi parchada esa xo'jayin tomonidan maqol talaffuz etildi va lokutiv akt sodir bo'ldi. Nutq talaffuz qilindimi, albatta, tinglovchiga ma'lum axborotni yetkazish maqsadi bor. Ushbu maqsadning voqelanishi natijasida illokutiv akt sodir bo'ladi. Yozuvchi S.Ahmad "Mushuk tekinga oftobga chiqmaydi maqoli vositasida o'sha davrdagi ijtimoiy tuzum illati bo'lgan poraxo'rlikni mushuk talqinida bergan. Ma'lum bo'ldiki, ta'magir xo'jayin o'z niyatini ushbu maqol bilan ochiqdan-ochiq bildirib, uning xodimlaridan kutayotgan "pora"si eksplitsit tarzda ifodalangan. "Mushukning oftobga chiqishi" oxir-oqibatda xo'jayin o'g'lining "Jiguli" mashinasiga ega bo'lishi bilan yakunlanadi.

Uchinchi parcha Solih Mahdum nutqidan olingan bo'lib, bu jumladagi mishiq oftobga tekinga chiqmaydi maqoli hozirgi tilimizda qo'llanilayotgan "Mushuk tekinga oftobga chiqmaydi" maqolining shevaga xos shaklidir. Maqol Solih Mahdum tomonidan aytiladi -lokutsiya bor. Lokutiv akt sodir bo'diki, unda illokutiv akt (kommunikativ maqsad) sodir bo'ladi. Ushbu maqol "Sizdan ugina, bizdan bugina" qabilida ish ko'ruvchi poraxo'r, ta'magir odamlarga nisbatan kinoya tarzida qo'llaniladi.

Bu fikrning tasdig'ini biz ushbu maqol tahlilida ham ko'ramiz. Iqtisodiyot hech narsani tekin deb qabul qilishingizga yo'l qo'ymaydi, u har narsani o'lchashga undaydi. Iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, tekin narsaning o'zi yo'q! Qobil boba tilidan keltirilgan maqolda reprezentativ akt baho komponentining salbiylikdan ko'ra ijobiylik belgisi ustunroq. Sababi "Bu "xudo yallaqagur" shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozimda". Bu o'rinda Qobil boba ellikboshining "mehnatiga" yarasha "haq to'lanishi lozimligi"ni o'zi xohlaydi va o'z fikrini to'g'ri ekanligini isboti sifatida ushbu maqolni ta'kidlaydi. Ushbu nutq parchasida reprezentativ aktning ta'kid, tasdiq va ijobiylik ma'nosi aks etgan. Ikkinchi misolda uchiga chiqqan ta'magir xo'jayinning ochiqdan-ochiq xodimlaridan kutayotgan "pora"si nazarda tutilgan. Bu nutq parchasida xabar, tasdiq va salbiylik ottenkalari mavjud. Uchinchi misolda esa bu maqol Solih maxdumni butun shaxsiyatini ochib bergan, chunki "ziqna"likda tengi yo'q va har qanday ishida ikkinchi tomondan "u"gina bo'lgan tadqirdagina Solih maxdum tarafidan "bu"gina bo'lishini asar davomida Anvar "mirzo" etib tayinlangandagina Ra'noni unga uzatishga moyil bo'lganini kuzatamiz. Ushbu maqolda ham xabar, tasdiq, salbiylik ma'nolari aks etgan.

Quyida A.Qahhor "O'g'ri" hikoyasida qo'llagan "Quruq qoshiq og'iz yirtar" maqolini reprezentativ akt jihatdan tahlilga tortamiz.

1.A.Qahhor "O'g'ri" hikoyasi

Kechqurun Qobil boba aminning oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz.

2.Hamza Hakimzoda Niyoziy "Boy ila xizmatchi" pyesasi

Q o z i. (G'ofirga.) Hozirgi inoding ayni hamoqat!

Xolmat (imomga.) Charchamaysiz, domla pochcha, faqat quruq qoshiq og'iz yirtadi, xolos! Satqayi gapingiz ketsin, bu gadoga!

3. Xayriddin Saloh "Ko'ngul ozodadur" qissasi

Binobarin mening paxtakor otam ham hafta sayin avtobusda rayon markazi sari zuv-zuv qatnaydiki, do'kon-po'konga kartoshka, piyoz-miyoz kelib qolarmikan! Qarqunoqdek og'zini ochib o'tirgan sakkiz bolani masal bilan boqib bo'lmaydi, mavlono Gulxaniy!

"Ore rost aytasiz,-degan guldurak tovushdan cho'chib tushdim.Ro'paramda shamshoddek bo'lib Muhammad Sharif turardi. - Mashoyixlar so'zi budurkim, quruq qoshiq og'iz yirtar"

Birinci parchada keltirilgan "Quruq qoshiq og'iz yirtadi" maqoli Qobil boboning mavjud vaziyatdan kelib chiqqan monologi. Demak, lokutsiya yo'q.

Kontekstdan kelib chiqsak, bu maqoldagi illokutiv akt - Qobil boba keksalarga xos hamda o'zbek milliy urf-odatlarimiz yuzasidan birovning oldiga "quruq" bormoqchi emas, chunki u "quruq" borsa, uning ishi bitmasligini biladi. O'sha davrda jamiyatda ildiz otgan poraxo'rlikning yozilmagan qonuni shunday. Demakki, birovga ishing tushsa, unga qilinadigan iltimos shunchaki bo'lmasligi lozim. Birovdan biror manfaat ko'rmoq uchun uni ham biror narsa bilan manfaatdor qilish, kiringa erishmoq uchun chiqimdan qochmaslik kerak bo'ladi. Ushbu nutq parchasida reprezentativ aktning ta'kid, tasdiq va ijobiylik ma'nosi aks etgan.Chunki Qobil boba bu oxirgi chiqimligini va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqimligini, shuning uchun pulning yuziga qarash aqlidan emasligini biladi.

Ikkinchi parcha Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Boy ila xizmatchi" pyesasidan olingan bo'lib, pyesa voqeasi uch xotin, besh farzandli oltmish yoshli Soliboy yoshi bir joyga borib qolganda G'ofir ismli xizmatkorini uylantirib, "san mani o'g'limsan, xotining endi menga kelin bo'ldi", deb turib Jamilaga ko'zi tushishi bilan ahidan qaytib "shariat peshvolari" bo'lmish o'zining laganbardorlari domla,qozi,imom va Xolmatlarni chaqirib G'ofirni xotinini taloq qilishga ko'ndirmoqchi bo'ladi. Ammo G'ofirni so'z bilan xotinini qo'yishga ko'ndirolmagach, har narsani o'z qarichi bilan o'lchaydigan laganbardorlar Gofirni qarshiligini uning muddaosi boyning pulida gumon qilib "Quruq qoshiq og'iz yirtar" maqolini aytishadi va Gofirga ming so'mni tutqazadi. Ushbu maqol Xolmat tomonidan talaffuz etildi-lokutsiya bor. Maqolning kontekstdagi maqsadi- aytilayotgan shuncha gaplar "quruq" bo'lib, rozilikka "moyli" yo'l orqali erishiladi. Bu nutq parchasida reprezentativ aktning ta'kid, tasdiq va salbiylik ma'nosi aks etgan

Uchinchi parcha Xayriddin Sultonning "Ko'ngul ozodadur" qissasidan olingan bo'lib, qissada ozoda ko'ngil egasi bo'lgan G'ulom Muhammad Sharif Gulxaniy bilan hayolan birga yashaydi, suhbatlashadi, ammo Gulxaniyni qalb ko'zi bilan ko'rish, dil qulog'i bilan eshitish mumkin. Asar Gulxaniyning hikoyatlari, maqollari va baytlari bilan yanada boyitilgan. Tahlil qilinayotgan "Quruq qoshiq og'iz yirtar" maqoli Muhammad Sharif tomonidan aytilgan. Lokutsiya bor. Ushbu maqol G'ulom otasining og'ir ahvoli tasdig'i sifatida keltirilgan. Illokutiv akt-G'ulomning paxtakor otasi qishloqda sakkiz jonni boqish maqsadida hafta sayin avtobusda rayon markazidagi do'konga oziq-ovqat ilinjida qatnaydi, chunki sakkiz jonni masal bilan qornini to'ydirib bo'lmaydi. Ushbu nutq parchasida reprezentativ aktning ta'kid, tasdiq va salbiylik ma'nosi aks etgan.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, reprezentativ aktli maqollar tinglovchiga muhim xabar yoki saboqni ixcham, qisqa ifodalarda yetkazadi. Ushbu tahlillar ko'rsatdiki, pragmatik, ya'ni implisit ma'no ijodkorning maqsadlari tufayli paydo bo'ladi va bunda kontekstning o'rni katta ahamiyatga ega. Zero, maqollar turli kontekstlarda turlicha illokutsion aktlar orqali ishlatilishiga guvoh bo'ldik. Yuqorida bir maqol ijtimoiy munosabatlarda ijobiy baholash akti sifatida ishlatilsa, boshqa kontekstda u tanqidiy akt sifatida ishlatilishi mumkinligini ko'rib o'tdik.Demak, kontekst maqolning ma'nosini, uning qanday kommunikativ vazifa bajarishini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR

1. Hakimov M. "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini". Filolog.Fan.Dok...diss.-Toshkent, 2001.
2. Norrick N. R. How proverbs mean. Semantic studies in English proverbs. – New York: Mouton, 1985
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika.-Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008
4. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh..Ma'nolar maxzani. —T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001.
5. Jurnallar
6. Alshorafat, O. (2016). Speech Acts of NorthEastern Badia's Proverbs. AM Thesis. Al-alBayet University. Jordan.
7. Ali, A & Makhlef, A Speech Act Analysis of Some English and Arabic Proverbs. Tikrit University Journal for Humanities.
8. Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 144 с.; Арнолд И.В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкознания, 1982. – №4. – С. 83-91.
9. Hor, G & Jamal, H. (2007). A Test of Searle's Speech Act Theory: A case Study of Lebanese Religious Proverbs. International Journal of Humanities.
10. Jombadi, A & Juliana, J. (2014). A Pragmatic Study of Yoruba Proverbs in English. International Journal of Novel Research in Education and Learning.
11. Mieder, W. (2004) Proverbs: A Handbook. Westport/Connecticut/London, Greenwood Press.
12. Norrick, N. R. (1985) How Proverbs Mean. Berlin, Walter de Gruyter
13. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008.



Feruza ZARIPOVA,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o'qituvchisi

E-mail: feruzazaripova850@gmail.ru

ToshDAU dotsenti, PhD G.Tilovova taqrizi asosida

SYNTACTIC AND STYLISTIC PECULIARITIES OF TRANSLATING THE FUTURE TENSE VERB MEANINGS FROM ENGLISH INTO UZBEK LANGUAGE (IN LITERARY TRANSLATION)

Annotation

The tense category is one of the universal language categories researched in comparative typology. This following category exists in the verb system of all languages. Both English and Uzbek languages studied on a comparative typological basis which have forms of verb tenses, and also have morphological, lexical and syntactic means of expression. In both languages, verb tenses are defined by three tenses: present, past, and future tenses.

Key words: Comparative typology, future tense, stylistic, syntactic-semantic peculiarities, translation, category, action, stativeness, modality.

СИНТАКСИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ЗНАЧЕНИЙ ГЛАГОЛОВ БУДУЩЕГО ВРЕМЕНИ С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК (В ЛИТЕРАТУРНОМ ПЕРЕВОДЕ)

Аннотация

Категория времени является одной из универсальных языковых категорий, исследуемых в сравнительной типологии. Эта следующая категория существует в системе глаголов всех языков. На сравнительно-типологической основе изучаются как английский, так и узбекский языки, имеющие формы времен глаголов, а также морфологические, лексические и синтаксические средства выражения. В обоих языках времена глаголов определяются тремя временами: настоящим, прошедшим и будущим.

Ключевые слова: Сопоставительная типология, будущее время, стилистические, синтаксико-семантические особенности, перевод, категория, действие, стативность, модальность.

INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMADA KELASI ZAMON FE'L MA'NOLARINI SINTAKTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI (BADIY TARJIMADA)

Annotatsiya

Zamon kategoriyasi qiyosiy tipologiyada tadqiq qilinadigan universal til kategoriyalaridan biridir. Bu quyidagi turkum barcha tillarning fe'l tizimida mavjud. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy tipologik asosda o'rganilgan, ular fe'lining zamon shakllariga ega, shuningdek, morfologik, leksik va sintaktik ifoda vositalariga ega. Ikkala tilda ham fe'l zamonlari uchta zamon bilan belgilanadi: hozirgi, o'tgan va kelasi zamon.

Kalit so'zlar: Qiyosiy tipologiya, kelasi zamon, stilistik, sintaktik-semantik xususiyatlar, tarjima, kategoriya, harakat, turg'unlik, modallik.

Introduction. The scientific description of literary translation consists in the fact that it is important not to give words with words, but with meaning with meaning, image with image, humor with humor. The difference between literary translation and other types of translation is that it is not enough to correctly translate a word, a sentence or an entire work. In this case, the translator should also be an artist. As for the concept of norm, normative manifestations in the English and Uzbek literary language and artistic works, violations of the norm in the speech process and ways to correct them, English and o The current normative status of Uzbek languages is that the language is a criterion of culture. In literary translation the translator must not only know two languages, but to know them along with the rules and conditions of the transition from one language units to units of another, from one culture to another [1]. For this he should be able to use the technique of using the adequate means of expression of the author's thoughts and, therefore, it is required that there are a set of competencies, taking into account both linguistic and extra-linguistic factors . Norm is the state and possibility of using language units in the speech process, which are accepted, approved and understandable by the members of the society [2].

Research methodology. As a result of research, linguistic description, comparative-typological, systematic analysis, transformation and modeling methods and translation transformations are used particularly in literary translation.

Literature review. Some theoretical and practical aspects of issues related to the syntactic and semantic analysis of verb

forms in the Future Tense and their grammatical and stylistic features and specific peculiarities in the usage of verb forms in translation from English into Uzbek based on the sentences related to the literary context. Several issues on syntax analysis of the sentence as a part of the structure of syntactic analysis of both languages have been investigated in the scientific works of foreign and local scientists in the sphere of linguistics and translation such as Komissarov, V. N. Korneeva, EA. Abdurahmanova, G. and others. Mukhin, A.M. Elena Ye. Aksyonova, Akhtambaev, R. Though professor A. Mukhin predicted that "syntax analysis of the sentence as a part of the structure of syntactic analysis can be directly applied in the field of translation in contrast to the component analysis of the sentence" [8]. Moreover, professor Komissarov mentioned that as for translator knowing two languages is not sufficient, the translator must know the languages with the rules and conditions of the transition from one language units to units of another, from one culture to another [1]. Despite the significant contribution and knowledge of the local linguists and scientists the usage of verb forms expressing the Tense was not applied in translation from English into Uzbek or from Uzbek into English. Syntactic, semantic and stylistic analysis of the sentence taking into account tenses are not studied extensively and not studied in a single, complex form as an object of research especially in translation from English into Uzbek based on literary text.

Research methodology. As a result of research, linguistic description, comparative-typological, systematic

analysis, transformation and modeling methods and translation transformations are used particularly in literary translation.

Analysis and results. In addition, to express the future tense, present tense (leave) and present continuous verb forms (to be leaving) and phrases (to be about to, to be on the point of doing something, to be on the verge of doing something)), lexical tools (for example, tomorrow, next day, next week/month, year, etc.) are used. Each of them, along with having its own syntactic semantics, differs from each other by its formal-distributive features, such as connection with other syntactic elements when activated in a sentence, their place in a sentence, and lexical sources.

At the same time, the tenses of the verbs in the two languages do not meet in pure form. They embody the categories of aspect, indifference and inclination. This indicates that it is active in the language. The future tense forms of the verb express the meaning of the future tense as well as the meaning of certain modality and suspicion. Because by its nature, the action that will happen in the future is predicted or suspected in the form of a hypothetical (hypothesis). That's why in English and Uzbek languages, future tense verb forms mean certain types of suspicion, modality, that is, desire, desire, obligation, duty, trust, hope, hope, promise.

In English, the future tense form of the verb is expressed only by analytical means, and in Uzbek, this meaning is expressed by a synthetic method. For example: I shall go to the University. I will leave for Germany next year.

In contrast to English, in Uzbek language grammars, the future tense form of the verb is studied in two different ways: 1) the definite form of the present-future tense; and 2) present-future subjunctive form. The definite form of the present-future tense is formed by marking the adverb formed with the morpheme -a, -y with person-number. For example: in Uzbek *kelmaysan* (present-future tense) — *kelmayapsan* (present tense).

These verb forms in English why don't you say anything? With (Present Indefinite) - corresponds to the forms Why aren't you saying anything (Present Continuous). Meanwhile, the verb form expressed by the morpheme -a expresses any action that is certain to be performed in the future, so it expresses the future tense. For example: *Buvisiga tortadi shekilli* [9]. *Unda qachon kir yuvasizlar,kinoga borasizlar* [9].

It is worth noting that the auxiliary verb "Will" is also used in English to express the situation mentioned above in Uzbek, that is, to express a habitual action or a habitual characteristic, behavior. For example: He will remember whatever you say. Sugar will dissolve in hot tea.

As can be seen from the examples given above, the present-future form of the verb in Uzbek and the meaning it conveys correspond to the present tense indefinite form of the verb in English and the meaning it expresses.

Therefore, in Uzbek language grammars, the present-future form of the English language is interpreted as the present indefinite verb and the present tense verb is interpreted as the present continuous verb.

The past tense form of the verb will is used when a habitual, repeated action or behavior is referred to in the past tense. For example: On Mondays, when I was younger, we would eat cereal with our family members for breakfast.

The above examples show that there is a commonality in the future tense verb system of both the languages being compared [3].

Unlike the modal verb will, when it is used as a modal verb, it also means a suggestion, a request for advice, and a compliment. For example: Shall I carry your bag? Shall we go out for lunch? What shall we do?

Unlike English, in Uzbek, when the future tense is mixed with the meaning of modality, the present-future tense of the verb is used to express it. It is formed using the morpheme -(a)r (-mas) of the adjective [4]. For example: *Oyingga ertaga boshqa sotvolarman,pul bor,maosh tegadi* [9].

It is better to emphasize that the future tense forms of the verb in the compared languages are shall + infinitive and will + infinitive in English, and -a, -y, -(a)r -mas in Uzbek which express the meaning of predicting future actions and situations [4].

At the same time, in English, will+ infinitive can be used in the form of a command, a command, that is, instead of ordering someone to do something, it can express a firm statement that it is inevitable that this action will happen. For example: He will go to school at 8 o'clock.

In the sense of modality, will + infinitive expresses a definite desire, goal, promise or threat. For instance.I will start learning Spanish.

Men ispan tilini o'rganishni boshlayman. I will motivate my son to attend football trainings. Men o'g'limni futbol mashg'ulotlarida ishtirok etishiga ruhlantiraman.

In the first of these sentences, "will start" means a firm desire, while "will motivate" in the second sentence expresses goal.

In English, the future tense form of the verb shall/will+infinitive is mainly used in the structure of complementary clauses, following verbs expressing personal thoughts and opinions. The group of these verbs includes to think, to know, to believe, to hope, to suppose, to be afraid, to doubt, to have no doubt, to suspect, to be sure, etc. For example: He believes that all his efforts will help him to achieve results; I know what I shall do at work.

So, taking into account that present-future verb forms in the Uzbek language can express present and future tenses regardless of some modal meanings, they are called "present-future tenses", regardless of whether they are mixed with the modal meaning in English, shall/will +infinitive is interpreted as the future tense form of the verb, and Shall and Will are included in the list of modal verbs and studied separately as modal verbs.

In addition, in English there are a number of verb forms and ready-made expressions such as the Present Continuous form of to be going to, to be to do, to be about to do, to be on the verge of doing, which are represents the action to be performed in the future tense.

So, taking into account that present-future verb forms in the Uzbek language can express present and future tenses regardless of some modal meanings, they are called "present-future tenses", regardless of whether they are mixed with the modal meaning in English, shall/will +infinitive is interpreted as the future tense form of the verb, and Shall and Will are included in the list of modal verbs and studied separately as modal verbs [8].

It is known that in English, the future tense of shall/will+infinitive forms shall+infinitive is used in the first person singular and plural, and will+infinitive is used in the rest of the persons in both singular and plural forms. In contrast to English, in Uzbek language grammars, the future tense form of the verb is studied in two different ways: 1) the definite form of the present-future tense; and 2) present-future subjunctive form. The definite form of the present-future tense is formed by marking the adverb formed with the morpheme -a, -y with the person-number. We will consider this in the analysis of two sentences from E. Hemingway and its translation into Uzbek. For example:

1.'I will walk down with you' (E.Hemingway,1976) – Sizni kuzatib qo'yaman [6]. 2.'I will sing at the Scala' (E.Hemingway,1976) - Men "La Skala"da (qo'shiq) aytaman [6].

As it can be seen from these examples, in both sentences, the auxiliary verb "will" comes as part of the "will walk (down)" and "will sing" combinations, and indicates that the action represented by the sentence part is in the future tense. It forms the basis (nucleus) of the sentence by connecting with the possessor through the predicative relationship, without which there cannot be a two-syllabic sentence in English.

So, the syntactic construction of these sentences consists of the participle and the secondary, subordinate, subordinative (with you, at the Scala) components. Because if one of the possessive and participles is omitted, the basis of the sentence is broken, but the omission of subordinate components from the structure of the sentence does not affect the main structure of the sentences. For example: 1.*...will walk down with you - *I with you - I will walk ...; 2.*...will sing at the Scala - *I ... at the Scala - I will sing ...

However, in the translation of the first of the idiosyncratic sentences, the possessor (I) is dropped from the structure of the

sentence, which does not damage the basis of the sentence. Because, typologically, the Uzbek language is a synthetic language, so there is no need for the personal suffix -man to be added to the verbs expressing participles and the possessive in the sentence. See: 1. I will follow you. So, in English, a two-component sentence has and a participle is necessary, while in Uzbek, it does not have to be in a sentence, and it has a facultative (free) feature from the stylistic (style) point of view. The possessive in the translation of the second sentence can also be omitted. For example:

2. Men "La Skala"da (qo'shiq) aytaman - ... La Skala"da (qo'shiq) aytaman. Because the personal suffix -man (qo'shiq aytaman) already exists in the verb.

Now we will begin to study the semantic symptoms of the verb forms will+infinitive (will walk, will sing) which express the participle on the basis of the defined predicative connection. As it can be seen from these examples, in both sentences, the auxiliary verb "will" comes as part of the "will walk" and "will sing" combinations, and in addition to the meaning of the future tense, it also means the meanings of modality such as desire or wish.

In addition, the verbs walk, sing in these compounds also have the semantics of activity (movement), which is a predicative syntactic relationship with the pronoun I (me) with agentive semantic element performing the action in the place of possessor,

in contrast to its stative (state) and other syntactic semantic signs (conjunction) included in the sentence. Because a syntactic element with activity semantics is usually combined with elements with agentive semantics.

Conclusions and recommendations. So, the analyzed future tense verb will+infinitive has the semantics of activity and modality. These syntactic-semantic signs together form the future modal active syntax used in the sense of the future tense. In addition, in English shall+infinitive, will+infinitive and in Uzbek there are future tense verb forms that bring the additions -a, -y, - (a)r -mas, which are futurity (future), activity (action), modality (attitude), stativeness (state), negativity (non-divisibility), interrogativeness (questioning), directionality (orientation), identifier (explanatory) means syntactic-semantic signs. These semantic symbols combine with each other and represent a number of future temporal syntaxes that differ from each other by their distributive properties and lexical sources, and their reflection in the translated text as much as possible confirms the originality of the translation. Finally, professor A. Mukhin predicted that "syntax analysis of the sentence as a part of the structure of syntactic analysis can be directly applied in the field of translation in contrast to the component analysis of the sentence" [8].

REFERENCES

1. Komissarov, V. N. (1997). Theoretical foundations of methodology of teaching translation. Moscow: Rema.
2. Elena Ye. Aksyonova, Akhtambaev, R. 'Literary Translation Learning as an Aspect of Intercultural Communication', Language and Culture, 154 (2014), 333 – 339.
3. Корнеева Е.А. Грамматика английского глагола в теории и практике. "Изд. Союз" Санкт-Петербург. 2000. Стр. 106-120.
4. Ўзбек тили грамматикаси. I том. МОРФОЛОГИЯ. (Масъул муҳаррир: Г. Абдурахмонов ва бошқ.). Ўзбекистон ССР «Фан» нашриёти. Т., 1975. –Б 500-503.
5. Hemingway E. A Farewell to Arms. Moscow. 2017.-Б.320.
6. Хемингуэй. Алвидо кирол. Роман. И.Гаффаров таржимаси. F.Ғўлом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент-2009. -Б. 343.
7. Мухин А.М, Синтаксический анализ и проблема уровней языка. Л., 1980. –С. 245.
8. Мухин А.М. Лингвистический анализ. Теоретические и методологические проблемы. Изд. «Наука», Ленинград 1976. – С.281.
9. Мусахонов Ф.Бўш келма, Алиқулов. Роман. "Юлдузча" нашриёти. Тошкент-1983. -Б. 253.



ShexrozbeK IBRAGIMOV,

Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

E-mail: ibragimovshexrozbeK@gmail.com

IMPULS tibbiyot instuti professori, f.f.d N.Otajonov taqrizi asosida

LEXICAL CHARACTERISTICS OF LITERAL STYLISTIC DEVICES

Annotation

This article describes the lexical features of artistic image tools and their expression in translation. When the figurative means were analyzed in the works whose original language is English, and the translation is Uzbek, it was justified that they should be translated with an alternative lexicon rather than giving them exactly.

Key words: Stylistic device, lexical unit, metaphor, simile, exaggeration, translation, literal work.

ЛЕКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ

Аннотация

В данной статье рассмотрены лексические особенности средств художественного изображения и их выражение в переводе. Когда были проанализированы образные средства в произведениях, языком оригинала которых является английский, а перевод – узбекский, было обосновано, что их следует переводить с альтернативной лексикой, а не давать их точно.

Ключевые слова: Образное средство, лексическая единица, метафора, аллегория, преувеличение, перевод, художественное произведение.

BADIIY TASVIRIY VOSITALARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy tasvir vositalarning leksik xususiyatlariga va ularni tarjimadagi ifodasi bayon etilgan. Tasviriy vositalar aslyat tili ingliz, tarjima esa o'zbek tili bo'lgan asarlarda tahlil qilinganda, ularni aynan o'zini berishdan ko'ra, muqobil leksika bilan tarjima qilinishi asoslandi.

Kalit so'zlar: Tasviriy vosita, leksik birlik, metafora, tashbeh, mubolag'a, tarjima, badiiy asar.

Kirish. Badiiy tasviriy vositalar har qanday nasriy va nazmiy asarlarga o'zining purma'noligi va serjiloligi bilan alohida badiiylilik kasb etadi. Shuning uchun shoir va yozuvchi "so'z san'atkor" deya ham ataladi, chunki ular asarlarda so'zlarni turli xil ma'nolarda qo'llash orqali o'quvchiga ma'naviy bilim berishga harakat qiladilar.

Badiiy adabiyotda shoir va yozuvchilar badiiy tasvir vositalardan keng foydalanishi bizga ma'lum. R.Qo'ng'urov tomonidan berilgan ta'rifga e'tibor qaratsak, "tasviriy so'zlar badiiy adabiyotda, o'g'zaki nutqda, folklorda juda ko'p ishlatilib, ular nutqqa badiiy bo'yq, ekspressivlik beradi" [13] degan fikrni aytganda haq edi. Shu sababli, adabiyotni tasviriy vositalarsiz tasavvur qilish qiyin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy san'atlar yuzasidan qilingan ilk asar albatta Aristotelning "Poetika"sidir. Keyingi yillarda qilingan ishlarga ana shu asar asos bo'lgan. Badiiy tasvir vositalari doimo ilmiy tadqiqotchilarning diqqat markazida. Xususan, jahon olimlari J.Serl, M.Blek, A.Ortoni, J.Lakoff, M.Jonson, J.Litlmor, J.Laura, J.R.Jones rus olimlar E.V.Fursova, O.V.Uarova, M.A.Yujannikova, Y.V.Ivanova, Y.V.Namichkina, L.Pey, I.M.Gabdulxakova, N.Golovko, M.A.Arutyunyan o'zbek olimlari R.Qo'ng'urov, E.Qilichev, A.Y.Boboniyozov, M.Mirtojiyev, O.V.Dibrova, D.M.Xoshimova, G.Y.Rofiyeva, G.S.Nasrullayeva, Sh.T.Maxmaraimova, G.K.Qobuljonova, E.E.Allanazarov, M.Karimov, X.M.Turaxonova kabilarning ishlarida badiiy tasvir vositalari turli: lingvistik, semantik, pragmatik, lingvokulturologik va boshqa yo'nalishlarda tadqiq qilingan. Tadqiqot ishlarida turli davrlarda yaratilgan asarlarni asosiy obyekt sifatida tanlagan va ularning tarjimalarini qiyosiy tahlilga tortgan. Shunday bo'lsa-da, Harold Lembning "Bobur – Yo'lbars" romanida mavjud tasviriy vositalarning tarjimasi bilan o'zaro qiyosiy tadqiq qilingan emas.

Harold Lemb Amerika Qo'shma Shtatlarida tug'ilib, ijod qilgan tarixchi, dramaturg va romannavis sifatida mashhur. Yozuvchi sharq va g'arbda mashhur Aleksandr Makedonskiy, Amir Temur, Chingizxon, Sulton Sulaymon, Hanniballar haqida roman va asarlar bitgan shu bilan birgalikda boburiylar

sulolasining asoschisi shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida "Babur the tiger" (Bobur-Yo'lbars) tarixiy avtobiografik romani ham yozgan. Ushbu roman o'zbek tiliga tarjimon G'ofurjon Sotimov tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

fikricha, insonga hayot muallimlik vazifasini o'taydi. Hayot davomida olingan bilim va tajriba tezaurusda to'planadi. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan, saralangan bilim tafakkurda sobitlashadi. Demak, bilim-tajriba-ilm uchligi, bir umr sinilib, eng zaruriylari konsentrat bo'lib inson tafakkuri va genida yashab qoladi, ajdoddan avlodga o'tadi. Olima konsept va konseptosfera masalasini o'rganib, konseptni quyidagicha ta'riflagan: "konsept inson ongu-shuurida dunyo, voqelik hamda shaxsning o'zi haqidagi axborot, bilimlar va baholarni tasavvur qilishning muayyan tuzilmalari ko'rinishida qorishiq saqlanadi va tizimlanadi. Muayyan narsa-predmetning konsepti makon va zamonda o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lib, u qotib qolgan "jism" emas, balki kulol qo'lidagi loydek turli ko'rinishni egallaydi". Demak, konseptning shakllanishiga vaqt va atrof-muhitning ta'siri katta. Shu sababli turli etnoslarda bir konsept ba'zan turfa ma'nolarda qo'llanadi. Bu jarayonda ma'lum bir konseptga oid tushuncha va ma'nolar maydoni yoki ularning yig'indisi konseptosferani tashkil etadi. Konseptosfera alohida so'zlar orqali ham namoyon bo'lishi mumkin. Konsept va konseptosfera tushunchalarining umumiy jihati shundaki, ular inson ongida shakllanib, muayyan obrazlarni aks ettiradi. Binobarin, konseptosfera fikrlashning in'ikosi hisoblanadi, u universal predmetga oid ramziy birliklarning majmuasi sifatida insonning axborot doirasini belgilaydi va so'z, metafora, frazeologizmlar hamda sintaktik tuzilmalar orqali ifodalanadi.

Rus olimi G.Slishkinkonseptosferani inson tafakkurining soddalashtirilgan modeli sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, konseptosfera milliy qadriyatlarni umumlashtiruvchi tizim bo'lib, ilmiy va maishiy hayotdagi haqiqat, yolg'on hamda tushuniladigan ma'nolar yig'indisini o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, konseptosfera – idrok etilgan obyektlarning semantik tahliliga asoslangan tushunchalar tizimi bo'lib, u doimiy rivojlanib boradi. D.Baxronovanning ta'kidicha, "konseptosfera fikrlash in'ikosi sifatida insonlarning axborot doirasini tashkil qilib, u til birliklari bo'lgan so'z, metafora, frazeologizm, sintaktik struktura kabilar orqali yozma va og'zaki nutqda verbalashadi". Inson faqat o'z konseptual tizimidagi ma'nolarni tushunishga qodir bo'lib, obyektlarni talqin qilish usuli ham shu tizimga bog'liq. Konseptlar o'zaro tizimli munosabatda bo'lgani sababli, ularni chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

"Yer-Tierra" konsepti tabiatga oid elementlar ichida eng ko'p integratsiyalangan va frazeologik birliklar yaratishda keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu konsept semantik jihatdan keng qamrovlidir, turli tillardagi turg'un iboralar tarkibida faol ishlatiladi.

Masalan, ispan tilidagi "En cada tierra su uso" maqoli "har bir yerda o'sha hududning urf-odatlariga moslashish tavsiya etiladi" degan ma'noni anglatadi. Ushbu maqolga o'zbek tilidagi "Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh-u, tarozu" maqoli ekvivalent bo'la oladi va har bir mamlakat yoki hududning o'z qonun-qoidalari, yaxshi va yomon tomonlari borligi hamda o'z vatani, tug'ilgan yeri aziz joy ekanligi implisit ravishda ifodalanadi.

Keyingi "quedarse en la tierra" so'zma-so'z tarjimada "yerda qolib ketish" yoki "ulovsiz piyoda qolib ketish" mazmuni anglashilsa-da, aslida biror kishi o'ylagan maqsadiga erisha olmaganida, u yoki bu vaziyat u xohlaganidek bo'lmaganida, niyati amalga oshmaganida ishlatiladi. O'zbek tilidagi "chuchvarani xom sanamoq" yoki "umidi puchga chiqmoq" iborlaridagi muvaffaqiyatsizlik, reja barbod bo'lishi, ko'zlagan maqsadiga erisha olmaslik semalari ispanchadagi farzeologizmga mazmun jihatdan birmuncha yaqindir. Biroq, to'g'ridan-to'g'ri tarjimadagi "yerda qolmoq" iborasi o'zbek adabiy va og'zaki tilida ko'p uchraydi, masalan, "so'zi yerda qolmoq" mazmunida "e'tiborsiz qoldirmoq, hurmatsizlik qilmoq" ma'nolari anglashiladi.

"O'lim" konseptining ramziy harakat sifatida qaralishida ispan tilidagi "estar bajo la tierra", "estar comiendo la tierra" ("yer ostida qolmoq", "yerni yemoq, tishlamoq") iboralari o'lgan, vafot etgan, ko'milgan mazmunini anglatadi. O'zbek tilida "yer tishlamoq" iborasi peyorativ mazmunda "o'lmoq"; "yer tishlatmoq" esa, "mag'lub etmoq, yengmoq, o'ldirmoq" kabi mazmunda ishlatiladi.

Til – inson tafakkurining aks sadosi bo'lib, unda madaniy qadriyatlar, dunyoqarash va ijtimoiy munosabatlar o'z ifodasini

topadi. Xususan, frazeologik birliklar tilning badiiy-estetik qirralarini yoritishda muhim vositadir. Ushbu maqolada ispan va o'zbek tillarida "yer" konsepti asosida shakllangan frazeologizmlarning konseptual-semantik va stilistik jihatlari tahliliga e'tibor berildi. Ispan tilidagi "Faltar a alguien tierra debajo de los pies" frazeologik birligi ishonchsizlik, beqarorlik va xavf hissini ifodalaydi. Bunda "yerning oyoq ostidan yo'qolishi" tasviri orqali inson o'zini himoyasiz, noqulay his qilishi aks ettirilgan. Ushbu iborani o'zbek tiliga "o'zini qo'yarga joy topolmadi" yoki kontekstga qarab "tagiga suv quydi" tarzida tarjima qilish mumkin. Ramziy ma'noda "yer" konsepti ispan tilida barqarorlik va ishonch bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida "joy" va "tag" komponentlari orqali ifodalanadi.

Shunga qarama-qarshi ma'noda ispan tilida "Con los pies en la tierra" (yerda oyoqlari bilan (mahkam turmoq) frazeologik birligi qo'llaniladi. Ushbu birikma shaxsning qat'iyati, o'ziga bo'lgan ishonchi va hayotga realistlik yondashuvini aks ettiradi. O'zbek tilida mazkur iboraga ekvivalent sifatida "o'z ishinig ustasi" yoki "yerda mustahkam turmoq" shakllaridan foydalanish mumkin.

Har qanday rejaning buzilishi yoki amalga oshmay qolishi tushunchasi ispan tilida "Echar por tierra" (yer bilan yakson qilish) iborasi orqali beriladi. O'zbek tilida bu tushunchaga mos keluvchi ekvivalent sifatida "yer bilan yakson

qilish" yoki "chippakka chiqarish" birikmalari ishlatiladi. Ushbu frazeologizmlar biror ishning tashqi omillar sababli amalga oshmay qolishini ifodalash uchun qo'llanadi.

Ispan tilidagi "Ser el ombligo de la tierra" (yerning kindigi bo'lish) iborasi ikki xil kontekstda ishlatiladi. Birinchisi – dunyo miqyosida muhim voqea yoki shaxsni tasvirlash, ikkinchisi esa insonning o'ziga bino qo'yishi, muhim va markaziy shaxs deb hisoblashidir. O'zbek tilida unga ekvivalent sifatida "o'zini dunyoning markazi deb bilmoq", "manman bo'lmoq" kabi ifodalardan foydalanish mumkin.

Qisqa qilib aytganda, frazeologik birliklar milliy madaniyat va tafakkurning ifodasi bo'lib, har bir xalqning dunyoqarashini aks ettiradi. Ushbu maqolada ispan va o'zbek tillarida "yer" konsepti asosida shakllangan frazeologizmlar konseptual-semantik jihatdan tahlil qilindi. Ispan va o'zbek frazeologiyasi o'ziga xos bo'lishiga qaramay, ayrim jihatlarida o'zaro mos tushuvchi obrazlarga ega. Jumladan, "yer yutdi", "yer bilan yakson qildi" kabi iboralar ikkala tilda ham mavjud, ular insoniy tajribalarni ifodalashda universal tus olganligi oydinlashdi.

Ushbu tadqiqot frazeologik birliklarning nafaqat kognitiv, balki madaniy jihatdan ham qanchalik muhim ekanligini ko'rsatdi. Bunday iboralar chuqur o'rganish til va madaniyatning uzviy bog'liqligini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаева Р. Оламнинг лисоний манзараси// ФарДУ Илмий хабарлари. – Фарғона, 2018. – No 5. – Б. 133-137.
2. Бахронова, Д. (2019). Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера. Хорижий филология, 3, 62-68.
3. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Курс лекций по английской филологии. – Изд. 2-е, стер. – Тамбов: Изд-во Тамб. ун-та, 2001. – 123 с.
4. Слышкин Г. Г. Лингвокультурный концепт и идеология // Известия ВГПУ. – 2005. No3. – С. 31.
5. Bakhronova, D. (2021). Words and culture. Language, globalization and intercultural. Religación. Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades, 6(27), 239-246.
6. Baxronova, Dilrabo, & Kamoliddinova, Saodat (2024). OLAMNING KONSEPTUAL MANZARASIDA "YER – TIERRA" LEKSEMASINING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (1), 309-316.
7. Zaripova R.I. Ingliz va o'zbek tillarida oddiy so'zlashuv nutqiga xos frazeologizmlarning adabiy normaga munosabati: filol. f. d. (PhD) dis. avtoref. – Buxoro, 2020. – 50 b.
8. Baxronova D. O'zbek va ispan tillarida olam manzarasining lingvokognitiv kategoriyalanishi: Filol.f.d.(DSc) dis. – Toshkent, 2022. – 245 b.



UDK: 81.03

Madinabonu QODIROVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: begonammm@gmail.com

NamDU dotsenti U.Qo'ziyev taqrizi asosida

DATABASE OF SYNONYM AUXILIARY WORDS FOR MACHINE TRANSLATION

Annotation

This article analyzes the problems encountered in the process of introducing the synonymy of auxiliary words in the Uzbek language into the linguistic database. In particular, despite the fact that auxiliary words express grammatical meaning, they differ in their location in the sentence and syntactic function, the features of their connection with various grammatical suffixes, the limitations of the semantic field, and the existence of synonyms that are not fully compatible with each other are discussed. The study substantiates the need to clearly define the grammatical and semantic characteristics of auxiliary words when creating a linguistic database.

Key words: Automatic translation, synonyms, auxiliary language units, linguistic database, grammatical form, grammatical meaning.

ПРОБЛЕМЫ СОЗДАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ БАЗЫ ДАННЫХ СИНОНИМОВ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ УЗБЕКИСТАНА ДЛЯ МАШИННОГО ПЕРЕВОДА

Аннотация

В данной статье анализируются проблемы, возникающие в процессе введения синонимов служебных слов узбекского языка в лингвистическую базу данных. В частности, несмотря на то, что служебные слова выражают грамматическое значение, обсуждаются их различия в положении и синтаксической функции в предложении, особенности их связи с различными грамматическими суффиксами, ограниченность семантического поля, а также существование синонимов, не полностью совместимых друг с другом. Результаты исследования обосновывают необходимость четкого определения грамматических и семантических свойств служебных слов при создании языковой базы.

Ключевые слова: Автоматический перевод, синонимы, вспомогательные языковые единицы, лингвистическая база данных, грамматическая форма, грамматическое значение.

MASHINA TARJIMASI UCHUN O'ZBEK TILI YORDAMCHI SO'ZLARI SINONIMIYASI LINGVISTIK BAZASINI YARATISH MUAMMOLARI

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi yordamchi so'zlarning sinonimiyasini lingvistik bazaga kiritish jarayonida uchraydigan muammolar tahlil qilinadi. Jumladan, yordamchi so'zlarning grammatik ma'no ifodalashiga qaramay, gapdagi joylashuvi va sintaktik vazifasiga ko'ra farqlanishi, turli grammatik qo'shimchalar bilan bog'lanish xususiyatlari, semantik maydonning cheklovlari va o'zaro to'liq mos kelmaydigan sinonimlarning mavjudligi muhokama qilinadi. Tadqiqot natijasida lingvistik bazani yaratishda yordamchi so'zlarning grammatik va semantik xususiyatlarini aniq belgilash zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Avtomatik tarjima, sinonim so'zlar, yordamchi til birliklari, lingvistik ma'lumotlar bazasi, grammatik shakl, grammatik ma'no.

Kirish. Jahon tilshunosligida XX asrning 50-yillaridan e'tiboran matnning elektron hisoblash mashinalari vositasida tahlil qilish muammosi o'rganila boshladi, natijada zamonaviy axborot texnologiyalari dasturlari yuzaga keldi. Bu asosda yuz bergan texnologik taraqqiyot dunyodagi yetakchi adabiy tillarda matnning kvantitativ tahlil qilish tizimlarini yaratishga olib kelgani ma'lum. Zero, globallashtirish va jadal rivojlanayotgan fan-texnika davrida katta hajmdagi axborot ustida tezlik bilan ishlash va samarali natija olish juda zarur. Shu ma'noda, dunyo tilshunosligi fani oldiga tilni lingvistik modellashtirish, so'zlarning tahlil algoritmini tuzish hamda lingvoanaliz dasturining lingvistik modullarini yaratish vazifasi qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasida 2003-yilning 11-dekabrida "Axborotlashtirish to'g'risida"[1] gi qonunni qabul qilinishi ham bejiz emas. Ushbu qonunning Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati 4-moddasida Axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish ta'lim sohasida ishlab chiqariluvchi dastur tizimi yoki elektron qo'llanmalarni yaratish lozimligi aytib o'tilgan.

Yordamchi so'zlar til tizimida muhim grammatik birliklar bo'lib, ularning ma'nosi va sintaktik xususiyatlari tarjima jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilidagi yordamchi so'zlarning sinonimiyasini lingvistik bazaga kiritish jarayonida turli murakkabliklar kuzatiladi. Chunki ba'zi yordamchi so'zlar bir xil grammatik ma'noni ifodalasa ham, sintaktik vazifasi va gapdagi joylashuviga qarab o'zaro farqlanadi.

Bundan tashqari, ayrim yordamchi so'zlar mustaqil holda sinonim bo'la olmaydi, balki faqat muayyan grammatik shakllar bilan qo'llanganda ekvivalentlik hosil qiladi. Masalan, sabab ma'nosini ifodalovchi "sababli", "tufayli", "uchun" so'zlari "dan keyin" bilan sinonim bo'lishi uchun maxsus kelishik qo'shimchalari talab qilinadi. Shuningdek, ba'zi yordamchi so'zlar faqat ma'lum kontekstda sinonim bo'lib, boshqa holatlarda o'zaro almashinmaydi.

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi yordamchi so'zlarning sinonimiyasini lingvistik bazaga kiritish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot natijalari mashina tarjimasini avtomatlashtirilgan til ishlov berish tizimlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarjima aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Lingvistik tipologiya va tillarning qiyosiy tahliliga oid tadqiqotlar generativ tilshunoslik aspektida ko'rib chiqiladi. Kompyuter bazasi uchun tilni modellashtirish eng qulay o'rganish usuli hisoblanadi. Kompyuter morfologiyasi yuqori darajadagi ilovalar uchun zarur, shuning uchun morfologiya doirasida modellashtirish ko'plab tadqiqotlarda qo'llaniladi [2]. Xususan, Karnegi Mellon universitetida M.Raab "Mashina tarjimasini uchun tilni modellashtirish texnikasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Tadqiqot ishiga tilni modellashtirishning turli usullari, yaratilgan til modellariga sharhlar, tadqiqotchining amaliy tadqiqotlari, natijalar va xulosalar kiritilgan [3]. Hayfa universiteti olimlari Gennadiy

Lemberskiy, Noam Ordan, Shuli Vintner maqsadli tildagi asl matnlardan tuzilgan til modellari va maqsadli tilga qo'lda tarjima qilingan matnlardan tuzilgan til modellari o'rtasidagi farqni o'rganadilar. Shu tarzda ular mashina tarjimasi uchun til modellari yaratishni taklif qiladilar [4]. Turk tillarida ham mashina tarjimasi doirasida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Turk olimlari turkcha o'zaro tillar va turkcha-inglizcha mashina tarjimasi bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Masalan, A.C.Tantug [5], Z.Sagay [6], I.Hamzao'g'li [7], K.Oltintosh [8], M.O'rxun kabi ko'plab olimlarni sanab o'tish mumkin. Masalan, M.O'rxunning "Uyg'ur tili bilan turkcha o'rtasida mashina tarjimasi" nomli tadqiqot asarida turkiy va uyg'ur tili birliklarining modellari yaratilib, taqqoslanadi [9].

O'zbek kompyuter tilshunosligida bugungi kunda modellashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Chunki u bugungi NLPning ko'plab muammolarini hal etishi tasdiqlangan. Shu sababli tilning turli darajalarini modellashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, bu borada B. Elov [10], N. Abdurahmonova, Sh. Hamroyeva [11], S. Bozorova [12], S. Muhammedova [13], S. Xudayarova [14], M. Suyunova [15] kabilarni sanab o'tish mumkin. Ular o'z ishlarida til birliklarini modellashtirishning turli usullarini taklif qilishadi. Xususan, N.Abdurahmonova tomonidan mashina tarjimasi uchun oddiy o'zbek-ingliz jumllarining modellari ishlab chiqilgan va qiyoslangan. Sh. Hamroyevaning doktorlik dissertatsiyasi o'zbek tili morfoanalizatori uchun grammatik shakllarni modellashtirishga bag'ishlangan. B. Elov esa til korpus matnlarini modellashtirishning yashirin dirix usulini taklif etadi. S.Bozorova erkin kontekst grammatikasiga asoslangan sintaktik tahlil usullari va o'zbekcha so'z birikmalari modellari taklif etadi. M. Suyunova o'zbek tilidagi grammatik omonimlarni, S. Xudayarova esa so'z birikmalarini modellashtirish bilan shug'ullanadi.

Morfologik modellashtirishda to'g'ri va aniq lingvistik tavsif berish muhim ahamiyatga ega. Morfologik mezonlarning to'g'riligi quyidagi bosqichlarda tekshiriladi:

1. faqat to'g'ri tuzilgan grammatik so'z shakllarini tahlil qilish;
2. grammatik jihatdan noto'g'ri bo'lgan so'z shakllari qanday aniqlanadi [11].

So'z shakllarining to'g'riligi faqat to'g'ri deb topilgan modellardan aniqlanadi va qolgan holatlar uning noto'g'riligini tasdiqlaydi.


Tabiiy tilni modellashtirish tarjima muammolarining mumkin bo'lgan yechimi hisoblanadi. Xususan, Germaniyaning Axen texnologiya universiteti olimlari Frans Yozef Oh va Hermann Ney Model log-chiziqli modellashtirish usulidan foydalangan holda matn kontekstini hisobga oladigan tarjima usulini taklif qilishdi. Ular, shuningdek, so'z ekvivalentlik sinflari asosida ierarxik leksik modellarni qurishni taklif qilishadi. Bundan tashqari, tadqiqot bog'langan jumllarda so'z tartibini o'rganishga o'rgatish mumkin bo'lgan dasturiy ta'minot tizimini yaratishni taklif qiladi [12].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tilida ko'makchi til birliklari sifatida umumlashuvchi bog'lovchi, ko'makchi va yuklamalar o'zbek tilida o'ziga xos shaklga ega bo'lib, ingliz tilida bir necha xil vositalar orqali namoyon bo'ladi. Bunda grammatik shakl bilan grammatik ma'noning mos kelmasligi holatlari kuzatiladi, ya'ni grammatik polisemiya, omonimiya, sinonimiya kabi holatlar yuzaga keladi. Bunday til hodisalari mashina tarjimasida tarjima sifatiga ta'sir qiladi.

Bu yo'nalishda qoidaga asoslangan, ya'ni grammatik tahlilning ahamiyati shundan iboratki, tahlilning ko'p ma'nolilik va omonimiya lisoniy hodisalariga mos kelishi, yana bir jihat har xil turlarga mansub tillardagi turli kategoriyalarni alohida o'rganishdir [13].

Muhokamalar va natijalar. O'zbek tili yordamchi so'zlar sinonimiya lingvistik bazasini yaratishda quyidagi muammolar ko'zga tashlanadi:

Bir xil grammatik ma'no ifodalashiga qaramay joylashuv o'rniga ko'ra farqlanuvchi sinonimlar mavjud. Ular lingvistik bazada alohida belgilashni talab etadi. Leksik birliklardan farqli ravishda grammatik birliklarda bir xil grammatik ma'noni ifodalash sinonimlikka asos bo'lmasligi mumkin. Masalan, sabab ma'nosini ifodalovchi yordamchi so'zlar: sababli, tufayli, uchun, deb, deya, orqasidan, ortidan, ketidan, bilan, ...dan keyin, shuning uchun, shu sababli, shu bois, chunki, negaki, nimagaki so'zlari. Ularni gapda tutgan o'rniga ko'ra 3 guruhga bo'lib olamiz. Buni 1-chizmada ko'rishimiz mumkin:



1-chizma. Joylashish o'rniga ko'ra farqlanuvchi yordamchi so'zlar

Demak, ushbu yordamchi so'zlar quyidagi xususiyatiga ko'ra farqlanadi:

Gapdagi vazifasi.

Joylashish o'rni.

bazada alohida-alohida berilishni talab etadi.

Ayrim grammatik so'zlar o'rnida grammatik so'zga qo'shimcha qo'shibgina o'rindosh sifatida qo'llash mumkin bo'lgan holatlar uchraydi. Misol uchun, sabab ma'nosini ifodalovchi sababli, tufayli, uchun so'zlariga keyin ko'makchisi ham sinonim sifatida qo'llanishi mumkin. Biroq buning uchun keyin so'zi –dan chiqish kelishigi bilan birga qo'llanishi lozim.

Falokat xavfi tug'ilgani sababli ular Yerning Shimoliy qutbiga yo'l olishadi.

Falokat xavfi tug'ilgani tufayli ular Yerning Shimoliy qutbiga yo'l olishadi.

Falokat xavfi tug'ilgani uchun ular Yerning Shimoliy qutbiga yo'l olishadi.

Falokat xavfi tug'ilganidan keyin ular Yerning Shimoliy qutbiga yo'l olishadi.

Ayrim sinonim yordamchi so'zlar o'zidan oldin turli xil grammatik qo'shimchani talab qilib keladi. Masalan, ish-harakatning tezlikda sodir bo'lishini quyidagicha ifodalash mumkin:

Mehmon kirdi-da, allanimani qidira boshladi

Mehmon kiribq, allanimani qidira boshladi

Mehmon kirishi bilan, allanimani qidira boshladi.

Ikki obyektini o'zaro qiyoslash uchun ishlatiluvchi ko'makchilar o'zidan oldin ikki xil grammatik shaklni talab etadi.

Senga qaraganda ishni yaxshiroq bajaradi.

Sendan ko'ra ishni yaxshiroq bajaradi.

Xoslik ma'nosini ifodalovchi asosan, binoan, muvofiq, ko'ra so'zlari -ga kelishigi bilan qo'llangandagina bo'yicha so'zi bilan sinonim bo'ladi.

Qonunga asosan ish ko'ring.

Qonunga binoan ish ko'ring

Qonunga muvofiq ish ko'ring

Qonunga ko'ra ish ko'ring

Qonun_ bo'yicha ish ko'ring

Bunday hollarda yordamchi so'zni lingvistik bazada o'zidan oldingi grammatik qo'shimcha bilan birga berish talab etiladi.

Bir grammatik ma'no bir o'rinda bitta grammatik shakl bilan, bir o'rinda 2-3 ta grammatik shakl bilan ifodalanishi mumkin. Misol uchun, garchand...sa ham, sa-da, sa...ham birliklari to'siqsizlik ma'nosini ifodalaydi.

Garchand otasining so'zlari esida bo'lsa ham, qizlarning qistovini rad eta olmadi.

Garchi otasining so'zlari esida bo'lsa ham, qizlarning qistovini rad eta olmadi.

Otasining so'zlari esida bo'lsa ham, qizlarning qistovini rad eta olmadi.

Otasining so'zlari esida bo'lsa-da, qizlarning qistovini rad eta olmadi.

Bunday so'zlar lingvistik bazada alohida belgilanishi lozim.

Bir grammatik ma'noni bildirsa-da, belgini ifodalash darajasi, qo'llanuvchi semantik maydoni bilan bir-biridan farqlanadi, ya'ni biri o'rinda ikkinchisini qo'llab bo'lmaydi.

obyektga nisbatan mustasnoqlik	tashqari	o'zga	boshqa	bo'lak	Fayzulladan tashqari hamma sinfdan chiqsin
ish-harakatga nisbatan mustasnoqlik	bo	bo	o		Yordam chaqirishdan bo'lak choramiz qolmadi
	'lak	shqa	'zga		

1-jadval. Birga kelgan so'zlarga ko'ra farqlanuvchi yordamchi so'zlar.

Shuningdek, ba'zi hollarda yordamchi so'zga birikib kelayotgan so'zning shakli tomonini ham e'tiborga olish zarur bo'ladi:

Darsdan so'ng ko'rishishga kelishdik

Darsdan keyin ko'rishishga kelishdik

Darsdan nari ko'rishishga kelishdik.

So'ng, keyin, nari sinonimik qatoridagi yordamchi so'zlar bir shaklli so'zga ergashib kelganda sinonimlik hosil qilsa-da, so'z birikmasiga bog'lanib kelganda nari ko'makchisi sinonim bo'la olmaydi.

Qo'ng'iroq chalingandan so'ng dars boshlandi.

Qo'ng'iroq chalingandan keyin dars boshlandi.

Xulosa. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, lingvistik tadqiqotlarda axborot texnologiyalari vositasida matn tahlil qilish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bu jarayon turli tillarda kvantitativ tahlil usullarini ishlab chiqishga hamda lingvistik modellashirish asosida tilni avtomatlashtirilgan qayta ishlash tizimlarini yaratishga imkon berdi. O'zbek tilshunosligida ham til

Ichida, ustida, bilan, ichra kabi so'zlar ruhiy holatni bildiradi. Lekin doim ham biri o'rinda ikkinchisini qo'llab bo'lmaydi.

Jahl ustida qanday javob berganimni bilmayman.

Xayol ichra suzardi

Har ikki gapdagi yordamchi so'zlarning grammatik ma'nosi ruhiy holat sanaladi va lingvistik bazada shu nom bilan berish kerak bo'ladi. Bu bazada so'zlarni moslashtirishda muammolar keltirib chiqaradi.

So'zlarning bir-biriga aynan mos kelmasligi. Muayyan jumalardagina sinonim bo'lib boshqa o'rinlarda ma'noviy jihatdan mos kelmaslik holatlari mavjud. Masalan, mustasnoqlik ma'nosini bildiruvchi boshqa, bo'lak, o'zga, tashqari sinonimik qatorida boshqa, bo'lak, o'zga so'zlari predmet va shaxslarga, shuningdek, ish-harakatga nisbatan ham ishlatiladi; tashqari so'zi esa faqat narsa-predmet, shaxslarga nisbatangina qo'llanadi. Bunday holda so'z grammatik ma'nosini lingvistik bazada berish uchun grammatik ma'no ikki xil beriladi: 1) narsa va shaxslarga nisbatan mustasnoqlik, 2) ish-harakatga nisbatan mustasnoqlik. Shu asosda 2 xil grammatik ma'no shakllantirishga to'g'ri keladi.

birliklarini modellashirish va lingvistik bazalarni yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Maqolada o'zbek tilidagi yordamchi so'zlarning sinonimiyasi lingvistik bazaga kiritish jarayonidagi qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Yordamchi so'zlarning grammatik ma'nosi va sintaktik vazifasiga qarab farqlanishi, ularning joylashuvi, grammatik qo'shimchalar talab qilishi va kontekstga bog'liq holda sinonimlik xususiyati o'zgarishi ilmiy nuqtayi nazardan o'rganildi. Ushbu tadqiqot natijalari mashina tarjimasi va tabiiy tilni qayta ishlash sohalariga muhim ahamiyat kasb etib, tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, lingvistik bazani yaratishda yordamchi so'zlarning sintaktik va semantik xususiyatlari batafsil tahlil qilinishi, ularning leksik va grammatik omillar bilan bog'liqligi hisobga olinishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarining yanada takomillashtirilishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Elov, B. Til korpus matnlarini modellashirish va yashirin Dirix usuli. Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2020, 4-son 45-47-betlar.
2. Abdurahmonova, N. Морфологик таҳлилнинг машина таржимасида берилиши (от сўз туркуми модели мисолида). // Ўзбекистонда хорижий тиллар илмий методик электрон журнал №2-2017. Toshkent, 2017 p. 40-51
3. Raab, M. Language model techniques in machine translation, Isroil, 2006, p.76-79
4. Lembersky, G., Ordan N. Wintner S. Improving Statistical Machine Translation by Adapting Translation Models to Translationese //** University of Haifa, Israel, 2013
5. Tantuğ, C., Adalı, E., Oflazer K., Lexical Ambiguity Resolution for Turkish in Direct Transfer Machine Translation Models, 2006, pp. 230-238.
6. Sagay Z. A computer translation from English to Turkish. Journal of Computer linguistics, 1981, p. 426
7. Hamzaoglu, I., Machine translation from Turkish to other Turkic languages and an implementation for the Azeri languages, Ankara, 1993, p.125
8. Altıntaş, K., Turkish to Crimean Tatar Machine Translation System, Ankara, 2000, pp 129-131.
9. Orhun M., Machine translation between uyghur language and turkish, Izmir, 2010, p.79
10. Bozorova, S. Erkin kontekst grammatikasiga asoslangan sintaktik tahlil usullari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent, 2021, p. 88.
11. Suyunova, M. O'zbek tilidagi grammatik omonimlarni modellashirish. O'zbek tilshunosligi tadqiqotlari, 3(1), 22-35.
12. Xudayarova, S. So'z birikmalarini modellashirishning nazariy asoslari. O'zbek tili va adabiyoti, 2, 67-78.
13. Oh, F. J., & Ney, H. Log-linear Modeling for Context-aware Machine Translation. Aachen University of Technology, Germany, 2014, p. 88-98.



Shohsanam QODIROVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: Shohsanam.kodirova25@gmail.com

Dots., Q.Olloyorov taqrizi asosida

NEMIS TILIDA QO'SHMA OTLARNING STRUKTUR TAHLILI (TABIAT HODISALARINI IFODALOVCHI OTLAR MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada nemis tilidagi so'z yasash jarayoni va uning so'z boyligini kengaytirishdagi o'rni o'rganiladi. Tadqiqotda so'z yasashning asosiy turlari – kompozitsiya, derivatsiya va qisqartma so'zlar tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor kompozitsiyaga, ya'ni qo'shma so'zlarga qaratilib, ularning semantik va struktur xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Determinativ, egalik, kopulyativ va predlogli kompozitsiyalar misollar bilan yoritilib, ularning sintaktik va semantik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari nemis tilidagi qo'shma otlarning tuzilishi, ularning tarkibiy qismlari va ma'no hosil qilish xususiyatlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: So'z yasashi, kompozitsiya, derivatsiya, qisqartma so'zlar, qo'shma so'zlar, determinativ kompozitsiya, egalik kompozitsiya, kopulyativ kompozitsiya, predlogli kompozitsiya, semantik tahlil, struktur tahlil, nemis tili, leksikologiya, morfologiya, qo'shma otlar.

STRUCTURAL ANALYSIS OF COMPOUND NOUNS IN GERMAN (BASED ON NOUNS DENOTING NATURAL PHENOMENA)

Annotation

This article examines the word formation process in the German language and its role in expanding vocabulary. The study analyzes the main types of word formation, including composition, derivation, and abbreviations. Special attention is given to composition, i.e., compound words, focusing on their semantic and structural characteristics. Determinative, possessive, copulative, and prepositional compounds are illustrated with examples, and their syntactic and semantic aspects are analyzed. The results of the study contribute to a deeper understanding of the structure of compound nouns in German, their constituent components, and their meaning formation features.

Key words: Word formation, composition, derivation, abbreviations, compound words, determinative composition, possessive composition, copulative composition, prepositional composition, semantic analysis, structural analysis, German language, lexicology, morphology, compound nouns.

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ СЛОЖНЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ (НА ПРИМЕРЕ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ, ОБОЗНАЧАЮЩИХ ПРИРОДНЫЕ ЯВЛЕНИЯ)

Аннотация

В данной статье рассматривается процесс словообразования в немецком языке и его роль в расширении словарного запаса. В исследовании анализируются основные типы словообразования, включая композицию, деривацию и аббревиации. Особое внимание уделяется композиции, то есть сложным словам, с акцентом на их семантические и структурные характеристики. Детально изучаются детерминативные, притяжательные, копулятивные и предлоговые сложные слова, приводятся примеры и проводится анализ их синтаксических и семантических аспектов. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию структуры сложных существительных в немецком языке, их составных частей и особенностей формирования значения.

Ключевые слова: Словообразование, композиция, деривация, аббревиации, сложные слова, детерминативная композиция, притяжательная композиция, копулятивная композиция, предлоговая композиция, семантический анализ, структурный анализ, немецкий язык, лексикология, морфология, сложные существительные.

So'z yasashi – so'z boyligini kengaytirishning eng intensiv usuli bo'lib, bunda boshqa tillardan so'zlarning kirib kelishi kam kuzatiladi va so'z yaratish yoki sun'iy so'z yasash ham kam uchraydi. Nemis tilida so'z yasashning bir nechta turlari mavjud bo'lib, ular birinchi navbatda qo'llaniladigan leksema va elementlarning turiga qarab farqlanadi. Yasama so'zlarning nemis tilida uchta turi mavjud bo'lib, ular quyidagilar: kompozitsiya, derivatsiya, qisqartma so'zlar. Shulardan ishimizda kompozitsiya, ya'ni qo'shma so'zlarga to'xtalamiz. Nemis tilshunosi Hans Yurgen Heringer qo'shma so'zlar haqida shunday yozadi: "In der Komposition werden mindestens zwei Lexeme zu einem komplexen Wort zusammengesetzt. Komposita können rekursiv aus wortgebildeten Lexemen gebildet werden: Biospritzerzeugung, Biospritzerzeugungsfabrik". Ya'ni kompozitsiya (qo'shma so'z) tarkibida kamida ikkita leksema birikib murakkab so'z hosil qiladi. So'z yasagan leksemalardan rekursiv shaklda qo'shma so'z yasashi mumkin (muallif tarjimai) [5].

Tadqiqot materiali nemis tilidagi otlar bo'lib, ular "Duden – das große Wörterbuch der deutschen Sprache" [2], "Der kleine Duden" [1] lug'atlaridan tanlab olingan hamda nemis olimlarining


leksikologiya va semantikaga bag'ishlangan asarlari asosida yoritilgan.

Tahlil jarayonida semantik-uslubiy, struktur-tahlil metodi, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar ishga chuqurroq yondashishga xizmat qiladi.

Tabiat hodisalarini ifodalovchi qo'shma otlar odatda ikki yoki undan ortiq so'zlardan iborat bo'lib, yangi ma'no hosil qiladi. Nemis tilida turli xil kompozitsiyalar mavjud: Determinativ kompozitsiya (Regentropfen, Sonnenaufgang, Windhose), egalik kompozitsiya (Vogelnest, Bärenhöhle), kopulyativ kompozitsiya, predlogli kompozitsiya (Überflutung, Untergang). Shulardan determinativ kompozitsiya nemis tilidagi otlar uchun so'z yasashning eng samarali turi hisoblanadi. Ikki qismli aniqlovchi birikmada chap qism aniqlovchi, o'ng qism esa aniqlanmish deyiladi. Chap tomondagi so'z o'ng tomondagi qismni tasvirlaydi, uni aniqlaydi. Misol tariqasida das Tauwetter so'zini ko'rib chiqamiz. Das Tauwetter - wärmere Witterung, bei der Schnee und Eis schmelzen [2]. Ya'niki, qor va yax erishi jarayoni. Bu o'rinda ob-havoning aynan qandayligi to'liq tasvirlangan. Chap tomonda so'z urg'usi mavjud, o'ng tomondagi qism esa, so'z

turkumini, rodini va turlanishini belgilaydi. Ikki qismli qo'shma o'tning kategoriya xususiyatlarini o'ng tomondagi so'z aniqlaganligi sababli, uni "Kopf" - bosh so'z deyish mumkin. Shuning uchun qismlarni ma'nosini o'zgartirmasdan o'rni o'zgartirib bo'lmaydi. Sternenlicht, Sonnenlicht [1]. so'zlari jenskiy rod, Lichtblitz esa mujskoy rod hisoblanadi. Qo'shma so'zlarda asosiy o'rinda qismlarga bo'linish chegarasi aniqlanishi lozim: Mondregenbogen ist Ein Mondregenbogen ist ein Regenbogen, der nicht wie der gewöhnliche Regenbogen durch das Sonnenlicht, sondern durch das Mondlicht, entsteht. Oy kamalak - bu odatdagi kamalak kabi quyosh nuri bilan emas, balki oy nuri bilan yaratilgan kamalak [7]. Mitternachtssonne - Sonne, Bu holat ierarxik tuzilishni aks ettiradi. Biroq, ba'zida aniq struktura namoyon bo'lmaydi. Noaniq holatlarda tahmin asosida ehtimoliy tuzilmani aniqlash mumkin: Mitternachtssonne qo'shma otini Mitte va Nachtssonne shakilda bo'lish mantiqan to'g'ri kelmaydi, chunki odatda Nachtssonne so'zi alohida ishlatilmaydi. Ammo Mondregenbogen qo'shma so'zi Mond va Regenbogen yoki Mond, Regen va Bogen tarzda kelishi mumkin. Bu kamida ikki tomonlama ma'no shakillanishining ikkita tahminiy tahlil imkoniyatidir. Agar bir necha turdagi tahlil qilish mumkin bo'lsa, bu tahlilda ko'rsatilishi kerak. Nominal aniqlovchi birikmada ikkinchi yasovchi doim ot bo'lib, birinchisi ham ot tarzida kelishi mumkin. Ot - Zugluft, Kugelblitz, Sandsturm, fe'l - Platzregen, yoki sifat- Niedrigwasser, Helligkeit, Präposition - der Durchzug. Boshqa so'z turkumlari uchramaydi. Ayrim birinchi bo'laklarda allomorfizm holati birikmada uchraydi: Erde- Erdbeben, platzen- Platzregen, Gebirge - Gebirgsbildung. Determinativ kompozitsiya a'zolarining ierarxik munosabatidan farqli ravishda ular kopulativ qo'shma so'zda parataktik tarzda joylashadi. Determinativ kompozitsiyalardan farqli o'laroq, ikkinchi element ham ta'kidlanishi mumkin. Biroq, bu ishonchli xususiyat bo'la olmaydi. Kopulyativ kompozitsiyalar asosan qo'shimchalarsiz yuzaga keladi. Ular o'xshash ma'noga ega so'z turkumining kamida ikkita teng leksemalaridan iborat bo'lib, ular sintaktik jihatdan ekvivalent, printsipial jihatdan bir-birini o'rnida qo'llasa bo'ladigan va ularning ma'nolari umumiy ifodaga qo'shimcha ma'no yuklay oladi. Quyida misollarni ko'rib chiqamiz: Schneeregen, Schneeschauer, Blitzkatatumbo.

die in den Polarzonen zeitweilig auch zur Mitternacht über dem Horizont steht, in der nördlichen Polarzone im Sommer, in der südlichen im Winter (Norvegiyada) Yarim tunda quyosh - qutb zonalarida yarim tunda, yozda shimoliy qutb zonasida, qishda janubiy qutb zonasida vaqtincha ufqdan yuqorida joylashgan quyosh [8].



Semantik nuqtai nazardan leksemalar o'rtasida kichkina farqlar mavjud. Schneeregen qor va yomg'irdan iborat yog'ingarchilikni bildiradi. Ko'pgina yasama so'zlar til leksik qatlamiga kiritilgan bo'lib, qo'shma so'z tarkibidagi leksemalar o'zaro o'rni almashtira olmaydi. Tabiat hodisalarini ifodalovchi otlar orasida takror qo'shma otlar uchramaydi. Qo'shma otlarni so'z yasash ma'nosiga ko'ra tahlil qilish ko'p hollarda bazi sabablarga ko'ra qiyinchilik tug'diradi. Birinchidan, determinativ (aniqlovchi) yasama otlarning semantik so'z yasash shakllari va ularning tasnifi lingvistikada juda nomuvofiq tarzda ko'rib chiqilganligi keltirilgan. Erben [3] uchta asosiy ma'noviy guruhni ko'rsatib o'tgan: subyektiv, obyektiv va ravishli. Ortner va boshqalar 34 ta asosiy turni sanab o'tadi, ular ham o'z navbatida ko'plab turlarga bo'linadi. Fleischer, Barz [4] ma'lumotlariga ko'ra, 18 ta asosiy tur mavjud bo'lib, ular ham qo'shimcha ravishda farqlanadi. Bu turlar faqat ma'lum darajada mos keladi. Yana bir muammo terminologiyaning o'zi bo'lib, uni lotin tilini o'rganib ham oson tushunib bo'lmaydi. Ma'no tahlilining o'zi juda muammoli hisoblanib, ko'plab so'zlar qo'shma ot bo'lgandagina ma'no anglatishi mumkin. Boshqa hollarda, alohida ma'no (yoki tarjima) mos kelmaydi, lekin noaniqlik ko'pincha bilvosita qilingan bo'lib, bu so'zning qurilishi bilan bog'liq. Biroq, ko'p hollarda bunday terminologik qat'iy ma'no tahlillariga ahamiyat berilganligi sababli, Fleischer, Barz [4] va qisman Ortner va boshqalarga asoslanib, determinativ qo'shma otlarning eng muhim semantik so'z yasash jadvalini quyida keltiramiz.

№	Ma'no turlari	Mazmuni	Misollar
1	agentiv	bajaruvchi yoki muallifni ifodalaydi	Luftdruck
2	äquativ	kim yoki nimaligini ifodalaydi	Schneelawine Kugelblitz Winterburan
3	dimensional (o'lchov)	daraja- o'lchovni ifodalaydi	Niedrigwasser Mittelwasser
4	final (yakuniy)	muvofiglikni, moslikni ifodalaydi	Regenwolke, Ozonloch
5	graduativ (orttirma)	kamayishini, ortishini ifodalaydi	Großtrombe
6	instrumental (vosita)	vositani ifodalaydi	Sonnenenergie
7	kausal (sabab)	asos, sababni ifodalaydi	Gaswolke
8	komparativ (qiyosiy)	solishtirish imkonini beradi	Mondlicht
9	konstitutsional (tarkib)	biror narsani tashkil etuvchi qismlarni ifodalaydi	Gletscherfluss, Feuerberg
10	lokal (hududiy)	joylashuvini bildiradi	Felssturz
11	modal (modal)	uslubini, sifatini ifodalaydi	Raureif, Stillstand
12	ornativ (bezakli, jihozli)	biror narsa bilan ta'minlanganlikni ifodalaydi	Sonnenkrone
13	partitiv (qism)	qism-butun munosabatni ifodalaydi	Winteranfang
14	patiens (regishlilik)	Bog'liq bo'lgan shaxs yoki narsani ifodalaydi	Tsunami-Wellen
15	possessiv (egallik)	egallikni ifodalaydi	Gravitationswelle
16	referenziell (ma'lumot beruvchi)	mavzu, munosabatni ifodalaydi	Bärenwinterschlaf, Tierregen
17	substantiell (substansiya)	xomashyoni ifodalaydi	Sandsturm
18	temporal (vaqt)	vaqt bilan bog'liqlikni ifodalaydi	Abendrot, Morgenröte

Qo'shma otlar, kompozitsiyalar, nemis tilining muhim qismidir. Ular ikki yoki undan ortiq so'zning birikmasidan kelib chiqib, yangi ma'no birligini hosil qiladi. Yasama otlarning nemis tilida uchta turi mavjud, ya'ni bular kompozitsiya, derivatsiya, qisqartma so'zlardir. So'z yasashni doirasida kompozitsiya

(qo'shma otlarning yasashini) so'z yasashining boshqa turlaridan son jihatdan ancha salmoqlisidir. Kompozitsiya kamida ikkita asosiy morfemadan iborat bo'ladi. Determinativ kompozitsiya esa nemis tilidagi otlar uchun so'z yasashning eng samarali turi hisoblanib, ma'no turiga nisbatan o'n sakkiz turga bo'linadi.

Tabiat hodisalarini ifodalovchi qo'shma otlar nemis tilining xilma-xil va muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Ularni har xil turlarga bo'lish mumkin, shulardan aniqlovchi birikmalar eng keng tarqalgani hisoblanadi. Qo'shma otning ma'nosi alohida

so'zlarning birikishidan kelib chiqadi, lekin ko'pincha bilvosita hosil bo'ladi. Tabiat hodisalarini ifodalovchi qo'shma otlarni o'rganish bizga tabiatni qanday idrok etish va qanday nom berish haqida tushuncha beradi.

ADABIYOTLAR

1. Der kleine Duden. Dudenverlag, Mannheim. 2007
2. Duden – das große Wörterbuch der deutschen Sprache. Dudenverlag, Berlin. 2011
3. Erben, Johannes, Einführung in die deutsche Wortbildungslehre, Berlin. 2006
4. Fleischer, Wolfgang, Barz, Irmhild, Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache, Tübingen. 1995
5. Hans Jürgen Heringer. Morphologie. Wilhelm Fink GmbH & Co. Verlags-KG, Paderborn. 2009.
6. Hilke Elsen Grundzüge der Morphologie des Deutschen. Walter de Gruyter GmbH & Co. KG Berlin. 2011
7. (<https://vollmond-info.de/mondregenbogen-ein-seltenes-farbenspiel-im-vollmondlicht/>)
8. (<https://www.dwds.de/wb/Mitternachtssonne>



Feruz QOSIMOVA,
Farg'ona davlat universiteti doktoranti, PhD
E-mail: feruzaqosimova@mail.ru

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

O'ZBEK-INGLIZ TIBBIY TERMINLARINING SUBYEKT, OBYEKT VA O'RIN VALENTLIKLARI

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tibbiy terminlarining sintaktik valentligi, jumladan, subyekt, obyekt va o'rin valentliklari qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda tibbiy terminlarning sintaktik tuzilishi, ularning so'z birikmalari va gap tarkibidagi roli, shuningdek, sintaktik bog'lanishlar va semantik munosabatlar tizimi o'rganilgan. O'zbek va ingliz tillaridagi tibbiy terminlarning valentlik modeli taqqoslanib, ularning semantik-sintaktik tuzilmalaridagi o'rni aniqlandi.

Kalit so'zlar: Tibbiy terminologiya, valentlik nazariyasi, subyekt valentligi, obyekt valentligi, o'rin valentligi, sintaktik struktura.

СУБЪЕКТНАЯ, ОБЪЕКТНАЯ И МЕСТНАЯ ВАЛЕНТНОСТИ УЗБЕКИСТАНСКО-АНГЛИЙСКИХ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ

Аннотация

В данной статье проведен сравнительно-типологический анализ синтаксической валентности медицинских терминов узбекского и английского языков, включая субъектную, объектную и обстоятельственную валентности. В исследовании изучена синтаксическая структура медицинских терминов, их роль в словосочетаниях и предложениях, а также система синтаксических связей и семантических отношений. Сравняются модели валентности медицинских терминов в узбекском и английском языках, определяются их позиции в семантико-синтаксических структурах.

Ключевые слова: Медицинская терминология, теория валентности, субъектная валентность, объектная валентность, обстоятельственная валентность, синтаксическая структура.

SUBJECT, OBJECT, AND PLACE VALENCES OF UZBEKISTAN-ENGLISH MEDICAL TERMS

Annotation

This article presents a comparative-typological analysis of the syntactic valency of Uzbek and English medical terms, including subject, object, and circumstantial valencies. The study examines the syntactic structure of medical terms, their role in word combinations and sentence structures, as well as the system of syntactic connections and semantic relationships. The valency models of Uzbek and English medical terms are compared, and their positions in semantic-syntactic structures are determined.

Key words: Medical terminology, valency theory, subject valency, object valency, circumstantial valency, syntactic structure.

Kirish. Tibbiy terminologiya lingvistik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ularning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rganish orqali terminlarning til tizimidagi o'rini belgilash mumkin (Sager, 1990, p. 45). So'zlarning gap tarkibidagi valentlik darajasini aniqlash sintaktik bog'lanishlarni tahlil qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi (Tesnière, 1959, p. 67). Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tibbiy terminlarining subyekt, obyekt va o'rin valentligi qiyosiy tahlil qilinadi.

Materiallar va uslublar. Tadqiqot materiallari sifatida o'zbek va ingliz tillaridagi 5000 ga yaqin tibbiy terminlar tahlil qilindi. Ma'lumotlar tibbiy terminologik lug'atlar (Dorland, 2020; Stedman's Medical Dictionary, 2021) hamda ilmiy maqolalar asosida jamlandi.

Tadqiqot quyidagi usullar asosida olib borildi:

Leksik-semantik tahlil – tibbiy terminlarning semantik jihatdan qanday tuzilishini belgilash maqsadida.

Sintaktik tahlil – terminlarning gap tarkibidagi rolini aniqlash uchun.

Qiyosiy-tipologik tahlil – o'zbek va ingliz tibbiy terminlarining sintaktik valentligi o'rtasidagi farqlarni ko'rsatish maqsadida.

Natijalar va muhokama. 1. Subyekt valentligi

Subyekt valentligi jihatidan o'zbek va ingliz tibbiy terminlari orasida sezilarli sintaktik farqlar mavjud. O'zbek tilida tibbiy atamalar ko'pincha "holatga bog'liq subyekt" sifatida ishlatiladi, ingliz tilida esa subyektning roli aniqroq va qat'iy belgilangan. Masalan:

O'zbek: Yurak etishmovchiligi bemorning holatini keskinlashtirdi.

(Subyekt: "Yurak etishmovchiligi" – kasallik nomi ega vazifasida.)

Ingliz: Heart failure worsened the patient's condition.

(Subyekt: "Heart failure" – grammatik jihatdan ega vazifasida.)

O'zbek tilida subyekt ko'pincha "holat sifatidoshi" bilan birga keladi (masalan, "yurak yetishmovchiligining kuchayishi"), ingliz tilida esa subyekt tarkibi ixchamroq:

- O'zbek: "Qon ketishi" (bleeding) → "Qon ketishi to'xtatildi."

- Ingliz: "Hemorrhage" → "The hemorrhage was controlled."

Jadval 1. Subyekt valentligidagi qiyosiy ko'rsatkichlar

Til	Subyekt valentligi (foiz)	Xususiyat
O'zbek	45%	Holatga bog'liq tuzilmalar ko'p
Ingliz	70%	Mustaqil ot/fe'llar ustunlik qiladi

2. Obyekt Valentligi

Obyekt valentligida o'zbek tilida "vositaviy kelishik (-ni, -ga)", ingliz tilida esa "to'g'ri ob'ekt (direct object)" ko'proq qo'llaniladi. Masalan:

O'zbek: Shifokor bemorga (lokativ) antibiotik (obyekt) buyurdi.

Ingliz: The doctor prescribed antibiotics (direct object) to the patient (prepositional phrase).

Demak, ingliz tilida obyektning roli so'z tartibi bilan belgilansa, o'zbek tilida kelishik qo'shimchalari muhim hisoblanadi:

O'zbek: Jarrohlik operatsiyasini amalga oshirmoq (obyekt -ni qo'shimchasi bilan).

Ingliz: Perform surgery (obyekt hech qanday qo'shimchasiz).

Keyingi misol:

O'zbek: Oshqozon yarasini (obyekt) endoskopiya bilan tekshirdi.

Ingliz: They examined the gastric ulcer (direct object) via endoscopy.

Jadval 2. O'rin valentligi turlari

Til	O'rin ifodalash usuli	Misol
O'zbek	Jo'nalish qo'shimchalari (-da, -dan)	Laboratoriyada tekshiruv
Ingliz	Prepozitsiyalar (in, at, with)	In the laboratory

4. Valentlik tizimlarining amaliy ahamiyati

1. Tarjima xatolari:

O'zbekcha "jigar shishi" ingliz tilida "hepatomegaly" sifatida tarjima qilinganda obyekt valentligi o'zgaradi. "Jigar shishi" – o'zbek tilida fe'l bilan bog'lanib obyekt sifatida ishlatilishi mumkin:

Shifokor jigar shishini davoladi.

The doctor treated liver swelling. (X noto'g'ri)

Bu tarjima noto'g'ri, chunki "liver swelling" (so'zma-so'z tarjima) ingliz tilida kasallikning holatini bildiradi, lekin davolash ("treat") fe'lga obyekt bo'lib kela olmaydi. Ingliz tilida bunday kasallik holatlari odatda diagnostika qilinadi (diagnose) yoki baholanadi (assess).

"Hepatomegaly" – ingliz tilida diagnostika qilinadigan atama hisoblanadi:

The doctor diagnosed hepatomegaly. (✓ to'g'ri)

"Hepatomegaly" tibbiyotda rasmiy atama bo'lib, kasallik yoki holat sifatida ishlatiladi va shifokorlar uni aniqlash, baholash yoki tasdiqlash jarayonini bildiradi. Ingliz tilida davolash fe'li (treat) odatda aniq bir kasallik yoki simptom (masalan, infection, pain, disease) bilan ishlatiladi, lekin "hepatomegaly" kabi tashxis qo'yiladigan atamalar bilan emas. Bundan kelib chiqadiki:

o'zbek tilida "jigar shishi" obyekt sifatida "davolash" fe'li bilan kelishi mumkin.

Ingliz tilida "hepatomegaly" obyekt sifatida "diagnose" yoki "assess" fe'li bilan bog'lanishi to'g'riroq.

Bu sintaktik farq tarjimada obyekt valentligi o'zgarishiga olib keladi.

2. Klinik protokollar:

Ingliz tilida "Administer medication" (obyekt: medication), biroq o'zbek tilida "Dori-darmonlarni qo'llamoq" (obyekt: dori-darmonlarni + vositaviy element). Bu misolda ingliz va o'zbek tillarida obyekt valentligining sintaktik farqlari ko'rsatib berilgan. Farq obyektning sintaktik tuzilishi va vositaviy elementlar orqali ifodalash uslubida namoyon bo'ladi:

Ingliz tilida: "Administer medication"

Fe'l: administer (qo'llamoq, boshqarib berish)

Obyekt: medication (dori-darmon)

3. O'rin Valentligi

O'rin valentligi o'zbek tilida jo'nalish (-da, -dan) va sifatdosh bilan ifodalanadi, ingliz tilida esa prepozitsiyalar (in, at, from) asosiy vositadir. Masalan:

O'zbek: Bemor reanimatsiya bo'limida (o'rin) davolanmoqda.

Ingliz: The patient is treated in the ICU (prepositional phrase).

Ingliz tilida "administer" fe'li to'g'ri obyekt (direct object) bilan bog'lanadi, ya'ni "medication" bevosita fe'lning obyekt bo'lib keladi. Ingliz tilida vositaviy elementlar (ko'makchilar yoki yordamchi birliklar) talab qilinmaydi.

✓ To'g'ri:

The nurse administered the medication to the patient. (Hamshira bemorga dori berdi.)

X Noto'g'ri:

The nurse administered with the medication. (Ingliz tilida ortiqcha "with" kerak emas, chunki medication to'g'ri obyekt sifatida ishlatilmoqda.)

O'zbek tilida: "Dori-darmonlarni qo'llamoq"

Fe'l: qo'llamoq (biror narsadan foydalanmoq)

Obyekt: dori-darmonlarni (vositaviy element bilan bog'lanadi)

O'zbek tilida "qo'llamoq" fe'li obyektning vositaviy element orqali talab qiladi. Bu yerda vositaviy kelishik ("ni" yoki "-bilan") ishlatiladi. Fe'l obyekt bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmaydi, balki vositachilik bildiruvchi grammatik birliklar yordamida birikadi.

✓ To'g'ri: Shifokor bemorga dori-darmonlarni qo'lladi.

X Noto'g'ri: Shifokor bemorga dori-darmon qo'lladi. (Kelishik qo'shimchasisiz obyekt noto'g'ri bo'ladi.

Demak, ma'lum bo'ladi:

Ingliz tilida obyekt fe'lga bevosita bog'lanadi va hech qanday vositaviy element talab qilinmaydi.


O'zbek tilida esa vositaviy element ("ni", "-bilan") yordamida obyekt fe'lga bog'lanadi. Bundan ma'lum bo'ladi:

Ingliz tilida administer medication iborasida "medication" to'g'ri obyekt bo'lib keladi va qo'shimcha vositaviy birlik talab qilinmaydi.

O'zbek tilida dori-darmonlarni qo'llamoq iborasida obyekt vositaviy kelishik ("ni" yoki "-bilan") orqali ifodalanadi.

Bu farq ingliz va o'zbek tillarining obyekt valentligi o'rtasidagi asosiy grammatik tafovutlardan biridir.

Quyidagi diagrammada, o'zbek va ingliz tillarida valentlik turlarining taqsimlanishi ko'rsatib berilgan (chizma 3 ga qarang).



Chizma 3. Valentlik turlarining taqsimlanishi

O'zbek tilida subyekt, obyekt va o'rin valentlik kategoriyalari mos ravishda 40%, 35%, va 25% foizni tashkil etadi. Ingliz tilida esa subyekt valentligi 55%, obyekt valentligi 30%, o'rin valentligi esa 15% ko'rsatkichiga ega. Ushbu taqsimot har ikkala tilning sintaktik tizimidagi valentlik xususiyatlarini ochib berib, ularning strukturaviy farqlarini aks ettiradi. Jumladan, Ingliz tilida subyekt valentligi yuqori foiz bilan namoyon bo'lib, uning qat'iy sintaktik tartibga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunga

qarama-qarshi ravishda, O'zbek tilida obyekt va o'rin valentliklarining nisbatan muvozanatli taqsimlanishi sintagmatik tuzilishdagi moslashuvchanlikni ifoda etadi.

Xulosa. O'zbek va ingliz tillaridagi tibbiy terminlarning valentlik tizimi ushbu tillarning tipologik xususiyatlarini aks ettiradi. O'zbek tilida moslashuvchanlik va holatga bog'liqlik ustun bo'lib, sintaktik jihatdan erkin tuzilishga ega. Ingliz tilida esa anatomik aniqlik va sintaktik ixchamlik asosiy mezon bo'lib,

qat'iy sintaktik tartibga tayanadi. Ushbu farqlar tibbiy tarjima jarayonida va xalqaro klinik tadqiqotlarda muhim omil bo'lib, ularni hisobga olish zarur. Shu bois, O'zbek tibbiy lug'atlarida

valentlik ko'rsatkichlarini kiritish va tarjimonlar uchun valentlik asosida tuzilgan qo'llanmalarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida e'tirof etilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Oxford: Blackwell, p. 72.
2. Dorland, W. A. (2020). Dorland's Illustrated Medical Dictionary. Philadelphia: Saunders, p. 88.
3. Lyons, J. (1981). Language and Linguistics: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press, p. 94.
4. Sager, J. C. (1990). A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam: John Benjamins, p. 45.
5. Stedman, T. L. (2021). Stedman's Medical Dictionary. Baltimore: Lippincott Williams & Wilkins, p. 113.
6. Tesnière, L. (1959). Éléments de syntaxe structurale. Paris: Klincksieck, p. 67.



To'lg'anoy MAMATQULOVA,
O'zDSMI o'qituvchisi
E-mail: tolgonoymamatqulova@mail.com

QDPI professori, f.f.d D.Jamoliddinova taqrizi asosida

QO'SHIQCHILIK TERMINLARIDA JINS VA TUR MUNOSABATI

Аннотация

Maqolada qo'shiqchilik yo'nalishida butun-bo'lak, jins va tur qo'shiqning avj nuqtasi, naqorati haqida gap ketadi. Qo'shiqchilik san'atida jins-tur munosabati terminologik maydonning asosini tashkil qiladi. Jins-tur munosabati ham nisbiy hisoblanib, bir jinsning turini tashkil qilgan narsalar ikkinchiga nisbatan jinsni bildirishi mumkin.

Kalit so'zlar: Termin, mug'om, jins, tur, bayot, qo'shiq, naqorat, kuplet, maqom, ashula, avj, akkord, ijro etish.

СООТНОШЕНИЕ ПОЛА И ТИПА В ПЕВЧЕСКОМ ПЛАНЕ

Аннотация

В статье говорится о кульминации и припеве песни в певческом направлении. В певческом искусстве соотношение полов составляет основу терминологического поля. Отношения пола и вида также считаются относительными, и вещи, составляющие вид одного пола, могут представлять пол другого.

Ключевые слова: Термин, термин, род, тип, куплет, песня, припев, куплет, статус, распев, кульминация, аккорд, исполнение.

CORRELATION OF GENDER AND TYPE IN SINGING TERMS

Annotation

The article talks about the climax and chorus of the song in the singing direction. In the art of singing, gender ratio forms the basis of the terminological field. The relationship of sex and species is also considered relative, and things that constitute the species of one gender may represent the gender of the other.

Key words: Term, term, gender, type, verse, song, chorus, verse, status, chant, climax, chord, performance.

Kirish. Olam bir butun sistemadir. Uning sistemaliligi shundaki, u o'zaro shartlangan, bir-birini taqazo etuvchi elementlar munosabatidan tashkil topgan yaxlitlikdir. Bu yaxlitlik kichik butunliklarga bo'linuvchanlik xususiyatiga ega. Bizni qurshab turgan olamni tashkil etgan elementlar ma'lum umumiy belgilarga ko'ra sinflarga birlashadi hamda sinfga birlashgan elementlar shu sinf tarkibida bir-biridan farqli belgilarga ko'ra ajraladi. Butun elementlari butunliklar doirasida o'zaro shartlangan va zidlangan munosabatda bo'lsa, ayni chog'da, butunlik bilan butunlik katta butunlik doirasida uning elementlari sifatida o'zaro ana shunday munosabatda bo'ladi.

Jins va tur tushunchalari orasida inklyuziv (kiritish) munosabatlar mavjud. Masalan, mug'om – Ozarbayjon xalq musiqasida lad. Ushbu termin jami 70 dan ortiq mug'omlar turini jamlaydi, ulardan asosiylari, bir birlikni boshqa birlikdan ajratib turuvchi, farqlovchi differensial belgilarga bo'ladi (rast, shur, segoh, shushter, chargyah, bayati shiraz, humayun). Qolganlari shular zaminida tashkil topgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jins-tur munosabati terminologik maydonning asosini tashkil qiladi. Jins-tur munosabati ham nisbiy hisoblanib, bir jinsning turini tashkil qilgan narsalar ikkinchiga nisbatan jinsni bildirishi mumkin. Qo'shiqchilik terminlarida jins-tur munosabatini turli kuylarning har xil variantlari orasidagi munosabatida ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Eshvoy" – Xorazm dostonnoma (kuy)lari asosida yaratilgan kuy va ashulalarning umumiy nomi bo'lib jinsni bildiradi. Bu termin XVIII asrda yashagan mashhur shovotlik Eshvoy baxshi nomiga nisbatan berilgan: "Eshvoy"ning dastlabki namunasi – "Doston Eshvoy"ni baxshining o'zi yaratgan. "Eshvoy" yo'llari Xorazm maqomlaridagi Iroq Naqshlariga hamohang bo'lib, ular o'zbek hamda turkman va qoraqalpoq xalqlari orasida ommalashgan va uning turli variantlari yuzaga kelgan. Masalan, Eshvoy baxshining shogirdi Suyavbaxshi yaratgan "Turkman Eshvoyi", dutor uchun bastalangan "Eshvoy Urganjiy" va boshqalar. "Eshvoy"ning Kurd kuyi ohanglari asosida yaratilgan "Kurd Eshvoyi" ashulasi, To'ychi hofiz bastalagan "Farg'onacha Eshvoy"ning ashula yo'li Toshkent va

Farg'ona vodiysida tarqalgan bo'lib, oldin xorazmcha ufar usulida, keyinchalik taronalar usulida ijro etilgan.

Partonimiya. Borliqdagi har bir narsa, hodisa, jarayon bizning ko'z oldimizda alohida butunlik sifatida namoyon bo'ladi. Ular ma'lum bir qismlardan, bo'laklardan tashkil topadi. Bu qismlar, bo'laklar bir-biri bilan bog'lanib turib yagona bir yaxlitlikni, sistemani tashkil qiladi.

O'zaro dialektik aloqada bo'lgan qismlar, bo'laklar, tomonlar, elementlar, komponentlarning uzviy birligiga butunlik deyiladi. Qism esa ana shu butunlikning tarkibiga kirgan bo'lak, element, komponentdir.

Rus olimi M.V.Nikitin "butun" tushunchasini xolonim (grek.holos – butun so'zidan) "qism"ni meronim (grek. mer – qism so'zidan) yoki partonim (grek. partos – bo'lak, qism so'zlaridan) deb atashni taklif qiladi.

D.N.Shmelev birinchilardan bo'lib rus tili leksikasining paradigmatic guruhlariga har tomonlama va atroflicha tavsif beradi. U so'zlar o'rtasidagi paradigmatic munosabatlar borliqdagi predmetlarning o'rtasida mavjud munosabatlarga bog'liqligini, leksikadagi paradigmatic munosabatlar faqatgina ko'p pog'onali yoki bir chiziqli emasligini aytib o'tadi. Ko'p so'zlar bir vaqtning o'zida turli leksik-semantik paradigmalariga mansub bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

D.N.Shmelev haqli ta'kidlaganidek, til lug'at sostavida mavjud bo'lgan barcha munosabatlarning e'tiborga olinishi u yoki bu ko'rsatkichlarning mohiyatini hamda so'zlarning turli guruhlarini tashkil etish xususitlarini baholashga imkoniyat yaratadi.


Darhaqiqat, har bir tilda butun-bo'lak munosabatini ifodalashga xoslangan muayyan leksemalar guruhi mavjud bo'ladi, bu holat terminlarga ham xosdir. Xolo-meronimiya yoki partonimiyani giper-giponimiyadan farqi shuki, giponimiyada maydonning bir komponenti boshqalariga zidlanib, ular o'rtasidagi ma'no munosabatlari aniqlansa, partonimiyada alohida olingan komponentning uni tashkil qilayotgan ichki a'zolari bilan munosabati masalasi o'rta tashlanadi. YA'ni giponimiyada tashqi munosabatlar aniqlansa, partonimiyada ichki munosabatlar yuzaga chiqadi. Masalan, qo'shiqchilik termin maydoni

komponentlaridan biri bo'lgan dasta terminini olaylik. Dasta – torli sozlarning chap qo'l bilan ushlanadigan qismi (grif). Demak, dasta tanbur, dutor, rubob singari an'anaviy sozlarning bir qismi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, tanbur, dutor, rubob butunlik hisoblansa, dasta ularning bir qismidir.

B.Qilichev partonimiya hodisasi haqida shunday yozadi: “Borliqdagi har qanday hodisa serqirra bo'lgani kabi har bir so'zning ma'no munosabatlari ham rang-barangdir. Shuning uchun har bir leksema shu leksema uchun xos bo'lgan sinonimik, graduonimik, giponimik, partonimik qatorlar kesishgan nuqtada turadi va uning lisoniy-ma'noviy mohiyati mana shu chiziqlarning kesishish nuqtasiga qarab belgilanadi”. Xuddi shu ta'rifni qo'shiqchilik terminlariga ham qo'llash mumkin. Qo'shiqchilik terminlari orasidagi partonimiya munosabatini tahlil qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Qo'shiqchilik termin maydoni komponentlari orasidagi partonimiya munosabatini bayot termini misolida ko'rib chiqaylik. Bayot termini butunlikni ifodalab, uch yo'nalish uchun umumiylikni, jamlikni bildiradi va ular o'z ichida yana qismlarga bo'linadi:

Chizma № 1



Qo'shiqchilik termin maydoniga mansub bo'lgan yana bir termin manzumdir. Xorazm maqomlari ashula bo'limi Manzum (arab. – tuzilgan, terilgan ya'ni, nazm holiga keltirilgan) deb nomlangan. Ular muayyan tartibda, asosan g'azallarga bastalangani uchun Manzum deyiladi.

Har bir maqomda manzum bir necha ashula qismlaridan iborat yirik turkumni tashkil etadi. Ularda tuzilishi birligi, vazn-usul va shakllarning esa xilma-xilligi bilan ta'riflanadi. Manzumning asosiy qismlari – Talqin, Nasr, Tarona, Suvora, Naqsh, Faryod, Ufar va b.

Qo'shiqchilik termin maydoni komponentlari orasidagi butun-bo'lak munosabati yana naqorat termini orqali yuzaga chiqadi. Naqorat – qo'shiqning har bandidan so'ng muntazam ravishda takrorlanib turuvchi qismi. Naqoratning she'riy matni, odatda, to'rtlik yoki baytdan tashkil topib, tugal badiiy obrazni ifodalaydi. Naqorat musiqa asarining ikkinchi kuy davriyasi, ixcham va soddashakli namunalarda esa kuyning ikkinchi jumlasifatida gavdalanadi. Qo'shiq va madhiyalarda naqorat boshqa qismlardan musiqiy vazn, uslub va ijro sur'ati bilan farqlanishi mumkin. Xor jamoalariga mo'ljallab yaratilgan qo'shiqlarda naqorat qismi, odatda, yalpi xor tomonidan ijro etiladi. Ayrim xalq qo'shiq va yallalarida naqorat asosiy kuyini butunligicha takrorlaydi va bandlardan takroriy she'r matni tufayli ajratiladi. Demak, naqorat butunlik sifatida tugal badiiy obraz hisoblangan qo'shiqlarning, kuylarning, madhiyalarning, xalq qo'shiqlarining qismini tashkil qiladi.

Tahlil va natijalar. Bu terminning zamonaviy varianti kuplet terminidir. Kuplet (frans. couplet) – 1) qo'shiq yoki she'rda naqorat tarzidagi band. Qo'shiq kuyi keyingi bandlarda ayvan (yoki qisman o'zgarishlar bilan) takrorlanadi. Kuplet musiqadagi ilk shakllardan bo'lib, o'zbek musiqa folkloridagi lapar, yalla, turli mavzudagi xalq qo'shiqlaridan o'rin olgan; 2) kupletlar – naqoratli, quvnoq, hazil yoki hajviy qo'shiq. Asosan, estrada hamda operetta (vodevil)da keng qo'llaniladi. Hozirgi zamon musiqasida bunday kupletlarni musiqali komediyalarda, estrada, sirk yoki konsert dasturlarida uchratish mumkin.

Qo'shiqchilik terminlari taraqqiyoti natijasida qismni bildirgan terminlar butunni ifodalay boshlagan. Masalan, maqom termini. Maqom (arab. – joy, makon, o'rin) – musulmon Sharqi

1) O'n ikki maqom tizimidagi muayyan sho'balarning umumiy nomi. U o'z ichiga bir necha qismlarga bo'linadi. Masalan, Navro'zi Bayot, Bayoti Ajam;

2) Shashmaqomda Navo, Xorazm maqomlarida Navo va Dugoh maqomlari tarkibidagi sho'balarning umumiy nomi. Shashmaqomning Navo maqomi tarkibida Talqini Bayot, Nasri Bayot va Ufori Bayot;

3) Toshkent-Farg'ona maqom yo'llarida besh qismli yirik ashula turkumining umumiy nomi. Masalan, Bayot I – Saraxbor, Bayot II – Tarona, Bayot III – Savt, Bayot IV – Talqincha, Bayot V – Soqiynoma (yoki Qashqarcha) usullarida ijro etiladi.

Bundan tashqari bayot termini Hofiz SHeroziy g'azali bilan aytiladigan “Bayoti SHeroziy” ham besh qismdan iborat turkumli asardir. Masalan, O'yin Bayoti, Dutor Bayoti, Chapandozi Bayot va h.k.

Ko'rinadiki, bayot terminining o'zi butunlik sifatida bir nechta qismlarga ajratiladi. Bu butun-bo'lak munosabati umumiylikni bildiradi. Faqat Hofiz SHeroziy g'azali bilan aytiladigan bayotlar esa xususiy butin-bo'lak munosabatini bildiradi.

musiqasida asosiy tushunchalardan biri. Dastlab muayyan balandlikdagi tovushni hosil etish uchun torli cholg'uning dastasida barmoq bilan bosiladigan joy, parda ma'nosida ishlatilgan. Demak, qismni bildirgan. Keyinchalik Sharq musiqa nazariyasi rivojlanishi jarayonida maqoming mazmun ko'lamitobora kengayib, bir-biriga nisbatan bog'liq boshqa ma'nolarni ham anglata boshlagah: lad tuzilmasi, lad tizimi; muayyan pardalar zaminida vujudga kelgan kuy-ohanglar; shakl, janr; bir qismli yoki turkumli cholg'u va ashula yo'llari; musiqiy uslub va boshqalar maqomlarga oid nazariy va musiqiy estetik masalalar Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy va Forobiy (IX-X asrlar), Ibn Sino va Ibn Zayla (XI asr), Safiuddin al-Urmaviy (XIII asr), Mahmud ash-Sheroziy va Abdulqodir Marog'iy (XIX asr), Jomiy va Zaynulobiddin Husayniy (XV asr), Najmiddin Kavkabi Buxoriy (XVI asr), Darvishali Changiy (XVII asr) va boshqa olimlarning musiqiy risolalarida tadqiq etilgan.

Gradunimiya. Dunyo tilshunosligida XIX asr oxiri va XX asr o'rtalarida tilshunoslikning rivojlanish jarayonida dialektik tadqiq yo'liga o'tganligi kuzatilgan. Bunga misol qilib N.S.Trubetskoyning fonologiyada oppozitsiya munosabatini tadqiq qilganini, oppozitsiya nazariyasini yaratganligini keltirishimiz mumkin. Shu taqqiqot natijasida tilshunoslikka graduallik tushunchasi kiritildi, Bu tushunchaga ko'ra belgining u yoki bu darajasiga e'tibor qaratilgan. Natijada struktur-semantik yondashuvda belgining graduallik xususiyati logik-semantik va jug'aviy-sintaktik kategoriya sifatida talqin etilgan va kuchaytiruvchi kategoriya toifasiga kiritilgan.

E.Sepir gradumiya munosabatini me'yor va ularning qutblarini tadqiq qilgan va jarayonni psixologik jarayon sifatida o'rgangan. U gradunimiya o'lcham va miqdoriy hususiyatlarga bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Hissiyotlarning ortishi/kamayishiga qarab mantiqiy psixologik va lingvistik gradunimiyani ajratgan. U graduallashdagi boshlang'ich nuqta, gradual shkala, gradual chiziqning mavjud qutblari borligini ta'kidlab, gradatsiya psixologik jarayon sifatida o'lcham va miqdordan oldin inson tafakkurida shakllanishini asoslab bergan.

Qo'shiqchilik termin maydon komponentlari orasidagi gradual munobatni kuylar orasida ko'rishimiz mumkin. Masalan, avj (arab. – cho'qqi, baland) – musiqa asarining yuqori

pardalardagi cho'qqisi, kulminatsiya nuqtasi, ya'ni musiqa asarining eng baland registrdagi davomli kuy tuzilmasi. Avjlarining asosiy turlari – kichik Avj, o'rta Avj, katta (yoki yuqori) Avj deb yuritiladi. Sho'balarning miyonxat tuzilmasini kichik Avjga, dunasrni – o'rta Avjga va namudlarni – katta Avjga qiyoslash mumkin. Avjlar musiqa asarlari bayoni va rivojida shakllantiruvchi va ifodalovchi ahamiyatga ega. Ashulalardagi she'r mazmuni, fikr va his-tuyg'ularning ta'sir kuchini musiqiy vositalar yordamida teranlashtiradi. Avj ishlatish an'anasi o'zbek va umuman, Sharq bastakorlik san'atida, shuningdek, hofizlar va sozandalarning ijrochilik mahorati tufayli mukammallashib ma'lum tabiiy qonuniyat sifatida vujudga kelgan.

Grodunimiya munosabatini yuqorida bitta termin ichida ko'rinadi. Shu holatga yana akkord (lot. *accordo* – uyg'unlashtiraman) – turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo'shilib sadolanishiga aytiladi.

Barcha akkordlarning pastki tovushi–asosiy (yoki prima) ton, undan yuqoridagisi – tersiya toni, uchinchisi – kvinta toni, to'rtinchisi – septima toni, beshinchisi – nona toni deb yuritiladi va ana shu intervallarga mos raqamlar bilan belgilanadi. Akkordlar tarkiban (katta yoki kichik tersiyalar oldinma-kekin joylashishi jihatidan) bir-biridan farqlanadi. Asosiy tonidan hisoblanganida avval katta, so'ngra kichik tersiyalardan tuzilgan akkord – katta yoki major uchtovushligi, avval kichik so'ngra katta tersiyalardan tuzilgan akkord – kichik yoki minor uchtovushligi, ikki katta tersiyadan tuzilgan – orttirilgan, ikki kichik tersiyadan tuzilgan – kamaytirilgan uchtovushlik deyiladi. Uchtovushlik va septakkordlar odatda musiqa tovushqatorining muayyan pog'onalarida tuziladi. Ana shu muayyan pog'onalar ham gradunimiya shkalasini namoyon qiladi deb aytish mumkin.

Klassisizm davri musiqa amaliyotida I, IV va V pog'onalarining (tonika, subdominanta va dominanta deb ataluvchi) uchtovushliklari, II, V va VII pogonalarining (V7 – dominant septakkord, VII, – etakchi) septakkordlari keng qo'llaniladi.

Akkordlar tonlari orasidagi masofaga binoan (tenor-bas oralig'i bundan istisno) tor (kvartagacha) va keng (oktavagacha) joylashgan bo'ladi. Barcha akkordlar dissonans yoki konsonanslik xususiyatiga ega bo'lib, odatda, birinchi turdagilari konsonansli ko'ptovushliklarga echiladi (o'tadi). Bu narsa (tarang dissonans va xushsadoli konsonans akkordlarlar munosabati) musiqa amaliyoti, avvalo, kompozitorlar ijodi uchun katta badiiy omil vazifasini o'taydi. Shu boisdan har bir akkord faqat funksional (ya'ni u yoki bu ladning muayyan pog'onasida tuzilgan ko'ptovushlik sifatida) ahamiyatga ega bo'libgina qolmay, muhim ifoda vositasi hamdir. Akkordlardan foydalanish va ularni tahlil etishda ularga tarixan yondashish va u yoki bu ijodiy oqim, uslub hamda an'anani inobatga olish zarur, chunki biror davr (Masalan, klassisizm, romantizm, impressionizm va h.k.) mezon boshqa davr mezoniga to'g'ri kelmasligi tabiiy.

Bas (ital. *basso* – past) – 1) erkaklarning eng past, yo'g'on ovozi. Baland yoki kuychan Bas (ital. *basso cantante*)

hamda past Baas (*basso profundo*), opera amaliyotida – xarakterli, hajviy Bas (*basso buffo*) farq qilinadi. Rus xorlarida oktavachi Baslar uchraydi, ular inson ovozi uchun eng past ovozda tovushlarni ijro eta oladi; XX asr xonandalaridan F. Shalyapin (Rossiya), N.Gyurov (Bolgariya), Teo Adam (Germaniya), O'zbekistonda H. Ismoilov, V. Grinchenko, Q. Muhiddinov va boshqalarning ovozi Bas.

Bariton (ital. *baritono*, yun. *barus* – vazmin, past; ton-tovush) – 1) erkak xonandalar ovozi bir turi, balandligi jihatidan bas bilan tenor oralig'ida. O'zbek xonandalaridan M. Qoriyoqubov, N. Hoshimov, S. Benyaminov, chet el xonandalaridan D. Fisherdiskau, M. Mago-Masv, G. Ots, D. Xvorostovskiy Bariton ovozlari bilan mashhur.

Tenor (lot. *tenor* – ovoznin tekis xarakati) – erkak xonandaning baland (ingichka) ovozi. O'zbekistonda S. Yarashev, F. Abdurahmonov, A. Azimov, I. Jalilov, K.Serjanovlar tenor ovozigaga ega.

Terminlarning ichida ba'zi terminlar o'z leksik ma'nosining teskari ma'nosida tushuniladi. Masalan,

Alt (ital. *alto* – yuqori, baland) – ovoz va soz turini bildiradi. Leksik ma'nosi yuqori, baland ma'nosini bersa ham, lekin u past ovozni ifodalaydi: u xor yoki vokal ansamblda partiya, xonanda bolalar yoki ayollar (*mezzo-soprano*, *kontralto*)ning past (yo'g'on) ovozi, xonanda o'g'il bolalarning past (yo'g'on) ovozi ko'rsatadi.

Qo'shiqchilik terminlari ichida bir musiqaning o'zida ham gradunimiya munosabati ko'riladi.

Daromad (musiqada) – muqaddima, debocha, umuman, asarning bosh qismi, bo'lagi va har qanday bosh qism singari past tezlikda bo'ladi. Daromad maqom sho'basi, shuningdek, uning shakliga mutanosib cholg'u va ashula asarlarining 1 boshlangich tuzilmasi, xati. Sarxat deb ham yuritiladi. Ular navbatdagi sho'ba uchun muqaddima hisoblanadi. Macalan, Daromadi Nasri Ushshoq, Daromadi Dugohi Husayniy va h.k.

Daromad musiqaning yoki qo'shiqning boshlang'ich qism bo'lsa, har bir musiqaning va qo'shiqning avji bo'ladi. Avjning o'z nomi bor. Masalan, vadavang juda avjida degan ma'noni bildiradi: Bugun ashulalar vadavang-ku, Sher aka! (O. Yoqubov, Chin muhabbat) Suv bo'yida harsillaydi podalar, to'qaylarda qushlar bazmi vadavang. (Mirtemir)

Xulosa va takliflar. Mumtoz ashulalarda qo'llanadigan mashhur avjning nomi Zebo pari deb nomlanadi. Taxminlarga ko'ra, bu avjni Zebo pari taxallusli farg'onalik mashhur xonanda va sozanda, bastakor Abdurahmon (XIX asr) ijod qilgan deb hisoblaydilar. Aslida, u bu avjni zo'r ehtiros va mahorat bilan ijro etganligi sababli avjga Zebo pari nomi berilgan. Zebo pari xonandalarning cho'qqi pardalarga chiqish, ovoz va badihago'ylik mahoratlarini namoyish etishlarida keng imkoniyatlarga ega.

Ko'rinadiki, qo'shiqchilik terminlari orasida turli munosabatlar mavjud. Biz ishning hajmi talabiga ko'ra faqat uchta: giponimiya, partonimiya, gradunimiya munosabatlarini o'rgandik.

ADABIYOTLAR

1. Iskadarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon asosida o'rganish. Filol. fanlari d-ri...dis.avtoref. - Toshkent. 1999
2. Sobirov A. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – B.136.
3. Shmelev D.N. Современный русский язык: Лексика. -М.,1973 -S.107-108 (335)
4. Qilichev B. O'zbek tilida partonimiya: filol. fan. nomzodi ... dis. avtoreferati. –Toshkent, 1997. –B. 18.
5. Kipyun A.D. Градация как способ организации лексико-семантической группы (качественные прилагательные со значением характеристике человека в современном русском языке). Автореф.дисс.канд.филол.наук. -М.:Ун-т дружбы народов 1981. -S. 22
6. Serig E. Градуирование: Семантическое исследование. Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16: Лингвистическая прогматика. -М.: Прогресс, 1985. -S. 43-78.



UDK:8-1751-82-0

Shohista MANSUROVA,
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti
E-mail: shohista.isroilovna.1977@gmail.com

Ilmiy raxbar prof.I.T.Rustamov taqrizi bilan

ADABIYOTDA OT VA INSON O'RTASIDAGI ALOQANING BADIY YARATILISHI

Annotatsiya

Qadimiy eposlardan tortib, zamonaviy adabiyotgacha bo'lgan davr mobaynida ot obrazi turli badiiy va falsafiy talqinlarga ega bo'lib kelgan. Ot obrazi faqatgina insonning sodiq hamrohi emas, balki ijtimoiy, madaniy va ruhiy jarayonlarni aks ettiruvchi muhim timsollardan biri hisoblanadi. Ishda otning qahramonlik, erkinlik, sadoqat, ijtimoiy tengsizlik va metafizik ramz sifatida tasvirlanishi tahlil qilinib, uning adabiy evolyutsiyasi yoritiladi. Ot va inson o'rtasidagi badiiy bog'liqlikning turli adabiy oqimlardagi o'zgarishi va ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Ot obrazi, adabiyot, badiiy timsol, inson va ot aloqasi, qahramonlik eposi, metafizik ramz, erkinlik, sadoqat, tasavvufiy adabiyot, realizm, modernizm, postmodernizm.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ЛОШАДЕЙ И ЛЮДЕЙ В ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

От древних эпосов до современной литературы образ коня имел различные художественные и философские интерпретации. Образ коня — не только верный спутник человека, но и один из важных символов, отражающих социальные, культурные и духовные процессы. В произведении анализируется изображение коня как символа героизма, свободы, верности, социального неравенства и метафизики, а также освещается его литературная эволюция. Обсуждаются изменения и значение художественной связи лошади и человека в различных литературных течениях.

Ключевые слова: Образ коня, литература, художественное изображение, отношения человека и коня, героический эпос, метафизический символ, свобода, верность, мистическая литература, реализм, модернизм, постмодернизм.

ARTISTIC CREATION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN HORSE AND HUMAN IN LITERATURE

Annotation

From ancient epics to modern literature, the image of a horse has had various artistic and philosophical interpretations. The image of a horse is not only a faithful companion of a person, but also one of the important symbols reflecting social, cultural and spiritual processes. The work analyzes the depiction of a horse as a symbol of heroism, freedom, loyalty, social inequality and metaphysical, and highlights its literary evolution. The changes and significance of the artistic connection between a horse and a person in different literary movements are discussed.

Key words: Image of a horse, literature, artistic image, human-horse relationship, heroic epic, metaphysical symbol, freedom, loyalty, mystical literature, realism, modernism, postmodernism.

Kirish. Insoniyat tarixi davomida ot insonning eng yaqin hamrohi, ishonchli yordamchisi va ba'zan o'zining o'ziga xos timsoli sifatida e'tirof etilgan. U nafaqat jismoniy kuch va harakat vositasi, balki ramziy ma'noda insonning taqdiri, orzu-umidlari va ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi badiiy obraz sifatida ham adabiyotda muhim o'rinni egallagan. Turli davr va madaniyatlarga oid adabiy manbalarda ot obrazi sadoqat, erkinlik, qudrat, mashaqqat, fojia va najot kabi tushunchalar bilan uyg'un holda talqin etilgan. Shu bois, ot va inson o'rtasidagi bog'liqlik badiiy adabiyotda nafaqat sarguzasht yoki tarixiy voqealar vositasi sifatida, balki insoniyatning ichki dunyosini chuqur yorituvchi timsol sifatida ham namoyon bo'ladi.

Zamonaviy adabiyotda ot obrazi insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va metafizik izlanishlarini ifodalovchi vosita sifatida ham qo'llaniladi. Ot va inson o'rtasidagi bog'liqlik ba'zan ma'naviy o'sish, ba'zan esa insonning o'z tabiati bilan kurashini aks ettiruvchi badiiy uslub sifatida xizmat qiladi. Shu bois, adabiyotda ot obrazi shunchaki jonivor yoki transport vositasi emas, balki inson hayoti, qadriyatlarini va orzu-umidlarini ifodalovchi badiiy timsol sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil. Adabiyotda ot obrazi turli davrlarda, turli adabiy maktablar va janrlarda o'ziga xos tarzda yoritilgan. Ot va inson o'rtasidagi bog'liqlik mifologik manbalardan boshlab zamonaviy badiiy adabiyotgacha yetib kelgan bo'lib, har bir asarda u turli ramziy, falsafiy va sotsiologik ma'nolarga ega.

Qadimiy epos va xalq dostonlarida ot qahramonning ajralmas hamrohi sifatida tasvirlanadi. Masalan, turkiy va fors eposlarida ot faqatgina harakat vositasi emas, balki qahramonning

taqdiri bilan bog'liq ruhiy timsol hamdir. "Alpomish"[1] dostonida Alpomishning sadoqatli oti Boychibor faqatgina jangovar vosita emas, balki donishmandlik timsoli sifatida ham gavydalanadi. Boychibor Alpomishning ruhiy dunyosi va taqdiri bilan bog'liq bo'lib, qahramonga sadoqat va bardoshlilik singari xislatlarni anglatuvchi obrazdir.

Shu kabi, "Manas"[2] eposida ham ot qahramonning shaxsiyati va yuksak mavqei ajralmas qismi hisoblanadi. Ot qahramonning kuchi, qadri va taqdiri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u nafaqat jang maydonida, balki hayotning boshqa sinovlarida ham yordam beradi. Bunday tasvirlash usuli ot va inson o'rtasidagi ruhiy yaqinlikni, ularning bir-biriga ta'sirini ko'rsatadi.

Sharq adabiyotida ot obrazining ramziy ma'nolari chuqur falsafiy mazmunga ega. Masalan, Jaloliddin Rumiy she'riyatida ot insonning nafsiy istaklari va ruhiy holatlarini aks ettiruvchi timsol sifatida gavydalanadi. U Ruhiy sayohat, nafs bilan kurash va ma'naviy yetuklik sari intilish kabi g'oyalarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Xuddi shuningdek, Navoiy g'azallarida ot ba'zan insonning hayot yo'lida duch keladigan sinovlari yoki uning fidoyilik va sadoqatining timsoli sifatida talqin qilinadi. [3.4]

G'arb adabiyotida esa ot ba'zan insoniyat sivilizatsiyasining rivoji bilan bog'liq muhim ramz sifatida ko'rsatilgan. Masalan, Lev Tolstoyning "Holstomer" [5] qissasida ot jamiyatning qattiqqo'lligi va adolatsizliklarini his qiluvchi, biroq gapira olmaydigan mavjudot sifatida tasvirlangan. Holstomerning taqdiri orqali Tolstoy insoniyatdagi tabaqalanish, mulkchilik va ijtimoiy tengsizlik muammolarini ochib beradi.

Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" [6] qissasida esa ot to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etmasa ham, asar falsafasida uning ramziy ma'nolari seziladi. Dengiz va ot o'rtasidagi bog'liqlik shundaki, har ikkisi ham insonning maqsad sari intilishi, g'alaba va mag'lubiyat o'rtasidagi kurashini ifodalaydi.

Zamonaviy adabiyotda ot obrazi insonning ichki kechinmalarini, uning hayotdagi o'rnini va o'z-o'zini anglash jarayonini yoritish uchun ishlatiladi. Masalan, Jek Londonning "Yovvoyi chaqiriq" [7] asarida ot o'rniga bo'ri tasvirlangan bo'lsa-da, asar mohiyatiga ko'ra inson va hayvon o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur ochib beradi. Otning bunday talqini insonning tabiat bilan bo'lgan bog'liqligi va uning yovvoyi instinktlar bilan qanday munosabatda bo'lishi kerakligi haqidagi savollarni tug'diradi.

Adabiyotda ot va inson o'rtasidagi bog'liqlik turli davr va janrlarda turlicha talqin etilgan. Qadimiy eposlarda ot insonning hamrohi va sodiq do'sti sifatida gavdalangan bo'lsa, falsafiy adabiyotda u insonning ruhiy holatini aks ettiruvchi ramzga aylangan. G'arb adabiyotida ot ba'zan insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishidagi o'zgarishlarni ifodalasa, zamonaviy adabiyotda u inson psixologiyasi va ichki dunyosi bilan bog'liq obraz sifatida ishlatiladi. Shu sababli, ot obrazi nafaqat insonning jismoniy hayotiga, balki uning ma'naviy va falsafiy qarashlariga ham chuqur bog'liq bo'lib, adabiyotda muhim timsollardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot natijasi va muhokama. Adabiyotda ot va inson o'rtasidagi aloqaning badiiy yaratilishi turli davr va madaniyatlarga oid asarlarda o'ziga xos tarzda ifodalangan bo'lib, bu obraz muayyan adabiy, tarixiy va falsafiy kontekstga qarab turlicha talqin etilgan. Ushbu tadqiqot davomida ot obrazi qadimiy mif va eposlardan boshlab zamonaviy adabiyotgacha bo'lgan yo'lda qanday evolyutsiya kechirganini tahlil qilish imkoniyati tug'ildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ot inson hayotining ajralmas qismi bo'libgina qolmay, balki insonning ichki kechinmalari, falsafiy qarashlari, ijtimoiy tuzilishi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim timsollardan biri sifatida namoyon bo'lgan.

Ot obrazining adabiyotdagi badiiy yaratilishi turli omillarga bog'liq holda o'zgarib borgan. Qadimiy eposlarda ot qahramonning ajralmas yordamchisi sifatida tasvirlanib, uning jasorati va muvaffaqiyatining garovi sifatida namoyon bo'lsa, keyingi davrlarda otning inson bilan bog'liqligi yanada murakkab ma'naviy qatlamlarga ega bo'ldi. Masalan:

- Qahramonlik eposlarida ot insonning harbiy kuchi, sadoqat va mag'rurlik timsoli bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "Alpomish" dostonidagi Boychibor va "Manas" eposidagi Ak-Kula qahramonning ajralmas qismiga aylanib, uning ruhiy holati va taqdiri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

- Sharq falsafiy adabiyotida ot insonning ruhiy olamini aks ettiruvchi ramz sifatida ishlatilgan. Masalan, Jaloliddin Rumiyning falsafiy asarlarida ot ba'zan insonning nafsiiy istaklarini, ba'zan esa uning ma'naviy yuksalish yo'lini ifodalaydi.

- G'arb realizmi va naturalizmida ot jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va inson tabiatining murakkab jihatlari yorituvchi vosita sifatida tasvirlangan. Masalan, Lev Tolstoyning "Holstomer" asarida ot insonlar tomonidan kamsitilgan, adolatsizlikka uchragan jonot sifatida namoyon bo'lib, bu orqali yozuvchi jamiyatdagi sinfiy tafovutlarni fosh qiladi.

- Modernizm va zamonaviy adabiyotda ot obrazining badiiy talqini yanada chuqurlashtirib, u insonning individual kechinmalari va ichki izlanishlarini aks ettiruvchi metafora sifatida ishlatila boshlandi. Masalan, Anna Zegersning "O'n uchinchi ot" asarida ot erkinlik va ozodlik ramzi sifatida gavdalanadi.

Ko'pgina adabiyotda ot va inson o'rtasidagi munosabatlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lgan:

- Epos va xalq og'zaki ijodida ot qahramonga sodiq yordamchi sifatida tasvirlanadi. U insonning kuch-qudratini oshiruvchi vosita emas, balki uning ma'naviy olami bilan bog'liq do'st va maslakdosh sifatida gavdalanadi.

- G'arb adabiyotida ot ko'pincha insonning erkinlikka intilishini aks ettiradi. Masalan, kovboy romanlarida ot – yangi yerni zabt etish va mustaqillik ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

- Realistik adabiyotda ot jamiyatning befarqligi va adolatsizligi qurboni sifatida ko'rsatiladi. "Holstomer" bunga yaqqol misoldir.

- Sharq adabiyotida ot nafaqat jismoniy, balki ma'naviy sayohatning ham ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Jaloliddin Rumi va boshqa tasavvuf shoirlari asarlarida ot insonning nafs va ruh o'rtasidagi kurashini aks ettiruvchi ramz sifatida uchraydi.

Ot obrazi adabiyotda uzoq tarixiy yo'l bosib o'tgan bo'lib, uning badiiy talqini davr, jamiyat va adabiy yo'nalishlar o'zgarishiga qarab rivojlangan:

1. Qadimgi davr – Ot jasorat va kuch-qudrat timsoli sifatida qahramonlik eposlarida tasvirlangan.

2. O'rta asrlar – Ot ezgulik va sadoqat ramziga aylangan, diniy va tasavvufiy talqinlar kuchaygan.

3. XIX asr realizmi – Ot orqali inson hayoti va ijtimoiy muammolar aks ettirilgan.

4. XX asr modernizmi va zamonaviy adabiyot – Ot insonning ichki dunyosi va falsafiy izlanishlarini yoritish uchun badiiy vosita sifatida ishlatilgan.

Adabiyotda ot obrazi oddiy transport vositasi yoki hayvoniy kuchning timsoli emas, balki insonning o'zligini anglash, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni ochib beruvchi badiiy timsol sifatida xizmat qiladi. Bu obraz orqali yozuvchilar jamiyat hayotini, insoniy fazilatlarini, adolat va zulmni, erkinlik va bog'liqlikni aks ettirishgan.

Ot obrazi turli davrlarda turlicha talqin etilgan bo'lsa-da, u har doim insonning hayotiy yo'li va uning o'ziga bo'lgan munosabatini yoritish uchun ishlatilgan. Zamonaviy adabiyotda ham ot obrazi o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, u inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni, insonning o'z-o'zini anglashini chuqur ochib berishda davom etmoqda.

Xulosa. Adabiyotda ot va inson o'rtasidagi bog'liqlikning badiiy talqini uzoq tarixiy jarayonni o'z ichiga oladi. Aniqlanishicha, ot obrazi turli adabiy makon va zamonlarda o'ziga xos ramziy, falsafiy va ijtimoiy ma'nolar kasb etib kelgan. U shunchaki insonning sodiq hamrohi yoki jismoniy transport vositasi emas, balki insonning ruhiy dunyosi, ijtimoiy hayoti va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi kuchli badiiy timsollardan biridir. Adabiyotda ot obrazi inson bilan bo'lgan aloqasi orqali jamiyatning o'zgarishlarini, inson ruhiyatidagi murakkab jarayonlarni va ma'naviy izlanishlarini aks ettirib kelgan. Jumladan:

- Qadimiy epos va xalq og'zaki ijodida ot qahramonning ajralmas hamrohi sifatida tasvirlanib, uning sodiqligi, kuchi va qahramonning taqdiridagi muhim o'rni ta'kidlangan. Masalan, "Alpomish" dostonidagi Boychibor yoki "Manas" eposidagi Ak-Kula nafaqat qahramonning jangovar kuchini oshiruvchi vosita, balki ining ruhiy va ma'naviy kamolotida ham ishtirok etuvchi obrazlardir.

- Ot obrazining ko'plab adabiy asarlarda insonning ozodlikka intilishi, tabiat bilan uyg'unligi va mustaqil hayot kechirish istagini ifodalash uchun ishlatilgani kuzatiladi. Masalan, G'arb adabiyotidagi kovboy romanlarida ot yangi ufqlar sari yo'l ochuvchi vosita bo'lsa, Sharq adabiyotida u insonning ruhiy sayohati va ma'naviy yetuklikka erishish ramzi bo'lib xizmat qiladi.

- Naturalistik va realistik asarlarda ot inson jamiyatidagi befarqlik, zulm va adolatsizlikni aks ettiruvchi vosita sifatida ishlatilgan. Lev Tolstoyning "Holstomer" qissasida ot obrazi jamiyatdagi tabaqalanish, mulkchilik va insoniy qadriyatlarning buzilishi haqida chuqur falsafiy fikr uyg'otuvchi badiiy obraz sifatida ko'rsatilgan.

- Zamonaviy adabiyotda ot obrazi inson va hayvon o'rtasidagi chegara, ularning o'zaro bog'liqligi, insonning tabiiy dunyoga bo'lgan munosabatini ochib beruvchi vosita sifatida talqin etilgan. Masalan, Jek Londonning "Yovvoyi chaqiriq" asarida ot o'rniga bo'ri ishlatilgan bo'lsa-da, unda inson va hayvon o'rtasidagi tabiiy bog'liqlik, ularning instinktlar va hayotiy kurash orqali birlashuvi asosiy g'oya qilib olingan.

- Sharq adabiyotida ot ko'pincha insonning ichki dunyosidagi ziddiyatlar, nafs va ruhiy poklanish yo'lini aks ettirish uchun ishlatilgan. Masalan, Jaloliddin Rumiyning she'riyatida ot – insonning nafsiiy istaklarini jilovlash zaruriyatini

ifodalovchi obraz sifatida tasvirlangan. Bu talqin Navoiy va boshqa tasavvufiy shoirlarning asarlarida ham kuzatiladi.

Ot obrazi adabiyotning har bir bosqichida o'ziga xos yangi ma'no kasb etgan bo'lsa-da, u har doim inson hayoti, ruhiy olami va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq bo'lib kelgan. Shu bois ot obrazi faqat badiiy tasvir vositasi bo'lib qolmay, balki chuqur falsafiy, axloqiy va sotsiologik ma'nolarni o'z ichiga oluvchi kuchli ramz sifatida saqlanib qolgan.

Bundan kelib chiqib, adabiyotda ot va inson o'rtasidagi bog'liqlik ikki asosiy tamoyil asosida qurilgan deb xulosa qilish mumkin: 1. Ot – insonning tashqi dunyosi bilan bog'liqligi, uning

tarixiy va ijtimoiy hayotidagi o'rni aks ettiruvchi obrazdir. 2. Ot – insonning ichki olami va ruhiy kechinmalarini ifodalovchi timsol bo'lib, u nafaqat jismoniy, balki ma'naviy sayohat ramzi hamdir.

Adabiyotda ot obrazi inson bilan bog'liq muhim timsollardan biri bo'lib, u tarixiy, falsafiy va ramziy ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Uning badiiy talqini turli davrlarda o'zgarib borgan bo'lsa-da, uning inson hayotidagi o'rni doimiylikicha qolmoqda. Bu esa ot obrazining adabiy tadqiqotlar va badiiy asarlar uchun doimiy ilhom manbai bo'lib qolishini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR

1. "Alpomish" – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi – 2018. – 368 b. <https://oyina.uz/storage/publications/August2021/YwVwkr2tOkAi5WLCLwDr.pdf>
2. Молдабоев И.Б. «Манас» историко-культурный памятник кыргызов. -Б.: Кыргызистан, 1995. -312 с. ISBN 5-655-00965-X
3. "Хамса" Алишер Навоий; кискартириб нашрга тайёрловчи А.Ҳожаҳмедов; масъул муҳаррир Б.Раҳманов. -Т.: Янги асп авлоди, 2012. -428 б.
4. Жалолиддин Румий "Маънавий Маснавий" : Куллиёт.Ж.1К.1./(Таржима шарҳи билан); / Таржимон А.Маҳкам; Масъул муҳаррир Т.Маҳмудов/. -Т.: Шарк, 1999. -368 б.
5. Tolstoy, L. N. (1886). Holstomer. – Moskva: Rus klassikasi. <https://www.litres.ru/book/lev-tolstoy/holstomer-izbrannoe-64420401/chitat-onlayn/>
6. Hemingway, E. Chol va dengiz. www.ziyouz.com kutubxonasi. https://arm.navoiy-uni.uz/wp-content/uploads/2019/04/ernest_xeminguey_chol_va_dengiz_lot_ziyouz_com.pdf
7. Daniel Dayer tomonidan tasvirlangan o'quvchining hamrohi bilan London; yovvoyi chaqiriq: Jaklin Tavernier-Kurbin tomonidan tabiiy Romantika. <https://www.jstor.org/stable/820729>
8. Horses and the Human Soul Paperback – June 1, 2004. by Judith Barrington (Author)



Ozoda MEHMONOVA,
Quvasoy shahar 1 IDUM ingliz tili o'qituvchisi
E-mail: ozoda.mekhmonova90@mail.ru

DSc, professor B.Qurbonova taqrizi asosida

DIALOGIK NUTQNING SEMANTIK RIVOJLANISHI

Аннотация

Ushbu maqolada hozirgi kunda lingvistikada dolzarb hisoblangan dialogik nutq va uning semantikasi o'rganilgan. Muloqot jarayonida asosiy nutq ko'rinishi bo'lgan dialoglarning leksik yoki semantik rivojlanishi uning pragmatikasi bilan uzviy bog'langanligi o'zbek va ingliz tilida keltirilgan namunalar asosida tahlil qilindi. Shu bilan birga, nutq ishtirokchilari adresat va adresantning dialog jarayonida qo'llaydigan lisoniy birliklari situatsion asos tushunchasiga monand shakllanishi dialog parchalari tahlili orqali ko'rsatib berildi. Maqolada so'roq gapning semantik tuzilishi har tomonlama tadbiq etilib, uning uch asosiy ma'no konstruksiyasi ya'ni imperativlik (buyruq), noaniqlik va xabar berish ekanligi aniqlandi. Savol-javob diskursida qo'llanadigan keng funksional diapazon mana shu uch semaning turli kombinatsiyasidan hosil qilinadi. Bundan tashqari, dialogik nutqda keng qo'llaniladigan tasdiq talab etuvchi va predikativ savol turlari ingliz va o'zbek tilida namunalar bilan o'rganildi va ularning o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

Kalit so'zlar: Dialog, semantik ma'no, pragmatik ma'no, adresat, adresant, savol javob diskursi, predikativ savol, situatsion asos.

СЕМАНТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Аннотация

В статье рассматривается диалогическая речь и ее семантика, которые в настоящее время считаются актуальными в лингвистике. Лексическое или семантическое развитие диалогов, являющихся основной формой речи в процессе общения, неразрывно связано с ее прагматикой и было проанализировано на основе примеров, представленных на узбекском и английском языках. В то же время анализ фрагментов диалогов показал, что языковые единицы, используемые адресатом и адресатом в процессе диалога, схожи по понятию ситуативная основа. В статье комплексно исследуется семантическая структура вопросительного предложения, выявляются три его основные семантические конструкции: повелительное наклонение (приказ), неопределенность и сообщение. Широкий функциональный диапазон, используемый в вопросно-ответном дискурсе, формируется из различных комбинаций этих трех сем. Кроме того, на примерах из английского и узбекского языков изучены типы утвердительных и предикативных вопросов, широко используемые в диалогической речи, и выявлены их специфические особенности.

Ключевые слова: Диалог, семантическое значение, прагматическое значение, адресат, реципиент, вопросно-ответный дискурс, предикативный вопрос, ситуативная основа.

SEMANTIC DEVELOPMENT OF DIALOGICAL SPEECH

Annotation

This article studies dialogical speech and its semantics, which are currently considered relevant in linguistics. The lexical or semantic development of dialogues, which are the main form of speech in the process of communication, is inextricably linked with its pragmatics, analyzed on the basis of examples presented in Uzbek and English. At the same time, the formation of linguistic units used by the addressee and addressee in the process of dialogue, similar to the concept of a situational basis, is shown through the analysis of dialogue fragments. The article comprehensively applies the semantic structure of the interrogative sentence, and it is determined that it has three main meaning constructions, namely imperative (command), uncertainty and reporting. The wide functional range used in question-answer discourse is formed from various combinations of these three semes. In addition, the types of affirmative and predicative questions widely used in dialogic speech were studied with examples in English and Uzbek, and their specific features were identified.

Key words: Dialogue, semantic meaning, pragmatic meaning, addressee, addressee, question-answer discourse, predicative question, situational basis.

Kirish. Dialogik nutqning semantikasi haqida so'z yuritilgan ekan, avvalo u nutqiy xulq-atvorning lingvopragmatik qoidalari bilan uzviy bog'langan ekanligini anglashimiz lozim. Shu o'rinda buyuk tilshunoslardan birining ajoyib jumlasini keltirishni joiz deb topdik: "So'z idrok etuvchi predmetning ekvivalenti emas, balki uning muloqot jarayonida nutqiy-ijodiy harakat orqali qanday idrok etilganiga tengdir" [1]. Tilshunos olimlarning yuqorida ifodalangan so'z semantikasiga munosabati uning pragmatik jihatini ham to'liq isloh qilishga undaydi..

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. J.Ostin, G.Gris, P.Strouson o'z asarlarida dialogik nutq semantikasi pragmatikaga asoslangan holda o'rganilishini takidlab o'tganlar. Bunda jumlaning qay tarzda shakllanishi, qanday lisoniy birliklarni qo'llanishi va hattoki so'zlarning qanday talaffuz etilishi muloqot ishtirokchilarining pragmatik maqsadi bilan uzviy bog'langan. Lekin, ushbu vaziyatda bayonotning ma'nosi uning qanday holatda ishlatilishi bilan ham bog'liq ekanligiga alohida e'tibor

qaratishimiz lozim. Suhbat jarayonida qo'llanadigan gap ma'nosini anglashning ikki xil usuli bor. Ulardan birinchisi, so'zning o'ziga asoslangan bo'lib, bunda kontekst ham, so'zlovchining nutqdan ko'zlangan maqsadi ham inobatga olinmaydi. Ikkinchi yondoshuvda esa gap nutq doirasidan abstraktlashtirilgan holda emas, balki so'zlovchining niyatini amalga oshirish samaradorligiga qarab izohlanadi. Bunday turdagi gaplar so'zlovchining dialogik jarayonga qo'ygan maqsadi va rejasiga monand turli ma'nolarni o'zida aks ettiradi. Shunday qilib, gapning ma'nosini ikki turga ajratishimiz mumkin: pragmatik yoki pragmasemantik. Pragmatik ma'no nutq ishtirokchisining gaplarini buyruq, so'roq yoki takid sifatida qo'llash niyatini o'zida namoyon qiladi. YA'ni bunda jumlaning mazmunli bo'lishi uchun kontekstdagi til birliklari oldindan tahlil qilinadi. Masalan, "Daraxtlarni oqlamaysizmi? Axir vaqti o'tib ketyapti" gaplarini tahlil qiladigan bo'lsak, so'zlovchi aslida savol emas balki "Daraxtlarni oqlang, vaqti o'tib ketyapti"

mazmunidagi buyruq mazmuniga ega bo'lgan fikrni ifodalamoqda va bu so'roq gapdan o'zining niyatini yanada ta'sirli tarzda aks ettirishda foydalangan.

Yuqorida berilgan fikrlar, diskursiv nominatsiyaning ma'nosi dialogik so'z, lisoniy birliklar, ularning o'zaro munosabati va psixolingvistik ta'siri bilan belgilanadi degan fikrga kelishimizga asos bo'la oladi. Ushbu vaziyatda tahlil qilishimiz kerak bo'lgan navbatdagi atama situatsion asosdir. Bu atama muloqot sodir bo'layotgan vaziyat, joy, muhit, tinglovchining so'zlovchiga bo'lgan ijtimoiy aloqadorligi (ya'ni gapirayotgan insonga uni eshitayotganlar qanday aloqadorlikka egaligi: oila a'zosimi, o'qituvchisimi, boshlig'imi, do'stimi...) nutqning, matnning shakli qanchalik ta'sir etishini ifodalaydi. Buni quyida berilgan ingliz adabiyotiga tegishli asardan olingan dialog parchasi misolida ko'rib chiqamiz:

At half twelve, the doctor came downstairs. He was smiling happily. He bowed to my aunt politely. (Soat o'n ikki yarimda, shifokor pastga yuqoridan pastga tushdi. U mamnun jilmayardi. Odob bilan holamga tazim qildi)

-I have good news ma'am. Mother and baby are both well. (Menda ijobiy yangilik bor, xonim. Ona-bola ikkalasi ham yaxshi holatda)

-What? What did you say?-my aunt shouted, taking the cotton-wool out of her ears. (Nima? Nima dedingiz? - holam qulog'idagi paxtani olib baqirdi)

-It's good news, the doctor repeated. Mrs Copperfield is resting and the baby is healthy. (Bu yaxshi xabar, shifokor takrorladi. Copperfield xonim dam olmoqda, chaqaloq ham sog'lom) [2].

Charles Dickensning "David Copperfield" asaridan olingan parcha shifokor va mijoz o'rtasidagi dialogik suhbatni ifodalagan. Bunda situatsion asosning belgilari muallifning holasi va shifokor dialogida namoyon bo'lib, ularning muloqotidagi tazim bilan gapirishlar, "xonim" deb murojaat etishlar, ayrim o'rtadagi ijtimoiy vaziyat, mansab va hurmat kabi omillar hisobga olingan holda nutq so'zlanayotganini yaqqol ko'rsatib turadi.

Endi keyingi asardan olingan dialog parchasini ko'rib chiqamiz:

The old man opened his eyes and for a moment he was coming back from a long way away. Then he smiled. (Keksa odam ko'zlarini ochdi va bir muddat o'zini uzoqdan kelgan odamday his qildi.)

-What have you got?-he asked. (Nimang bor? U so'radi)

-Supper, said the boy. We're going to have supper. (Kechki ovqat. -dedi bola)

-I'm not very hungry. (Men unchaligam och emasman.)

-Come on and eat. You can't fish and not eat. (Keling va yeb oling. Siz baliq ham tutolmaysiz, yeyolmaysiz ham.)

Ernest Hemingveynning "Chol va dengiz" asaridan olingan dialogik muloqotga nazar salsak, bu yerdagi situatsion asos dialog ishtirokchilari bo'lgan keksa odamga ham, yigitga ham norasmiy suhbat olib borishiga va o'z fikrlarini bemalol ifodalash imkonini bermoqda.

Yuqorida ingliz adabiyotiga mansub bo'lgan ikki mashhur asardan olingan dialoglar misolida muhit va shaxslar muloqot jarayoniga qanchalik o'z ta'sirini o'tkaza olishini guvohi bo'ldik. Quyida Xudoyberdi To'xtaboyev qalamiga mansub "Sariq devni minb" romonidan olingan dialoglar yordamida situatsion asosning o'zbek tilida olib borilgan suhbatga leksik, semantik va pragmatik tomondan ta'sirlarini ko'rib chiqishimiz mumkin:

-Ro'zivev to'g'ri o'tirib ol! —dedi Qobilov.

-To'g'ri o'tirib oldim.

-Ro'zivev, qani avt-chi. o'tgan darsda nimani o'tuvdik?

Sekin o'rnimdan turib yonginamda o'tirgan Orifni turtim.

U bo'lsa teskari qarab, go'yo hech narsadan xabarsizdek jim o'tirardi.

— Tezroq gapir! — qistadi muallim [3].

Situatsion asos nuqtai nazaridan tahlil qilsak, bu yerda muloqot olib borilayotgan joy bu maktab, dialog ishtirokchilari esa o'qituvchi va o'quvchi ya'ni yoshi jihatidan ham, ijtimoiy mavqei tomonidan ham bir-biridan anchagina farq qiladigan

insonlardir. Shu sababli suhbat rasmiy tarzda olib borilgan va bunga yuqorida sanalgan omillar ta'siri kuchli bo'lgan.

Navbatdagi dialogga e'tibor beramiz. Parcha aynan shu asardan olingan:

Orifdan boplab o'chimni oldim.

— Menga qara, — dedim chinorning tagiga yetganda biqiniga turtib, — nega mening kuchugimni urding?

— Qachon uribman?

— O'tgan yili urding-ku!

— Hecham urganim yo'q.

— Urgansan, mana bunday qilib urgansan, — dedim-da, boshiga bir musht tushirdim.

Nutq jarayonini ko'rib chiqadigan bo'lsak, suhbat ikki tengqur bola o'rtasida kechayotgan odatiy bahsdir. Dialog qatnashchilarining yoshi va ijtimoiy aloqadorligi teng bo'lganligi sababli bu matnda hech qanday rasmiy bo'yoqlar yo'q. Bundan tashqari hududiy jihatdan olib qarasak, ko'chada bo'layotgan bu tortishuv alohida lisoniy birliklar, o'ziga xos grammatik strukturalar talab etmaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, situatsion asos nutq ishtirokchilarining muloqot jarayonida ishlatiladigan lisoniy birliklaridan boshlab, yuz ifodalari-yu harakatlarigacha o'z ta'sirini o'tkazadi. Bizning fikrimizcha, bu o'lchov lingvopragmatik qoidalar bilan belgilangan nominatsiya usulida nutqning denotatsiyasiga ma'lum bir xususiyat va sifatlar majmuini belgilab beradi. Ma'lum bir konseptual jamlanmalarning tashuvchisi sifatida dialogik nutq harakatlarining kommunikantlar tomonidan qanday yuzaga kelishi haqida so'z yuritir ekanmiz, refentning (sheringining) maqsadini tan olish, identifikatsiyalash muloqot jarayonida sheringining konseptual usulda talqin qilish vazifasining asosiy qismi ekanligini aytib o'tishimiz lozim. Ma'no jihatidan dialogik nutq turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin, lekin bu xilma-xillikning pragmosemantik ildizi nutq ishtirokchilari lingvopragmatik qoidalarini lingvistik ong bilan moslashtira olish qobiliyati bilan bog'liq deb hisoblaymiz. Misol tariqasida oladigan bo'lsak, dialogik jarayondagi ogohlantirishning ishlatilishi sherikning lingvopragmatik qoidaga monand qabul qilishida, ijtimoiy mavqei jihatdan so'zlovchidan quyiyoq o'rinda turishini ko'rsatadi:

-If you ever ride a donkey on my grass again, I'll knock your bonnet off and jump on it! (Agar yana mening maysalarim ustidan eshak minsang, shlyapangni olib uloqtirib tashlayman va ustida sakrayman) [4].

-I'm warning you," he had said, putting his large purple face right up close to Harry's, "I'm warning you now, boy — any funny business, anything at all — and you'll be in that cupboard from now until Christmas [5].

Berilgan namunalarda ham aynan ogohlantirish bo'yog'i ustun bo'lib, tinglovchiga nisbatan tazyiq va o'zidan ko'ra quyiyoq nazar bilan muomala qilinayotgani yaqqol ko'rinish turibdi. Dialog ishtirokchilari o'rtasidagi lingvopragmatik qoida va o'zaro munosabat nuqtai nazaridan dialogik nutq semantikasini bir necha turlarga ajratishimiz mumkin:

a) Suhbatdoshlarning ijtimoiy darajasi tengligini ko'rsatuvchi:

-Obbo! Ja, olasanda senam [6].

- "What about what's-her-name, your friend — Yvonne? [7].

b) So'zlovchining yuqori maqomini ko'rsatuvchi:

-Sho'xlik qilmay, jim o'tir, xo'pmi? [8].

- "Where are you going?" the boy asked [9].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, lisoniy birliklarning qo'llanilishdagi o'rni, grammatik birliklarning qo'llanilishdagi strategiyalar, ohang va ishoralar dialogik nutq semantikasiga va pragmatikasiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan, so'zlovchining qanday maqomda ekanligini belgilab beradigan muhim omillardir. Psixolingvistikaga murojaat etadigan bo'lsak, maqom-rol munosabati nutq ishtirokchilarining jamiyatdagi mavqeiga va albatta suhbatdoshlarning o'zaro munosabatlariga to'g'ri keladigan nutq normalari asosida namoyon bo'lishi isbotlangan. Bu narsa dialog maqomining lingvopragmatik qoidasi shakllanishiga olib keladi deb aytishimiz mumkin:

-How can I help you, Miss Trotwood? He asked her politely. (Sizga qanday yordam berishim mumkin, Trotvud xonim? U odob bilan so'radi.)

-This boy is my nephew's son.I need to find a school for him [10]. (Bu bola jiyanimning o'g'li bo'ladi. Uning o'qishi uchun maktab topishim kerak).

Charles Dickensning "David Copperfield" asaridan olingan ushbu parcha misolida maktab boshqaruvchisi va aslzoda xonimning suhbat jarayonini ko'rishimiz mumkin. Dialogning har ikkala a'zosi ham bir-birlarining ijtimoiy o'rnidan kelib chiqqan holda, o'zaro hurmat va masofa saqlagan holda so'zlashmoqda. YA'ni o'rinsiz leksik birliklarning, kishining emotsiyasini namoyon etuvchi so'zlarning, o'rinsiz haqoratlarining yo'qligini inobatga olsak, ushbu dialog jamoat joyida madaniyat va o'zaro hurmatni aks ettiruvchi yuksak saviyadagi dialog namunasi deb aytishimiz mumkin.

Tilshunos olimlardan biri G.V.Berkashning fikriga ko'ra savollar kopulativ va predikativ kabi ikki katta guruhga ajratilishi mumkin [11]. Bunda tasdiq talab etuvchi, ya'ni ehtimoliy bo'lgan fikrdan ishonchlisiga o'tish maqsadida beriladi va albatta fikrning salbiy yoki ijobiy bog'lanishini aniqlashga xizmat qiladi. Uning tarkibiga "ha" yoki "yo'q" deb javob berish mumkin bo'lgan umumiy so'roq gaplarni kiritishimiz mumkin:

-Yangi loyihangiz taqdimoti bugun tayyor bo'ladimi

-Ha.

Predikativ savol esa obyektning nomalum xususiyatlari va belgilarini anglash maqsadida beriladi va bir fikrdan boshqasiga aniqroq va mazmunli o'tish vositasidir. Bu turdagi so'roq gaplarning tarkibiga esa so'roq so'zlar yordamida hosil qilinadigan maxsus so'roq gaplar tegishlidir. So'roq gapning mantiqiy tuzilishi savol semantikasini izohlash uchun asos hisoblanadi. Masalan, "Yer yuzidagi eng katta vulqon qayerda otilgan?" Ushbu gapdagi "qayerda" so'roq olmoshi berilgan savolga to'liq va aniq javob berishni talab etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, dialogik nutqning semantik rivojlanishi muloqotdan ko'zlangan pragmatik maqsad bilan uzviy bog'langan holatda o'rganiladi. Nutqiy vaziyatning rivojlanishida muhim hisoblangan omillardan biri situatsion asos bo'lib, bunda dialog ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, yoshi, muloqot sodir bo'layotgan makon va vaziyat muhim faktorlar hisoblanadi. So'zlovchi o'z nutqini, bayonotini rejalashtirishda, uni qay tarzda talaffuz qilishi tinglovchiga qanday ta'sir etishi, tinglovchining tushunish imkoniyatlari kabi omillarni inobatga olgan holda o'z replikasini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию — М.: Прогресс, 1984.- 397с.
2. Charles Dickens.David Kopperfild.1850.9-bet.
3. Xudoyberdi To'xtaboyev "Sariq devni minib".1970.9- bet
4. Charles Dickens.David Kopperfild.1850.37-bet.
5. Rowling J.K.. Garry Potter and philosopher's stone. 1997.p30.
6. O'tkir Hoshimov.Ikki eshik orasi. «SHARQ» Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2012.35-bet
7. Rowling J.K.. Garry Potter and philosopher's stone. 1997.p 45.
8. O'tkir Hoshimov.Ikki eshik orasi. «SHARQ» Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2012.34-bet
9. Ernest Hemingway. "The old man and the sea". 1952. 3-bet
10. Charles Dickens.David Kopperfild.1850.39-bet.
11. Беркаш Г.В. Логико-грамматическая природа вопроса и ее реализация в вопросно-ответных структурах английской диалогической речи / Дисс. ... канд. филол. наук - Харьков, 196В. - 287 с



UDK:8-1751-8126

Malika MIRVALIYEVA,
Toshkent davlat transport universiteti o'qituvchisi
E-mail: m.mirvalieva@mail.ru

Dotsent Sh.Rustamova taqrizi asosida

SCIENTIFIC TERMS AND THEIR TRANSLATIONAL CORRESPONDENCE

Annotation

This article analyses the linguistic and cultural aspects of translating scientific terms and examines the main challenges that arise when rendering scientific terminology into other languages. It explores the principles of selecting equivalents and the methods used in the translation process. In particular, the effectiveness of transliteration, calquing, and explanatory translation methods is assessed, highlighting their advantages and limitations. Additionally, the role of translators and the importance of terminological adaptation in ensuring clarity and precision in scientific discourse are emphasized. The study provides recommendations for improving the translation of scientific terms and demonstrates its significance in interdisciplinary communication.

Key words: Scientific terms, translation, terminology, equivalent selection, transliteration, calquing, explanatory translation, linguistic adaptation, scientific discourse, interdisciplinary communication.

НАУЧНЫЕ ТЕРМИНЫ И ИХ ПЕРЕВОДЧЕСКОЕ СООТВЕТСТВИЕ

Аннотация

В данной статье анализируются лингвистические и культурные аспекты перевода научных терминов и рассматриваются основные проблемы, возникающие при передаче научной терминологии на другие языки. В ней изучаются принципы подбора эквивалентов и методы, используемые в процессе перевода. В частности, оценивается эффективность методов транслитерации, калькирования и пояснительного перевода, выделяются их преимущества и ограничения. Кроме того, подчеркивается роль переводчиков и важность терминологической адаптации в обеспечении ясности и точности в научном дискурсе. В исследовании даются рекомендации по улучшению перевода научных терминов и демонстрируется его значение в междисциплинарной коммуникации.

Ключевые слова: Научные термины, перевод, терминология, подбор эквивалентов, транслитерация, калькирование, пояснительный перевод, лингвистическая адаптация, научный дискурс, междисциплинарная коммуникация.

ILMIY ATAMALAR VA ULARNING TARJIMADAGI MOSLASHUVI

Annotatsiya

Berilgan maqolada ilmiy atamalar tarjimasining lingvistik va madaniy jihatlarini tahlil qilinadi hamda ilmiy terminlarning boshqa tillarga o'girilishida yuzaga keladigan asosiy muammolar, ekvivalent tanlash tamoyillari hamda tarjima jarayonida qo'llaniladigan usullar o'rganiladi. Xususan, transliteratsiya, kalkalash va izohiy tarjima metodlarining samaradorligi tahlil qilinib, ularning afzalliklari va cheklovlari yoritiladi. Shuningdek, ilmiy diskursning aniq va tushunarli bo'lishi uchun tarjimonlarning roli hamda terminologik moslashuvning ahamiyati ta'kidlanadi. Ishda ilmiy atamalar tarjimasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilib, fanlararo muloqotda uning o'rni ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Ilmiy atamalar, tarjima, terminologiya, ekvivalent tanlash, transliteratsiya, kalkalash, izohiy tarjima, lingvistik moslashuv, ilmiy diskurs, fanlararo muloqot.

Kirish. Bugungi kunda fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi ilmiy terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Turli fan sohalarida yuzaga kelayotgan yangi tushuncha va hodisalar uchun maxsus atamalar ishlab chiqiladi. Bunday atamalar milliy tilga tarjima qilinganida ularning mazmun-mohiyatini saqlash, ilmiy aniq va izchil bo'lishini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, ilmiy atamalar tarjimasi nafaqat tilshunoslik, balki fan falsafasi, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi va kommunikatsiya nuqtayi nazaridan ham muhim tadqiqot yo'nalishidir.

Ilmiy atamalar tarjimasida bir necha muhim masalalar yuzaga keladi. Avvalo, atamalarni bevosita tarjima qilish har doim ham ularning ma'nosini to'liq aks ettira olmaydi. Masalan, ba'zi atamalar lug'aviy jihatdan oson tarjima qilinishi mumkin bo'lsa-da, ularning semantik va kontekstual jihatlarini mos tushmasligi mumkin. Har bir tilning o'ziga xos leksik va grammatik xususiyatlari borligi sababli, tarjima jarayonida moslashuv usullaridan foydalanish talab etiladi.

Moslashuv jarayoni odatda quyidagi asosiy usullarga tayanadi: transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, ekvivalent yaratish va izohiy tarjima. Har bir usulning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor. Masalan, transkripsiya va transliteratsiya original atamani saqlab qolish imkonini beradi, biroq milliy tilning fonetik va grammatik qoidalariga mos kelmasligi mumkin.

Kalkalash esa asl ma'noni to'g'ridan-to'g'ri aks ettiradi, lekin ba'zan sun'iy yoki tushunarsiz iboralar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ilmiy atamalar tarjimasida xalqaro va mahalliy terminologiyani uyg'unligini ta'minlash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Ayrim hollarda xalqaro terminologiyani to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish ilmiy aloqalarni osonlashtirsa, boshqa holatlarda milliy til imkoniyatlarini ishga solish, mavjud lug'at boyligini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayonda ilmiy hamjamiyat va tilshunos olimlarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, turli fan sohalaridagi tarjima uslublari, ularning afzallik va kamchiliklari, amaliy tajribalar va ilmiy-nazariy yondashuvlarni ko'rib chiqish bugungi kun tarjima fanining dolzarb mavzusiga aylanadi. Shu asosda, ilmiy terminologiyani tarjima qilish va moslashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy atamalar tarjimasi va ularning moslashuvi mavzusida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Xalqaro Fan va Texnologiya Akademiyasi tomonidan ilmiy terminologiyani standartlashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish jarayonida aniqladikki, ilmiy atamalar tarjimasi global va mahalliy omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, terminologik moslashuvni ta'minlash uchun lingvistik va madaniy o'ziga xosliklar inobatga olinishi kerak.

Tilshunos olimlar A.Smith, M.Cabre va B.Johnson [1.2] o'z tadqiqotlarida ilmiy atamalarni tarjima qilishda kontekstual yondashuv muhimligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, so'zlarning leksik ma'nosini saqlash bilan birga, ilmiy terminlarni aniq va ravon tushuntirish ham zarur. Ushbu yondashuv tarjima jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida ilmiy atamalar tarjimasi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida A.Hojiyev, X.Dadaboyev, S.Akobirov, G.Axmedov, H.Bektemirov, O.Axmedov va R.Mamatqulovlarning [3.4.5.6.7.8] ishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Ular ilmiy terminlarning milliy tildagi moslashuvi, ularning semantik jihatdan to'g'ri ekvivalentlarini yaratish masalalariga e'tibor qaratgan. Izlanishimiz shuni ko'rsatadiki, har bir tilning o'z terminologik tizimi mavjud bo'lib, uni o'zboshimchalik bilan o'zgartirish fan rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan terminologik tadqiqotlar ham tarjima jarayonining murakkabligini tasdiqlaydi. Masalan, UNESCO va ISO tomonidan ishlab chiqilgan standartlar ilmiy atamalarni umumiy qoidalar asosida moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa ilmiy sohalar o'rtasidagi o'zaro tushunishni yaxshilashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ilmiy atamalar tarjimasi va ularning moslashuvi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu jarayonning kompleks va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bois, tarjimonlar va ilmiy xodimlar terminologiya muammolarini hal qilish uchun turli metodologik yondashuvlardan foydalanishi lozim. Ilmiy atamalarni tarjima qilish va moslashtirish jarayoni doimiy izlanish va takomillashtirishni talab etadi.

Muhokama. Ilmiy atamalar tarjimasi va ularning moslashuvi muammolari ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning muvaffaqiyatli hal qilinishi ilmiy aloqalar samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Ilmiy terminlarni tarjima qilishda terminologik moslashuv usullaridan foydalangan holda, ularni milliy tilga uyg'unlashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Birinchidan, ilmiy atamalarning tarjimasi jarayonida aniqlik va izchillikni ta'minlash muhimdir. Agar ilmiy atamalar turlicha tarjima qilinsa, bu tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ilmiy terminologiyani standartlashtirish va uni yagona qoida asosida ishlab chiqish zarur. Bunda davlat til siyosati, akademik muassasalar va xalqaro tashkilotlarning roli katta ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, ilmiy terminlarni tarjima qilishda lingvistik va madaniy tafvutlar inobatga olinishi lozim. Masalan, ba'zi tillarda muayyan ilmiy tushunchalarga mos keladigan ekvivalentlar mavjud bo'lsa, boshqa tillarda bu kabi ekvivalentlarni yaratish zaruriyati tug'iladi. Tarjima jarayonida milliy til imkoniyatlarini ishga solish orqali yangi terminlar ishlab chiqilishi mumkin.

Uchinchidan, ilmiy atamalar tarjimasida xalqaro terminologiyaga yaqinlashish masalasi ham muhim sanaladi. Xalqaro atamalarni saqlab qolish ilmiy muloqotni yengillashtirsada, ularni milliy tilga moslashtirish ilm-fan rivojini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bu borada xalqaro tajribadan foydalanish va ilmiy hamkorlikni kengaytirish tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, ilmiy atamalar tarjimasida amaliy tajribalar va turli tillardagi muvaffaqiyatli yondashuvlarni o'rganish foydali bo'lishi mumkin. Masalan, ba'zi davlatlarda ilmiy terminologiyani yagona standart asosida ishlab chiqish uchun maxsus ilmiy markazlar tashkil etilgan. Bunday tajribani o'rganish va milliy til sharoitiga moslashtirish ilmiy tarjima sifatini oshirishga yordam beradi.

Ilmiy atamalar tarjimasi va ularning moslashuvi masalasi fan va ta'lim jarayonining ajralmas qismidir. Bu borada lingvistlar, tarjimonlar, ilmiy xodimlar va mutaxassislarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ilmiy terminologiyani takomillashtirish va uni zamonaviy ilmiy talablarga moslashtirish ilmiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biridir. Kelgusida ilmiy atamalar tarjimasi bo'yicha izlanishlarni davom ettirish va ilg'or tajribalarni o'rganish zaruriyatini ta'kidlab o'tish lozim.

Natija. Ilmiy atamalar tarjimasi va ularning moslashuvi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu jarayon chuqur ilmiy tahlil va kompleks yondashuvni talab etadi. Ilmiy terminlarni aniq va izchil tarjima qilish ilmiy muloqotning samaradorligini oshiradi, chunki fan sohasidagi tushunchalar va g'oyalar faqat aniq ifodalangandagina to'g'ri anglanishi va amaliyotda qo'llanilishi mumkin. Shu sababli, ilmiy terminlarni tarjima qilish va moslashtirish jarayonida maxsus terminologik qo'llanmalar, ilmiy standartlashtirish tamoyillari hamda xalqaro tajribadan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy atamalar tarjimasida nafaqat lug'aviy ekvivalentlarni topish, balki lingvistik va madaniy omillarni ham hisobga olish zarur. Har bir tilning o'ziga xos terminologik tizimi mavjud bo'lib, bu tizim fan va texnologiya rivojiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, tarjimonlar, olimlar va mutaxassislar ilmiy terminlarni milliy tilga moslashtirishda xalqaro atamalarga uyg'un keladigan shakllarni ishlab chiqishlari va ularni keng jamoatchilikka tushunarli tarzda yetkazishlari lozim. Bu jarayonda terminlarning kelib chiqishini, ularning turli tillardagi qo'llanish tajribasini va ma'lum bir ilmiy an'analar bilan bog'liqligini hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Xalqaro ilmiy terminologiyaga yaqinlashish va uni milliy tilda to'g'ri aks ettirish ilmiy muloqotni osonlashtiradi, turli mamlakat olimlari o'rtasidagi ilmiy hamkorlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, ba'zi hollarda terminlarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish tushunmovchiliklarga yoki noto'g'ri talqinga olib kelishi mumkin. Bu muammoni samarali hal qilish uchun ilmiy terminlarni har tomonlama o'rganish, ularning qo'llanish doirasini aniqlash va fan sohalariga qarab optimal yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, ilmiy terminlarni o'zlashtirish va ularni keng ilmiy muhitda qo'llash jarayonida mutaxassislarning fikr-mulohazalari, izchil tahlil va tajribalar asosida ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlarga tayanish lozim.

Shu sababdan, ilmiy atamalar tarjimasi va ularning moslashuvi bo'yicha tadqiqotlarni izchil davom ettirish katta ahamiyatga ega. Ilmiy terminologiyani izchil rivojlanishi, xalqaro standartlarga moslashtirilishi va milliy fan tilining boyitilishi ilmiy bilimlarning keng tarqalishiga xizmat qiladi hamda ta'lim sifatining oshishiga yordam beradi. Bunday jarayonlarning samarali kechishi uchun ilmiy hamjamiyatning faol hamkorligi, ilmiy tarjima jarayonlarini takomillashtirish borasidagi doimiy izlanishlar va yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur bo'ladi. Shu tariqa, ilmiy atamalar tarjimasining izchilligi va aniqligi ilm-fan rivojiga, ta'lim tizimining yuksalishiga hamda xalqaro ilmiy hamkorlikning mustahkamlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Ilmiy atamalar tarjimasi lingvistik va madaniy jihatdan murakkab jarayon bo'lib, u terminlarning mazmunini to'g'ri yetkazish va ularning moslashuvini ta'minlashni talab etadi. Berilgan ishda ilmiy atamalarning tarjimada uchraydigan asosiy muammolari va ularning echimlari tahlil qilinadi. Xususan, turli tillardagi terminologik tizimlarning o'ziga xosligi, ekvivalent tanlash muammosi hamda ilmiy diskursning soddalashtirilishi yoki murakkablashtirilishi masalalariga e'tibor qaratiladi.

Tarjimada asosiy muammolardan biri — ba'zi terminlarning boshqa tilda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega emasligi. Bunday holatlarda transliteratsiya, kalkalash yoki izohiy tarjima usullari qo'llanadi. Shuningdek, tarjimonning bilim darajasi va tarjima qilayotgan fan sohasi bo'yicha yetarlicha tajribaga ega bo'lishi natijaviy tarjima sifatiga bevosita ta'sir etishi aniqlangan.

Ishda ilmiy atamalar tarjimasining dolzarbligi va uning fanlararo integratsiyadagi o'rni ta'kidlanadi. Turli tillar o'rtasida ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, tarjima jarayonlarini standartlashtirish va terminologik bazalarni boyitish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Shu tariqa, ilmiy atamalar tarjimasining to'g'ri yo'lga qo'yilishi ilmiy bilimlar almashinuvi samaradorligini oshirish va global ilmiy muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Smith v. Johnson, Civil Action No. 3:09CV653 (E.D. Va. Mar. 3, 2011)
2. Cabre M. Terminology: Theory, Methods and Applications. Ed. Juan C. Sager.-Amsterdam: Benjamins, 1998.
3. Hojiyev A.. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati .T – 1985. 158. 81-bet

4. Mamatkulova, Roxila SO'Z, TERMIN VA ATAMA TUSHUNCHALARI, ULARNING O'ZIGA XOS SEMANTIK XUSUSIYATLARI // ORIENSS. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/so-z-termin-va-atama-tushunchalari-ularning-o-ziga-xos-semantik-xususiyatlari> (дата обращения: 20.02.2025).
5. Ақобиров С. Термин ва терминология.-Тошкент, 1968.
6. Аҳмедов Ғ., Бектемиров Ҳ. Русча-ўзбекча юридик атамалар луғати.-Тошкент: Адолат, 2002.
7. Бекмухамедов Х.Д. Тарих терминлари изоҳли луғати. Педагогика олий ўқув юртларининг студентлари ва ўрта мактаб тарих ўқитувчилари учун. Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
8. Дадабаев Х. Старотюркская дипломатическая терминология в XI-XIУ вв. Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. -Ташкент: Фан, 1994. -С.4-13.



*Maftunaxon MO'YDINOVA,
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

Farg'ona davlat universiteti dotsenti Q.Qahhorov taqrizi asosida

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ALLA MAROSIMIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTURAL JIHATDAN TADQIQI

Аннотация

Mazkur maqola o'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimiga oid leksik birliklarni lingvokultural jihatdan tadqiq qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ikkala tilladagi diniy marosimlar, urf-odatlar va ularning so'z boyligidagi aks etishi qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada alla marosimlari bilan bog'liq terminlar, iboralar va ularning madaniy-ma'naviy kontekstdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillaridagi diniy leksika madaniyatlararo o'xshashlik va farqlarni anglashda muhim rol o'ynaydi. Bu leksik birliklar orqali ikkala millatning diniy e'tiqodlari, an'analari va dunyoqarashlarini tushunish mumkin.

Kalit so'zlar: Alla marosimi, lingvokultural tadqiqot, O'zbek tili, ingliz tili, diniy leksika, madaniy kontekst, terminologiya, qiyosiy tahlil, ma'naviyat.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, СВЯЗАННЫХ С ЦЕРЕМОНИЕЙ АЛЛА В УЗБЕКИСТАНЕ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Статья посвящена лингвокультурологическому исследованию лексических единиц, связанных с ритуалом алла в узбекском и английском языках. В исследовании будет проведен сравнительный анализ религиозных обрядов, традиций и их отражения в лексике обоих языков. В статье рассматриваются термины, выражения, связанные с ритуалами алла, и их место в культурном и духовном контексте. Результаты исследования показывают, что религиозная лексика в узбекском и английском языках играет важную роль в понимании межкультурных сходств и различий. С помощью этих лексических единиц можно понять религиозные верования, традиции и мировоззрения обоих народов.

Ключевые слова: Обряд Алла, лингвокультурологическое исследование, узбекский язык, английский язык, религиозная лексика, культурный контекст, терминология, сравнительный анализ, духовность.

A LINGUOCULTURAL STUDY OF LEXICAL UNITS RELATED TO ALLA CEREMONY IN UZBEKISTAN AND ENGLISH

Annotation

This article is devoted to a linguocultural study of lexical units related to alla ceremony in Uzbek and English. The study provides a comparative analysis of religious ceremonies, traditions and their reflection in vocabulary in both languages. The article examines terms, expressions related to alla ceremonies and their place in the cultural and spiritual context. The results of the study show that religious lexicon in Uzbek and English plays an important role in understanding cross-cultural similarities and differences. Through these lexical units, one can understand the religious beliefs, traditions, and worldviews of both nations.

Key words: Alla ritual, linguocultural research, Uzbek language, English language, religious lexicon, cultural context, terminology, comparative analysis, spirituality.

Kirish. "Har bir xalqning tarixi, madaniyati va turmush tarzi o'ziga xos urf-odatlarida namoyon bo'ladi. Urf-odatlar – bu milliy o'ziga xoslikni belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, ular nafaqat ijtimoiy hayotda, balki til tizimida ham o'z ifodasini topadi. O'zbek va ingliz xalqlari o'rtasidagi madaniy tafovutlarni o'rganish, ularning urf-odatlari orqali milliy ong va mentalitetni aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki urf-odatlar nafaqat xalqning hayot tarzi, balki ularning dunyoqarashi, qadriyatlar va tilida ham chuqur aks etadi"[5].

Dunyoning turli madaniyatlari va tillari o'ziga xos diniy e'tiqodlar, marosimlar va urf-odatlar asosida shakllanadi. Diniy leksika, xususan, alla marosimlari bilan bog'liq so'zlar va iboralar, har bir millatning ma'naviy dunyosini, tarixiy merosini va madaniy identifikatorini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. O'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimiga oid leksik birliklarni lingvokultural jihatdan tadqiq qilish, ikkala tillarning diniy va madaniy jihatlarini chuqurroq tushunish imkoniyatini beradi.

Lingvokultural tadqiqotlar tillarni nafaqat grammatik va leksik jihatdan, balki ularning madaniy, tarixiy va ma'naviy kontekstlarini o'rganish orqali ham chuqur tushunishga yordam beradi. O'zbek tili, o'zining boy va rang-barang diniy merosi bilan, alla marosimlari bilan bog'liq noyib leksik birliklarga ega. Ingliz tili esa, global tarqalgan tilla sifatida, turli madaniyatlarning ta'sirini o'zida aks ettirgan holda, diniy leksikaning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.

Ushbu izlanishimizning asosiy maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklarni lingvokultural nuqtai nazardan solishtirish, ularning madaniy va ma'naviy jihatlarini ochib berishdir. Bu orqali ikkala tillaning diniy so'z boyligidagi o'xshashlik va farqlar, shuningdek, ularning madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati aniqlanadi. Tadqiqot natijalari nafaqat tilshunoslik sohasida, balki madaniyatshunoslik, dinshunoslik va tarjima nazariyasi kabi sohalarida ham qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, bu tadqiqot orqali tillarning madaniy jihatlarini chuqurroq o'rganiladi, millatlararo tushunish va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklarni o'rganish, ikkala millatning diniy e'tiqodlari, an'analari va dunyoqarashlarini yanada yaqindan tushunish imkoniyatini beradi. Bu esa zamonaviy dunyoda madaniyatlararo muloqot va hamjihatlikni rivojlantirishda muhim qadam hisoblanadi.

O'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklarni lingvistik jihatdan tahlil qilish, ikkala tillarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rganishni talab qiladi. Bu jarayon orqali diniy leksikaning til tizimidagi o'rni, uning ma'no jihatidan rivojlanishi va madaniy kontekstdagi ahamiyati aniqlanadi.

Birinch navbatda, semantik tahlil orqali alla marosimlari bilan bog'liq so'zlar va iboralarining ma'nolari ko'rib chiqiladi. O'zbek tilida "duo", "sadaqa", "namoz", "ro'za" kabi so'zlar diniy

marosimlarning asosiy tushunchalarini ifodalaydi. Bu so'zlar faqatgina lug'aviy ma'nolari bilan cheklanmay, balki chuqur ma'naviy va madaniy ma'nolarni ham o'zida mujassam etadi. Masalan, "duo" so'zi nafaqat iltijo ma'nosini bildiradi, balki insonning Allohga bo'lgan tobeiligini va unga ishonchini ham ifodalaydi. Ingliz tilida esa "prayer", "charity", "fasting", "worship" kabi so'zlar alla marosimlarining asosiy tushunchalarini anglatadi. Biroq, ingliz tilidagi bu so'zlar ko'pincha universal ma'noga ega bo'lib, turli madaniyatlarda qo'llanishi mumkin.

Morfologik tahlil esa alla marosimlari bilan bog'liq so'zlar tarkibiy qismlarini va ularning shakllanish usullarini o'rganishga qaratilgan. O'zbek tilida diniy leksika ko'pincha arab va fors tillaridan olingan so'zlar asosida shakllangan. Masalan, "namoz" so'zi fors tilidan olingan bo'lib, o'zbek tilida morfologik jihatdan o'zgarishsiz qo'llanadi. Ingliz tilida esa diniy leksikaning katta qismi lotin va yunon tillaridan olingan. Masalan, "prayer" so'zi lotincha "precari" (iltijo qilish) so'zidan olingan bo'lib, ingliz tilida morfologik jihatdan o'zgarishlarga uchragan.

Sintaktik tahlil esa alla marosimlari bilan bog'liq iboralar va jumalarning tuzilishini o'rganishga qaratilgan. O'zbek tilida diniy iboralar ko'pincha sodda va aniq tuzilishga ega. Masalan, "Duo qilamiz", "Ro'za tutamiz" kabi iboralar sodda fe'l shakllari asosida hosil qilinadi. Ingliz tilida esa diniy iboralar ko'pincha murakkab sintaktik tuzilishga ega. Masalan, "Let us pray for peace" (Tinchlik uchun duo qilaylik) iborasi murakkab jumla tuzilishini ko'rsatadi.

Lingvistik tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklar ikkala tillarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini aks ettirish bilan birga, ularning madaniy va ma'naviy jihatlarini ham ifodalaydi. Bu tahlil orqali ikkala tillarning diniy leksikasi o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar, shuningdek, ularning madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati aniqlanadi. Lingvistik tahlil o'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklarni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Bu tahlil orqali tillarning diniy va madaniy jihatlarini o'rganiladi, millatlararo tushunish va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklarni o'rganishda real adabiyotlar tahlili muhim o'rin tutadi. Bu jarayon orqali diniy leksikaning adabiy asarlarda qanday qo'llanganligi, uning madaniy va ma'naviy kontekstdagi ahamiyati, shuningdek, mualliflar tomonidan qanday uslubiy vositalar bilan ifodalanganligi aniqlanadi. O'zbek va ingliz adabiyotlaridagi alla marosimlari bilan bog'liq misollar orqali ikkala madaniyatning diniy e'tiqodlari va urf-odatlari chuqurroq tushuniladi.

O'zbek adabiyotida "Alla" marosimlari:

O'zbek adabiyotida diniy marosimlar va ular bilan bog'liq leksik birliklar ko'pincha ma'naviyat, insoniyat va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Masalan, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-Abror"[1; 125-b] asarida diniy tushunchalar, jumladan, "duo", "sadda", "ro'za" kabi so'zlar insonning ma'naviy poklik va Allohga bo'lgan sadoqatini ifodalash uchun ishlatilgan. Navoiyning asarlarida diniy leksika nafaqat lug'aviy ma'noda, balki ramziy va falsafiy ma'nolarda ham qo'llanadi. Bu orqali muallif insonning ma'naviy taraqqiyoti va axloqiy kamolotini tasvirlaydi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklar keng qo'llaniladi. Masalan, Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom"[6] asarida diniy marosimlar va ularning inson hayotidagi o'rni tasvirlanadi. Bu asarda "namoz", "duo", "sadda" kabi so'zlar orqali qahramonlarning ichki dunyosi, ularning ma'naviy izlanishlari va hayotga bo'lgan munosabati ifodalangan. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiyotida diniy leksika insonning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini ifodalashning muhim vositasi hisoblanadi.

Ingliz Adabiyotida Alla Marosimlari.

Ingliz adabiyotida diniy marosimlar va ular bilan bog'liq leksik birliklar ko'pincha insonning ma'naviy izlanishlari, axloqiy qarashlari va ijtimoiy munosabatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, Geoffrey Chaucerning "Canterbury Tales"[2] asarida diniy marosimlar va ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni tasvirlanadi. Bu asarda "prayer", "charity", "worship" kabi so'zlar orqali

qahramonlarning diniy e'tiqodlari va ularning hayotga bo'lgan munosabati aks ettirilgan. Chaucerning asarlarida diniy leksika nafaqat diniy marosimlarni tasvirlash uchun, balki insonning axloqiy va ijtimoiy jihatlarini ochish uchun ham qo'llanadi.

Zamonaviy ingliz adabiyotida ham alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklar keng qo'llaniladi. Masalan, J.R.R. Tolkienning "The Lord of the Rings"[3] asarida diniy va ma'naviy tushunchalar ramziy tarzda ifodalangan. Bu asarda "prayer", "sacrifice", "faith" kabi so'zlar orqali qahramonlarning ma'naviy kurashi va ularning yuksak maqsadlari tasvirlangan. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, ingliz adabiyotida diniy leksika insonning ma'naviy izlanishlari va axloqiy qadriyatlarini ifodalashning muhim vositasi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklar adabiy asarlarda keng qo'llaniladi. Bu leksik birliklar orqali mualliflar insonning ma'naviy izlanishlari, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarini ifodalaydi. O'zbek adabiyotida diniy leksika ko'pincha ma'naviy poklik va Allohga sadoqatni ifodalash uchun ishlatilsa, ingliz adabiyotida bu leksika insonning ma'naviy kurashi va axloqiy qarashlarini ifodalash uchun qo'llanadi. Bu tahlil orqali ikkala madaniyatning diniy e'tiqodlari, urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlarini chuqurroq tushunish mumkin.

Muhokama va natijalar. O'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklarni lingvokultural jihatdan tadqiq qilish, ikkala tillarning diniy, madaniy va ma'naviy jihatlarini chuqurroq tushunish imkoniyatini beradi. Bu tadqiqot orqali ikkala tilladagi diniy leksikaning o'xshashlik va farqlari, shuningdek, ularning madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati aniqlanadi. Muhokama qismida ushbu tadqiqotning asosiy natijalari va ularning ilmiy ahamiyati ko'rib chiqiladi.

O'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklar nafaqat diniy marosimlarni ifodalash uchun ishlatiladi, balki ular orqali ikkala millatning madaniy va ma'naviy qadriyatlari ham aks ettiriladi. O'zbek tilida "duo", "namoz", "ro'za" kabi so'zlar insonning Allohga bo'lgan sadoqati va ma'naviy pokligini ifodalaydi[7]. Bu so'zlar o'zbek madaniyatida chuqur ildiz otgan bo'lib, ular faqatgina diniy marosimlarni tasvirlash uchun emas, balki insonning axloqiy va ma'naviy jihatlarini ham ifodalash uchun ishlatiladi. Ingliz tilida esa "prayer", "charity", "worship" kabi so'zlar ko'pincha universal ma'noga ega bo'lib, turli madaniyatlarda qo'llanishi mumkin. Biroq, ingliz tilidagi bu so'zlar ham o'ziga xos madaniy va ma'naviy kontekstga ega.

Tillarning semantik va morfologik xususiyatlari:

O'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklar semantik va morfologik jihatdan ham farqlanadi. O'zbek tilida diniy leksika ko'pincha arab va fors tillaridan olingan so'zlar asosida shakllangan. Masalan, "namoz" so'zi fors tilidan olingan bo'lib, o'zbek tilida morfologik jihatdan o'zgarishsiz qo'llanadi. Ingliz tilida esa diniy leksikaning katta qismi lotin va yunon tillaridan olingan. Masalan, "prayer" so'zi lotincha "precari" (iltijo qilish) so'zidan olingan bo'lib, ingliz tilida morfologik jihatdan o'zgarishlarga uchragan. Bu farqlar ikkala tillarning tarixiy rivojlanishi va madaniy aloqalarini ko'rsatadi.

O'zbek va ingliz adabiyotlarida alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklar keng qo'llaniladi. O'zbek adabiyotida diniy leksika ko'pincha ma'naviy poklik va Allohga sadoqatni ifodalash uchun ishlatilsa, ingliz adabiyotida bu leksika insonning ma'naviy kurashi va axloqiy qarashlarini ifodalash uchun qo'llanadi. Masalan, Alisher Navoiyning asarlarida "duo", "sadda" kabi so'zlar insonning ma'naviy taraqqiyoti va axloqiy kamolotini tasvirlash uchun ishlatilgan. Ingliz adabiyotida esa, masalan, J.R.R. Tolkienning asarlarida "prayer", "sacrifice" kabi so'zlar orqali qahramonlarning ma'naviy kurashi va ularning yuksak maqsadlari tasvirlangan.

O'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklar madaniyatlararo muloqotda muhim rol o'ynaydi. Bu leksik birliklar orqali ikkala millatning diniy e'tiqodlari, urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlari chuqurroq tushuniladi. Bu esa zamonaviy dunyoda madaniyatlararo muloqot va hamjihatlikni rivojlantirishda muhim qadam hisoblanadi. Tillarning diniy

leksikasi orqali millatlar o'rtasidagi tushunish va hamjihatlikni mustahkamlash mumkin.

Xulosa. Yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillaridagi alla marosimlari bilan bog'liq leksik birliklar nafaqat diniy marosimlarni ifodalash uchun ishlatiladi, balki ular orqali ikkala millatning madaniy va ma'naviy qadriyatlari ham aks ettiriladi. Bu leksik birliklar

tillarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini aks ettirish bilan birga, ularning madaniy va ma'naviy jihatlarini ham ifodalaydi. Bu tadqiqot natijalari tilshunoslik, madaniyatshunoslik, dinshunoslik va tarjima nazariyasi kabi sohalarida qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, bu tadqiqot orqali tillarning madaniy jihatlarini chuqurroq o'rganiladi, millatlararo tushunish va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-Abror". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1991.
2. Geoffrey Chaucer. "The Canterbury Tales". – London: Penguin Classics, 2003.
3. Tolkien J.R.R.. "The Lord of the Rings". – London: HarperCollins, 2001.
4. Crystal, D. "The Cambridge Encyclopedia of the English Language". – Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
5. Mo'ydinova, M. (2025). Urf - odat nomlari paradigmasi, o'zbek va ingliz xalqlari urf-odatlarini xususiyatlari, o'ziga xosligi. B Yosh olimlar (T. 3, Выпуск 4, сс. 45–49). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14843542>
6. Tog'ay Murod. "Ot kishnagan oqshom". – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005.
7. Qodirov, M. "O'zbek va ingliz tillaridagi diniy atamalarining qiyosiy tahlili". – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.



Durdona NAZAROVA,
Andijon davlat chet tillari instituti, tadqiqotchi
E-mail: babdusattorova@mail.ru

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAQOL VA MATALLARNING TASNIFI MUAMMOLARI

Аннотация

Maqola zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida maqol va matallarning semantik turlari qiyosiy tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda objektiv borliqning mavjud xususiyatlariga hos kontentlarni ifodalashiga ko'ra ular antropomorfik, topomorfik, naturomorfik, astronomorfik, faunomorfik, ornitomorfik, insektomorfik, florumorfik, religiomorfik kabi yangi semantic turlarga tasniflashtirilgan.

Kalit so'zlar: Maqol va matallar, proverbemalar, proverbemalar semantic tasnifi.

ПРОБЛЕМЫ КЛАССИФИКАЦИИ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Статья посвящена сопоставительному исследованию семантических типов пословиц и поговорок - провербем в современном английском и узбекском языках, в которых по выражению контентов, присущих существующим аспектам объективного бытия - мира, они классифицируются на их новые семантические типы, такие как антропоморфический, топоморфический, натуроморфический, астрономорфический, фауноморфический, орнитоморфический, инсектоморфический, флороморфический и религиоморфический.

Ключевые слова: Пословицы и поговорки, провербемы, семантическая классификация провербем.

PROBLEMS OF CLASSIFICATION OF PROVERBS AND SAYINGS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

The article is devoted to a comparative study of semantic types of proverbemes in modern English and Uzbek, in which, according to the representation of the contents linked with the existing aspects of objective world, they are classified into such new semantic types as anthropomorphic, topomorphic, naturomorphic, astronomorphic, faunomorphic, ornitomorphic, insectomorphic, florumorphic and religiomorphic.

Key words: Proverbs and sayings, proverbemes, semantic classification of proverbemes.

Kirish. Hozirgi zamon tilshunosligida paremiologik birliklar, shu jumladan maqol va matallar, ya'ni "proverbema"larning[5] turli jixatlariga ko'ra bir necha tasniflar ishlab chiqilgan, masalan, alfavitga(ya'ni maqol va mataldagi tayanch so'zning bosh harfiga ko'ra), ularning grammatik qurilishiga ("sodda gaplar/monotaksemlar" va "qo'shma gaplar/poilitaksemlar" orqali voqelantirishiga) ko'ra [4] va ularning mavzuiy xususiyatlari, ya'ni qaysi paremiologik, aniqrog'i, proverbial kontentlar(oila, farzand, o'g'il, qiz, xotin, qarindosh-urug, do'st, dushman, sevgi-muhabbat, nafrat, ilm, qobliyat, donolik, axmoqlik, tabiat, koinot, yer, osmon, suvlik, hayvonlar, o'simliklar, din va e'tiqod v.h.)ni ifodalashiga ko'ra tasniflar ishlab chiqilgan[1], lekin bizningcha ularning keng qamrovli, umumlashtirilgan, qat'iy mezon va tamoyillarga asoslangan tasnifi masalasi hanuzgacha ochiq qolib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar taHLili. Fikrimizning dalili sifatida shuni aytishimiz mumkinki, qaysi tildagi maqollar va matallar tizimiga qaramang, u erda maqollarning 200 dan ortiq mavzuiy guruhlar borligining guvohi bo'lamiz[1]. Bunday holat esa mavjud mavzuiy guruhlarini qat'iy mezonlar asosida katta qamrovli mavzuiy guruhlariga birlashtirib, unifikatsiya qilish maqol va matallarni tadqiq etuvchilar va ularni amaliy jihatdan o'rganuvchilar uchun ma'lum darajada qulaylik yaratadi, qolaversa bunday yondashuvlar natijalari maqol va matallarning umumlisoniy maqomi aniqlash va ularning umumlisoniy nazariyasini yaratish uchun puhta zamin yaratadi degan umiddamiz.

Hozirgi paytda qiyosiy-tipologik asnoda ingliz va o'zbek tillarida politaksemlar proverbemalarining struktur-semantik, kommunikativ-pragmatik, lingvokulturologik va lingvostilistik tahlilini taqdim etishda ularning qat'iy tamoyillar va me'zonlarga asoslangan chog'ishtirma mavzuiy tadqiqi va tasnifi ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday tadqiqotlar umumiy tilshunoslik nazariyasini qiyosiy izlanishlar natijalari asosida rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Biz oldingi ishimizda mazkur

proverbemalarining struktural turlarini tasniflashtirgan edik[2], quyida ularning semantik xususiyatlariga ko'ra tavsif va tasnifini berishga harakat qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy tilshunoslikda proverbemalar har bir halqning aql-idroki va zakovatining oltin hazinasi sifatida obyektiv va ideallashtirilgan borliqni, ular bilan bevosita bogliq inson hayoting barcha jabhalarini o'zida aks ettiruvchi, yahlit, qoliplashgan yirik til birliklari bo'lib, universal tabiatga ega. Shuni e'tiborga molikki, barcha proverbemalar inson hayoti va tajribasida bir necha bor boshdan kechirilgan, sinalgan, to'g'riligi asoslangan, u yoki bu til egalari uchun umumiy bo'lgan, qimmatli hulosaviy va tavsivaviy fikr hamda go'yalarni ifodalovchi betakror sintaktik vositalar tizimini tashkil etadi, ularning kognitiv-kontseptual asosini esa uchta universal, kognitiv proverbial kod ("deklarativ-konstativ", "konsekutiv-konklusiv" va "appelyativ-suggestiv") dan biri tashkil etadi[5].

Ingliz va o'zbek tillarining proverbemalar lug'atlari tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning mavzuiy semantic guruhlariturlicha bolib, ular har bir tilda o'ziga hoslik kasb etadi, bunday holat esa qiyosiy nuqtai nazardan ularni bir tizimga solishni, umumiy tamoyil va me'zonlar asosida tasniflashtirishni taqozo etadi, bunday tasnif ularni nazariy va amaly jihatdan tizimli organishga imkon yaratadi.

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillari mahsus lug'atlardagi empiric materiallar tahlili asosida proverbemalarni yangi, keng qamrovli mavzuiy tasnifini ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'lib, unda ularning tasnifi mazkur til birliklari orqali voqelantiriladigan universal kognitiv-kontseptual kontentlar va voqeliklar kesimida, icham holda amalga oshirish asosiy maqsad qilib qoyiladi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, proverbemalar bizni qurshab turgan borliqning barcha tomonlarini, shu jumladan insonning serqirra hayot faoliyati va tajribasini ozida aks ettiruvchi, shu yosinda dunyoning proverbial manzarasini

voqelantiruvchi yirik til birliklari sifatida quyidagi 9 ta semantic turga tasniflantirilishi mumkin:

Antropomorfik proverbemalar (insonga aloqador bo'lgan proverbial kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: inson, oila, farzand, xotin, ona, ota, aka, uka, opa, xola, amma, kundosh, ovsin, kelin, kelinoyi, kuyov, pochcha, kelin buvi, nabira, evara, chevara, begona, singil, tog'a, jiyan, amaki, opoqi, buvi, chaqaloq, bola, tirnoq, qaynona, qaynota, qaynog'a, qaynsingil, qarindosh-urug' va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

A bad workman quarrels with his tools.

A friend to all is a friend to none.

A man of words and not of deeds is like a garden full of

weeds

o'zbek tilida:

Og'a-ini totuv bo'lsa, tog'ni talqon qilar. Opa-singil totuv

bo'lsa, uyni bo'ston qilar.

Otasi achchiq olma yesa, O'g'lining tishi qamashar.

Og'ayni biriksa, bosh ko'payar, Ovsin biriksa, osh ko'payar.

Topomorfik proverbemalar (geografik nomlarga aloqador kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: qit'a, quruqlik, orol, cho'l, saxro, tog'liq, kenglik, balandlik, xovuz, quduq, ariq, soy, jilg'a, daryo, ko'l, dengiz, okean va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

When at Rome, do as the Romans do.

(It is useless) To carry coals to Newcastle.

(It is like) To send (carry) owls to Athens.

o'zbek tilida:

Gap desa qop-qop, ish desa Samarqanddan top.

Tentakka Quva bir tosh, axmoqqa Asaka bir tosh.

Turkistonda qo'y bir so'm, kela-kela o'n bir so'm

Naturomorfik proverbemalar (tabiatga aloqador kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: tabiat, ob-xavo, fasllar, bahor, yoz, kuz, qish, bahor, havo,

vaqt, kun, hafta, oy (safari oyi, ramazon oyi), saraton (vaqt, palla), chilla, yil, hamal, saxar, erta (lab), azon, peshin, tush (payti), shom, xufton, nomozshom, qosh qorayganda, tong, sahara, kallai-saxarda, kech, kechqurun, tun, yarim kecha (da), muz, qor, yomg'ir, do'l. qirov, yog'in, issiq, sovuq, bulutli, shabnam (li), sham, qirov (li), qor (li), shamol, bo'ron, do'l, qirov, buvildiriq, to'fon, to'zon, toshqin, sel, ko'chki va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

After rain comes fair weather.

Oaks may fall when reeds stand the storm.

The wind cannot be caught in a net.

o'zbek tilida:

Yoz yopinchig'ingni qo'yma, qish o'zing bilasan

Sevgining bahori bilan shodlanma, yoz-u qishi ham bordir.

Sayoz daryo shovqin oqar, chuqur daryo sokin oqar.

Astronomorfik proverbemalar (koinotga - falakiyotga aloqador kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: yulduz, yer, quyosh, osmon, bulut, samo, koinot, kurra, falak, zamin va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

Make hay while the sun shines.

Mind, the moon does not heed the barking of dogs.

Mind, every dark cloud has a silver lining.

If the sky falls, we shall catch larks.

o'zbek tilida:

Inson — odobi bilan, osmon — oftobi bilan.

Sabr bilan xor guliston bo'lar, sho'r zamin bog' bilan bo'ston bo'lar.

Yaxshi qiz — yoqadagi qunduz, yaxshi yigit — ko'kdagi yulduz.

Faunomorfik (zoomorfik) proverbemalar (terrozoomorfik (er hayvonlarga aloqador kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: bo'ri, qashkir, tulki, ayiq, arslon, sher, yo'lbars, quyon, qo'y, echki, mol, sigir, ho'kiz, buzoq, buqa, eshak, ot, toy, to'ng'iz, tuya, nor, fil, kalamush, sichqon, ko'rsichqon, yumronqoziq, tipratikon, va h.k.); akvazoomorfik (baliq, churtan baliq, nahang, qisqichbaqa, baqa, zuluk, toshbaqa, suv kalamish, qunduz va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

Asses fetch the oats and the horses eat them.

When the fox preaches, take care of your geese.

If you lie down with dogs, you will get up with fleas..

As the old cock crows, so crows the young.

Catch the bear before you sell his skin.

o'zbek tilida:

Yuking yerda qolmagay, qatoringda nor bo'lsa.

Bedananing uyi yo'q, qayga borsa, bitbildiq.

Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar beliga.

Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r.

Ola tozining ovidan ham kech, dovidan ham.

Ornitomorfik proverbemalar (qushlarga tegishli kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: bulbul, sinchalak, qizilishton, qirgovul, sassiq-popishak, chittak, qarga, olaqarga, boyo'g'li, po'nka, g'oz, oqqush, o'rdak, karqunaq, xo'roz, tovuq, g'ulig'uli-tovuq, qashqaldoq, jo'ja, tovuq, tuyaqush, kabutar, chumchuq, bedana, laylak, turna, burgut, lochin, qirg'iy, musicha, mayna va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

It is an early bird that catches the fly.

One chick keeps a hen busy.

As the old cock crows, so does the young.

If the sky falls, we shall catch larks.

What is sauce for the goose is sauce for the gander.

o'zbek tilida:

Qafasdagi bulbuldan vayronadagi boyqush erkin.

Shoshgan o'rdak ham boshi bilan sho'ng'iydi, ham — dumi bilan.

Yoz kelishini laylak bilar, qish kelganin — olaqarg'a..

Ola tovuq somon sochar, o'z aybini o'zi ochar.

Qush qanoti bilan uchadi, quyruq'i bilan qo'nadi.

Insektomorfik proverbemalar (hashorat, qurt-qumrsqalarga aloqador kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: ilon, chayon, burga, bit, kana, chivin, qumrsqa, qirqoyoq, qurt, semizqurt, chuvalchang, ipak qurti, qo'ngiz, chumoli, kaltakesak va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

"Almost" never killed a fly (was never hanged).

It is an early bird that catches the fly

(It is) As snug as a bug in a rug.

o'zbek tilida:

Burgaga achchiq qilib, ko'rpani kuydirma.

U ilonning yog'ini yalagan odam.

Bir cho'loq bit bir kechada o'n yostiqni ovlar.

Floromorfik proverbemalar (o'simliklarga aloqador kontentlarni ifodalovchi (terrofloromorfik) proverbemalar: gul, atirgul, chinnigul, bo'takuz, nomozshomgul, gultojxo'roz, qizilgul, tikon, tikanak, semiz o't, zarpechak, chirmoviq, beda, terak, tol, majnuntol, tut, chinor, jiyda, bodom, pista, yong'oq, mag'iz, do'lana, olma, o'rik, nok, shaftoli, anjir, saksovil, qarag'ay, sho'ra, bug'doy, arpa, suli, sholi, guruch, jo'xori, no'xat, makka, tariq, mosh); akvofloromorfik (bo'tako'z, nilufar va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

Through thick and thin, both over bank and bush.

As the tree falls, so shall it lie.

While the grass grows the horse starves.

He that goes barefoot must not plant thorns.

Judge each day not by the harvest you reap but by the seeds you plant.

o'zbek tilida:

Jon kuydirmasang, jonona qayda, toqqa chiqmasang do'lona qayda.

Bug'day noning bo'lmasa ham, shirin so'zing bo'lsin.

Chumchuqdan qo'rqqan, tariq ekmapti.

Bolamnng bolasi, qandak o'rik donasi.

Religiomorfik proverbemalar (dinga aloqador kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: xudo, tangri, allox, payg'ambar, farishtalar, machit, din axli (mulla, pop, imom, ruhoni, qozi, etiqodchi, so'fi, arvoh, Jabroyil, shayton, nomoz, a'za, jonaza, va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

Go day, come day, God send Sunday.

Man proposes but God disposes.

Lord (God, Heaven) helps those (them) who help themselves.

Every man for himself, and God for us all.

o'zbek tilida:

Baxshiniki «hay» bilan, mullaniki «voy» bilan.

Yer og'asi — xudo, suv og'asi — sulton.

Mullaning aytganini qil, qilganini qilma.

Podshoning holi tang bo'lsa, gadoni axtarar, Gadoning holi tang bo'lsa, xudoni axtarar.

Proverbemalarning yuqorida tavsiya etilgan 9 ta semantic turi har bir tilga, shu jumladan ingliz va o'zbek tillariga ham hos bo'lib, ular ushbu til birliklarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganuvchilarga keng qulayliklar va imkoniyatlar yaratadi.

Tahlil va natijalar. Ta'kidlash lozimki, ingliz va o'zbek tillarida proverbemalarning kommunikativ-pragmatik jihatlarini ularning lingvopragmemalar sifatida muayyan nutq aktlarida qo'llaniladigan turlarida ko'zga yaqqol tashlanadi, masalan: implikativ(shartlangan nutq akti), imperativ (buyruq nutq akti), kontsessiv(yon berish nutq akti), konsekutiv(natija, oqibat nutq akti), komparativ(qyos nutq akti), konstativ(e'trof etish nutq akti), deklarativ(ma'lum qilish, e'lon qilish nutq akti), suprayziv(hayratlanish, ensasi qotish nutq akti), suggestiv(tavsiya, maslahat, taklif nutq akti) va h.k. Proverbemalarning kontseptual asosini 3 turdagi muhim proverbial kognitiv kodlar, ya'ni “deklarativ-konstativ”, “konsekutiv-konklusiv” va “appelyativ-suggestiv” tashkil etadi[5], bu kodlar asosida proverbemalar orqali yuqoridagi zikr etilgan kabi nutq aktlari voqelantiriladi. Bu esa ularning o'ziga hos pragmatic-semantic tasnifini ishlab chiqishni kun tartibiga qo'yadi.

Ingliz va o'zbek tillarida maqol va matallarning struktur-semantik, lingvopragmatik, lingvokulturologik va lingvostilistik tahlilini taqdim etishda ularning mavzuiy tasnifi va tadqiqi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orinda proverbemalarning yangi tasnifini ularning quyidagi universal kognitiv contentlar(semantikalar) va voqeliklar kesimida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

monotakseмик va politakseмик proverbemalarning lingvopragmatik jihatlarini va ularning nutq aktida qo'llaniladigan turlari kesimida: implikativ, imperativ, kontsessiv, konsekutiv, komparativ, konstativ, deklarativ, menasiv, konsekutiv, volyuntativ, deziderativ, suprayziv, suggestiv, imprekativ, eksperiensiv, konstativ va b.q.;

monotakseмик va politakseмик proverbemalarning inson hayot faoliyati bilan bog'liq mavzular kesimida: mehnat, oila, dunyo, bozor, hayot, do'stlik, dushmanlik, ilm, muhabbat, din, savdo, kun, kundosh, rostgo'ylik, mardlik, qo'rqqoqlik va h.k.;

monotakseмик va politakseмик proverbemalarning sinonimik, omonimik va antonimik turlari kesimida, chunki ular orqali tildagi proverbemalar tizimidagi structural-semantik va lingvokulturologik o'zgarishlar, siljishlar kuzatiladi;

monotakseмик va politakseмик proverbemalarning jamiyatning u yoki bu qatlamlariga dahldor til egalaring kundalik muloqatlarida qollanishi kesimida: ijtimoiy maqomiga, lavozimiga, kasbiga, mavqeyiga ko'ra;

monotakseмик va politakseмик proverbemalarning til egalaring feminin va maskulin genderi kesimida, ya'ni ayol va erkaklar nutqiga, yoki ikkalasiga ham hos bo'lgan proverbemalar turlarga ko'ra;

monotakseмик va politakseмик proverbemalarning eski yoki yangi turlari kesimida: ularning usul va okkasional turlari, ya'ni proverbial neologizmlar sifatidagi maqomiga ko'ra va h.k.;

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillari proverbemalarining semantic tasnifi ushbu tillarda ularning semantic jihatlarini aksariyat hollarda izomorf ekanligini ko'rsatdi. Buning boisi shundaki, har ikki til egalaring proverbial tafakkuri bir-biriga yaqin, chunki ularda inson madaniyatining umumiy jihatlarini mavjud, bunday jihatlar esa har ikki xalq vakillarining kontseptosferasida umumiy proverbial kontentlar - kontseptlar sifatida mavjudligidan, ularning kundalik muloqotda muntazam voqelantirilishidan dalolat beradi. Proverbemalarning allomorph jihatlarini esa, har bir til egalari madaniyatiga hos bo'lgan voqeliklarni ifodalovchi mazkur birliklar semantikasida a'rim ma'no o'ttenkalari - semalarda ko'rinadi.

ADABIYOTLAR

1. Даль В.И. Пословицы русского народа//<http://www.rodon.org/dvi/prn0.htm>.
2. Назарова Д.Ш. Турли тизимли тилларда политаксема оркали ифодаланган мақол ва маталлар концептуал ва структурал-семантик жиҳатлари қиёсий-типологик тадқиқи// Умумий ва антропоцентрик тилшунослик ҳамда лингвоадабиётшуносликнинг долзарб муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. -Андижон, 2022. - Б.235-245.
3. Паремиялогия.<https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9F%D0%B0%D1%80%D0%B5%D0%BC%D0%B8%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%8F>.
4. Хошимов Г.М. Типология сложного предложения в разносистемных языках(на материале английского, узбекского, русского и других языков). Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. докт. филол. наук. -Ташкент, 2002. -49 с.
5. Хошимов Г.М., Хошимов М.Г., Абдуллаева Н.А., Назарова Д.Ш., Ахмедова Д.А. Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок// ФарДУ илмий хабарномаси, 1-2025, -С. 213 -219.
6. Ўзбек халқ мақоллари//Главная.Хикматнома.Архив на Ўзбек халқ мақоллари.// ziyouz.uz;
7. Simpson J. A., Speake J. The Concise Oxford Dictionary of Proverbs. - Oxford University Press, 1994. -330 p. ISBN 9780192800022.
8. 1000 English proverbs//WordPress.com <https://suratiundhiyu.files>.



Dilrabo NAZIRQULOVA,
Independent researcher in Uzbekistan state world languages university
Mahina ABDUVAHOBOVA,
Independent researcher in Uzbekistan state world languages university
E-mail: dilrabozaфаровна3@gmail.com

Rewiew DSc, professor B.kurbanov

THE ROLE OF MODALITY CATEGORY IN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTICS

Annotation

This article is devoted to reveal all the peculiarities of modality in two different languages. English and Uzbek linguistic studies show, that modality is one of the most important parts of this field and analyzing some extracts from distinctive materials in both languages gave us some conclusions about the expression of modality in language.

Key words: Modality, linguistics, objective, subjective, languages, English, Uzbek, category, utterance, linguistic tools, discourse.

INGLIZ VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MODALLIK KATEGORIYASINING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqola tilshunoslik sohasida anchagina olimlar tomonidan o'rganilgan, qiziqishga sabab bo'lgan modallik kategoriyasining tahliliga bag'ishlanadi. Dunyo hamda o'zbek tilshunosligida ham yetarlicha olimlarning nazariga tushgan hamda bu borada bir qator ilmiy ishlar yaratilishga ulgurilgan modallik kategoriyasining ingliz va o'zbek tillaridagi tadqiqiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Modallik, lingvistik, obyektiv, subyektiv, tillar, ingliz, o'zbek, kategoriya, gap, lingvistik vositalar, diskurs.

РОЛЬ КАТЕГОРИИ МОДАЛЬНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

Данная статья посвящена раскрытию всех особенностей модальности в двух разных языках. Английские и узбекские лингвистические исследования показывают, что модальность является одной из наиболее важных частей этой области, и анализ некоторых выдержек из различных материалов на обоих языках позволил нам сделать некоторые выводы о выражении модальности в языке

Ключевые слова: Модальность, лингвистика, объективное, субъективное, английский язык, узбекский язык, категория, речь, языковые средства, дискурс.

Introduction. We all know that, Linguistics is such a large and multifunctional branch of science, that freshly created ways of learning linguistic categories, and discovering new methods that can be used in further researches are in the main list of linguistic scientists. If we speak about the origin of the notion of "Modality", we should certainly link it with the name of Aristotle who was characterized as the "father of subjects". Before fully revealing linguistic features of the category of modality, it is important to define the content and meaning of this term. Modality (from the Latin "modalis" - measure, method) is a functional-semantic category that expresses different forms of the relationship of thought to reality as well as different forms of subjective classification of things. Uzbekistan National Encyclopedia, 6-vol, 2000:38)

Literature review. Looking into the analysis of the literature review of the category of modality gave us some understandings that this concept of linguistics is highly researched and worked on by both east and west scientists.

One of the most prominent European scientists, Martin J. Andley defined modality with such expressions: "The simplest way to explain modality is to say that it is related to the attitude of the speaker to the situation in which the word is spoken" (J. Andley, 2010). Another western linguist expressed the following views about the modality: "Modality is considered as one of the important linguistic categories. It's a language whose meaning belong to the world of other language possibilities" (Portner, 2005). Palmer described the category of modality as follows: "I think there is no more important and equally complex part of English grammar than the system of modals" (Palmer, 1979) Relying on the relationship between modality and modals, he considers that, the association between them is similar to the correlation of form and meaning. For that reason, they are considered as inseparable concepts. Additionally, he says: "In English, the modality seems to refer to the words that mean time

and volition such as wanting, wishing, hoping than the meanings of necessity, opportunity and obligation expressed by the auxiliary words shall and will, and in its turn, these words are more appropriate and characteristic of lexical English than grammatical English". (Palmer, 1979) From the above given points, we can understand that, Palmer believes that the foundation of modality lies in obligation and probability. Modals are part of the lexical category, and we can conclude that the meaning of modality is inextricably linked with modal verbs and modal auxiliaries. According to one of the flamboyant scientists in the field of linguistics, M.K. Halliday, "Modality is an important functional feature of communication, an interpersonal function, a form of speaker's expression who is conducting a conversation." (Halliday, 1976)

In Uzbek linguistics, we can see a number of scientists who researched and studied in this field of science. In the works of J.A. Yakubov, S. Boymirzaeva, U. Yusupov, N. Turniyozov, A. Mamatov and M. Jurayeva special attention was paid to the study and interpretation of this category. J.A. Yakubov, devoted his research work to reveal the semantic peculiarities of the modality by connecting logic and linguistics.

Considering the complexity of the meanings expressed by modal verbs, O'. Yusupov tried to explain them through Uzbek language translations and cited Uzbek alternatives of modal verbs. (Yusupov, 2011)

As we talk about the classification of modality category, we can see distinctive types of works, dissertations, articles and monographs done by numerous linguists. Both European and Asian scientists divide modality mainly to objective and subjective ones. Objective modality is the type of modality that expresses the main content of the utterance, and subjective modality often reflects speaker's attitude, thoughts and personal aims.

According to A.Martirosyan, initially, analyzing a sentence requires clarifying modality types and understanding the difference between them according to their meaning whether the speaker is expressing his opinion in the sentence, or a fact about reality. Before determining whether the sentence belongs to any type of modality, it is recommended to verify whether there are relations of subjectivity or objectivity in the structure of a sentence. (Martirosyan, 2022)

Analyzing above given facts, opinions about the category of modality gave us some conclusions that, this category of linguistics should be considered as one of the main parts of the speech, central concept in the mutual relationship, and as the soul of conversation among people.

Materials and Methodology. In our research we used descriptive, discursive analysis and comparative methods in order to analyze texts founded in English and Uzbek fiction materials. In Uzbek language I chose the books of O'tkir Hoshimov "Nur borki soya bor", and Mirmuhsin "Me'mor" in purpose of finding the category of modality expressed with different linguistic tools. In English language I preferred to chose the novel of Jane Austin, "Mansfield Park".

Results. Analyzing and looking through English and Uzbek texts gave us some conclusions about the expression of modality within the context. As we stated above, the category of modality is mainly expressed by modal verbs, auxiliary verbs, introductory words and etc. Let's consider some examples from Uzbek literary extracts:

... "Jigari kasal bo'lsa kerak" negadir Sherzodning xayoliga eng avval shu fikr keldiyu, o'rnidan turib, salom berdi. (O'. Hoshimov, "Nur borki, soya bor")

In this example we can see modality in the form of "...sa kerak" that serves to express the uncertainty and supposition of the hero. In Uzbek daily conversations such expressions are observed frequently and mainly used to formulate people's suppositions and guesses in the situation. With the help of this expression they convey that "something is possible, but not surely..." or "something may occur, but not certainly". These statements can be understood from this type of utterances in the speech.

"O'x-o! Dimog' masalasi juda baland-ku! Kun bo'yi joyini saqlab turishgani bejizmas shekilli". – Sherzod miyig'ida kulib qo'ydi. (O'.H, "Nur borki soya bor")

In the above given extract from the novel, as the reflection of modality we can see the introductory word "shekilli" that adds the sentence uncertainty and suppositional meaning.

Sayfi Soqiyevich Sherzodga bir qoshini baland, bir qoshini past qilib qarab qo'ydi. Chamasi u bunaqa "yosh bola" bilan hamxona bo'lib qolganiga ko'pam xursand emasdi. (O'.H, "Nur borki soya bor")

This statement shows the uncertainty of the author with the help of introductory word "Chamasi" and in this sentence the usage of word phrase "ko'pam xursand emasdi" are reflecting the supposition and the degree of this guessable situation.

"Meditina sohasida kadrlar tayyorlashga ayniqsa ehtiyot bo'lish kerak. Yomon shifokorning qotildan farqi yo'q. Rosti, uquvsiz doktorlar ko'payib ketyapti." (O'.H, "Nur borki soya bor")

Here we can observe the attitude of the hero to the reality with the words "bo'lish kerak" with the meaning of necessity and the word, "rosti" is also determining the subjective modality of the novel's hero.

"Qiziq, odamning umri shuncha qisqa-yu, tipirchilashi olamni tutadi. Go'yoki dunyoga ustun bo'ladigandek...." (O'.H, "Nur borki soya bor")

The introductory word "Qiziq" is used in this sentence in order to show the person's thoughts and opinions about the situation, and gives subjectiveness to the statement with the usage of "Go'yoki" and the particle "–dek".

"...Bunaqa paytda odam deraza oldiga kelib tashqarini tomosha qilishni yaxshi ko'radi- deb o'yladi u, ataylab sekin yurib borarkan.-Demak, meniyam tomosha qilishyapti. Ichlarida masxara qilib kulishayotgan bo'lsa kerak" (O'.H, "Nur borki soya bor")

Above given extract from the novel is totally expressing modality with the help of the words "Demak", which reflects the conclusions and personal summaries of the hero from the ongoing situation, and the usage of "bo'lsa kerak" is adding somehow possibility and uncertainty to the sentence. From that, we can see that, even if the hero is thinking that something is happening really in this situation, it is not exactly like this and so on. The person himself is not sure or certain in this situation.

"...Ularga negadir najot ko'zi bilan qaradi- nahotki amirzoda, qolaversa, Xudodbekning otasi- ustod Qavom bu ishga aralashmay, uning otasini bu kulfatda yolg'iz qoldirsalar? Bunday bo'lishi aslo mumkin emas! Akasi Nizomiddin, ehtimol, beboshlik qilgandir, yoqalashgandir.... Ehtimol, biron mansabdorni so'kkandir, ehtimol.... Ehtimol... Buning uchun Ixtiyoriddinga olib ketmoqlari shartmi? Bu ishda, darhaqiqat, yo xusumat, yo anglashilmovchilik bor! (Mirmuhsin, "Me'mor")

The example we have read above shows also subjective modality type which expressed with the help of introductory word nahotki, in the meaning of surprise and undesirable situation. The word "qolaversa" is also showing modality of the sentence, giving it the meaning of sequence of opinions and expressing the order of thoughts. In the sentence "Bunday bo'lishi aslo mumkin emas!" we can observe the subjective modality expressed with the help of "mumkin emas!". That's strictly disclaiming of the above mentioned thoughts of hero by herself and it is emphasized with exclamation mark in the end and the particle aslo in the sentence.

The introductory words ehtimol, darhaqiqat and the repetition of the word ehtimol three times in one statement is conveying the meaning of uncertainty and supposition. The word darhaqiqat which is usually used to reflect certainty and exactness is used here in the meaning of possibility and somehow adding the utterance little sureness of the hero.

Tavba! Ne kun boshimga tushdi,- Me'mor oh tortib, boshini kaflariga qo'ydi. (Mirmuhsin, "Me'mor")

The word "tavba" here is showing the speaker's surprise and astonishment Uzbek people frequently use this word in their everyday conversation to show their surprise, unwillingness, and is also used in the utterances conveying the unexpected moments.

In English language the category of modality is expressed with modal words, tense, intonation and other lexical and grammatical devices. Analyzing some excerpts from English novel "Mansfield Park" written by Jane Austin, gives us the opportunity of observing true reflection of modality in the language.

"This is not a very promising beginning" said, Mrs Norris, when Fanny had left the room. "After all that I said to her as we came along, I thought she would behaved better; I told her how much might depend upon her acquitting herself well at first. I wish there may not be a little sulkiness of temper-her poor mother had a good deal; but we must make allowances for such a child-and I do not know that her being sorry to leave her home is really against her, for, with all its faults, it was as her home, and she cannot as yet understand how much she has changed for the better; but then there is moderation in all things." (J.A, "Mansfield Park")

These statements are also enriched with linguistic tools of modality. For instance, in the sentence "I thought she would behaved better", the speaker is showing her guesses and expectation by using I thought, and possible change of the girl's behavior with modal word would in the form of past tense.

Another type of possibility and probability is represented with modal word might, and the word construction I wish there may not be is also representing the speaker's attitude expressing evidentiality and possibility. In the following sentence, the usage of modal words must and cannot is also giving the meaning of necessity and according to the speaker's judgement, inability of the girl to understand the changes in her life is reflected by the usage of the modal word "cannot".

"You have robbed Edmund for ten, twenty, thirty years, perhaps for life, of more than half the income which ought to be his." (J.A, "Mansfield Park")

The above given excerpt shows the modality with the word "perhaps" meaning maybe and showing the speakers' attitude towards interlocutor and from the situation in the

utterance we can observe that speaker has negative attitude towards his interlocutor, besides it, we can see the usage of “ought to”-one of the modal words is expressing that the speaker’s belief and who should actually have owned the income.

“I shall not ride tomorrow,certainly,” said Fanny; “I have been out very often lately, and would rather stay at home. You know I am strong enough now to walk very well.” (J.A, “Mansfield Park”)

This excerpt from the novel includes modal word “shall not” with the word “certainly” that serve to show the speaker’s certainty and confidence about the future, and the usage of “would rather” is giving the meaning of that it is probably better staying at home for the speaker, and shows the girl’s preference.

Discussions. The comparative analysis of the fictional works of two languages indicated that in both English and Uzbek people frequently use modal constructions, lexical tools which express modality in their utterance. In English society the usage of modal words like shall, will, can, could, may, might ,must, ought to, should, would rather, had better are more common in representing speaker’s attitudes towards the reality. They use these kind of modals as to show the meaning of ability, thoughts, necessity, obligation, probability and possibility in various situations. These meanings are often comprehended by the utterance and context. The special words like certainly, possibly,

probably, likely, perhaps, maybe are also used in speech to give modal meanings. Generic phrases like “I am sure”, “I expect”, “I think”, “I suppose”, “I guess”, “It’s likely that..”, “It is probably that...”, and others are used to reflect subjective modality type in the sentence.

In Uzbek language, modality is expressed with modal words, introductory words such as, albatta, chamasi, shekilli, taxminan, qiziq, darhaqiqat, haqiqatdan, demak, and modal verbs like mumkin, kerak, zarur, darkor, lozim in the sentence. Uzbek people are more likely to say ehtimol, chamasi, shekilli when they are expressing their possible thoughts and probability, and when they are sure or certain in some situations they use albatta, to’g’ri, darhaqiqat, ayni muddao in their utterance.

Conclusion. Taking all things into consideration, the category of modality in the English and Uzbek linguistics, has already been placed in priority order among other linguistic categories. Learning it from different angles, approaches gives us to reveal all the opportunities of modality that present to the speech the best way of showing one’s attitude to the reality and the meaning of the uttered speech. Researching linguistic tools that serve to reflect modality in different contexts, works, discourses has great role in developing this field of linguistics in both languages.

REFERENCES

1. Uzbekistan National Encyclopedia, Vol 6., Toshkent 2000
2. Andley M.J, Linguistic approaches to English grammar ,2010
3. Portner P., Modality,2009
4. Palmer, Preface, 1979
5. Halliday M.K, System and function in language: Selected papers,1976
6. Saeed J.I, Semantics, 2nd Ed,Oxford:Blackwell 2003
7. Griffiths, An Introduction to English Semantics and Pragmatics, Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006
8. Bally Ch, Language and Life, Moscow ,2003
9. Yusupov O', Q. Ingliz tili grammatikasidan universal qo'llanma. Toshkent: Akademnashr,2011
10. Yoqubov J.A, Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari. Toshkent:Fan.2005
11. Boymirzayeva S.O', Matn modalligi(Text modality), Toshkent:Fan 2010
12. Verstraete, J-C (2001) Subjective and objective modality: Interpersonal and ideational functions in the English modal auxiliary system. Journal of Pragmatics 33 (10): 1505-1528.
13. Martirosyan, Anush. (2022). TYPES OF MODALITY AND ITS INCONSISTENCIES/ԵՂԱՆԱԿԱՎՈՐՄԱՆՏԵՍԱԿՆԵՐԸԵՎԴԻՐԱՀԵՏԿԱՊԱԾԱՆՀԱՍՊԱՏԱՍԽԱՆՈՒԹՅՈՒՆԵՐԸ/ТИПЫ МОДАЛЬНОСТИ И ЕЕ НЕСООТВЕТСТВИЯ. Bulletin of Eurasia International University. 99-112. 10.53614/18294952-2022.2-99.
14. Зяткова Л.Я. Субъективная модальность политического дискурса: На материале российских, британских и американских печатных СМИ. Дис., Тюмень.2003
15. Mustafayeva M.B., Typology of modal semantics, article., 2023
16. Sapayev Q., Hozirgi o'zbek tili. O'quv qo'llanma – Toshkent, 2009.
17. Hoshimov O'. Nur borki soya bor, “G'ofur G'ulom”, Toshkent-1977
18. Mirmuhsin. Me'mor, “SHARQ” ,Toshkent-2001
19. Austin J., Mansfield Park , produced by ebooktakeaway.com.



UDK:801.512

Dilnoza NASRIYEVA,

Renessans ta'lim universiteti katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: dilnozanasriyeva0412@gmail.com

F.f.d, professor M.Asadov taqrizi asosida

DISCOURSE AND TEXT INTERPRETATION IN LINGUISTICS

Annotation

In the works of various researchers of world and Uzbek linguistics, discourse, interpreted in a very wide semantic and cognitive range, is still used mixed or synonymously with the concept of text, analysis shows that there is no great barrier between discourse and text, they complement each other. This article discusses the relationship, relevance and special features of discourse and text. The views of our linguists on discourse and text are commented on and conclusions are drawn.

Key words: Text, discourse, personal discourse, institutional discourse, extralinguistic factor.

ДИСКУРС И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕКСТА В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В работах различных исследователей мирового и узбекского языкознания дискурс, трактуемый в очень широком семантическом и когнитивном диапазоне, по-прежнему употребляется в смеси или синонимично понятию текста. Анализы показывают, что между дискурсом и текстом нет большой преграды, они дополняют друг друга. В статье рассматриваются взаимосвязь, связь и специфические характеристики дискурса и текста. Комментируются взгляды наших лингвистов на дискурс и текст и делаются выводы.

Ключевые слова: Текст, дискурс, персональный дискурс, институциональный дискурс, экстралингвистический фактор.

TILSHUNOSLIKDA DISKURS VA MATN TALQINI

Annotatsiya

Dunyo va o'zbek tilshunosligi turli tadqiqotchilarining asarlarida juda keng semantik, kognitiv diapazonda talqin qilingan diskurs haligacha matn tushunchasi bilan aralash yoki sinonimik holda qo'llab kelinmoqda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, diskurs va matn orasida katta bir to'siq qo'yilmagan, ular bir-birini to'ldiradi. Ushbu maqolada diskurs va matnning o'zaro munosabati, aloqadorligi va xususiy belgilari haqida so'z boradi. Tilshunoslarimizning diskurs va matn haqidagi qarashlariga munosabat bildiriladi va xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: Matn, diskurs, shaxsiy diskurs, institutsional diskurs, ekstralingvistik omil.

Kirish. Jahon tilshunosligida antroposentrik paradigmadagi barcha yo'nalishning integratsiyalashuvini ta'minlab beruvchi umumiy, ayni paytda, o'ziga xos hodisa sanalgan diskurs nazariyasi va amaliyoti masalalariga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatning turli sohalaridagi muloqot jarayoniga diskursiv yondashuv diskurs turlari sonining ortib borishi va mazmun-mohiyati har tomonlama boyishiga keng imkon yaratmoqda. Dunyo tilshunosligida diskursning mohiyati, ma'nosi va antroposentrikligi, uni to'g'ridan to'g'ri va nisbiy berilgandagi jihatlari yondosh tushunchalar bilan oydinlashtirilgan. Jumladan, matn va diskurs munosabati, ularning kesishuv nuqtasi va xususiyatlari tilshunoslikning turli yo'nalishlarida tadqiq va tahlil qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Matn va diskurs tushunchalarini bosqichma-bosqich farqlash tendensiyasi 1970-yillarning oxiri 1980-yillarning boshida kuzatildi [1]. Tadqiqotlarda matn va diskurs muammosiga har xil yondashuvlar farqlana boshladi [2]. Matn tilshunosligi shakllangan davrda diskurs va matn tahlili sinonimik atamalar sifatida tushunilib [3], 1960-yillarda fransuz diskurs maktabi vakillari E.Benvenist, P.Sharodo, M.Peshyo, P.Serio tomonidan ilgari surilgan g'oyalar asosida diskurs va matn o'rtasida aniq farq paydo bo'lgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda tavsiflash, tasvirlash, kompleks va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. E.Benvenist taklif etgan tilning antroposentrik paradigmasiga muvofiq, diskursni "jonli muloqotda tilning vazifasi (faoliyati)" deb hisoblash mumkin bo'ldi. Tadqiqotchi birinchilardan bo'lib diskurs so'ziga terminologik ma'no berdi va uni "so'zlovchi tomonidan o'zlashtirilgan nutq" deb ta'rifladi [4], shuningdek aynan shu maktab tadqiqotchilari diskurs-matn hodisalarini quyidagi mezonlarga ko'ra qarama-qarshi qo'yadi: jarayon-mahsulot, dinamik-statik, aktuallik-virtuallik [5] diskurs –faqat eshitish

uchun mo'ljallangan (og'zaki) nutq; matn diskursning yozma shaklidir [6], ba'zi manbalarda ularning tafovuti vaziyatga asoslanadi: "diskurs – "matn + vaziyat", matn – "diskurs – vaziyat" [7]. Umuman olganda insonning nutq orqali amalga oshadigan barcha ijtimoiy faoliyati, kundalik turmushi, muloqot jarayoni diskursiv xarakterga ega. Diskurs – hayotga singib ketgan faoliyat [8]. Har qanday diskurs asosida xoh u og'zaki shaklda bo'lsin, xoh u yozma shaklda bo'lsin matn yotadi. Zero, diskurs asosini matn tashkil etadi va diskursning o'zi pragmatik vaziyat bilan bog'liq [9]. R.I.Galperin o'z maqolasida matn tushunchasiga izoh berar ekan, shunday jumalarni keltiradi: "Matnning ham o'z parametri va ikki tomonlama tabiati bor, ya'ni u bir vaqtning o'zida ham tinch holatda ham harakatda bo'ladi. Lekin ovoz chiqarib yoki ichida (o'z-o'ziga) o'qisa harakat holatida bo'ladi, shunda tinch holatdagi belgilari yashirin (implisit) namoyon bo'ladi" [10]. D.Xudoyberganova ham o'z monografiyasida R.I.Galperinning "qog'ozga yozilib, hali o'qilmagan matn harakatsiz matn" degan mulohazalarini keltiradi [11]. Olimning matn tabiatini belgilashdagi fikrlariga mantiqiy yondashib, davom ettirilsa, haqiqatan ham yozma matn bilan qachonki aloqa-munosabatga kirishsak, uni ochib varaqlab o'qisak u harakatga keladi, natijada yozuvchi-matn-kitobxon uchligida diskursiv-kognitiv jarayon kechadi, o'quvchi voqielangan mazmunni implisit ba'zan eksplisit ifodalanganini aqliy idroki, kognitiv bilimi orqali anglaydi, tushunadi, his etadi, tafakkur va tasavvur qiladi, ichki nutqi, diskursiv shaxs va matn bilan pinhona so'zlashadi, til chegarasidan tashqariga chiqib, yondosh hodisa va omillarni hisobga oladi, nisbiy xulosa chiqaradi. Demak, yozilgan, ammo hali o'qilmagan, tinch holatda turgan har qanday harakatsiz matn – matn (ilmiy, publitsistik, rasmiy, badiiy va h), adresant – matn (og'zaki yoki yozma) – adresatni o'z ichiga olgan, ular orasida kommunikativ jarayonni faollashtirgan harakatdagi matn diskursdir (jadvalga qarang):

Jadval

Diskurs termini olimlar talqinida

	Berilgan baholar	Muallif
1	Umumiy ma'noda diskurs (fransuzcha – discours) til faoliyati jarayonidir.	R.Z. Kalajokova
2	Muayyan vaziyatda bir (yoki bir nechta) kishi tomonidan aytilgan (yoki yozilgan) jumalar ketma-ketligi, jumladan kattaroq matn.	Z.Xarris
3	Bog'langan matn, matnning og'zaki-suhbat shakli; dialog; ma'noda jihatdan bir-biriga bog'langan gaplar guruhi; yozma yoki og'zaki berilgan nutqiy asar.	T.M.Nikolayeva
4	Keng ma'noda majmuaviy kommunikativ voqea, tor ma'noda esa kommunikativ faoliyatning yozma yoki nutqiy muloqot mahsuli.	T.A. van Deyk
5	Ekstralingvistik – pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan birgalikda uyg'unlashgan izchil matn...	N.D.Arutyunova
6	Diskurs ijtimoiy voqelik sifatida mavjud bo'lgan "til ichidagi tildir".	Y.S.Stepanov
7	Diskurs – bu til birliklarining aniq vaqtda va aniq joyda ma'lum maqsad bilan qo'llanilishi, ularning izchil bog'lanish.	A.G.Gurochkina
8	Diskurs – haqiqiy muloqot holatidagi matn.	V.I.Karasik
9	Diskurs – bir paytning o'zida ham lisoniy faoliyat jarayoni, ham uning mahsulidir. (A.A.Kibrik va V.A.Plungyan qarashlari asosida)	Sh.S.Safarov
10	Diskurs dinamikadagi, kommunikativ vaziyatdagi, ijtimoiy-madaniy kontekstdagi, lingvistik va ekstralingvistik omillar majmuasidagi matndir.	D.Ashurova
11	Diskurs – mantiqiy grammatika hamda so'zlashuv nutqi aloqadorligi (I.A.Figurovskiy va L.V.Sherba qarashlari asosida).	L.Raupova
12	Diskurs – antroposentrik, intensional, vaziyat bilan bog'liq, struktur-semantik yaxlitlikda, ochiqlik va dinamiklikdagi jarayon.	N.Normurodova
13	Diskurs bu – jarayon, insoniy faoliyat turi. U lisoniy va yuzlab nolisoiniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo'lida voqelanishidir.	A.B.Pardayev
14	So'zlovchi va tinglovchi orasida o'zaro suhbat, savolga yarasha javob berish.	G.Toirova

Tilshunoslikning turli yo'nalishi vakillari tomonidan diskursning mavjud turli talqinlari uning hamkorlik tabiatidan kelib chiqqanligidan dalolat beradi. Bizning unga ta'rifimiz esa quyidagicha: "Jamiyatning turli sohalarida turli vaziyatlarda yuzaga keladigan har qanday nutq faoliyati jarayoni va mahsuli; lingvistik hamda nolingvistik omillar bilan qorishgan, mulohazaga asoslangan izchil va bilvosita kuzatishda berilgan harakatdagi matn".

Y.S.Kubryakova fikricha, kognitiv va lingvistik nuqtayi nazardan, diskurs va matn tushunchalari, jumladan, sabab-natija munosabati bilan bog'lanadi: matn diskursda yaratilgan va uning avlodidir [3]. Tilshunosning ushbu lingvistik bahosi ham diskurs muammolari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchini o'ylashga majbur qiladi. Biz ham Y.S.Kubryakovaning fikrini qo'llagan holda, quyida munosabatimizni bildiramiz. Diskurs va matnning dialektik kategoriya bilan aloqadorligi qanchalik to'g'ri bo'lishi mumkin? To'g'ri, matnning yaratilish jarayoni ham diskurs, ya'ni ijodkor va olamning turli manzaralari tasviri o'rtasidagi kommunikatsiya. Ijodkor san'at asarini yaratgunga qadar olamning mitti zarrasidan koinotgacha e'tibor qaratadi, mushohadaga kirishadi, voqea-hodisaga bo'lgan his-tuyg'u va kechinmalar uni bezovta qilaveradi, natijada kognitiv jarayon yuzaga keladi. Oxir oqibatda barchasini jamlab qog'ozda muhrlaydi, matn hosil bo'ladi. Demak sabab ijodkorning ichki diskursi, natijasi esa yozib qo'yilgan matn. Bu matndan foydalansak yana diskurs bilan to'qnashamiz. Bundan diskurs – matn – diskurs aylanma harakati amalga oshishi ayon bo'ladi. Aytish mumkinki, muallif va matn o'rtasidagi dastlabki hodisa kognitiv-diskursiv jarayon bo'lsa, matn va kitobxon o'rtasidagi hodisa diskursiv jarayonni yuzaga keltiradi. So'nggi paytlarda diskursologlar nutq va matn hodisalari yig'indisi diskursni tashkil qiladi, degan mulohazaga kelayotganliklari va bunda diskurs tushunchasining mundarijasi kengroq ekanligini alohida ta'kidlaganlari tilshunos M.L.Makarov tadqiqotlarida bayon

etilgan [12]. V.I.Karasikning so'zlariga ko'ra, "...diskurs – haqiqiy muloqot holatidagi matn"[13].

Mavjud lingvistik adabiyotlarda diskurs ijtimoiy-kommunikativ tabiatiga ko'ra turlarga ajratilgan. Sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan diskursning ikkita asosiy turini ajratib ko'rsatish mumkin: shaxsiy (shaxsga yo'naltirilgan) va institutsional (jamiyatga yo'naltirilgan). Birinchi holatda so'zlovchi o'z ichki dunyosining butun boyligida individual shaxs sifatida, ikkinchi holatda esa ma'lum bir ijtimoiy institut vakili sifatida namoyon bo'ladi.... V.I.Karasik o'z maqolasida ta'kidlashicha, institutsional diskursning quyidagi ijtimoiy turlarini ajratib ko'rsatish mumkin: siyosiy, diplomatik, ma'muriy, huquqiy, harbiy, pedagogik, diniy, tasavvufiy, tibbiy, tadbirkorlik va boshqalar. Ushbu ro'yxatni o'zgartirish yoki kengaytirish mumkin, chunki sotsiodiskurslar bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi va ularni bir xil hodisa deb hisoblash mumkin emas, bundan tashqari, ular tarixiy jihatdan o'zgaruvchan bo'lib, bir-biri bilan qo'shilib, u yoki bu tur doirasida navlar sifatida paydo bo'lishi mumkin [14]. Biz diskursning ijtimoiy turiga badiiy diskurs, publitsistik diskurs, genderolingvistik diskurs kabilarni ham kiritamiz.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, diskurs fanlararo integratsiyaviy hodisa, u predmetning shunchaki og'zaki yoki yozma ko'rinishi emas, balki bu subyektning u haqida o'ylashi, fikrlashi, bilishi va xabar berishining ko'rsatkichi, lingvistik diskurs subyektning dunyo haqidagi kumulyativ bilim tajribasi, matnning idrok etilish jarayoni, aks ettirilgan voqelikning bo'laklari sanaladi. Maqolada har qanday matn o'z navbatida diskurs bo'la olmaydi, har qanday yozma diskurs turi esa matn bo'la olishi tahlillar va tilshunoslar qarashidan kelib chiqib asoslanildi. Matnni o'zgartirish, qandaydir ma'lumot qo'shish, ba'zan keraksiz deb topilgan o'rinlarini o'chirish va yana tahrirlash mumkinligi mavjud talqinlarga tayanib dalillandi.

ADABIYOTLAR

1. Селезнева Л. В. Исследования дискурса в современной лингвистике: опыт, направления, проблемы. // Вестник Северо-Восточного федерального университета им. М.К. Аммосова. 2011. Том 8. №4. – С.119-124.
2. Макаров, М.Л. Основы теории дискурса. – М.: ИТДГТ Гнозис, 2003. – 276 с; Мартынюк А.П. Разграничение дискурса и текста с позиций интеграционного подхода. 2009. <https://core.ac.uk/download/pdf/46589559.pdf> (11.02.2024); Прохоров Ю.Е. Действительность. Текст. Дискурс: учеб. пособие. – М.: ФЛИНТА, 2021. – 224 с.; Андреева В. А. Литературный нарратив: дискурс и текст: Монография / В. А. Андреева. – СПб.: Норма, 2006. – 182 с. а в.
3. Кубрякова Е. С. О тексте и критериях его определения (Текст. Структура и семантика. Т. 1. - М., 2001. – С. 72-81) <http://www.philology.ru/linguistics1/kubryakova-01.htm> (11.02.2024)
4. Бенвенист, Э. Общая лингвистика. – 3-е изд. – М.: Эдиториал УРСС, 2009. – С. 296; Дейк ван Т.А., Кинч В. Стратегии понимания связного текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1988. Вып. 23. – С. 153–212.
5. Бажалкина Н.С. К проблеме различных подходов к пониманию дискурса в современном языкознании. // Вестник Кемеровского государственного университета. 2016. № 1 (65) – С.156- 159.
6. Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М.: ИТДГТ Гнозис, 2003. – С.19
7. Ostman J. Discourse analysis / J. Ostman, T. Virtanen // Handbook of pragmatics: Manual. – Amsterdam, Phil: John Benjamins, 1995. – P. 239-253.
8. Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С.136-137.

-
9. Карасик В.И. Этнокультурные типы институционального дискурса // Этнокультурная специфика речевой деятельности: Сб. обзоров. - М.: ИНИОН РАН, 2000. – С.37-64.
 10. Гальперин Р.И. О понятии текст // Вопросы языкознания. – Москва, 1974. – №6. – С.73.
 11. Qaḡang: Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.7.
 12. Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М.: Гнозис, 2003. – С. 5-6.
 13. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2004. – С.285.
 14. Карасик В. И. Религиозный дискурс [Текст] // Языковая личность: проблемы лингвокультурологии и функциональной семантики: Сб. науч. тр. – Волгоград, 1999. – С. 5-19.



UDK:372.8

Nurafshon ORIPOVA,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

E-mail: nurafshonoripova@gmail.com

ToshDO‘TAU professori A.Ulug‘ov taqrizi asosida

NAZAR ESHONQUL QISSA VA HIKOYALARIDA AYOL RUHIYATI TASVIRI MUAMMOSI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mahoratli adib Nazar Eshonqul qissa va hikoyalarida ayollar ruhiyatining aks etishi, ularni tasvirlashda foydalanilgan badiiy-tasviriy vositalar, ularning kitobxonga ta'siri haqida fikrlar tavsiflangan.

Kalit so'zlar: Ayol obrazi, xarakter, motiv, milliylik, ruhiyat, qo'shiq, peyzaj, qissa, hikoya.

THE PROBLEM OF PORTRAIT OF WOMEN'S PSYCHOLOGY IN NAZAR ESHONQUL'S SHORT STORIES AND STORIES

Annotation

This thesis describes the reflection of women's mentality in the short stories and stories of the skilled writer Nazar Eshonqul, the artistic and visual tools used to describe them, and their impact on the reader.

Key words: Female image, character, motive, nationality, psyche, song, landscape, short story, story.

ПРОБЛЕМА ПОРТРЕТА ЖЕНСКОЙ ПСИХОЛОГИИ В ПОВЕДИЯХ И ПОВЕДИЯХ НАЗАРА ЭШАНКУЛЯ

Аннотация

В данной диссертации описывается отражение женского менталитета в рассказах и повестях искусного писателя Назара Эшанкуля, художественные и изобразительные средства, использованные для их описания, и их влияние на читателя.

Ключевые слова: Женский образ, характер, мотив, национальность, психика, песня, пейзаж, новелла, повесть.

Kirish. Ayollar obrazi kirib bormagan san'atning biror sohasini topish mushkul. Badiiy adabiyot, haykaltaroshlik, miniatyura, rassomchilik, kino, teatr va raqs shular jumlasidandir. Ayollar obrazlari yillar davomida barcha xalqlar adabiyotida o'ziga xos ko'rinish bergan. Shu jumladan, o'zbek adabiyotida va xususan Nazar Eshonqul qissa va hikoyalarida ham ayollar obrazi mahorat bilan tasvir etilganligini, uning ruhiyatiga sof, haqqoniy chizgilar bilan ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, o'zbek oilalarida ayol oila yumushlarini bajarish uchun mas'ul. Ayolning yuvosh, mo'min-qobil, bosh eguvchanlik xususiyati oddiy, mentalital xususiyat. Masalan, Nazar Eshonqulning "Bepoyon osmon" hikoyasi qahramoni Oyto'ldi "tug'mas" bo'lgani uchun hamma uy ishlarini bajarib yuradi (aniqrog'i, doimiy unga zulm qilinib, o'zi tengi qaynopasi tomonidan bajartiriladi), "Qultoy" hikoyasi qahramoni Arzixol esa o'z farzandidan kaltak yesa ham, aslida ayb o'zida ekanligini hammaga aytib, o'g'li Uljonning tarafini olib yurishini misol tariqasida olishimiz mumkin. Lekin boshqa bir jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, ayol zoti har qancha aqlli, erkaklardanda o'tar ishbilarmon bo'lmasin, ruhiyatida ayol bo'lib yashashi, barcha ayollar kabi mehrga tashna, suyulishni istovchi, pok muhabbatga talpinuvchi xilqat ekanligiga urg'u beriladi. So'zimizning isboti sifatida "Urush odamlari" qissasi qahramoni Biydi momo ham shuncha qiyinchiliklarga bardosh bergan, tuyg'ularini, ehtirolarini faqat va faqat mehnat bilan yenga olishni uddalagan bo'lsa ham, o'g'illari ilk bor zot ayirib kelganida to'yib-to'yib yig'laganligini olishimiz mumkin. Va yana bu holatga aniqlik kiritdik, shu qissa qahramoni Anziratning hiyonat ko'chasiga tasodifan o'zi anglamay kirib qolib, unda tentirab yurishi ham uning aynan shu mehrsiz qolishdan qo'rqishi natijasi emasmi?! Demak ayol har qanday holatda ham hislarga yengiluvchi hilqat. Yoki bo'lmasa umri davomida "tug'mas", "qisir" kabi hunuk sifatlar bilan haqoratlanib, o'zining jamalaksoch dugonasini "opajonlab" yashagan Oyto'ldi ham shu hayotga chidab yurishi turmush o'rtog'iga bo'lgan sof hislari tufayli emasmi?! O'z o'g'li, kelini, nevaralariga huddi quldek xizmat qilib yashagan, hech holidan arz qilmagan Arzixolning taqdiriga sababchi bo'lgan ham uning "qamchisiga bandak to'qib bergani" Salom Chavandozga bo'lgan muhabbati sabab emasmi?! Adib asarlarida o'zbek ayolining dard-iztirobi, ruhiyatiga xos mas'umalik,

ko'nuvchanlik, mutelik ortida bir qator hayotiy muammolar turishini talqin etar ekan, ularning tashqi qiyofasini ham nazardan chetda qoldirmagan. Ularning yurish-turishi, qilayotgan ishlari, gapirgan gaplaridan tortib, qiliqlarigacha qahramon xarakteriga mos tushgan deya olamiz. Aynan adib asarlarida jamiyatdagi ayollar fojiasi o'zga nigoh orqali kuzatilishini, qahramonlarning ruhiyatini, ayollik olamini o'z tuyg'ulari orqali ifodalanishini ko'rishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nazar Eshonqul ilk qissasidayoq ayollarning tashqi ko'rinishi va ruhiyatini tasvirlash maqsadida tashbehdan foydalanadi. Bunga misol qilib: Kampirlarning ham so'lib qolgan tirish yuzlaridagi sho'x va batafsil tahlili adabiyotning, badiiy asarning qiymatini belgilab kelmoqda. Ruhiyat tasviri muammosi jahon ilm-fanidagi va shu bilan birga o'zbek adabiyotshunosligidagi dolzarb tadqiqot muammolaridan biridir. Aynan ushbu qissada ham biz Anziratning ruhiyati muammosi tasvirlariga qayta-qayta duch kelamiz. Anziratning ruhiyatida bo'lib o'tgan baxtsiz hodisalarga oid chuqur iztirob, dard-alam chizgilari bor. Nazar Eshonqul ayollar ruhiyatidagi nozik qirralarni topishda ayol va jamiyat, er va xotin munosabatlari talqinidan ayol va muhabbat masalalari tahlilidan foydalanadi. Adib oddiy hayotiy-maishiy voqealardan katta umuminsoniy badiiy umumlashmalar yaratishga intiladi. Ayollar taqdiri va ruhiy iztiroblari nafaqat ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy muammolar bilan bog'lanadi, balki har qanday ayolning ruhiy dramasi o'z olamidagi ruhiy muvozanatning buzilishidan kelib chiqadi. Anzirat ham shu ruhiy muvozanati buzilganligi sababli xiyonat ko'chasida sarson kezdi, o'zligini yo'qotdi. Ayol dunyosidagi ruhiy muvozanatning buzilishi uning o'zi istagan hayot tarzida yashamasligi, mehrga tashnalik, baxt uchun o'voralik bilan bog'lik desak adashmaymiz. Anzirat hayotini o'nglab ketishga tirashayotgandi. Qissa voqealari orasida keltirilgan Otasi Mulla Xidirning ziyorati, xuddi uning ichini bilgandek qilgan nasihatlar unga ta'sir etgandi. Xiyonatidan keyin sochiga oq

oralagan Anzirat keyinchalik bunga ko'nikib ketdi. Endi unga farqi yo'qdek, qiynalmay yashasa bo'ldi edi. Or-nomusini qiyinchilikka bardosh qilolmay yo'qotdi. Qissaga qaytadigan bo'lsak, Anzirat xiyonat ko'chasiga bila-bila kirmagandi. Bu haqida bizdan oldingi tadqiqotlarda ham aytib o'tilgan. Jumladan Yulduz Eshmatovaning filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsion tadqiqotida "Nazar Eshonqulning daxshatli urush fojialari tasvirlangan "Urush odamlari" qissasida ham fasllarga uyg'un tarzda qahramonlar iztiroblari, g'am-qayg'ulari ochib beriladi. Fojialarga to'la davr muhiti ko'ngilchan, dilkash kishilar ruhiyatidagi o'zgarishlarga, urush kabi sovuq, dag'al munosabatlarga aylanganini, bu esa qahramonlar taqdirining fojiali qismatiga sabab bo'lganligini badiiy gavalantirgan".

Olima fikrlarini davom ettirarkan, Anziratning xiyonatiga o'z munosabatini ham bildirib o'tadi. "Yozuvchi davrning mudxish, ayovsiz urush oqibatida, sharoit taqozosiga ko'ra, farzandini hayotga qaytarish maqsadida gunohga qo'l urgan ayol, uning to'satdan qaytib kelgan eri oldidagi iztirobli vijdon azobida o'tayotgan kechinmalarini ro'y-rosti, bor haqiqatlari bilan tasvirlaydi".

Shu o'rinda biz izoh berib o'tishimiz lozim. Anzirat bu ko'chaga atay kirgan emasdi. Agar u Mirzaqulning qabix niyatini bilganida balki o'sha manzilga bormasmidi ham?! Bunisi bizga qorong'u. Farzandini hayotga qaytarish maqsadida deyilgan tadqiqotda. Bu xiyonat maqsad qilinmagandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqsad qilmoq arabcha "qasd qilmoq" fe'lidan olingan. Bu mutlaqo Anzirat uchun kutilmagan holat edi. Ta'rif jozi bo'lsa yetti uxlab tushiga ham kirmagandi bunday bo'lishi. Tasodifiy yuz bergandi bu voqea Anzirat uchun (Mirzaqul buni rejalab yurganini bilmasdi, uning yordamini beminnat, xolis deb o'ylardi). Mana shu vaziyat asarda quyidagicha beriladiki bu fikrimizning dalili bo'la oladi. "Anzirat nima uchun Mirzaqul aynan shu joyni tanlaganini hayoliga ham keltirmagan, Mirzaqulning imoni butun odam ekaniga ishongan, hech qanday shubhaga bormagandi"[3]. Aynan mana shu tasodifiylik antik yunon adabiyotida ham, sharq mumtoz adabiyoti namunalarida ham juda ko'p uchraydigan badiiy vositadir.

Tahlil va natijalar. Tasodifiylik qahramon taqdirini va hayotini keskin ravishda o'z tizginidan chiqarib yuboradi. Bu ijobiy tomonga ham, salbiy tomonga ham bo'lishi mumkin. Qissadagi voqealarda tasodifiylik zanjirini tashkil etgan voqealar va turli vaziyatlarda "taqdir", "qora qismat", "tasodif", "taqdir jazosi" degan badiiy xronotopni tashkil qiluvchi so'z va so'z birikmalari bir-biriga ulanib ketadi. Qissa yakunidagi vojeaviylik buning yorqin namunasidir. Aynan mana shu vaziyatni asarning kulminatsiyasi deb qarashimiz mumkin. Eri urushga ketganiga bir yil bo'lgandi. Anziratning iztiroblari qissada shunday tarzda yoritiladi:

"U kun bo'yi tinim bilmasdi-yu beshikdagi qizchasi va Xolmatning ochlikdan kichrayib borayotgan gavdasiga, ochlikning daxshatli, talvasali qadamiga qarshi turolmasdi. Hamma narsa to'zib bo'lgan, ikkita sigirning bittasini kolxoz olib ketgan, ikkinchisini ilon chaqib, shishib o'lgan edi. Ular bor yo'g'i kolxozdan beriladigan bir hovuch arpa uni-yu uchta ori echkinining sutiga qarab qolishgan edi. Anzirat ishlar, echkilarga o't olib kelar, yozda molxona suvar, o'tin g'amalar, qishda o'tin terar, molxona qurar, bahorda ham o'z yerida ham kolxoz uchun qo'sh haydar edi. Hammasiga ulgurur, ulgurishi kerak edi. Kechasi esa ham erini qo'rsab, ham charchoqdan toliqqan vujudi qaltirab, tanasini sovuq ko'rpaning ichiga nochorgina tiqib yig'lar keyin yostig'ini xo'l qilib, uxlab qolar, ertalab yana shu tashvishlar bilan yugurur edi"[3].

Qissa boshida Normat polvonning his-tuyg'ulari haqida batafsil so'z yuritilgan bo'lsa, xiyonat oshkor bo'lgach Anziratning kechinmalariga urg'u beriladi. Qissani mutolaa qilar ekanmiz, Anzirat ruhiyatini ochishda nutq tiplaridan, xususan, muallifning bilvosita bayoni va qahramon ichki monologidan unumli foydalanilgan. Binobarin, monolog ichki tasviriy vosita sifatida ayol qahramonlar ruhiy dunyosini ishonarli ochishga xizmat qilgan. Anziratning hayollaridagi monologlarini monolog-muhokama, monolog-mulohaza, monolog-suhbat, monolog-xayol kabi turlarga ajratishimiz mumkin.

Adabiyotshunos Izzat Sulton ichki monologning nazariy tabiati haqida shunday fikr bildiradi: "Personaj hayot haqidagi eng muhim o'ylarini bir joyga yog'ib, yorqin ifoda etgan, personaj tomonidan boshqalarning yo'qligida yoki ular jim turgan holda aytilgan katta nutq "monolog" deb ataladi ("Monolog" ichki nutq demakdir). Monolog personajning ichki dunyosini uning o'z tili bilan batafsil va hayajonli tarzda ochib beradi"[6].

Anziratning o'zgarganligi uning nutqi orqali izohlanmaydi, balki uning holati bilan ko'rsatib beriladi. Voqealar rivojida Anziratning bu yo'lga yo'qchilik va nochorlikdan kirib qolgani ochiqdan. Anzirat o'z yog'ida o'zi qovrilardi. Buni birovga oshkor qila olmasdi. Xiyonat ko'chasiga adashib bo'lsada kirib qolgani uni gangitdi, yigirma to'qqiz yoshida sochiga oq tushdi. U qilgan gunohining kechirilmasligini anglagach, bu xatoda davom etdi. Nazar Eshonqul uning hislarini ifoda etganda uni oqlamaydi, aksincha bor bo'yi yoritadiki, xulosani o'qirmanning o'ziga qoldiradi. Bu ham yozuvchining adolatidan, mahoratidan darak.

Nazar Eshonqul asarlarida psixologizmning turli-tuman formalari, ya'ni portret, monolog, dialog, muallif bayoni va hissiy harakatlardan unumli foydalanilganligi uchun ham ayollar ruhiyatini batafsil ochishga muvaffaq bo'lgan. Albatta biz ham Anziratning voqealar rivojidagi hayollarini, Normatni hayolan kamsitishlarini, o'ziga teng ko'rmasliklarini oqlamaymiz. Aynan mana shu jihat ham asarning hayotiyilgini ko'rsatadi. Oxir-oqibatda Anzirat ham ko'nglining tiyiqsiz istaklariga yengiladi. Bu hislar uning iymonini ham yengadi. Aynan gunohi kechirilmasligini bilib va eridan qoraxat kelgani ko'ngliga taskinday gunohida davom etadi. U Biydi momodek o'z iffatini saqlab qola olmaydi. Asardagi momo obrazi asrlar osha xotin-qizlardagi hayo, ibo kabi yaxshi fazilatlarining timsoli edi. U shu qadriyatlariga, o'ziga sodiq qola olgandi. Aynan shuning uchun ham qishloqning or-nomus timsoliga aylangandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan Biydi momo va Anzirat obrazlarida biz kontrastni ko'rishimiz mumkin. Va nihoyat qissaning asosiy qahramonlaridan biri Biydi momo ushbu davraga kirib keladi. Uning davraga kirib kelishi ham, albatta, kingadir tanbeh berish bilan boshlanadi va shu bilan bu obraz portretiga ilk chizgilar chiziladi.

"– Buncha sasimasang!... – tashqaridan to'yga ham bakovullik, ham kayvonilik qilib yurgan Biydi momoning zaharli tovushi eshitildi. Ertalabdan beri kelinlarga ish, yumush buyuraverib charchagan, shekilli, tovushi ham horg'in chiqdi va gapirib bo'lib oxirida uflab qo'ydi. – Bolang tengogayam shunday deysanmi, uyatsiz. Sizlarda o'zi bet degan narsa qolmabdi"[3].

Nazar Eshonqul ilk qissasidayoq ayollarning tashqi ko'rinishi va ruhiyatini tasvirlash maqsadida tashbehdan foydalanadi. Bunga misol qilib: "Kampirlarning ham so'lib qolgan tirish yuzlaridagi sho'x va quvnoq boquvchi ko'zlari xuddi so'ligan otquloq bargiga tushgan ikki tomchi shudring kabi yaltiray boshlagandi"[3]. Yana suhbat davomida ayol epizodlari qissada namoyon bo'ladi. Bo'ston momo yoriq childirma bilan qo'shiq aytib boshlaydi, Norbi kampir esa raqsga tushadi. Bir necha kelinchaklar derazadan qaraydi, qizlarni xotin-xalajlar raqsga tortadi. Ayollarning tuyg'ulari qissaning boshlanish qismidayoq o'ziga xos tarzda va haqqoniy ifodalangan.

"G'am alamlarga to'lgan turli qalblar o'zlarini bir zum, aqalli bir nafas xursand qilishga urinishar, bir-birining gapiga shaqirlab kular, yosh kelinchaklar eri qaytib kelib, oyog'i yengil bo'lib qolgan Anziratga qochirim gaplar qilishar, garchi gaplari kulguli bo'lmasa ham kulishar, bu kunning tezroq tugab qolishidan, yana urush xotiralari va vahimalari yotgan uylariga qaytishdan, yana o'sha tashvishli yolg'iz, horg'in hayotlari boshlanishidan cho'chishayotgandek ko'rinishardi. Aslida ham bu qalblarni bir varaq orqaga yoki oldinga varaqlasa, hali urushli hayot bor, har ikkala tomonda ham urush kezayotgan va bu qalblar ning eng yaqin kishilari, erlari, bolalari, jigarlari, og'a-inilari ana shu urushda o'layotgan, majruh, nogiron bo'layotgan yoki biron narsasidan ayrilayotgan edi..."[3].

Nutq tiplarini o'rgangan olimlardan biri Y.Solijonovning ushbu fikrlari aynan Nazar Eshonqulning uslubiga xos deyishimiz mumkin: "Mabodo, yozuvchi asarda o'z-o'zicha tabiiy rivojlanayotgan hayot tasviriga xuda-behuda aralashaversa, o'quvchisiga o'z nomidan izoh bera boshlasa, asarning ta'sir

kuchi ham, o'quvchining fikrlash faolligi ham susayadi. Chunki bunday jarayon o'quvchi obrazlarining bevosita xatti-harakatini, o'z-o'zini kashf etishni, ruhiy olamini emas, avtorning o'zini, uning bilvosita munosabatini ko'radiki, bu hol uning tafakkurida aks-sado uyg'otadi. Boisi avtorning o'rinsiz aralashuvi garchi bilimimizni ma'lum darajada boyitishga va qahramonlar xatti-harakatlarini hamda holatini, taqdirini tushunib olishimizga ko'maklashgandek tuyilsa-da, aslida o'quvchida estetik zavq uyg'ota olmaydi[7].

Xulosa va takliflar. Yozuvchi qissa davomida nafaqat ayollarning his-tuyg'ularini ifodalashda, balki boshqa o'rinlarda ham tashbehlardan mohirona foydalanadi. Masalan, u Normat

polvonning uyiga qaytishini kech kuzdagi momaqaldironning gumburlashiga o'xshatadi. Obrazlar ichida tilga olinadigan yana bir qiz obrazi Hojar, Anzirat va Normat polvonning qizi obrazi. Bu qissada asosiy obrazlarda Normat, Biydi momo, Anzirat hisoblansada, eng asosiy iztiroblar iskanjasidagi qahramon bu Anzirat edi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Nazar Eshonqul barcha qissa va hikoyalarida ayollar obrazi mavjud. Yozuvchi ularning ruhiyatini barcha evrilishlari bilan o'ta ta'sirchan ifoda etadi. Asardagi har bir ayol qahramon o'quvchiga onasini, opasini, kelinoyisini, singlisini, dugonasini eslatadi. Chunki asardagi ayollar obrazi hayotdan olingan. Shu jihati bilan Nazar Eshonqul yaratgan ayollar obrazi qimmatlidir.

ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish // www.ziyouz.uz.
2. Eshonqul N. "Bepoyon osmon" (Hikoya) // www.ziyouz.uz.com
3. Eshonqul N. Saylanma. 2-qism. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
4. Eshonqul N. "Urush odamlari" (Qissa) // www.ziyouz.uz.com kutubxonasi
5. Eshonqul N. "Shamolni tutib bo'lmaydi" (Hikoya) // www.ziyouz.uz.com
6. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
7. Solijonov Y. Nutq va uslub. – Toshkent: Cho'lpon, 2002.



Ulug'bek OCHILOV,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD, Osiyo Xalqaro Universiteti doktoranti

E-mail: elnurbeast@gmail.com

O'zDJTU dotsenti, DSc I.Kaxarova taqrizi asosida

«THE SHINING» ASARINING MAGIK REALIZM DOIRASIDA TAHLILI

Аннотация

Stephen Kingning «The Shining» asari magik realizmning yorqin namunasi bo'lib, unda oddiy hayot va mistik dunyo uyg'unlashadi. Asarda Overlук mehmonxonasidagi yovuz kuchlar insonning ichki ziddiyatlari, oilaviy munosabatlari va ruhiy o'zgarishlari bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Magik realizm uslubi orqali asarda oddiy hayotga mistik aralashuv, tush va reallik o'rtasidagi chegaralarning xiralashuvi, ezgu va yovuz kuchlar o'rtasidagi kurash hamda oddiy ko'z bilan ko'rinmaydigan narsalarning mavjudligi yoritiladi. Ushbu asar insonning ichki qo'rquvlarini, ularning g'ayritabiiy kuchlar bilan aloqasini va ruhiy o'zgarishlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Stephen King, The Shining, magik realizm, Overlук mehmonxonasi, telepatiya, yovuzlik, ruhiy ziddiyat, ichki qo'rquvlar, Jek Torrens, Denni Torrens.

АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «THE SHINING» В РАМКАХ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА

Аннотация

Роман Стивена Кинга «The Shining» является ярким примером магического реализма, в котором реальная жизнь и мистический мир органично сливаются. В произведении гостиница «Оверлук» становится символом зла, а человеческие внутренние конфликты, семейные отношения и психологические изменения тесно связаны с этим злом. Через магический реализм роман показывает, как обычная жизнь переплетается с мистическими элементами, размываются границы между сном и реальностью, добро и зло вступают в борьбу, а также присутствуют невидимые сущности. Это произведение исследует внутренние страхи человека, их связь с потусторонними силами и психологические изменения.

Ключевые слова: Стивен Кинг, The Shining, магический реализм, гостиница «Оверлук», телепатия, зло, психологические конфликты, внутренние страхи, Джек Торранс, Дэнни Торранс.

ANALYSIS OF «THE SHINING» WITHIN MAGIC REALISM

Annotation

Stephen King's «The Shining» is a prime example of magical realism, where the ordinary world and the mystical realm merge seamlessly. The Overlook Hotel embodies evil, and its sinister influence intertwines with human inner conflicts, familial relationships, and psychological shifts. Through the lens of magical realism, the novel portrays the natural blending of everyday life with mystical elements, the blurring of lines between dreams and reality, the clash between good and evil, and the presence of unseen entities. It explores human fears, their connection to supernatural forces, and the resulting psychological transformation.

Key words: Stephen King, The Shining, magical realism, Overlook Hotel, telepathy, evil, psychological conflict, inner fears, Jack Torrance, Danny Torrance.

Kirish. Stiven Kingning «The Shining» asari inson ruhiyatini va ichki ziddiyatlarni magik realizm uslubi orqali chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Asarda Jek Torrens va uning oilasining Overlук mehmonxonasida duch kelgan tajribasi orqali oddiy hayot va mistik elementlar birlashadi. King o'z asarida ichki qo'rquvlar, oilaviy munosabatlar va yovuz kuchlarning ta'siri bilan yuzma-yuz kelish jarayonini tasvirlab beradi. Quyidagi tahlil «The Shining» asaridagi magik realizmning asosiy unsurlari, ularning personajlar rivoji va voqealar oqimida qanday namoyon bo'lishini chuqurroq yoritadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Magik realizmning asosiy xususiyatlaridan biri bu – oddiy hayotning g'ayritabiiy hodisalar bilan tabiiy uyg'unlashuvi. Kingning «The Shining» asarida bu xususiyat Overlук mehmonxonasi orqali keng ifodalanadi. Mehmonxona dastlab oddiy turar joy sifatida tasvirlanadi, lekin unda yashiringan sirli va yovuz kuchlar tobora ochila boradi. Bu kuchlar Jek Torrens va uning o'g'li Denniga kuchli ta'sir o'tkazadi, lekin bu ta'sirni faqatgina ularning telepatik sezgilari orqali his qilish mumkin.

«The Overlook Hotel was a beautiful place, but there was something dark in its history, something lurking beneath the surface. Jack felt it the moment he stepped inside.»

Bu yerda Overlук mehmonxonasining oddiy ko'rinishi ostida yashiringan yovuz kuchlar tasvirlangan. Mehmonxonaning mavjudotlari va g'ayritabiiy hodisalari dastlab Jek va Denniga sirli ko'rinadi, ammo ular mehmonxonadagi g'ayritabiiy ta'sirlarni chuqur his qilishadi. Bu jarayon oddiy hayotga tabiiy kirib kelgan mistik aralashuv sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, mehmonxonadagi bar sahnasi ham mistik aralashuvning aniq misolidir. Jek barni bo'sh ko'rishi kerak bo'lsa-da, u erda ichimliklar paydo bo'ladi va u g'ayritabiiy mavjudotlar bilan muloqot qilishni boshlaydi:

«The bar was empty, yet Jack could smell the sharp scent of gin. The glasses seemed full, and an unseen hand offered him a drink.»

Bu sahnada oddiy hayotga tabiiy kirib kelgan g'ayritabiiy elementlar yaqqol ko'rinadi. Jackning ichki qo'rquv va zaifliklari mehmonxonaning yovuz kuchlari orqali faollashadi, bu esa asardagi magik realizmning muhim jihatlaridan biridir.

Yana bir misol sifatida mehmonxonada ishlagan sobiq xodim Greydining arvohi bilan Jekning muloqotini keltirish mumkin. Bu muloqot Jekning ruhiy holatiga ta'sir qiladi va uning o'z oilasiga nisbatan tajovuzkorligini kuchaytiradi:

«Grady's voice was low, almost a whisper, but Jack heard it clearly. 'You must correct them,' Grady said, his tone full of authority. 'They need to be corrected, Mr. Torrance.'»

Bu yerda Jekning o'z xatti-harakatlari va ichki ziddiyatlari g'ayritabiiy mavjudotlar orqali boshqariladi. Mehmonxona o'zining yovuz kuchlari orqali oddiy hayot voqealarini mistik elementlar bilan boyitadi, bu esa Kingning magik realizm uslubidagi tasviriga mos keladi.

«The Shining» asarida tush va reallik o'rtasidagi chiziqlar tobora xiralashib boradi, ayniqsa Jek va Dennining tushlari va halusinatiyalari bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Kingning mahorati shundaki, u tush va haqiqat o'rtasidagi farqlarni o'quvchi uchun ham noaniq qiladi. Jekning ruhiy holati

yomonlashgani sayin, uning uchun tush va haqiqatni ajratish qiyinlashadi, bu esa magik realizmning asosiy xususiyatlaridan biridir.

«Jack walked through the empty corridors, unsure if the shadowy figures he saw were real or just figments of his imagination. The walls seemed to whisper his name, the voices alternating between pleading and demanding.»

Bu sahnada Jekning tush va reallik o'rtasidagi chiziqlarning yo'qolganligi ko'rsatiladi. Uning halusinatsiyalari va xayollari haqiqatga aylana boradi. Bu jarayon Kingning magik realizm uslubining asosiy unsurlaridan biridir, chunki Jekning ruhiy kurashi va mehmonxonaning yovuz ta'siri orqali tush va haqiqatning birlashuvi tasvirlanadi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussion).

Denni Torrens ham telepatik qobiliyati tufayli mehmonxonaning yovuz ta'sirini oldindan sezadi. Uning tushlari va g'ayritabiiy voqealarni his qilishi tush va haqiqat o'rtasidagi chiziqlarni yanada xiralashtiradi:

«Danny's visions were more than just dreams; they were warnings. He saw things that hadn't happened yet, but he knew they would.»

Bu yerda Dennining telepatik qobiliyati tufayli reallik va tush birlashadi. Uning tushlari faqat kelajak voqealarini ko'rsatish bilan cheklanmay, balki mehmonxonaning yovuz ta'sirini ham aks ettiradi. Bu holat Kingning magik realizm uslubini yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari, Jekning mehmonxonaning "xona 217" ichidagi voqealarni tushida ko'rishi va buni haqiqat deb qabul qilishi ham tush va haqiqat o'rtasidagi chiziqlarni xiralashtiradi:

«The woman in Room 217 was not just a ghost; she was a manifestation of all Jack's fears and desires. He couldn't tell if she was real or just a figment of his tortured mind.»

Bu sahnada tush va reallikning uyg'unlashuvi orqali Jackning ichki kurashi yanada kuchayadi. Uning xayollari va tushlari orqali mehmonxonaning yovuz ta'siri aniq ko'rinadi, bu esa Kingning magik realizm uslubidagi yozish texnikasining chuqur tasviri.

Asarda ezgu va yovuz kuchlar o'rtasidagi kurashning asosiy qismi Jek Torrens s va uning o'g'li Denni orasida kechadi. Mehmonxona Jekning ichki zaifliklarini ochib, uni yovuz kuchlar bilan bog'laydi. Denni esa o'zining telepatik qobiliyati va kuchli intuitsiyasi orqali otasining yovuzlikka qarshi kurashishiga harakat qiladi. Bu jarayon nafaqat jismoniy, balki ruhiy va psixologik ziddiyat sifatida ham ochiladi.

«The Overlook fed on Jack's insecurities and anger, whispering promises of power and revenge. But Danny sensed the darkness growing, and he knew he had to protect his family.»

Bu yerda yovuz mehmonxonaning Jekning zaifliklari orqali uni boshqarayotganini va Dennining bu yovuzlikka qarshi kurashayotganini ko'ramiz. Asardagi kurash faqat tashqi kuchlar o'rtasidagi ziddiyat emas, balki ichki kurash hamdir. Denni

otasining yovuzlikka aylanib borayotganini sezadi va bu holat Kingning magik realizm doirasidagi ziddiyatlarni chuqur ochib beradi.

Bundan tashqari, Uendi Torrens ham oilasini mehmonxonaning yovuz ta'siridan himoya qilish uchun ichki va tashqi kurash olib boradi. U o'zining ruhiy va jismoniy kuchlarini ishlatib, oilasini saqlab qolishga harakat qiladi:

«Wendy fought with all her strength, using everything she had to protect Danny from the evil that had taken over Jack.»

Bu yerda Uendining jasorati va oilaviy muhabbati yovuzlikka qarshi kurashni ifodalaydi. Uning ichki kuchi va oilasini himoya qilish uchun qilgan harakatlari asardagi magik realizmning asosiy xususiyatlaridan biridir.

Magik realizmda oddiy ko'z bilan ko'rinmaydigan hodisalar va mavjudotlarning tasviri keng qo'llaniladi. «The Shining» asarida Overlook mehmonxonasi ichidagi mavjudotlar va yovuz ta'sirlar faqat Denni va Jek tomonidan seziladi, lekin bu hodisalar Uendi uchun ko'rinmaydigan holda qoladi. Bu faqat tanlanganlar tomonidan his qilinadigan g'ayritabiiy mavjudotlarning mavjudligini ko'rsatadi.

«Danny could see the dead woman in Room 217, her smile twisted and malicious. But when Wendy entered the room, all she saw was an empty bathtub.»

Bu yerda Dennining sezgilari va telepatik qobiliyatlari mehmonxonaning yovuzligini his qilishga imkon beradi, lekin Uendi uchun bu hodisalar mavjud emas. Bu oddiy hayotga kirib kelgan mistik elementlarning aniq tasviri, chunki faqat tanlangan kishilar bu g'ayritabiiy hodisalarni sezadi.

Bundan tashqari, mehmonxonaning devorlari orasidagi yashirin yovuz mavjudotlar oddiy odamlar uchun ko'rinmaydigan bo'lsa-da, Denni ularning ta'sirini chuqur his qiladi:

«The hotel was alive, its walls breathing with hidden malice. Danny could feel it, a dark presence that lurked just beyond sight.»

Bu yerda mehmonxonaning yovuz ta'sirini faqat tanlangan kishilar tomonidan his qilinishi va uning oddiy ko'z bilan ko'rilmasligi tasvirlangan. Kingning magik realizm uslubidagi tasvirlari bu g'ayritabiiy hodisalarni kengroq ochib beradi.

Xulosa. Stiven Kingning «The Shining» asari magik realizm janrining barcha asosiy unsurlarini o'zida mujassam etgan. Asarda oddiy hayotga mistik aralashuv, tush va reallik o'rtasidagi chiziqlarning xiralashuvi, ezgu va yovuz kuchlar o'rtasidagi kurash va oddiy ko'z bilan ko'rinmaydigan narsalarning mavjudligi keng ifodalangan. King magik realizm orqali inson ruhiyatining murakkabligini va ichki qo'rquvlar bilan kurashni chuqur tahlil qiladi. Bu asar insonning ruhiy holatini va ichki ziddiyatlarini g'ayritabiiy hodisalar orqali ochib beradi va o'quvchiga real va mistik dunyo o'rtasidagi nozik chiziqlarni ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. King, Stephen. «The Shining». Doubleday, 1977, pp. 45-67.
2. Magistrale, Tony. «Stephen King: America's Storyteller». Praeger, 2010, pp. 102-123.
3. Collins, Michael R. «"The Haunted Spaces of Stephen King's Overlook Hotel."» «Journal of Popular Culture», vol. 48, no. 4, 2015, pp. 812-830.
4. Bloom, Harold, editor. «Stephen King». Chelsea House, 2007, pp. 152-168.
5. Winter, Douglas E. «Stephen King: The Art of Darkness». New American Library, 1986, pp. 95-108.
6. Spignesi, Stephen J. «The Essential Stephen King». Career Press, 2001, pp. 42-56.
7. Ochilov, Ulug'bek. «Stiven Kingning 'Doktor Uyqu' Asarida Mistik Va Real Dunyo o'rtasidagi Chegaralar». Lingvospekt, vol. 1, no. 1, Jan. 2025, pp. 31-36, <https://lingvospekt.uz/index.php/Ingsp/article/view/309>.
8. Очиллов У.С. Абдулла қодирий ва теодор драйзернинг асарларида натурализм тамойиллари. editorial board. 2022 May 17:650.
9. Sayfulloyevich, Ochilov. "Naturalistic Features In Abdulla Qodiriy's "Bygone Days"." International Journal of Progressive Sciences and Technologies [Online], 28.2 (2021): 333-337. Web. 24 Mar. 2023
10. Очиллов, Улуғбек Сайфуллоевич. "Абдулла Қодирийнинг "Обид кетмон" қиссида қолхоз мавзуси ва унинг социалистик реализм адабий методига ҳосилги." Gospodarka i Innowacje. 23 (2022): 155-157.
11. Ochilov, Ulugbek Sayfulloevich. "Naturalistic images in the novel "sister carrie" By the american writer theodore dreiser." Scientific reports of Bukhara State University 4.3 (2020): 179-183.
12. Ochilov, U. «Teodor Drayzerning „Baxti Qaro Kerri“ Asaridagi Takrorlar Tasnifi Va Ularning Matnda Bajargan Vazifasi». Центр научных публикаций (buxdu.Uz), т. 6, вып. 6, июль 2021 г.,
13. Ochilov, Ulugbek. "AQSH va ozbek adabiyotshunosligida naturalizm adabiy oqimiga munosabat." Центр научных публикаций (buxdu.uz) 6.6 (2021).

-
14. Ochilov, Ulugbek. "Teodor Drayzerning" Daho" romanidagi Yujin Vitla-hirsu havasga yengilgan daho obrazi." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8.8 (2021).



УДК: 811.161.1.378.1

Венера ПРИМОВА

Преподаватель русского языка в университете науки и технологий

E-mail: primovavenera44@gmail.com

На основании рецензии профессора А.Маматова

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО КОМПОНЕНТА В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль национально-культурного компонента в процессе обучения русскому языку студентов-узбеков. Исследование направлено на выявление эффективных методов интеграции культурологического аспекта в преподавание русского языка как иностранного (РКИ) с учетом особенностей узбекской языковой картины мира. Особое внимание уделяется анализу лингводидактических принципов и методических приемов, способствующих формированию межкультурной компетенции студентов.

Ключевые слова: Национально-культурный компонент, русский язык как иностранный, межкультурная компетенция, узбекский язык, лингводидактика, методика преподавания.

USE OF THE NATIONAL-CULTURAL COMPONENT IN TEACHING RUSSIAN TO UZBEK-LANGUAGE STUDENTS

Annotation

This article examines the role of national-cultural component in the process of teaching Russian to Uzbek students. The research is aimed at identifying effective methods of integrating the cultural aspect into teaching Russian as a foreign language (RLF) taking into account the peculiarities of the Uzbek linguistic picture of the world. Special attention is paid to the analysis of linguodidactic principles and methodological techniques that contribute to the formation of intercultural competence of students.

Key words: National-cultural component, Russian as a foreign language, intercultural competence, Uzbek language, linguodidactics, teaching methodology.

O'ZBEK TILIDA TA'LIM OLAYOTGAN TALABALARGA RUS TILINI O'RGATISHDA MILLIY-MADANIY KOMPLEMENTDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek talabalariga rus tilini o'rgatish jarayonida milliy-madaniy komponentning o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot o'zbek tili dunyoqarashi xususiyatlarini hisobga olgan holda rus tilini chet tili sifatida o'qitishda madaniy jihatlarni samarali qo'llash usullarini aniqlashga qaratilgan. Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirishga yordam beruvchi lingvodidaktik tamoyillar va o'qitish usullarini tahlil qilishga alohida e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy-madaniy komponent, chet tili sifatida rus tili, madaniyatlararo kompetensiya, o'zbek tili, lingvodidaktika, o'qitish metodikasi.

Введение. В современных условиях глобализации и межкультурной интеграции особую актуальность приобретает вопрос эффективного преподавания русского языка в странах СНГ, в частности в Узбекистане. Необходимость учета национально-культурного компонента при обучении русскому языку обусловлена не только лингвистическими, но и социокультурными факторами, определяющими успешность освоения языка.

Обзор литературы по теме. Как отмечает Т.М. Балыхина в своей работе "Методика преподавания русского языка как неродного", учет национально-культурных особенностей учащихся является одним из ключевых факторов, определяющих эффективность обучения русскому языку[1]. Особую значимость данный подход приобретает в контексте обучения студентов с узбекским языком обучения, где различия языковых картин мира создают дополнительные сложности в освоении русского языка.

По мнению И.А. Пугачева, "межкультурная коммуникация в процессе обучения РКИ представляет собой не просто передачу информации, а взаимодействие представителей различных культурных общностей"[2]. Данное утверждение особенно актуально в контексте узбекско-русского билингвизма, где необходимо учитывать как лингвистические, так и экстралингвистические факторы.

Целью данного исследования является анализ эффективности использования национально-культурного компонента в процессе обучения русскому языку студентов-узбеков и разработка методических рекомендаций по его интеграции в учебный процесс.

Теоретической базой исследования послужили работы ведущих специалистов в области методики преподавания РКИ, таких как В.Г. Костомаров[3], который подчеркивает необходимость изучения языка в тесной связи с культурой его носителей, и Ю.Е. Прохоров[4], разработавший концепцию национально-ориентированного обучения русскому языку.

Сегодня методика преподавания иностранных языков все чаще сосредоточивается на необходимости акцентировать прагматические аспекты изучения языка, т.е. важность достижения качественных результатов не только в овладении иноязычным общением, но и во взаимодействии представителей разных культур в общем коммуникативно-прагматическом пространстве. Речь идет не просто о знании иностранного языка, а об умении использовать его в реальной ситуации общения, когда происходит столкновение разных культур, традиций, обычаев в условиях современного поликультурного мира[7].

Методология исследования. Национально-культурный компонент в преподавании русского языка узбекоязычным студентам включает лингвистические, культурологические и методические аспекты. Важным является учет особенностей языкового сознания студентов, сформированного под влиянием родной культуры и языка.

Узбекский и русский языки имеют существенные различия, что при правильном методическом подходе может стать эффективным инструментом обучения через сопоставительный анализ. Знакомство с фразеологизмами и пословицами играет ключевую роль в формировании

лингвокультурной компетенции, ведь они отражают мировоззрение и ценности народов. Сравнительный анализ паремий помогает выявить универсальные и уникальные черты каждой культуры. Важно, чтобы работа с пословицами

была системной и интегрированной в процесс обучения, что способствует расширению лексики и развитию аналитических и межкультурных навыков студентов.

Русский вариант	Узбекский вариант	Анализ
Старый друг лучше новых двух	Eski do'st - yaxshi do'st	В данном случае мы наблюдаем схожее смысловое наполнение при различном лексическом оформлении. Это позволяет студентам легче усваивать русский вариант пословицы через призму родной культуры.
Без труда не выловишь и рыбку из пруда	Mehnat - mehnatning tagi rohat	Здесь мы видим различные метафорические образы при передаче одной и той же идеи: в русском варианте используется конкретный образ рыбки, в то время как узбекский вариант более абстрактен.
Делу время, потехе час	Vaqting ketdi - baxting ketdi	Данные пословицы демонстрируют различное отношение к концепту времени в двух культурах: русская пословица подчеркивает важность баланса между работой и отдыхом, в то время как узбекская акцентирует внимание на ценности каждого момента.
В гостях хорошо, а дома лучше	O'z uyim - o'lan to'shagim	Данные пословицы отражают общее для обеих культур представление о ценности домашнего очага, но используют различные образные средства для его выражения.
Век живи, век учись	Ilm - aql bulog'i, aql - yashash chirog'i	Обе пословицы подчеркивают важность знаний как источника света и разума, необходимых для полноценной жизни. Узбекский вариант выражения отличается поэтичностью и акцентом на связь знания с мудростью и жизненным светом.

Таблица №1. Сравнительный анализ пословиц и поговорок

Исследование проводилось в естественных условиях учебного процесса на курсе русского языка для студентов первого курса с узбекским языком обучения, с включением национально-культурного компонента через пословицы и поговорки двух языков.

Эффективность методики оценивалась по результатам обычных учебных заданий, активности студентов в обсуждениях, способности находить межкультурные параллели и результатам контрольных работ. Анализ проводился сравнительно с предыдущими годами, когда культурный компонент не был основным фокусом обучения. Материалы для анализа собирались через педагогическое наблюдение.

Анализ и результаты. Проведенное исследование подтвердило высокую эффективность использования национально-культурного компонента в преподавании русского языка студентам с узбекским языком обучения. Включение элементов паремиологического фонда двух языков в учебный процесс значительно повышает результаты обучения. Основные результаты исследования следующие:

Повышение мотивации к изучению языка: Студенты более заинтересованы в занятиях, видя параллели между родной и изучаемой культурами, что повышает их эмоциональное вовлечение.

Улучшение понимания и запоминания материала: Сопоставление русских и узбекских пословиц способствует лучшему усвоению как лексики, так и грамматических конструкций русского языка.

Развитие межкультурной компетенции: У студентов формируется более глубокое понимание как русской, так и

узбекской культуры, что способствует улучшению навыков межкультурной коммуникации.

Интеграция культурных элементов в учебный процесс не привела к дополнительной нагрузке на студентов или преподавателей. Пословицы и поговорки стали органичной частью программы, значительно улучшив процесс освоения языка.

Заключение. Практическая значимость исследования заключается в подтверждении целесообразности использования национально-культурного компонента в обучении русскому языку узбекоязычными студентами. На основе полученных данных, можно рекомендовать более широкое внедрение данного подхода в образовательную практику. Перспективы дальнейшего исследования включают:

расширение спектра используемых национально-культурных компонентов;

разработку методических материалов по интеграции культурных аспектов в различные виды учебной деятельности;

создание учебных пособий с учетом национально-культурных особенностей узбекских студентов при обучении русскому языку.

Таким образом, исследование не только подтвердило эффективность использования культурных элементов в обучении, но и открыло новые возможности для улучшения методики преподавания русского языка с учетом национальных особенностей обучающихся.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Балыхина Т.М. Методика преподавания русского языка как неродного (нового): Учебное пособие для преподавателей и студентов. - М.: Издательство РУДН, 2019. - 185 с.
2. Пугачев И.А. Этноориентированная методика в поликультурном преподавании русского языка как иностранного: Монография. - М.: РУДН, 2020. - 284 с.
3. Костомаров В.Г., Верещагин Е.М. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. - М.: Русский язык, 2018. - 246 с.
4. Прохоров Ю.Е. Национальные социокультурные стереотипы речевого общения и их роль в обучении русскому языку иностранцев. - М.: Педагогика, 2021. - 224 с.
5. Юсупов У.К. Сопоставительная лингвистика как самостоятельная дисциплина // Методы сопоставительного изучения языков. - М.: Наука, 2019. - С. 10-17.
6. Шамсутдинова Р.Р. Национально-культурная специфика речевого поведения узбеков и русских // Вестник РУДН. Серия: Русский и иностранные языки и методика их преподавания. - 2020. - Т. 18. - № 2. - С. 209-219.
7. Никольцева Д. А., Шейерман М. В. Пословицы и поговорки как средство организации занятий по изучению иностранного языка в контексте развития социокультурной и языковой компетенций // Ученые записки ОГУ. Серия: Гуманитарные и социальные науки. 2022. №1 (94).
8. Московская Н.Л. Формирование профессиональной компетентности лингвистов-преподавателей в интегральнокоммуникативном образовательном пространстве / Н.Л. Московская. Ставрополь: Изд-во СГУ, 2003. С. 217–220.



Nilufar RASULOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, PhD

E-mail: n.rasulova8919@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor T.Holmanova taqrizi asosida

AKUSHER-GINEKOLOGIYAGA OID SO'ZLARDAGI OMONIMIK MUNOSABATLAR TAHLILI

Аннотация

Zamonaviy tilshunoslik ko'plab yangi tushunchalar va atamalarga tayanadiki, ularni tushunmasdan turib natijalarni o'zlashtirish va baholash deyarli mumkin emas. Garchi omonimiya hodisasi qadimdan mavzuga aylangan bo'lsa-da, hozirgi kunda ham tilshunslar diqqat markazida. Ushbu maqolada omonimiya – bir xil turdagi til birliklarining o'ziga xosligi, ma'no jihatdan farq qilishi “O'zbek tilining izohli lug'ati”dan ajratib olingan akusher-ginekologiyaga oid so'zlar bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: Omonimiya, leksik birlik, semantik tahlil, bog'lanmagan ma'no, sintaktik omonimiya.

АНАЛИЗ ОМОНИМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЛОВАХ, ОТНОСЯЩИХСЯ К АКУШЕРСТВУ И ГИНЕКОЛОГИИ, В «ТОЛКОВОМ СЛОВАРЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА»

Аннотация

Современная лингвистика опирается на такое количество новых понятий и терминов, что освоить и оценить результаты без их понимания практически невозможно. Хотя явление омонимии уже давно является предметом дискуссий, оно по-прежнему находится в центре внимания лингвистов. В данной статье рассматривается омонимия — своеобразие и семантическое различие языковых единиц одного типа — со словами, относящимися к акушерству и гинекологии, извлеченными из «Толкового словаря узбекского языка».

Ключевые слова: Омонимия, лексическая единица, семантический анализ, не связанное значение, синтаксическая омонимия.

“EXPLANATORY DICTIONARY OF THE UZBEK LANGUAGE” ANALYSIS OF HOMONYMIC RELATIONS IN WORDS RELATED TO OBSTETRICS AND GYNECOLOGY

Annotation

Modern linguistics relies on many new concepts and terms, without which it is almost impossible to master and evaluate the results. Although the phenomenon of homonymy has long been a topic, it is still in the focus of attention of linguists. In this article, homonymy — the uniqueness and semantic difference of linguistic units of the same type — is explained with the help of words related to obstetrics and gynecology extracted from the “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language”.

Key words: Homonymy, lexical unit, semantic analysis, unconnected meaning, syntactic homonymy.

Kirish. Ma'lumki, omonimiya hodisasi tilshunoslikda juda keng tadqiq etilgan bo'lib, u tilning barcha sathlarida kuzatiladigan ko'p qirrali lingvistik hodisadir. Til birliklari orasida affiksial, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik omonimiya ko'rinishlari atroflicha tahlilga tortilgan. Omonimiya o'zbek tiliga ham xos hodisa bo'lib, uzoq yillardan beri o'rganilib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” va Alisher Navoiyning “Muhokamatul lug'atayn” asarlarida bu hodisaning mavjudligi haqida ma'lumotlar uchraydi. O'zbek tilshunosligida omonimiya hodisasining leksik-semantik va uslubiy imkoniyatlarini, asosan, leksik birlik sifatidagi mavqeyini o'rganishga asosiy e'tibor qaratilgan. Biroq keyingi yillarda tilshunoslikda tub burilish, ya'ni inson omiliga e'tibor lingvistik hodisalarni til tashuvchisi bilan birgalikda ko'rib chiqishda antropotsentrik paradigma asosida yondashish zaruratini yuzaga keltirdi [1; 105-108-b.]. Tildagi omonimiya hodisasi va omonimlarni o'rganishda antropotsentrik yondashuvning qo'llanishi omonimiyaning nafaqat leksik birlik, lingvistik hodisa, balki tilning barcha bosqichlarida, ayniqsa, sintaktik jihatdan ham o'rganilishi mumkin bo'lgan ko'p qirrali hodisa ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Leksik tahlil semantik tahlilning muhim qismidir. Leksik semantika har qanday so'zning ma'nosini o'rganadi. Semantik tahlilda so'z birikmalari orasidagi munosabat aniqlanadi. Ba'zi munosabatlar giponimlar, sinonimlar, antonimlar, omonimlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Sinonimiya shakllari turlicha bo'lgan, lekin bir xil yoki o'xshash ma'noni ifodalovchi so'zlar o'rtasidagi munosabatni bildirsa, omonimiya bir necha tushunchaning bir xil shaklda ifodalanishini ifoda etadi.

Omonimiya talaffuz qilinishi yoki yozilishi bir xil, ammo turli va bog'lanmagan ma'nolarga ega so'zlar sifatida tavsiflanadi [2].

Tahlil va natijalar. “O'zbek tilining izohli lug'ati” hozirda qo'llanadigan 80 mingdan ortiq so'z va birikmani o'z ichiga oladi. Izohli lug'atda umumiste'mol so'zlari bilan bir qatorda terminlarning ham izohi berilgan. Bu esa lug'atning ilmiy tadqiqot manbasi sifatida qimmatini oshiradi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati” da akusher-ginekologiyaga oid terminlar ham aks etgan. Bu birliklar omonimlik va ko'p ma'nolilik munosabatini ifoda etadi. Lug'atda berilgan ayrim akusher-ginekologiya terminlari hozirgi o'zbek umumiste'mol leksikasida ham ko'p ma'noli so'z sifatida qo'llanadi. Bokira “dastlabki meva; iffatli qiz bola” ma'nolarini ifodalaydi. Turmushga chiqmagan qizning jismoniy holati, fiziologik tuzilishini ifodalaydi: “Er ko'rmagan, turmushga chiqmagan; iffatli” [3]. Bokira so'zidagi “ilk” semasi uning ko'chma ma'nolariga asos bo'lgan: “qo'l tegmagan, kishi oyog'i yetmagan”: M: Qudratli traktorlar cho'lining bokira bag'rini ilk daf'a yorib, ag'darib, havoni gumburlatar edilar. Oybek, “Oltin vodiyan shabadalar”; Ko'chma ma'nolarda ushbu leksemaning “pok”, “sof” semalari ham kuzatiladi: Men sizni yaproqlar rangiga uyqash, Bokira muhabbat bilan sevaman. X.Davron, “Tungi bog'lar” [3]. Doya leksemasi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: 1. To'lg'oqdagi ayollarni tug'diruvchi xotin; enaga, akusherka. 2. Go'daklarni tarbiyalovchi ayol. 3. ko'chma sabab, bois, asos; paydo, bunyod qiluvchi: Sevgi yo'q yerda loqaydlik bilan qarash ildiz otar ekan. Bu esa ko'ngilsizliklarning doyasi. S. Karomatov, “Hijron”. [3]. Doya termini “tug'diruvchi”, “dunyoga keltiruvchi”, “boquvchi”, “ilk ko'z ochish davriga sabab bo'luvchi” ma'nolarini anglatadi. Ko'ngilsizliklarning doyasi birikmasida “boshlanish”, “sabab” semalari aks etgan.

Xunasa 1. Ham erkak, ham ayollik jinsiy belgilari bo'lgan odam yoki hayvon. 2.Yaramas, ablah, razil. Leksema dastlabki ma'noda o'zbek tilida kam ishlatiladi. Uning ko'chma ma'nosi faol bo'lib, matnda emosional-ekspressivlikni ta'minlaydi [3].

Bachajish 1.Yangi tug'ilgan bola chaqaloq. 2. Qushning yangi tuxumdan chiqqan, hali pati chiqmagan bolasi. ko'chma salb. Yosh bola, go'dak; so'tak [3].

Ko'p ma'noli birlik hisoblangan ba'zi leksemalarning ma'nosida omonimlikka o'tish holati kuzatiladi.

Omonimlar har bir tilning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq struktur-semantik hodisa bo'lib, turli usullar orqali yuzaga keladi:

1. Tarixan boshqa-boshqa so'z bo'lgan, tovush sifati jihatidan farqlanadigan ayrim birliklarning bir xil yozilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Masalan, o't (o'simlik), o't (olov), o't (tana a'zosi), o't (harakat) omonimlari aslida qadimgi turkiy tilda unli tovushlarning talaffuzi, sifati, qisqa-cho'ziqligi bilan farqlangan. Hozirgi alifboda tovushlarni farqlab ko'rsatuvchi harf bo'lmagani bois omonimik shakl yuzaga kelgan.

2. Boshqa tildan kirgan so'z o'zbek tilidagi leksik birlik bilan omonimlikni hosil qiladi: tok (elektr toki)- tok (uzum novdasi), rang (bo'yoq)-rang (unvon).

3. Polisemantik so'z ma'nolari o'rtasida bog'lanishning uzilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi: diplomat (shaxs)-diplomat (jihoz). Bu jarayonni kindik akusher-ginekologiya termining ko'chma ma'nolari orqali kuzatish mumkin:

Kindik 1. Qorindagi bolani yo'ldosh (platsenta) orqali ona tanasi bilan birlashtiruvchi, bolani oziq moddalari bilan ta'minlash uchun xizmat qiluvchi ichak-nay. 2. Bola tug'ilgach, shu ichak-nayni kesib tashlash natijasida qorin o'rtasida hosil bo'lgan kichik chuqurcha; qorinning o'rta qismi. 3. ko'chma markaz, o'rta [3].

“Kindik qoni to'kilgan yer (yoki joy, tuproq), tug'ilgan yer, tug'ilgan, o'sgan joy”; “vatan” ma'nolari terminning denotativ ma'nosiga ishora qiladi.

Kindik leksemasining izohli lug'atda keltirilgan “dorboz yuradigan arqonning o'rtaroq joyidan ko'tarib turuvchi ikki yog'och uchlarning bir-biri bilan, shuningdek, arqon bilan tutashgan, kesishgan joyi” ma'nosi “o'rta”, “markaz” semasidan yuzaga kelgan: Uni [dorbozni] kindikdan kindikka, chig'iridan chig'irigacha yo'rg'alatib, salomat olib chiquvchi narsa uning qo'lidagi langari! Shukurullo, “Javohirlar sandig'i”. Leksemaning shu ma'nosida termin sifatida xoslik yuzaga kelgan, omonimiyaga o'tish holati kuzatiladi.

Izohli lug'atda ko'p ma'noli so'z sifatida izohlangan bir qator akusher-ginekologiya terminlari denotat va hosila mano o'rtasidagi semantik bog'lanishning yo'qolishi natijasida hozirgi kunda omonimga aylangan. Quyida ana shunday omonimlar haqida to'xtalamiz.

Ko'p ma'noli ayrim leksemalar semantikasidagi aloqadorlikning uzilishi natijasida sohalararo omonimlik yuzaga kelgan. Doktor 1. Kasalliklarni davolovchi oliy ma'lumotli tibbiyot xodimi; shifokor M: Doktor yozayotgan anketasidan bosh ko'tarib, jilmaydi. O'.Hoshimov. “Qalbingga quloq sol”. 2.Doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan fan nomzodlari yoki professorlarga beriladigan oliy ilmiy daraja va shu darajani olgan olim. M: Filologiya fanlari doktori [3]. Doktor leksemasi sohalararo omonim hisoblanadi.

Bo'g'oz 1.Qornida bolasi bor (hayvonlar haqida). 2. Homilador. M: Tug'ishiga to'rt oy qolgan bo'g'oz xotinlar ham ishga chiqmaydilar. Abdulla Qodiriy. “Obid ketmon”. 3. geogr. Ikki suv havzasini tutashtiruvchi tor suv yo'li M: Gibraltar bo'g'ozi [3].

Bo'g'oz terminini jonzoatlardagi ko'payish fiziologik holatiga nisbatan ishlatiladi. Bu so'zning ayollarga nisbatan qo'llanishi uslubiy jihatdan qo'pol sanaladi. SHEvalarda, so'zlashuv uslubida bo'g'oz terminining ayollarga nisbatan ko'p qo'llanishi mazkur leksemaning adabiy til doirasida, badiiy asarlarda ko'p qo'llanishiga sabab bo'lmoqda.

Geografiyadagi bo'g'oz terminining yuzaga kelishi metafora usuliga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda denotat bilan semantik aloqadorligini yo'qotgan. Shu bois ularni omonim sifatida baholash mumkin: bo'g'oz I “homilador”- akusher-ginekologiyaga oid tibbiy termin; bo'g'oz II gegografik termin.

Zaxm 1. Tig', nayza kabi o'tkir narsalardan badanga yetgan jarohat. 2. “Yuqumli, surunkali tanosil kasalligi; sifilis”:

Sil, zaxm (sifilis) va rak kasalliklari tovush pardasini zaharlab, tovushni o'zgartiradi. N.Ismoilov. “Kasallarni parvarish qilish” [3].

Eroziya 1. Tuproqning, tog' jinslarining oqar suvlar yoki shamol ta'sirida nurab oriqlashi. M: Sahrodagi quduqlar atrofida o'simliklar payhon qilinganligi sababli, u joylarda shamol eroziyasi juda kuchli bo'ladi. P. G'ulomov, “Zarafshon etaklarida”. Tuproqning eng semiz ustki qatlamining suv va shamol ta'sirida nurab oriqlashi. Bodom ildizi sertarmoq bo'lgani sababli, tuproq eroziyasiga qarshilik qiladi. Fan va turmush. 2. tex. Metall buyumlar sirtining gaz yoki suv oqimi, shuningdek, elektr zaryadi ta'sirida asta-sekin yemirilishi.

3. Teri shilliq pardasining yoki epiteliyning yallig'lanishi (shilinishi va yaralanishi). [3; 51-b.]. Eroziya termining shakllanishida “yemirilish”, “kamayish” ma'nosi asosiy o'rin tutadi. Akusher ginekologiya terminining yuzaga kelishida esa “shilinish” ma'nosi asosiydir.

Esh 1. Aylantirib, burab, tovlab pishiq qilmoq; pishitmoq, chiyranoq; yigirmoq. M: Qamish eshmoq. Belbog'ni eshib bog'lamoq. Arqon eshmoq. 2. Ko'chma. O'rniga qo'ymoq, o'rinlatmoq, qoyil qilmoq, qiymoq. 3. O'rtoq, hamdam, yo'ldosh, sherik. shv. Juft. shv. Bola tug'ilgandan keyin tushadigan qobiqning qoldig'i, yo'ldosh.

Esh o'zbek madaniyatida erkaklar ismining o'zak qismini tashkil etadi: Eshnazar, Eshqobil, Eshmirza, Eshtemir, Eshquvvat, Eshdavlat kabi. Bu o'zak gender xoslangan bo'lib, faqat erkaklar ismida uchraydi. Ism sifatida shakllanishida so'zning “do'st”, “yaqin”, “hamroh” ma'nolari asos bo'lgan.

Ip esholmaydi iborasidagi eshmoq fe'li tarkibida “birlashtirish”, “qo'shish” ma'nolari anglashiladi. Esh ikki turkum o'rtasidagi omonimlik hosil qiladi: Esh I “hamroh” (sifat) – esh II “yaqinlashtir”, “hamroh qil” (fe'l)[3]. Eshkak eshmoq fe'lida “birgalikda harakat qilmoq” ma'nosiga asos bo'lib xizmat qiladi. Saraton1.O'n ikki burjning biri, Javzo va Asad burjlari o'rtasida joylashgan.

M: Saraton o'rta kengliklarda kuz, qish va erta bahorda ko'rinadi. O'zME.

2.Shamsiya yil hisobida to'rtinchi oyning arabcha nomi (22 iyun – 21 iyul davriga to'g'ri keladi). M: Saraton kirdi. Birovning ishiga saratonda qo'l muzlaydi. Maqol.

3.daraxt, buta va o'simliklarning barg shirasini so'rib zarar keltiruvchi hasharot turi [3]. Saraton I –burj nomi, astronomik termin. Saraton II quyosh kalendaridagi oy nomi, astronomik termin. Saraton III – kasallik turi, rak, tibbiy termin.

Chilla 1. Yilning eng issiq yoki eng sovuq qirq kuni. M: Chilla kirdi. Chilla chiqdi. M: Hali barvaqt bo'lishiga qaramay, chilla emasmi, quyosh yonib bosh ko'tarmoqda edi. Sharq yulduzi

2.etn. Bola tuqqan yoki tug'ilgandan, qiz turmushga chiqqandan, yigit uylangandan, marhum ko'milgan kundan keying qirq kunlik davr: turmushdagi ba'zi hodisa-holatlarining eng og'ir, xatarli yoki mas'uliyatli davri.

M: Chaqaloqning chillasi chiqqach, yangi uyga ko'chib bordilar. Yoshlik.

3.Xalq tabobatida chilla davri qirq kun hisoblanib, shundan yigirma kuni kichik chilla, yigirma kuni katta chilla deyiladi O'zME.

4.so'fiy yoki muridning yakka o'zi alohida xona (hujra)da, odamlardan yashirib, 40 kun davomida toat-ibodat qilishi.

Yoz chillasi yoki yozgi chilla

25 iyundan 5 avgustgacha bo'lgan eng issiq qirq kun.

Avgust — yoz chillasi. Mening shahrimning o'tkir quyoshi yallig'i naq yondiryapti. H.Nazir, Maftuningman, “Ozarbayjon”

Chilla suvi Yoz chillasida ekinlarga beriladigan suv.

Qish chillasi yoki qishki chilla

25 dekabrden 5 fevralgacha bo'lgan eng sovuq qirq kun.

Chilla yara

Bolaga chilla davrida chiqadigan yara, toshma.

Shuhratning boshiga, bo'yniga chilla yara chiqib, olti oyga cho'zildi. Q.Kenja, “Tog' yo'lida bir oqshom”

Chillasi chiqmagan, Chilla o'tirmoq

1. Sufiylik tariqatida: qirq kun davomida uydin chiqmasdan yolg'izlikda toat-ibodat qilmoq.

M: Chillaga o'tirgan shunda qirq kun shayx, Daf qil, deya so'rab xudodan uni. T.To'la

Chilla o'tirish vaqti dindor tomonidan oldindan niyat qilingan bo'ladi. O'zME

2. ko'chma Uzoq vaqt uydan eshikka chiqmay, qimirlamay o'tirmoq.

Chilla(ga) o'tqazib ketmoq

Aldab, firib berib ketmoq.

M: Ipak-atlas karvoniga bosh bo'lgan savdogarlar kosiblarni chillaga o'tqazib ketardilar. N.Yusufiy, "Farg'ona sho'x kuladi" [3].

oy ko'rmoq 1. osmondagi oyni ko'rmoq

2. hayz ko'rmoq[3]. Qorin 1. Tananing qorin devori bilan qorin bo'shlig'idan iborat pastki, ovqat hazm qilish a'zolari, yana ba'zi boshqa a'zolar joylashgan qismi.

Toshxol bug'lanib turgan o'pka, jigar, buyrak, qorinlarni pichoq bilan non ustiga olib qo'ygach, barmoqlariga pufpuflab to'g'ray boshladi. S.Nurov, "Maysalarni ayozi urmaydi"

Xurjunning ikki ko'zini to'lg'azib, qorinda moy keltiradigan qishloqi murid Tillaboy kelib ketdi.

P.Tursun, "O'qituvchi"

2. s.t. Ich, bachadon.

Menam qo'zilarni onasining qornidan tushishi bilan ajratganim yo'q. S.Anorboyev, "Oqsoy"

Uyimizning to'ri seniki. Tor qornimga siqqan, keng uyimga sig'maysanmi? O'.Hoshimov, "Qalbingga quloq sol"

qorin so'zi qatnashgan jumlar:

Bir qorindan talashib tushgan

Bir onadan tug'ilgan.

Onasining qornida

1. Hali tug'ilgani yo'q.

U kelganda, sen chaqaloqmding yo onang qornidamiding Oybek, Tanlangan asarlar

2. ko'chma Mutlaqo yo'q, yer yuzida topilmaydi.

Mening ustimdan ariza yozadiganlar onasining qornida, afandim. P.Tursun, O'qituvchi

Onasining qornida yotganday: Juda tinch, betashvish.

Xotirjam bo'l, kiyikchang xuddi onasining qornida yotganday rohat qilyapti. H. Nazir, Yonar daryo

Xulosa va takliflar. Tilshunoslar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlanganidek kommunikant nutqini yaxshi tushunishga tildagi yuzaki strukturalar bo'lgan grammatika, so'z boyligi kabilarning o'zi yetarli bo'lmaydi, chunki nutqdagi har bir so'zning asl ma'nosi faqat kontekstda namoyon bo'ladi.

Omonimlar inson xotirasida kognitiv maydonning muayyan qismidan joy oladi. Kognitiv semantik maydonda omonimik qatorlararo munosabat, omonim uzvlararo munosabat farqlanadi. Omonimik qatorlar o'rtasidagi munosabat omonimlarning qo'llanish chastotasini belgilasa, omonim uzvlararo munosabat omonimik qatordagi dominantlikni belgilaydi [4]. Omonim so'zining qo'llanishi ham yondosh tushunchalar dominantligi bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. Gulyamova Sh. Jahon tilshunosligida omonimiya hodisasining o'rganilish tarixi va bosqichlari, So'z san'ati xalqaro jurnali. — T: №1 2020. -105-108 b
2. Sayidiraximova N. O'zbek tilida omonimiya tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik va sintaktik sath birligi sifatida. International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.786. P-6.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. — T: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2015.
4. Никатуева З.Ш. Полисемия и омонимия в даргинском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. — Махачкала, 2003. — 26 с.



Sanjar RASHIDOV,

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

E-mail: sanjarrashidov@mail.ru

DSc, professor T.Kuchkarov taqrizi asosida

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI REALIYALARNING TARJIMA USULLARI TADQIQI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi realiyalarni tarjima qilishdagi nazariy va amaliy masalalar, muammolar va yechimlar keng qamrovda tahlil qilinadi. Realialar – milliy, madaniy va tarixiy kontekstga xos tushunchalar bo'lib, ularning tarjimasini ko'p hollarda murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Maqolada realiyalarning predmetli va tilshunoslik tasniflari, tarjima jarayonida qo'llaniladigan strategiyalar (transliteratsiya, transkripsiya, ekvivalent topish, tavsifiy va izohli tarjima) va ularning qo'llanilishidagi kontekst, madaniy tafovutlar hamda zamonaviy yondashuvlar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, realiyalarni tarjima qilishda to'g'ri strategiyani tanlash va ularning semantik hamda madaniy xususiyatlarini saqlash muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Realia, tarjima nazariyasi, madaniy tafovut, ekvivalentlik, transliteratsiya, transkripsiya, tavsifiy tarjima, izohli tarjima, tarjima strategiyalari.

A STUDY OF TRANSLATION METHODS OF REALITIES IN UZBEK AND ENGLISH

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical issues, challenges, and solutions in translating realia between Uzbek and English. Realia are concepts specific to national, cultural, and historical contexts, and their translation often presents difficulties. The article examines the subject-based and linguistic classifications of realia, the translation strategies applied in the process (transliteration, transcription, equivalence, descriptive and explanatory translation), as well as the role of context, cultural differences, and modern approaches. The research findings indicate that choosing the right strategy and preserving the semantic and cultural characteristics of realia are crucial in translation.

Key words: Realia, translation theory, cultural differences, equivalence, transliteration, transcription, descriptive translation, explanatory translation, translation strategies.

ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТОДОВ ПЕРЕВОДА РЕАЛИЙ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье подробно рассматриваются проблемы перевода реалий между узбекским и английским языками. Реалии представляют собой культурно, исторически или национально специфические термины, перевод которых зачастую вызывает определенные трудности. Анализируются предметная и лингвистическая классификации реалий, а также основные стратегии их перевода: транслитерация, транскрипция, подбор эквивалентов, описательный и пояснительный перевод. Особое внимание уделяется значению контекста, необходимости учета культурных различий и современным подходам в переводе реалий. Результаты исследования подчеркивают важность выбора корректной переводческой стратегии, сохранения семантических и культурных особенностей и адаптации перевода под особенности целевой аудитории.

Ключевые слова: Реалия, теория перевода, культурные различия, эквивалентность, транслитерация, транскрипция, описательный перевод, пояснительный перевод, стратегии перевода.

Kirish. Tarjima nazariyasida realiyalarni tarjima qilish masalasi doimo dolzarb mavzu sifatida qaraladi. Har bir tilning o'ziga xos tarixiy va madaniy konteksti mavjud bo'lib, bu holat realiyalarni boshqa tillarga o'tkazishda alohida yondashuvni talab qiladi. O'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi madaniy, lingvistik va semantik farqlar realiyalar tarjimasini yanada murakkablashtiradi. Ushbu maqolada realiyalarning turli ilmiy tasniflari, ularni tarjima qilish usullari va bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar batafsil tahlil qilinadi. Maqsad – tarjima jarayonida kontekst va madaniy omillarni inobatga olish orqali yanada aniq va samarali tarjima yechimlarini aniqlashdir.

Zamonaviy globalizatsiya sharoitida tillaro muloqot va madaniy almashinuvning ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Bu jarayonda tarjimonlar nafaqat til bilimlariga, balki tarixiy an'ana va madaniy qadriyatlariga chuqur anglashga ham e'tibor qaratishlari zarur. Shu sababli, realiyalarni tarjima qilish jarayonida tilning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda maxsus metodologiyalar ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqola ilmiy nuqtai nazardan yondashib, realiyalar tarjimasida yuzaga keladigan turli murakkabliklarni, ularni bartaraf etish usullarini va samarali tarjima natijasini ta'minlash uchun zamonaviy yondashuvlarni tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari asosida taklif etilgan strategiyalar kelajakdagi ilmiy ishlar va amaliy tajribalar uchun mustahkam nazariy hamda metodologik asos yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda realiyalarni tarjima qilish masalalarini tahlil qilish uchun quyidagi metodlar qo'llanildi:

Taqqoslash metodi: O'zbek va ingliz tillaridagi realiyalar misollari orqali ularning semantik, madaniy va tarixiy jihatlarini solishtirildi. Ushbu metod yordamida tarjimada yuzaga keladigan ekvivalentlik muammolari aniqlanib, turli yondashuvlar taqqoslandi.

Leksik-semantik tahlil: Har bir tilning realiyalar to'plami chuqur o'rganilib, ularning tarjimasida qanday qiyinchiliklarga sabab bo'lishi tahlil qilindi. Realialar kontekstual ma'noda qanday o'zgarishi va ularning tarjima jarayonida qanday o'zgarishlarga uchrashi aniqlandi.

Korpus tahlil: Turli tarjima matnlari va adabiy asarlar asosida realiyalarning tarjima usullari va ularning qo'llanishi tahlil qilindi. Bunda tarjimonlarning turli usullardan qanday foydalanganligi, ayniqsa, transliteratsiya, izohlash, analogiya va ekvivalent topish kabi usullar qanday qo'llanilganligi o'rganildi.

Nazariy yondashuv: A. E. Suprun, A. A. Reformatskiy va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlariga tayanib, realiyalar tasnifi va tarjima strategiyalari nazariy jihatdan chuqur o'rganildi. Ushbu yondashuv asosida realiyalarning tarjima nazariyasidagi o'rni aniqlanib, ularning tarjima jarayonida yo'qolib ketish xavfi keng doirada baholandi. Tadqiqotchilar realiyalarni madaniy va tilga xos unsurlar asosida tahlil qilib, turli strategiyalarni qo'llash

orqali ularning mazmuni va kontekstini saqlab qolishning dolzarbligini ta'kidladilar. Bu yondashuv ilmiy muhokamalarni rivojlantirish va tarjima nazariyasining kelgusidagi yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, ushbu yondashuv til o'rganish va madaniy almashuvning istiqbollarini kengaytirishga, metodologik asoslarni mustahkamlashga va tarjima sohasidagi innovatsiyalarni juda samarali tarzda qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Nazariy asoslar va realiyalar tasnifi. Realialar tarjimasi nazariy jihatdan ikkita asosiy tasnif bo'yicha tahlil qilinadi:

Predmetli tasnif. Predmetli tasnif realialarni semantik guruhlariga ajratishga asoslangan. Masalan, o'zbek tilidagi "mahalla", "do'ppi", "sumalak", "cho'pon" kabi tushunchalar, ingliz tilidagi "pub", "Thanksgiving", "pound", "tea time" kabi tushunchalar shu turkumga kiradi. Bunday realialar tarjimasi madaniy kontekstga bog'liq bo'lgani sababli, tarjima jarayonida ularning asosiy mazmunini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Tarjimonlar ushbu realialarni tarjima qilishda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent topish qiyin bo'lgan holatlarda izohlash yoki transliteratsiya usulidan foydalanadilar.

Lingvistik tasnif. Realialar ularning kelib chiqish manbalari va tilga moslashish darajasiga qarab tasniflanadi. Masalan, ingliz tilidan o'zbek tiliga o'tgan "kompyuter", "internet", "bank" kabi so'zlar yoki o'zbek tilidan ingliz tiliga o'tgan "pila" (osh), "sumalak" tushunchalari ushbu tasnifga kiradi. Lingvistik tasnif tarjimada katta ahamiyatga ega, chunki har bir madaniyat o'ziga xos leksik birliklarga ega bo'lib, ularning tarjima jarayonida yo'qolib ketishi yoki noto'g'ri talqin qilinishi mumkin.

Ushbu tasniflar asosida realialar tarjimasining qiyinchiliklari hamda ularni hal qilish usullari aniqlandi. Tarjimada ekvivalent topish, izohlash, transliteratsiya va adaptatsiya kabi yondashuvlar qanday qo'llanilishi batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, tarjimada madaniy uyg'unlikni saqlab qolish va o'quvchiga begona madaniyat elementlarini tushunarli yetkazishning muhimligi ta'kidlanadi.

Realialarni tarjima qilishda muhim nazariy konseptlar sifatida dinamik ekvivalentlik va formal ekvivalentlik yondashuvlari ham o'rganiladi. Dinamik ekvivalentlik tilning semantik va madaniy o'ziga xosliklarini saqlashga qaratilgan bo'lsa, formal ekvivalentlik manbani aniqroq aks ettirishga intiladi. Shu bilan birga, transpozitsiya kabi jarayonlar ham tarjima jarayonida qo'llanilib, u realianing tilshunoslik jihatlarini o'zgartirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Tahlil jarayonida realialarni tarjima qilishning asosiy strategiyalari aniqlanib, ularning qo'llanilishidagi afzalliklar va kamchiliklar quyidagicha ko'rib chiqildi:

Transliteratsiya va transkripsiya:

Transliteratsiya – asl yozuv shaklini saqlab qolish maqsadida amalga oshiriladi. Masalan, "kurash" so'zi ingliz tiliga transliteratsiya qilingan holda qabul qilinishi mumkin.

Transkripsiya esa talaffuz asosida amalga oshiriladi, bu jarayonda tovushlar va intonatsiya inobatga olinadi. Bu usul asosan talaffuzga e'tibor qaratilgan holatlarda qo'llaniladi. Ushbu usullar ayniqsa o'ziga xos madaniy va tarixiy ahamiyatga ega so'zlar uchun samarali bo'lishi mumkin, chunki ularning asl ma'nosi va talaffuzi o'zgarmas qoladi.

Tavsifiy va izohli tarjima:

Tavsifiy tarjima so'zning semantik mazmunini to'liq ifodalashga intiladi. Masalan, "bobo" so'zi ingliz tilida "grandfather" yoki "respected elder" tarzida tavsiflanishi mumkin.

Izohli tarjima esa agar aniq ekvivalent mavjud bo'lmasa, tushunchani qo'shimcha izoh bilan ta'riflashni nazarda tutadi. "Mahalla" so'zini "a traditional Uzbek neighborhood community" deb izohlash misoli bunday yondashuvni aks ettiradi. Ushbu strategiyalar tarjima jarayonida realianing madaniy va semantik jihatlarini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Ekvivalent topish: Agar tarjima qilinayotgan tilning leksikati ichida mos tushuncha mavjud bo'lsa, u holda ekvivalent atamani tanlash lozim. Misol uchun, o'zbek tilidagi "bek" yoki "xon" so'zlari ingliz tilida "lord" yoki "duke" so'zlariga mos tushiriladi. Ammo ba'zi hollarda mos tushuncha topish

qiyinlashishi mumkin, chunki har bir til o'ziga xos madaniy va ijtimoiy tajribalarni aks ettiradi.

Soxta va ortiqcha realialar muammosi: Ba'zi hollarda, ma'lum so'zlar realiya sifatida qabul qilinsa-da, ularning tarjimada madaniy yukini yetarlicha aks ettira olmasligi mumkin. Masalan, "palov" yoki "sumalak" kabi milliy taomlar ingliz tiliga tarjima qilinganda ularning asl madaniy konteksti yo'qolib qolishi ehtimoli mavjud. Shu sababli, tarjimonlar bu holatda qo'shimcha izoh yoki tavsifiy tarjima yondashuviga murojaat qilishlari zarur.

Realialarni tarjima qilish jarayonida nazariy va amaliy jihatlar bir-birini to'ldiradi. Quyidagi nuqtalarda kengroq muhokama olib borish mumkin:

Kontekst va madaniy tafvutlar: Tarjima jarayonida kontekstni inobatga olish realianing semantik va madaniy xususiyatlarini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir realiya o'zining kelib chiqish madaniyati, tarixiy tajribasi va ijtimoiy ahamiyatiga ega ekanligi sababli, tarjima qilinayotganda ularni kontekstga mos ravishda qayta ishlash zarur. Misol uchun, o'zbek tilidagi "aka" va "uka" so'zlarining ingliz tilidagi umumiy "brother" tushunchasi madaniy o'ziga xoslikni yetarlicha aks ettirmaydi, shuning uchun qo'shimcha izoh yoki tavsifiy yondashuv talab etiladi.

Zamonaviy yondashuvlar: Hozirgi kunda tarjima nazariyasi doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Zamonaviy yondashuvlar realialarni tarjima qilishda ko'plab yangi strategiyalar va metodlarni qo'llashga imkon yaratadi. Masalan, kompyuterlashtirilgan korpus tahlili va sun'iy intellekt asosida avtomatik tarjima tizimlari yordamida realianing madaniy kontekstini aniqlash va ekvivalent topish osonlashmoqda. Biroq, bunday yondashuvlar inson tajribasi va madaniy bilimlarni to'liq o'rnini bosa olmaydi, shuning uchun ularni qo'llashda ehtiyotkorlik zarur.

Empirik tadqiqotlar va amaliy misollar: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, realialarni tarjima qilishda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy tajriba ham muhim. Tarjimonlar o'z faoliyatlarida turli xatoliklar va muvaffaqiyatli yechimlarni sinovdan o'tkazish orqali realianing ma'nosini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Masalan, madaniy marosimlar, urfodatlar yoki an'anaviy bayramlar kabi tushunchalarni tarjima qilayotganda, ularning tarixiy va ijtimoiy ahamiyatini to'liq aks ettirish uchun qo'shimcha izohlar berish zarurati yuzaga keladi.

Nazariy tadqiqotlarning amaliy tatbiqi: A. E. Suprun va A. A. Reformatskiy kabi olimlarning tadqiqotlari tarjima nazariyasining asosiy konseptlarini shakllantirishda katta rol o'ynagan. Ularning ishlariga tayanib, realialarni tarjima qilishda ekvivalentlik nazariyasi, dinamik ekvivalentlik va transpozitsiya kabi tushunchalar rivojlanib, zamonaviy tarjimonlar uchun foydali yo'nalishlar belgilangan. Bu nazariy yondashuvlar tarjima jarayonini nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa. Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillaridagi realialarni tarjima qilish jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini keng qamrovda tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni isbotladi: realialar tarjimasi murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, ularning semantik, madaniy va tarixiy xususiyatlarini chuqur o'rganish zarurati mavjud. Maqolada realialar predmetli va lingvistik tasniflar asosida tahlil qilinib, ularning o'ziga xosliklarini aniqlash orqali to'g'ri tarjima strategiyalarini tanlash muhimligi ta'kidlandi. Shu doirada transliteratsiya, transkripsiya, tavsifiy va izohli tarjima usullari yordamida tarjima matnning ma'nosi va madaniy yukini saqlashning samaradorligi ko'rsatildi.

Tarjima jarayonida kontekst va madaniy tafvutlarni, xususan o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi farqlarni hisobga olish, to'g'ri ma'lumot uzatish va xatoliklarni kamaytirish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, empirik tadqiqotlar tarjimonlarga realialarni chuqur anglash, ularning semantik mazmunini aniq aks ettirish va madaniy kontekstni yaxshiroq tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, asl manba va tarjima tilining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish tarjima jarayonida muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar tarjimada realialarni to'liq va aniq aks ettirish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Супрун, А. Е. (1957). О переводе реалий [О проблеме перевода реалий]. Вопросы языкознания, № 3, 75–83.
2. Реформатский, А. А. (1961). Введение в языкознание [Введение в языкознание]. Москва: Учпедгиз.
3. Сергей Влахов, Сидер Флорин. НЕПЕРЕВОДИМОЕ В ПЕРЕВОДЕ. «Международные отношения», 1980.
4. Usmonova Sh. Etnomadaniy stereotiplarning lingvomadaniy tahlili. Ilmiy maqolalar to'plami. VI. – Toshkent: “Akademnashr”, 2015, 120-122 betlar.



UDK:808.5

Hulkar SALIMOVA,
Osiyo Xalqaro universiteti tayanch doktoranti
E-mail: hulkarsalimova1@gmail.com

TAQU dotsenti X.Zakirova taqrizi asosida

«O'TGAN KUNLAR»DAN BUGUNGACHA - QODIRIY IJODINING BARHAYOTLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning ijodi, o'zbek romanchiligiga qo'shgan hissasi va uning adabiy merosi tahlil qilinadi. Adibning hayoti va ijodiy faoliyatiga oid muhim faktlar, shuningdek, uning «O'tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlarining badiiy-estetik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Qodiriy asarlarida ijtimoiy tengsizlik, milliy o'zlikni anglash, an'ana va zamonaviylik o'rtasidagi ziddiyatlar, muhabbat va fojiaiy qismatlar mahorat bilan tasvirlangan. Shuningdek, maqolada Qodiriyning milliy adabiyot rivojiga qo'shgan hissasi, jadidchilik g'oyalari va uning Sovet hokimiyati bilan ziddiyatlari ham yoritiladi. Asardan keltirilgan parchalar orqali qahramonlarning xulq-atvori va adibning realizm uslubiga sodiqligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, o'zbek romanchiligi, «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon», ijtimoiy tengsizlik, milliy ong, jadidchilik.

ОТ “МИНУВШИХ ДНЕЙ” ДО СЕГОДНЯШНЕГО ДНЯ - ЖИЗНЕСПОСОБНОСТЬ ТВОРЧЕСТВА КАДЫРИ

Аннотация

В данной статье анализируется творчество Абдуллы Кадыри, его вклад в развитие узбекского романа и литературное наследие. Рассматриваются важные факты из жизни и творческой деятельности писателя, а также художественно-эстетические особенности его романов «Прошлые дни» и «Скорпион из алтаря». В произведениях Кадыри мастерски раскрыты темы социальной несправедливости, национального самосознания, противостояния традиции и современности, любви и трагической судьбы героев. В статье также освещается вклад Кадыри в развитие национальной литературы, его связь с идеями джадидизма и конфликт с советской властью. Через анализ отрывков из произведений исследуются характеры персонажей и приверженность писателя реализму.

Ключевые слова: Абдулла Кадыри, узбекский роман, «Прошлые дни», «Скорпион из алтаря», социальное неравенство, национальное самосознание, джадидизм.

FROM “PAST DAYS” TO TODAY-THE PROSPERITY OF THE WORK OF KADIRI

Annotation

This article examines the works of Abdulla Qodiriy, his contribution to Uzbek novelistic tradition, and his literary heritage. It explores key aspects of his life and creative activity, as well as the artistic and aesthetic characteristics of his novels «Bygone Days» and «Scorpion from the Altar». Qodiriy masterfully depicts themes of social inequality, national identity, the conflict between tradition and modernity, love, and tragic fates of characters. The article also discusses Qodiriy's influence on national literature, his connection to the Jadid movement, and his conflicts with the Soviet regime. Through the analysis of excerpts from his works, the study explores character development and the writer's commitment to realism.

Key words: Abdulla Qodiriy, Uzbek novel, «Bygone Days», «Scorpion from the Altar», social inequality, national identity, Jadidism.

Kirish. O'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan ijodkorlar ko'p, ammo ularning orasida Abdulla Qodiriy alohida mavqega ega. U nafaqat yirik adib, dramaturg va publitsist, balki o'zbek romanchiligiga asos solgan ijodkor sifatida tarixga kirgan. XX asrning boshlarida shakllangan o'zbek adabiy jarayoni milliy uyg'onish ruhida kechgan bo'lsa, Qodiriy bu harakatning yetakchi vakillaridan biri sifatida maydonga chiqdi[1]. Uning «O'tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlari milliy adabiyotimizning durdonalari bo'lib, ular xalqimizning o'tgan hayoti, ijtimoiy va axloqiy muammolarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Abdulla Qodiriy ijodining o'ziga xos jihati shundaki, u tarixiy voqealarni tasvirlash orqali o'zbek xalqining o'tmishdagi hayot tarzi, madaniy an'analari va ijtimoiy ziddiyatlarini aks ettirgan. «O'tgan kunlar» romani orqali yozuvchi o'zbek adabiyotida yangi janr – tarixiy roman janriga asos soldi. Bu asar nafaqat sevgi-muhabbat, balki milliy o'zlikni anglash, jamiyatdagi o'zgarishlar va inson qismatining murakkabligini ochib beruvchi tarixiy hujjat sifatida ham qimmatlidir[2].

Abdulla Qodiriyning ijodi Sovet hokimiyatining mafkuraviy siyosatiga to'g'ri kelmaganligi sababli adib jiddiy ta'qibga uchragan. 1937-yilda «xalq dushmani» sifatida qamoqqa olinib, 1938-yilda otib tashlangan. Uning asarlari uzoq yillar davomida taqiqlangan bo'lsa-da, mustaqillik yillarida adibning ijodi qayta tiklandi va xalq e'tiboriga havola etildi.

Abdulla Qodiriy (Julqunboy) – mashhur yozuvchi, shoir, tarjimon, dramaturg bo'lib, XX asr o'zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri hamda o'zbek romanchiligiga asos solgan ijodkorlardan sanaladi[3]. U 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrining Eskijo'va mahallasida tug'ilgan. Uning otasi Qodirbobo (1820-1924) o'z davrida xon va beklar xizmatida sarbozlik qilgan va rus bosqini davrida Toshkent mudofaasi jarayonida faol ishtirok etgan.

Qodiriyning tarjimai holiga ko'ra, u kamtar oilada tug'ilib, yoshlik yillarida moddiy qiyinchiliklar tufayli mashaqqatli mehnatga jalb qilingan. Bolaligida eski maktabda tahsil olgan bo'lsa, keyinchalik rus-tuzem maktabida o'qib, savodini oshirgan. 1912-yilda savdogarlik bilan shug'ullanayotgan shaxsga prikazchik sifatida xizmatga kirib, tijorat sohasida ham tajriba orttirgan.

Qodiriy yorqin iste'dod sohibi bo'lib, u o'z asarlarida o'zbek xalqining turmush tarzi va ijtimoiy hayotini keng yoritgan. Uning adabiy merosi sahna asarlari, roman va hikoyalardan iborat bo'lib, ular orasida «O'tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlari alohida o'rin tutadi. Abdulla Qodiriy o'z ijodiy faoliyatini 1910-yillardan boshlagan bo'lib, dastlabki adabiy tajribalari «Xotinboz» (1915) va «Baxtsiz kuyov» (1915) hikoyalari bilan namoyon bo'lgan. Bu asarlar orqali u eski o'zbek turmush tarzi va uning ijtimoiy muammolarini hajviy ruhda tasvirlagan[4].

Adib 1915-1917 yillarda Abdul Qosim madrasasida tahsil olib, arab va fors tillarini chuqur o'rgangan. Sovet davrida esa

Bryusov nomidagi Moskva adabiyot kurslarida tahsil oldi va «Mushum» hajviy jurnalida faoliyat yuritdi. Ushbu davrda u hajviy hikoyalar va felyetonlar yozib, o'zbek publitsistik adabiyotining rivojlanishiga hissa qo'shdi.

Abdulla Qodiriyning roman va qissalari, xususan «O'tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» asarlari XIX asr o'zbek jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va axloqiy muhitini yoritadi. «O'tgan kunlar» romani katta shuhrat qozonib, ziyolilar tomonidan katta e'tibor bilan qarshilangan. Ushbu asarning qahramonlari – Otabek va Kumush obrazi o'zbek adabiyotidagi yangi uslub va voqelik tasvirini shakllantirgan. Asar milliy o'zlikni anglash, an'ana va zamonaviy qarashlar o'rtasidagi ziddiyatlarni yoritib berishga xizmat qilgan[5].

— «Otabek mehmonlarni tanchaga o'tkazib, fотиha so'ng Hasan Alidan so'radi: — Tuzukmisiz, ota? — Xudoga shukur, — dedi Hasanali, — boyagidan bir oz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan.»

Ushbu parcha Otabekning mehribon, hurmatga loyiq yigit sifatidagi fazilatlarini ochib beradi. Uning Hasanali bilan muomalasi, unga «ota» deya murojaat qilishi o'zbek oilasidagi hurmat va e'tiborni namoyon etadi. Bu asar davomida Otabekning ota-onasiga bo'lgan munosabati bilan ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Qodiriy o'z faoliyatining dastlabki yillarida jadidchilik g'oyalari mo'yillik bildirgan bo'lsa-da, keyinchalik sovet davri mafkurasi bilan qarama-qarshilikka tushdi. U milliy adabiyot rivojiga qo'shgan hissasi bilan nafaqat O'zbekistonda, balki butun Sharq va MDH mamlakatlarida e'tirof etilgan. Uning «O'tgan kunlar» romani 1928-yilda ozarbayjon tiliga, «Mehrobdan chayon» esa 1935-yilda tojik tiliga tarjima qilingan[6]. Shuningdek, Qodiriyning asarlari rus, qozoq, uyg'ur, nemis, tatar, arab, italyan va ingliz tillariga ham tarjima qilingan.

— «Kumush uyilib zo'rg'agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib bo'yin egdi. Hoji qo'li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayiga tegizib olgan o'z qo'lini o'pdi: — Bizning Marg'ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurgan ekanmiz-da!»[1].

Ushbu parcha Kumush obrazining go'zalligi va odob-axloq jihatidan yuksakligini namoyish etadi. Shuningdek, bu o'zbek oilaviy qadriyatlar va hurmat muhitining ifodasidir. Otabek va Kumush o'rtasidagi sevgi esa Qodiriy romanlarida markaziy o'rin tutib, milliy ruhiyatni aks ettiruvchi muhim syujet liniyasidir.

Adibning ijodiy faoliyati turli janrlarda o'z aksini topgan bo'lib, u o'zbek adabiyotida realizmning shakllanishiga beqiyos hissa qo'shgan. Uning asarlarida tarixiy voqealarning badiiy talqini chuqur yoritilgan bo'lib, bu jihat uni nafaqat badiiy, balki tarixiy nuqtayi nazardan ham muhim ijodkor sifatida namoyon qiladi. «O'tgan kunlar» romanida Otabek va Kumush obrazlari milliy va ijtimoiy an'analarning o'zaro uyg'unligi hamda qarama-qarshiliklari orqali yoritilgan bo'lsa, «Mehrobdan chayon» romanida jamiyatdagi ma'naviy inqiroz va ijtimoiy beqarorlik masalalari ko'tarilgan[2].

1937-yil 31-dekabrda «xalq dushmani» sifatida qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktabrda otib tashlangan. Adibning ijodi uzoq yillar davomida taqiq ostida bo'lib, uning kitoblari yo'q qilindi. 1957-yilda rasman oqlangan bo'lsa-da, uning fojiali qismati uzoq yillar sir saqlanib keldi. Mustaqillik yillarida esa Abdulla Qodiriyga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatilib, u Alisher Navoiy nomidagi davlat mukofoti va «Mustaqillik» ordeni bilan taqdirlandi[8].

Bugungi kunda Abdulla Qodiriy asarlari yoshlar ma'naviyatini boyitish, tarixni anglash va adabiy tafakkurni rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. U adabiyotimizda yuksak badiiy uslub yaratgan, tarixiy va real voqelikni uyg'unlashtirish orqali yangi yo'nalish bergan ulug' adibdir.

Natijalar va muhokama. Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotining tamal toshlarini qo'ygan ulug' adiblardan biri bo'lib, uning ijodi milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash va an'anaviy qadriyatlarini teran ifodalash kabi dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi. U yaratgan «O'tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlari o'zbek adabiyotida ilk yirik badiiy nasr namunasi sifatida alohida o'rin tutadi. Qodiriy realizm uslubiga sodiq qolgan holda, milliy tarixni tasvirlash orqali xalqning og'riqli nuqtalarini ochib berishga, turli ijtimoiy tabaqalar orasidagi ziddiyatlarni ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi.

Adibning asarlari faqatgina tarixiy voqealar majmui emas, balki chuqur psixologik tahlillarga asoslangan badiiy tasvirlar bo'lib, u o'z qahramonlari orqali insonning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini mahorat bilan ochib bergan. «O'tgan kunlar» romanida Otabek va Kumush o'rtasidagi sof muhabbat bilan zamon ziddiyatlari o'rtasidagi kurash, jamiyatning eski va yangi qadriyatlar to'qnashuvi o'z aksini topgan bo'lsa[1], «Mehrobdan chayon» romanida esa mustamlaka ostidagi jamiyatdagi axloqiy, siyosiy va iqtisodiy inqiroz ifodalangan. Bu asarlarda muallif faqatgina tarixni hikoya qilish bilangina cheklanmay, balki o'quvchini chuqur mushohada yuritishga undaydi[2].

Qodiriy ijodining o'zbek adabiyotidagi o'rni beqiyos bo'lib, uning asarlari milliy tafakkurning shakllanishida, yosh avlodning ma'naviy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, u yaratgan qahramonlar—Otabek, Yusufbek hoji, Kumush va Anvar obrazlari bugungi kunda ham insoniy fazilatlarining namunasi sifatida qadrlanadi[1].

Adibning murakkab hayoti, uning sovet davlati tomonidan tazyiqqa uchrashi va qatag'on qilinishi milliy adabiyotimiz tarixidagi eng fojiali sahifalardan biri bo'lib qolmoqda. U xalq dushmani sifatida ayblanib, qatl etilgan bo'lsa-da, uning nomi va asarlari mustaqillik yillarida qayta tiklandi va munosib e'tirof etildi. Bugungi kunda Qodiriy ijodi keng o'rganilmoqda, uning asarlari xorijiy tillarga tarjima qilinib, jahon adabiyotining bebaho namunalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Qodiriyning milliy ongini uyg'otish yo'lidagi jasorati, adabiyot orqali jamiyatga ta'sir o'tkazish salohiyati va insoniy qadriyatlarni ulug'lashga bo'lgan intilishi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Uning asarlari tarixiy xotirani saqlash, milliy an'analarni va zamonaviy taraqqiyot o'rtasidagi uyg'unlikni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, Qodiriyning merosi kelajak avlodlar uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, aksincha, badiiy-estetik jihatdan yuksak namunalar sifatida o'zbek adabiyotining yorqin sahifalarini tashkil etishda davom etadi.

Xulosa. Adibning «Agar jonim fido bo'lsa, birgina Vatanimga fido bo'lsin» degan so'zlari uning maqsad va intilishlarini yaqqol ifoda etadi. Qodiriy mustamlaka davri ijtimoiy-siyosiy sharoitida yashab ijod qilgan bo'lsa-da, u millat mustaqilligi, ozodlik va o'zligini anglash yo'lida jonini fido qildi. Uning qahramonlari bugungi o'zbek yoshlari uchun ham namuna bo'lib, milliy adabiyotimizning eng yorqin yodgorliklaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Qodiriy, Abdulla. O'tgan kunlar. Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. Qodiriy, Abdulla. Mehrobdan chayon. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019.
3. Karimov, M. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi. Toshkent: Sharq, 2008.
4. Ochilov, U. O'zbek romanchiligida tarixiylik va realizm masalalari. Buxoro, 2021.
5. Muradova, R. Jadid adabiyoti va milliy uyg'unish. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
6. Sultonov, Izzat. Qodiriy ijodining tahlili. Toshkent: Fan, 1991.
7. Jo'rayev, O. O'zbek adabiyotining taraqqiyot yo'li. Samarqand, 2018.
8. Normatova, Sh. Jahon adabiyoti. O'qituvchi, 2008. Ochilov, Sayfulloyevich, Baqoyeva, M.Q., va Ochilov, U.S. «Teodor Drayzer 'Amerika Fojiasi' romani - Naturalizm ijodiy metodining yorqin namunasi.» Xorijiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari, SamDChTI, 27-avgust 2020.

9. Ochilov, Ulug'bek. "Stiven Kingning 'Doktor Uyqu' Asarida Mistik Va Real Dunyo o'rtasidagi Chegaralar". Lingvospekt, vol. 1, no. 1, Jan. 2025, pp. 31-36, <https://lingvospekt.uz/index.php/Ingsp/article/view/309>.
10. Очилов УС. Абдулла Қодирий ва теодор драйзернинг асарларида натурализм тамойиллари. editorial board. 2022 May 17:650.
11. Sayfulloyevich, Ochilov. «Naturalistic Features In Abdulla Qodiriy's «Bygone Days»» International Journal of Progressive Sciences and Technologies [Online], 28.2 (2021): 333-337. Web. 24 Mar. 2023
12. Очилов, Улугбек Сайфуллоевич. «Абдулла Қодирийнинг "Обид кетмон" кассасида колхоз мавзуси ва унинг социалистик реализм адабий методига хослиги.» Gospodarka i Innowacje. 23 (2022): 155-157.
13. Ochilov, Ulugbek Sayfulloevich. «Naturalistic images in the novel "sister Carrie" by the American writer Theodore Dreiser.» Scientific reports of Bukhara State University 4.3 (2020): 179-183.
14. Ochilov, U. «Teodor Drayzerning „Baxti Qaro Kerri“ Asaridagi Takrorlar Tasnifi Va Ularning Matnda Bajargan Vazifasi». Центр научных публикаций (buxdu.Uz), т. 6, вып. 6, июль 2021 г.,
15. Ochilov, Ulugbek. «AQSH va o'zbek adabiyotshunosligida naturalizm adabiy o'qimiga munosabat.» ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 6.6 (2021).
16. Ochilov, Ulugbek. «Teodor Drayzerning» Daho» romanidagi Yujin Vitla-hirsu havasga yengilgan daho obrazi.» Центр научных публикаций (buxdu.uz) 8.8 (2021).



Zulfiya SIDIKNAZAROVA,
Associate professor Tashkent University of Applied Sciences
E-mail: sidiknazarovaz@mail.ru

Ilmiy raxbar prof.I.T.Rustamov taqrizi asosida

IJTIMOY REALIZM, IDEOLOGIK CHEKLOVLAR VA IJODIY ERKINLIK MASALALARI (SOVET DAVRI ADABIYOTI)

Аннотация

Sotsialistik realizm san'at va adabiyotga kommunistik qadriyatlarni targ'ib qilish vazifasini yuklab, yozuvchilarning mavzu va uslub tanlash erkinligini chekladi. Biroq, ba'zi ijodkorlar allegoriya va ramziy obrazlar orqali badiiy erkinlikni saqlashga harakat qildilar. Sotsialistik realizmning adabiy jarayondagi o'rni, yozuvchilarning mafkuraviy cheklovlarga qarshi usullari va sovet adabiyotining bugungi adabiy jarayonga ta'sirini tahlili jaryonida Sovet adabiyoti nafaqat mafkuraviy vosita, balki badiiy tajriba maydoni sifatida ham namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. Tadqiqot sovet adabiyotining cheklovlari va ijodiy strategiyalarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Sovet adabiyoti, sotsialistik realizm, mafkuraviy cheklovlar, ijodiy erkinlik, censura, allegoriya, ramziy obrazlar, adabiy jarayon, estetik usullar, adabiyot va ideologiya.

СОЦИАЛЬНЫЙ РЕАЛИЗМ, ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОГРАНИЧЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ ТВОРЧЕСКОЙ СВОБОДЫ (СОВЕТСКАЯ ЛИТЕРАТУРА)

Аннотация

Социалистический реализм поставил перед искусством и литературой задачу пропаганды коммунистических ценностей, ограничив свободу писателей в выборе темы и стиля. Однако некоторые художники пытались сохранить творческую свободу посредством аллегории и символических образов. Анализируя роль социалистического реализма в литературном процессе, методы борьбы писателей с идеологическими ограничениями, влияние советской литературы на современный литературный процесс, можно увидеть, что советская литература возникла не только как идеологический инструмент, но и как поле художественного эксперимента. Исследование призвано выявить ограничения и творческие стратегии советской литературы.

Ключевые слова: Советская литература, социалистический реализм, идеологические ограничения, свобода творчества, цензура, аллегория, символические образы, литературный процесс, эстетические методы, литература и идеология.

SOCIAL REALISM, IDEOLOGICAL RESTRICTIONS AND ISSUES OF CREATIVE FREEDOM (SOVIET LITERATURE)

Annotation

Socialist realism assigned the task of promoting communist values to art and literature, limiting the freedom of writers to choose their subject and style. However, some writers tried to preserve artistic freedom through allegory and symbolic images. In the process of analyzing the role of socialist realism in the literary process, the methods of writers to combat ideological restrictions, and the influence of Soviet literature on the current literary process, it can be seen that Soviet literature was manifested not only as an ideological tool, but also as a field of artistic experimentation. The study serves to reveal the limitations and creative strategies of Soviet literature.

Key words: Soviet literature, socialist realism, ideological restrictions, creative freedom, censorship, allegory, symbolic images, literary process, aesthetic methods, literature and ideology.

Kirish. Sovet davri adabiyoti XX asrning eng muhim badiiy-madaniy hodisalaridan biri bo'lib, u ijtimoiy va siyosiy omillar ta'sirida shakllangan murakkab jarayonni aks ettiradi. Ushbu davr adabiyoti sotsialistik realizm tamoyillari asosida rivojlangan bo'lib, u faqat badiiy yo'nalish emas, balki sovet mafkurasining muhim vositalaridan biri sifatida ham qaraldi. Sotsialistik realizm 1934-yilda rasmiy davlat doktrinasi sifatida belgilangan va adabiyot hamda san'atning barcha sohalariga qat'iy tatbiq etilgan. Unga ko'ra, yozuvchi jamiyatni kompartiya mafkurasini asosida tarbiyalovchi va sovet ideallarini targ'ib qiluvchi shaxs sifatida talqin etildi.

Adabiyotning davlat mafkurasini bilan chambarchas bog'liq ekanligi yozuvchilarning ijodiy erkinligini sezilarli darajada chekladi. Yozuvchilarga realistik sotsialistik ideallar nuqtayi nazaridan tasvirlash, qahramonlarni namunaviy kommunistik sifatida ko'rsatish va sotsialistik jamiyatning ijobiy qiyofasini yaratish vazifasi yuklatildi. Shu sababli, sovet adabiyoti rasmiy qoidalarga bo'ysungan holda rivojlangan, lekin ayni vaqtda ba'zi yozuvchilar ushbu cheklovlar doirasida ham o'zlarining ijodiy erkinligini saqlab qolish yo'llarini izladi.

Sovet davri adabiyotining asosiy xususiyatlari, jumladan, sotsialistik realizmning mohiyati, uning ijodiy jarayonga ta'siri, yozuvchilarga qo'yilgan mafkuraviy cheklovlar va ularning ijodiy erkinlikni saqlab qolish yo'lidagi strategiyalari o'rganildi, shu bilan birga, ushbu davr adabiyotining bugungi adabiy jarayonga ta'siri ham muhokama qilindi. Tadqiqning asosiy maqsadi – sovet

adabiyotining ijodiy va mafkuraviy chegaralarini aniqlash hamda ushbu cheklovlarning adabiy-estetik jarayonga qanday ta'sir qilganini ochib berishdir.

Tadqiqot natijalari sovet adabiyotining nafaqat mafkuraviy qurol bo'lib xizmat qilganini, balki ayrim yozuvchilar tomonidan badiiy tajriba va yashirin ifoda vositasi sifatida ham ishlatilganini ko'rsatadi. Shu bois ham, maqola sotsialistik realizm doirasida ijod qilgan yozuvchilarning strategiyalarini tahlil qilish hamda sovet adabiyotining madaniy meros sifatidagi o'rni baholashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Sovet davri adabiyotining shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha tadqiqotlar turli nazariy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ushbu adabiy jarayonni o'rganishda mahalliy va xorijiy adabiyotshunoslarning asarlari muhim ahamiyatga ega.

Sotsialistik realizm metodining mohiyatini ochib beruvchi tadqiqotlardan biri Maksim Gorkiy, Anatoliy Lunacharskiy va Faddey Zelinskiy [1] larning sotsrealizm asoslari haqida yozgan asarlaridir. Ushbu ishlar sotsialistik realizmni nafaqat estetik yo'nalish, balki mafkuraviy vosita sifatida ham talqin qiladi. Ularga ko'ra, sovet adabiyoti "yangi jamiyat" qurishning badiiy aksidir va san'atning asosiy vazifasi kommunistik mafkurani targ'ib qilishdan iboratdir.

Mahalliy adabiyotshunoslikda, xususan, O'zbekistonda sovet adabiyotining rivojlanishi bo'yicha Xurshid Do'stmuhammad, Ozod Sharafiddinov va G'afur

G'ulom[4.5.6]ning asarlarida muhim tahlillar berilgan. Ushbu tadqiqotchilar sotsialistik realizmning o'zbek adabiyotiga ta'siri, ideologik cheklovlar va ijodiy erkinlik o'rtasidagi ziddiyatlarni o'rganib, ayrim ijodkorlarning mafkuraviy bosimlar ostida qanday yo'l tutganlarini tahlil qilganlar.

G'arbiy adabiyotshunoslar, jumladan, Katerina Clark va Boris Groys sovet madaniyati va adabiyotining tuzilishi haqida o'ziga xos nazariyalar ilgari surgan. Clarkning *The Soviet Novel: History as Ritual* [7] kitobida sotsialistik realizm romanlarining umumiy sxemasi va narrativ tuzilishi tahlil qilinadi. Uning tadqiqotlarida sovet adabiyoti nafaqat badiiy hodisa, balki mafkuraviy ritual sifatida ham tushuntiriladi. Boris Groys esa *The Total Art of Stalinism* [8] asarida stalinizm davrida san'at va adabiyotning totalitar tuzum bilan bog'liqligini ochib beradi.

Sovet adabiyotining ijodiy erkinlik bilan bog'liq masalalarini tahlil qilgan mualliflar orasida Lev Anninskiy va Yevgeniy Dobrenko [9] kabi adabiyotshunoslar ham bor. Ularning tadqiqotlari sho'ro adabiyotining rasmiy va norasmiy oqimlari, cenzura tizimi va yozuvchilarning cheklovlar ostida qanday ishlashga majbur bo'lganlarini yoritadi.

Sezishimizcha, mavjud adabiy manbalar sovet davri adabiyotining murakkab va ko'p qirrali tabiatini ochib beradi. Bir tomondan, bu adabiyot mafkuraviy cheklovlar doirasida shakllangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchilar turli badiiy vositalar orqali ijodiy erkinlikni saqlashga intilgan. Tahlil davomida ushbu ziddiyatlar tadqiq qilinib, sovet adabiyotining estetik va ideologik jihatlarini chuqur qarab chiqildi.

Muhokama va natija. Sovet davri adabiyoti XX asrning eng muhim adabiy va mafkuraviy hodisalaridan biri bo'lib, u ijodiy jarayonning mafkuraviy nazorat bilan qanday chambarchas bog'liq bo'lganini yaqqol namoyon etadi. Ushbu davrda adabiyot faqat badiiy tajriba maydoni bo'lib qolmay, balki siyosiy va mafkuraviy kurash vositasiga ham aylangan. Sotsialistik realizm tamoyillari ijodkorlarga qat'iy talablar qo'ygan bo'lsa-da, ba'zi yozuvchilar ushbu cheklovlar doirasida ham badiiy mahoratini namoyon etish va ichki erkinlikni saqlash yo'llarini topishga muvaffaq bo'ldilar.

Sotsialistik realizm adabiyotning asosiy metodi sifatida yozuvchilardan sovet mafkurasiga sodiq bo'lishni, qahramonlar va syujetlarni kommunistik ideallarga mos holda yaratishni talab qildi. Shu o'rinda ushbu uslubning asosiy xususiyatlarini qarab chiqish maqsadga muvofiqdir: 1. Mavzular va qahramonlar tanlovining cheklanganligi – yozuvchilar, asosan, ishchilar sinfi, qishloq xo'jaligi jamoalari va partiya yetakchilarining hayotini tasvirlashga yo'naltirildi. Asarlarda sovet insonining namunaviy obrazi yaratildi, individuallik va shaxsiy kechinmalarga esa kamroq o'rin berildi. 2. Realistik idealizatsiya qilinishi – sovet adabiyotida hayotning murakkab va muammoli jihatlarini kamdankam hollarda ochiq tasvirlangan. Ijtimoiy muammolar ko'tarilganda ham, ularning yechimi har doim sotsialistik jamiyatning ustunligi va kommunistik mafkuraning to'g'riligini isbotlash orqali berilgan. 3. Cenzura va nazoratning kuchayishi – barcha asarlar chop etilishidan oldin qat'iy nazoratdan o'tkazilgan. Siyosiy jihatdan nomaqbul yoki partiya talablariga mos kelmagan asarlar yo taqiqlangan, yo muallifga jiddiy oqibatlar olib kelgan.

Qo'shimcha qilib aytganda, ayrim yozuvchilar rasmiy mafkuraviy talablarga mos kelgan holda ham badiiy ijodiy yutuqlarga erishishga intildilar. Ba'zi hollarda allegoriya, ramziy obrazlar va yashirin ma'no orqali ijodiy erkinlik unsurlari saqlab qolinishga harakat qilindi. Masalan, Chingiz Aytmatov[10]ning ayrim asarlarida sotsialistik realizm tamoyillariga sodiqlik bilan birga chuqur falsafiy va insoniy mavzular ham ilgari surilgan. Shu tarzda yozuvchilar mafkuraviy cheklovlarni badiiy yo'llar bilan aylanib o'tishga harakat qildilar.

Sovet adabiyoti har tomonlama murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, unda mafkuraviy cheklovlar bilan birga yozuvchilarning ijodiy izlanishlari ham muhim o'rin tutgan. Adabiyot nafaqat rasmiy mafkuraning targ'ibotchisi, balki ko'plab yozuvchilar uchun o'z davri haqiqatini ifodalashga harakat qilgan maydon ham bo'ldi. Shu sababli, sovet adabiyoti bir tomonlama baholanmasligi lozim – u nafaqat targ'ibot vositasi, balki o'z

ichida badiiy tajribalar, yashirin ma'nolar va estetik izlanishlarni ham mujassam etgan.

Sovet davri adabiyoti o'z zamonasi mafkuraviy talablariga mos holda rivojlangan bo'lsa-da, ijodkorlarning cheklovlar ichida ham badiiy tajriba o'tkazish imkoniyatlarini saqlab qolishga intilganini tasdiqlaydi. Rasmiy adabiyot mafkuraviy ramkalarga bo'ysungan holda rivojlangan bo'lsa ham, bu davrda ayrim yozuvchilar yashirin yo'llar bilan o'z mustaqil fikrini ifodalashga uringan.

Sovet davri adabiyotining bugungi adabiy jarayonga ta'siri sezilarli bo'lib, sotsialistik realizm an'analari hali ham ba'zi adabiy asarlarda namoyon bo'lib kelmoqda. Shu bois, ushbu adabiy merosni chuqur tahlil qilish, uning ijodiy va mafkuraviy xususiyatlarini baholash muhim ahamiyatga ega. Sovet adabiyoti nafaqat tarixiy fenomen sifatida, balki zamonaviy adabiy jarayonlarning shakllanishiga ta'sir qilgan badiiy-madaniy hodisa sifatida ham o'rganilishi lozim.

Xulosa va takliflar. Sovet davri adabiyoti XX asrning ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u mafkuraviy talablar va badiiy erkinlik o'rtasidagi murakkab ziddiyatlarni o'zida mujassam etgan. Sotsialistik realizm metodi adabiyotni yagona mafkuraviy yo'nalishga solib, ijodiy jarayonni qat'iy nazorat ostiga oldi. Ushbu uslubning asosiy maqsadi kompartiya g'oyalari va kommunistik qadriyatlarni targ'ib qilish bo'lsa-da, yozuvchilar ushbu cheklovlar ichida ham o'z badiiy ifoda usullarini topishga intilganlar. Shu sababli, sovet adabiyoti nafaqat mafkuraviy vosita, balki ijodiy tajribalar va badiiy izlanishlar maydoni sifatida ham ko'rib chiqilishi lozim.

Tadqiqot davomida shuni ko'rdikki, sovet davri adabiyotida uchta asosiy yo'nalish shakllangan: 1. Rasmiy sotsialistik realizm adabiyoti – hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlangan va mafkuraviy mezonlarga qat'iy amal qilgan asarlar. Bunday ijod namunalari realistik idealizatsiya, qahramonlarni namunaviy kommunist sifatida tasvirlash kabi xususiyatlarga ega bo'lgan. 2. Mafkuraviy chegaralar doirasida badiiy tajribalar – ayrim yozuvchilar sotsialistik realizm talablarini bajargan holda, yashirin ma'no, ramziy obrazlar va alegorik usullardan foydalangan. Bu yo'nalish ijodiy erkinlikni cheklovlar ichida saqlab qolishga uringan yozuvchilarga xos edi. 3. Norasmiy va dissident adabiyot – davlat tomonidan taqiqlangan yoki chet elda chop etilgan asarlar. Bu yo'nalishdagi yozuvchilar sovet mafkuraviy cheklovlariga ochiq qarshi chiqqan va ijodiy erkinlikni saqlashga harakat qilganlar.

Adabiyot va mafkura o'rtasidagi ziddiyatlar sovet yozuvchilari ijodida chuqur iz qoldirdi. Ba'zi ijodkorlar rasmiy talablarni qabul qilib, unga mos yozgan bo'lsa, boshqalar yashirin badiiy uslublar bilan erkin fikrini ifodalashga intildi. Natijada, sovet adabiyoti mafkuraviy talablarga qaramay, o'ziga xos badiiy-estetik xususiyatlarini saqlab qoldi.

Sovet davri adabiyotini yanada chuqurroq o'rganish va uning ta'sirini kengroq tahlil qilish uchun quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlarni rivojlantirish muhim deb hisoblaymiz:

Sovet davri adabiyotining o'zbek adabiyoti bilan bog'liqligini tahlil qilish – o'zbek yozuvchilari sotsialistik realizm ta'sirida qanday asarlar yaratganlari va mafkuraviy cheklovlarga qanday munosabat bildirganlarini tadqiq qilish.

Cenzura va yozuvchilar erkinligi – sovet davrida adabiyotga qo'yilgan cheklovlarning ijodiy jarayonga ta'sirini o'rganish, ayniqsa, asarlarga kiritilgan o'zgarishlar va taqiqlangan asarlarni tahlil qilish.

Yashirin ramzlar va alegorik usullarni tahlil qilish – yozuvchilarning mafkuraviy nazorat sharoitida erkin fikr ifodalash uchun qanday usullardan foydalanganligini chuqurroq o'rganish.

Sovet adabiyotining bugungi adabiy jarayonga ta'siri – sotsialistik realizm tamoyillarining mustaqillikdan keyingi adabiyotga qoldirgan izlarini tahlil qilish.

Ushbu masalalarni yanada chuqurroq o'rganish orqali biz nafaqat sovet davri adabiyotining murakkab tomonlarini yaxshiroq tushunamiz, balki hozirgi davr adabiyotining, shuningdek, o'zbek adabiyoti shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatganini ham chuqurroq anglashimiz mumkin.

1. Горький М. Советская литература. Доклад на Первом всесоюзном съезде советских писателей 17 августа 1934 года // Горький М. Полное собрание сочинений: в 30 т. М.: ГИХЛ, 1953. Т. 27. С. 298–333.
2. Анатолий Луначарский, «Социалистический реализм» (доклад на 2-м пленуме оргкомитета Союза писателей СССР), 12 февраля 1933
3. ЗЕЛИНСКИЙ Фаддей Францевич (польск. Tadeusz Zieliński) [2(14).9.1859, с. Скрипчинцы, Каневского у. Киевской губ. – 8.5.1944
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/eng-sara-asarlar/xurshid-do-stmuhammad-mahmud-sadiy-xx-asrning-eng-yaxshi-asarlari>
5. O.Sharafiddinov XX asrning 60- yillaridan XIX asrgacha boʻlgan oʻzbek adabiy jarayonidagi holatlarni «Talant – xalq mulki» 1979. <https://akademiklar.uz/sharafiddinov-ozod>
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/sovet-davri-matbuoti/g-afur-g-ulom-buyuk-ustoz-1966>
7. Katerina Clark The Soviet Novel: History as Ritual Indiana University Press, 2000 - Всего страниц: 320
8. https://monoskop.org/images/e/e5/Groys_Boris_The_Total_Art_of_Stalinism_Avant-Garde_Aesthetic_Dictatorship_and_Beyond.pdf
9. <https://tass.ru/info/7084637> <https://www.sheffield.ac.uk/slc/people/academic/evgeny-dobrenko>
10. <https://asarlar.uz/muallif/chingiz-aytmatov>



Zarnigor SIROJOVA,
Buxoro dlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: r-xurramov@mail.ru

TISU dotsent v.b., PhD D.Eshmuratova taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XOHISH-ISTAK MA'NOSINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Аннотация

Tilshunoslikda xohish-istak ma'nosi insonning ichki dunyosini, orzu-umidlarini, ehtiyojlarini va maqsadlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Xohish-istak ma'nosini ifodalovchi leksik birliklar har bir tilning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillarida xohish-istak ma'nosini ifodalovchi so'zlar va iboralar ham o'zining lingvistik, madaniy va ijtimoiy kontekstlariga ega. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida xohish-istak ma'nosini ifodalovchi leksik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari taqqoslanadi va tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sintaktik, usul, taqqoslash, tilshunoslik, kategoriya, ifodalash, o'xshashlik.

NATIONAL-CULTURAL FEATURES OF LEXICAL UNITS EXPRESSING THE MEANING OF WISH-DESIRE IN ENGLISH AND UZBEKISTAN

Annotation

In linguistics, the meaning of desire plays an important role in expressing a person's inner world, dreams, hopes, needs and goals. Lexical units expressing the meaning of desire reflect the national-cultural features of each language. Words and phrases expressing the meaning of desire in English and Uzbek also have their own linguistic, cultural and social contexts. This article compares and analyzes the national-cultural characteristics of lexical units expressing the meaning of desire in English and Uzbek.

Key words: Syntactic, method, comparison, linguistics, category, expression, similarity.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЗНАЧЕНИЕ ЖЕЛАНИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В лингвистике значение желания играет важную роль в выражении внутреннего мира человека, мечтаний, потребностей и целей. Лексические единицы, выражающие значение желания, отражают уникальные национально-культурные особенности каждого языка. Слова и фразы, выражающие значение желания на английском и узбекском языках, также имеют свой языковой, культурный и социальный контекст. В данной статье сравниваются и анализируются национально-культурные особенности лексических единиц, выражающих значение желания в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: Синтаксис, метод, сравнение, лингвистика, категория, выражение, аналогия.

Kirish. Barcha sohalarida bo'lgani kabi, ta'lim sohasidagi qilinayotgan islohatlar natijasi o'laroq, bugungi kunda har tomonlama mukammal, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash davlatimiz oldidagi eng muhim, ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasining prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida xorijiy tillarni o'qitish sohasida "bog'cha-maktab-oliy ta'lim tashkiloti-korxona" tamoyilidagi uzluksiz ta'lim zanjirini joriy etish maqsadida axolining barcha qatlamlariga mos bo'lgan tilni o'rganish bo'yicha uslubiyot va tavsiyalarni, darslik va o'quv materiallarini yaratish biz tilshunoslari oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, yurtboshimizning ushbu qarorlarida muvofiq, bugungi kunda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o'yin, ko'ngilochar ko'rsatuv, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontent yaratilishini tashkillash ham ushbu qarorda tasdiqlandi [10].

Adabiyotlar tahlili. Tilshunos olimlar til va madaniyatni o'zida mujassamlashtiruvchi lingvomadaniyatshunoslik sohasining lisoniy tadqiqi masalalari bilan XX asrning 90-yillaridan shug'ullana boshladilar hamda til, madaniyat, inson shaxsiyati orqali tadqiq etila boshlagan ushbu yo'nalishning muammolari ilmiy izlanishlarda aks eta boshladi. Til va madaniyat munosabatlari haqidagi muhim ma'lumotlar dastavval V.fon Gumboldt [1], keyinshalik E.Sepir [2], B.Uorf [3] kabi taniqli olimlarning ilmiy asoslangan asarlarida o'z ifodasini topgan va ushbu nazariya yuzasidan izlanishlarning rivojlanishiga

turtki bo'lgan. Hozirda lingvomadaniyatshunoslik sohasining keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlari orasida rus tilshunoslari N.F.Alefrenko [4], A.Vejbitskaya [5], S.G.Vorkashev [6], V.V.Vorobyov [7], V.I.Karasik [8], O.A.Kornilov [9], kabi olimlarning xizmatlari beqiyosdir.

Binobarin, olamning lisoniy manzarasida leksik birliklarni o'rganishga qaratilgan bir qancha izlanishlar amalga oshirilgan va xulosalar taqdim etilgan bo'lsada, shog'ishtirish orqali ularning o'ziga xos semantik maydonlari, lingvomadaniy xususiyatlarining o'xshash va farqli jihatlari oshib berilmagan hamda ularning konseptual tasnifi ishlab shiqilmagan.

Tahlil va natija. Ingliz va o'zbek tillarida xohish-istak kategoriyasini ifodalashning sintaktik usullarini o'rganish jarayoni, tilshunoslik sohasida muhim ilmiy va amaliy natijalarni keltirib chiqardi. Tadqiqot davomida aniqlangan sintaktik farqlar, madaniy kontekst va psixologik jihatlar, hamda o'qitish metodologiyalari, o'quvchilarning xohish-istakni ifodalash ko'nikmalariga ta'sirini ko'rsatadi. Bu jarayon, til o'rganishdagi qiyinchiliklarni tushunishga va ularni bartaraf etish uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Sintaktik usullarni taqqoslash jarayonida, ingliz tilida xohish-istak ko'pincha modal fe'llar va ifodalarning keng spektri orqali ifodalanishi, o'zbek tilida esa ko'proq oddiy so'zlar va frazalar yordamida amalga oshirilishi aniqlangan. Bu farqlar, til o'rganuvchilarning ikki tilni o'rganish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Misol uchun, ingliz tilidagi "I would like" ifodasi o'zbek tilida aniq bir shaklda "men xohlayman" deb tarjima qilinmaydi, chunki bu ifoda ichki ehtiyoj va ijtimoiy kontekstga qarab turlicha ifodalanishi mumkin. Til

o'rganuvchilarga bu sintaktik farqni anglash va amaliyotda qo'llashda yordam beradigan o'qitish metodlari zarur.

Tadqiqot davomida aniqlangan madaniy kontekst va psixologik omillar, xohish-istak kategoriyasini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. O'zbek madaniyatida xohish-istak ifodalari ko'proq odob-axloq qoidalariga mos ravishda shakllanadi, bu esa xohish va istakni ifodalashda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Ingliz tilida esa, xohish-istak ko'proq ochiq va bevosita ifodalashga yo'naltirilgan. Bu madaniy farq, til o'rganuvchilarning o'zaro aloqalarida qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shuning uchun, madaniyatshunoslik yondashuvini qo'llash, o'quvchilarga madaniyatlararo aloqalarni hisobga olib, xohish-istakni ifodalashni o'rganishga imkon berishi kutilmoqda.

An'anaviy o'qitish usullari xohish-istak kategoriyasini o'rganishda yetarli samaradorlikni ta'minlamasligi aniqlangan. O'quvchilarning xohish-istakni ifodalashda qiyinchiliklar bilan duch kelishi, o'qitish jarayonlariga yangi yondashuvlarni kiritishni talab qiladi. Interfaol o'qitish metodlarini qo'llash, o'quvchilarning xohish-istakni amaliyotda ifodalashga tayyorlashda samarali bo'lishi mumkin. Interaktiv mashg'ulotlar, rolli o'yinlar va guruhli muhokamalar orqali xohish-istakni o'rganish, til o'rganuvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ingliz tilida xohish va istak "wish", "want", "desire", "hope", "crave" va "yearn" kabi leksik birliklar orqali ifodalanadi. Har bir so'z madaniy va tarixiy kontekstlar ta'sirida shakllangan o'ziga xos ma'nolarga ega. "Wish" ko'pincha imkonsiz yoki xayoliy narsaga intilishni anglatadi, masalan, "I wish I were a bird" ("Men qush bo'lsam edi"), bu anglosakson an'analaridagi tasavvur va shaxsiy erkinlikka moyillikni ko'rsatadi. "Want" to'g'ridan-to'g'ri va amaliy, masalan, "I want water" ("Men suv xohlayman"), ingliz tilida aniqlik va oddiylikka qaratilgan muloqot uslubini aks ettiradi. "Desire" lotincha ildizlardan kelib, murakkab yoki chuqur hissiy ma'no keltiradi, masalan, "a desire for freedom" ("erkinlikka intilish"). "Hope" sabrli optimizmni ifodalaydi, "I hope you succeed" ("Umid qilamanki, muvaffaqiyatga erishasan"), G'arb madaniyatidagi imon va sabr-toqatga urg'u beradi. "Crave" va "yearn" jismoniy yoki nostalgik intilishni ta'kidlaydi, masalan, "I crave sweety" ("Men shirinlikka chanoqman") yoki "I yearn for home" ("Men uyimni sog'indim").

Etimologik jihatdan, bu so'zlar madaniy rivojlanishni ko'rsatadi. "Wish" qadimgi inglizcha "wiscan" ("xohlash")dan, "want" "wan" ("yetishmaslik")dan kelib chiqqan bo'lib, amaliy talabga o'tgan. "Desire" lotincha "desiderare" ("yo'q narsani xohlash")dan, ehtimol "sidus" ("yulduz") bilan bog'liq bo'lib, poetik intilishni aks ettiradi. "Hope" "hopian" ("ishonmoq")dan, "crave" "crafiar" ("talab qilmoq")dan, "yearn" "gearnian" ("sog'inmoq")dan olingan. Madaniy jihatdan, ingliz tilidagi ifodalar individualizm va o'ziga xoslikni ta'kidlaydi. "Make a wish" yoki "wish upon a star" kabi iboralar taqdirni shaxsiy nazorat qilishga ishonchni ko'rsatadi. "I wish I could" kabi modallar bilan spekulativ ohang analitik va ijodiy fikrlashni aks ettiradi. "Hope against hope" yoki "burning desire" kabi iboralar chidamlilik va shuhratparastlikni ko'rsatadi, bu ingliz-amerika qadriyatlariga xosdir.

Pragmatik jihatdan, ingliz so'zlari kontekstga moslashadi. "Want" norasmiy nutqda qisqaligi uchun ustun, "desire" rasmiy nutqda ohangni ko'taradi, "hope" muloyimlikni qo'shadi ("I hope you're well"). Bu moslashuvchanlik ingliz tilining global til sifatidagi rolini ko'rsatadi.

O'zbek tilida xohish va istak "xohlamok", "orzu qilmoq", "tilamoq", "istamoq", va "umid qilmoq" orqali ifodalanadi. "Xohlamok" ko'p qirrali, "Men kitob xohlayman" ("Men kitob xohlayman") kabi amaliy niyatni bildiradi. "Orzu qilmoq" chuqur intilishni anglatadi, "Men sog'likni orzu qilaman" ("Men sog'likni orzu qilaman"), barqarorlikka hurmatni ko'rsatadi. "Tilamoq" barakalarda ishlatiladi, "Senga muvaffaqiyat tilayman" ("Senga muvaffaqiyat tilayman"), altruizmni ta'kidlaydi. "Umid qilmoq" jamoaviy ma'no beradi, "Biz kelajakni umid qilamiz" ("We hope for the future").

O'zbek so'zlarining ildizlari turkiy va forscha ta'sirlarni ko'rsatadi. "Xohlamok" turkiy "niyat qilmoq"dan, "orzu" forscha

"arzu"dan olingan. "Tilamoq" "til" ("til") bilan bog'liq, tilaklarni og'zaki yaxshilik sifatida ko'radi. Madaniy jihatdan, o'zbek ifodalari hamjihatlik va o'zaro bog'liqlikni ta'kidlaydi. To'y yoki bayramlarda "tilaklar qabul bo'lsin" kabi iboralar ilohiy irodaga bog'lanadi, islomiy an'analardan kelib chiqadi. Ingliz tilidagi shaxsiy spekulatsiyadan farqli o'laroq, o'zbek tilida shaxsiy xohish jamoaviy farovonlik bilan uyg'unlashadi.

Taqqoslashda ingliz tili mavhumlik va shaxsiy hokimiyatga, o'zbek tili amaliylik va ijtimoiy aloqalarga e'tibor beradi. "Hope" kelajakka yo'naltirilgan bo'lsa, "umid qilmoq" umumiy intilishni anglatadi. "Desire" shuhratparastlikni, "istamoq" esa burch bilan bog'liqlikni ko'rsatadi. Bu farqlar tilning madaniy ustunliklarini – ingliz tilida individualizm, o'zbek tilida jamoatchilikni – kodlashini ta'kidlaydi.

Ingliz va o'zbek tillarida xohish-istak ma'nosini ifodalovchi leksik birliklar o'zining milliy-madaniy xususiyatlariga ega. Ingliz tilida bu so'zlar individualistik madaniyatning ta'sirini aks ettiradi va aniq, zamonaviy xohishlarni ifodalaydi. O'zbek tilida esa xohish-istak ma'nosini ifodalovchi so'zlar jamoaviy madaniyat, orzu va umidga asoslangan. Bu farqlar tilning madaniy kontekstiga bog'liq bo'lib, ikkala tilning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi. Tilshunoslikda bu jihatlarni o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni tushinishda muhim rol o'ynaydi.

Darhaqiqat, tilshunoslikda xohish-istak ma'nosi insonning ichki dunyosini, orzu-umidlarini, ehtiyojlarini va maqsadlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ingliz va o'zbek tillarida xohish-istak ma'nosini ifodalovchi leksik birliklar har bir tilning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Bu mavzu bo'yicha o'tkazilgan ilmiy ishlar va adabiyotlar tahlili orqali ikkala tilning xohish-istak ma'nosini ifodalashdagi o'ziga xos xususiyatlari va madaniy kontekstlari aniqlanishi mumkin.

Ingliz va o'zbek tillarida xohish-istak kategoriyasini ifodalashning sintaktik usullarini o'rganish jarayoni, tilshunoslik sohasida muhim ilmiy va amaliy natijalarni keltirib chiqardi. Tadqiqot davomida aniqlangan sintaktik farqlar, madaniy kontekst va psixologik jihatlar, hamda o'qitish metodologiyalari, o'quvchilarning xohish-istakni ifodalash ko'nikmalariga ta'sirini ko'rsatadi. Bu jarayon, til o'rganishdagi qiyinchiliklarni tushinishga va ularni bartaraf etish uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Sintaktik usullarni taqqoslash jarayonida, ingliz tilida xohish-istak ko'pincha modal fe'llar va ifodalarning keng spektri orqali ifodalanishi, o'zbek tilida esa ko'proq oddiy so'zlar va frazalar yordamida amalga oshirilishi aniqlangan. Bu farqlar, til o'rganuvchilarning ikki tilni o'rganish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Misol uchun, ingliz tilidagi "I would like" ifodasi o'zbek tilida aniq bir shaklda "men xohlayman" deb tarjima qilinmaydi, chunki bu ifoda ichki ehtiyoj va ijtimoiy kontekstga qarab turlicha ifodalanishi mumkin. Til o'rganuvchilarga bu sintaktik farqni anglash va amaliyotda qo'llashda yordam beradigan o'qitish metodlari zarur.

Tadqiqot davomida aniqlangan madaniy kontekst va psixologik omillar, xohish-istak kategoriyasini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. O'zbek madaniyatida xohish-istak ifodalari ko'proq odob-axloq qoidalariga mos ravishda shakllanadi, bu esa xohish va istakni ifodalashda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Ingliz tilida esa, xohish-istak ko'proq ochiq va bevosita ifodalashga yo'naltirilgan.

Bu madaniy farq, til o'rganuvchilarning o'zaro aloqalarida qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shuning uchun, madaniyatshunoslik yondashuvini qo'llash, o'quvchilarga madaniyatlararo aloqalarni hisobga olib, xohish-istakni ifodalashni o'rganishga imkon berishi kutilmoqda.

Xulosa. Shunday qilib, tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida xohish-istak kategoriyasini ifodalashning sintaktik usullarini o'rganishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Olingan natijalar, til o'qitish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi va madaniyatlararo aloqalarni kuchaytiradi. Bu tadqiqotlar, tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yangi bilimlar va yondashuvlar keltirib chiqarishi kutilmoqda, natijada til o'rganish jarayoni zamonaviy talablarga javob beradigan darajada rivojlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Гумбольдт В.Ф. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 80.
2. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1993. – С. 112.
3. Уорф Б.Л. Отношение норм поведения и мышления к языку// Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1960. Вып. № 1. – С. 174.
4. Алефиренко Н.Ф. Протовербальное порождение культурных концептов и их фразеологическая репрезентация// Филол. науки, 2002. – № 5. – С. 72-81.
5. Вежицкая А. Язык, культура и познание. – М.: Русские словари, 1996. – 416 с.
6. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании// Филологические науки, 2001. – № 1. – С. 6472.
7. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М., 1997. – С. 32.
8. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. 2-е изд. – М.: Гнозис, 2004. – 390 с.
9. Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. – М.: ЧеРо, 2003. – 349 с.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori.



UDK:811.521

Mohinur SOATOVA,
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti tayanch doktoranti
E-mail: mohinur97soatova@gmail.com

Dotsent, f.f.n B.Xoliqov taqrizi asosida

THE PROBLEM OF TRANSLATING HUMOROUS TEXTS

Annotation

Our article provides theoretical information and solutions to the problems encountered in the process of translating humorous texts, meaning that several important aspects must be taken into account in order to achieve an adequate translation. Although linguistics has already begun the study of wordplay, which is the basis for creating jokes and humor, the translator should think about how to reflect them in the target text, taking into account various features of the source language, for example, the dialects and vernaculars existing in the language, existing styles. Particular attention should be paid to these elements, especially if they are used to create a sense of laughter.

Key words: Expression of the feeling of laughter, literary text, translation problems, intercultural differences.

ПРОБЛЕМА ПЕРЕВОДА ЮМОРИСТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ

Аннотация

В нашей статье мы дали теоретическую информацию и решения проблем, возникающих в процессе перевода юмористических текстов, то есть для достижения адекватного перевода необходимо учитывать несколько важных аспектов. Хотя лингвистика уже давно начала изучать игры слов, которые являются основой для создания шуток и юмора, переводчик должен подумать о том, как отразить их в целевом тексте, учитывая различные особенности исходного языка, например, существующие в языке диалекты и говоры, существующие стили. Особое внимание следует уделить этим элементам, особенно если они используются для создания чувства смеха.

Ключевые слова: Выражение чувства смеха, художественный текст, проблемы перевода, межкультурные различия.

HAJVIY MATNLARNI TARJIMA QILISH MUAMMOSI

Annotatsiya

Maqolamizda hajviy matnlarni tarjima qilish jarayonida duch keladigan muammolar yuzasidan nazariy ma'lumotlar va ularga yechimlar berib o'tildi, ya'ni adekvat tarjimaga erishish uchun bir qancha muhim jihatlarni hisobga olish lozim. Garchi tilshunoslik hazil va hazil yaratishda asos bo'lgan so'z o'yinlarini o'rganishni ilgari boshlab yuborgan bo'lsada, tarjimon manba tilidagi turli xususiyatlarni, masalan, tilda mavjud lahja va shevalarni, mavjud uslublarni hisobga olgan holda, ularni maqsadli matnda qay tarzda aks ettirishni o'ylashi lozim. Ayniqsa bu elementlar kulgi hissini yaratish uchun ishlatilgan bo'lsa, ularga alohida e'tibor berishi lozim.

Kalit so'zlar: Kulgi hissini ifodalash, badiiy matn, madaniyatlararo tafovutlar, tarjima muammolari.

Kirish. Bizga ma'lumki, tarjima muammolariga turli xalqlar madaniyatlari o'rtasidagi farqlar, til tizimlari o'rtasida bir-biriga mos kelmaydigan qonuniyatlar va qoidalar kabi muammolar tarjima sohasida bir mavzuga joylashib keladi. Tarjimashunos olim G'aybullah as-Salomning fikriga ko'ra, bugungi kunda aksariyat tarjimalarning asosiy muammosi bu "badiiy tarjimaning badiiy ijod sohasi ekanligini unutib qo'yish, badiiy asarga xos jamiyki xislat va fazilatlar tarjima asariga ham daxldor ekanligini yetarlicha tushunmaslikdan yo'l qoyilayotgan nuqsonlarda o'z ifodasini topmoqda" deya aytib o'tgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy asarlar tarkibida hajviy matnlarning kelishi tarjimonlarga yana bir masuliyat yuklaydi desak mubolag'a bo'lmaydi, ya'ni tarjimon asar tarkibida hazil mavjudligini tog'ri anglab yetishi, shu jumladan uni tog'ri talqin eta olishi, hajviy matnning asar tarkibida kelish sabablarini tog'ri anglab yetishi hamda ushbu hajviy matnni tarjimaga tog'ri bera olishi kabi bosqichlardan o'tadi. Bunda tarjimoniga ko'p yillik tajribasi, to'plagan bilimlari va ijodkorlik mahorati asqotadi. Hajviy matnlarni tarjima qilish va madaniyatlararo tafovutlar bo'yicha qilingan ishlardan xorijdan Patrik Zabalbeasko va Jan Pedersen asarlarini keltirishimiz mumkin. Unga ko'ra tarjimonlar hazilning yetti xil turini sanab, ular bo'yicha bir qator nazariy va amaliy ma'lumotlar berib o'tganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Hazilning birinchi turi bu – umumiy hazil: madaniyatga va tilga bog'liq bo'lmagan va har qanday joyda ham bir xilda oson qabul qilinadigan hazil turi. Bunday hazillar tarjima qilinganda o'zining mazmunini va

kulgililigini deyarli yo'qotmaydi. Shuning uchun ham bunday hazillar o'zining kulgi ta'siriga ega hazillar hisoblanadi.

Masalan, Ikkiti keks pechkada o'tiribdi. Ulardan biri ikkinchisiga qarab, "Voy! Bu yer juda issiq! debdi. Ikkinchisi esa "Aaa! Gapiradigan keksni birinchi marta ko'rishim" deb javob beribdi. Bunday hazil turlari hech qanday so'z o'yiniga yoki boshqa tilga xos elementlardan iborat bo'lmagan uchun ham hammaga bir xil ta'sir ko'rsatadi. Gapiruvchi buyumlar real hayotda mantiqsiz va g'ayrioddiy bo'lib ko'ringani uchun ham barchaga kulgili tuyiladi.

Hazilning ikkinchi turi bu – ma'lum madaniyatga xos hazillar: bunday hazillar ma'lum til va madaniyat vakillariga xos bo'lgan holda kulgili va tushunarli bo'ladi, biroq boshqa tillarga tarjima qilinsa, o'zining samaradorligini (kulgi uyg'otish imkoniyatini) yo'qotishi mumkin.

Masalan, "Vazirlar bu vaziyat bo'yicha aniq bir qarorga kelolmadilar" - degan fikrga ikkinchi bir odam "Oxirgi marta bunday qarorni qachon qabul qilganlarini men, tog'risi, eslay olmayman" deya javob beribdi. Ushbu misolda vazirlar (umuman olganda siyosatchilar) odatda ko'p hollarda original fikrga ega bo'lmashliklari haqidagi stereotipga asoslangan. Bu stereotip hamma xalq vakillarida bir xil fikr uyg'otmasligi mumkin.

Hazilning yana bir turi aniq bir xalq madaniyatiga xos bo'lgan turi bo'lib, bunday hazil turlari chet el auditoriyasi uchun tushunarli bo'lishi va kulgili ta'sirini saqlab qolishi uchun tarjima tiliga moslashtirilishi kerak.

Masalan, "Nima uchun britaniyaliklar hech qachon bekinmashoq o'yinini o'ynamaydilar?" - deb so'rashganda, chunki ularning choynagi ularni qayerda ekanliklarini doim bildirib

qo'yadi" deya javob beribdi. Bu hazil orqali britaniyaliklarning choyga bo'lgan o'zgacha sevgisini ifodalash maqsadida aytilgan. Bu variantni Amerika auditoriyasi uchun moslashtirilganda shunday bo'lardi: "Nima uchun amerikaliklar yashinmashoq o'yinini o'ynashmaydilar?" – deb so'raganda, chunki kimdir "Hot Pockets tayyor" deb baqirib yuborsa, yashirinib bo'larmidi – deya javob beribdi. Hot Pockets Amerikaning mashhur tez tayyor bo'ladigan taomi bo'lib, amerikaliklar bu taomni eng yoqimli va mazali oziq-ovqat hisoblashadi. Bu shuni anglatadi, kimdir bu taomni eshitganida yoki hidlaganida, u yashirinib o'rniga chiqib, taomga intiladi. Bunday hazillarni boshqa xalqlar tiliga moslashtirish uchun ushbu xalqlarning urf-odatlariga, kundalik turmush tarziga aylangan va barcha uchun osongina tushunarli bo'lgan odatlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hazilning to'rtinchi turi bu – til bilan bog'liq bo'lgan hazillar bo'lib, ba'zan tarjimai qiyin va imkonsiz bo'lgan "tabiiy til xususiyatlari" bilan belgilanadi va ko'pincha tarjima tilida yangidan yaratilishi va moslashtirilishi kerak bo'ladi. Masalan, u mening yuragimni va hamyonimni o'g'irladi (He stole my heart and wallet). Bu yerda "stole" (o'g'irladi) so'zi "heart" (yurak) va "wallet" (hamyon) so'zlariga turli ma'nolarda taalluqli: "heart" so'zi majoziy ma'noda (sevib qolish ma'nosi), "wallet" uchun esa bevosita (mulkni egallash ma'nosida) qo'llanilgan. Bu misol so'z o'yinining eng oddiy va tushunilishi oson turi bo'lib, ko'p hollarda bunday hazillarni tog'ridan-tog'ri tarjima qilib bo'lmaydi va tarjimon hazilni qayta yaratishga majbur bo'ladi (bunda hazil ta'sirini saqlab qolish muhim).

Hazilning ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitish orqali kulgi yaratish usuli ham bo'lib, Zabalbeasko bunday hazillarni sof vizual va vizual hazil ko'rinishidagi lingvistik hazillarga ajratadi. Birinchi turda, hazillar ekranda ko'rinayotgan narsalarga asoslanadi va tilidan qat'i nazar tushuniladi. Ular tilga oid so'z o'yinlari yoki madaniy havolalarga tayanmaganligi sababli tushunarli bo'ladi. Bunday hazillar so'zga emas, harakatga asoslanadi. Shuning uchun ham bunday hazillar vizual belgilar orqali kulgi uyg'otadi. Ikkinchi turida esa, tilga bog'liq vizual hazillar tilga asoslangan so'z o'yinlari yoki hazilning vizual tasviriga tayanadi va ularni tushunish tilga xos bo'ladi. Umuman olganda vizual hazillarda so'zlarni yoki fikrlarni ifodalash uchun rasmlardan foydalaniladi va ularning tarjimai juda qiyin va umuman imkonsizdek tuyiladi.

Hazilning so'ngi turi yuqorida tilga olingan bir nechta turlarni o'zida birlashtiradi. Bunday hazillar madaniy va lingvistik konteksti, shuningdek, asliyat tilidagi hazilning ta'sirini saqlab qolishi muhim. Masalan, "Nega Gamlet qaror qabul qilishga bunchalik uzoq vaqt o'ylanib qoldi?" degan savolga "Chunki uni bo'lish yoki bo'lmaslik masalasi qiyinayotgan edi" – degan yengil hazilomuz javob beradi. Hazil SHEKSPIRNI biladigan auditoriya uchun samarali ishlaydi. Hazilda madaniy va lingvistik shaklda yaratilgan hazil bo'lib, aynan hazilning aralash turiga misol bo'la oladi.

Zabalbeasko hazilni tarjima qilish yuzasidan asari orqali nafaqat hazil turlarini klassifikatsiyalash, balki ularga amaliy tavsiyalar berish uchun hazilni tarjima qilishning beshta mumkin bo'lgan yechimini tavsiya etadi. Ularga: 1. Hazil sifatini ham shakliy ham mazmun jihatdan o'zgarib ketmasligiga imkon beradigan imkoniyatlardan to'liq foydalanish; 2. Tarjimada hazil turi bilan bir xil bo'lgan usuldan foydalana olish (masalan, agar hazil so'z o'yiniga asoslangan bo'lsa, aynan shu turdagi so'z o'yinida hazilni berish); 3. Hazil tarjimasini boshqa bir muqobil variantiga o'tkazish, ya'ni hazil saqlanadi va kulgi hissi ham mavjud bo'ladi, ammo asliyat matni shakli tarjimada ko'zga tashlanmaydi. Maqsad auditoriya uchun kulgili bo'ladigan yangi versiya taqdim etishdan iborat; 4. Keyingi usul bu kompensatsiya usuli bo'lib, hazilni ifodalashning boshqa usulini tanlaydi,

masalan, taqqoslash yoki oddiy tushuntirish yo'li orqali. Shunday qilib tushunish osonlashadi ammo hazilning kulgi yaratish kuchi ma'lum darajada yo'qoladi. Bu usulni yozuvchi "o'g'rilik deb nomlaydi, chunki bunda hazil butunlay yo'qoladi va maqsad hazilni yetkazish emas, balki ma'lumotni taqdim etish bo'ladi".

Tahlil va natijalar. Zabalbeaskoning yuqorida keltirilgan hazillar klassifikatsiyasi hazilning o'ziga xos turini belgilaydi va hazilni tarjimada tahlil qilish uchun keng qamrovli yondashuvni taqdim etadi. Keltirilgan misollar har bir hazil turining amaliy qo'llanilishi va oqibatlarini ochib beradi hamda madaniyat va til o'rtasidagi dinamik bog'liqlikni ko'rsatadi. Ishimizda bunday klassifikatsiyalash hazillarni amaliy tahlil qilish jarayonida asos vazifasini o'taydi.

Hajviy matnlarni tarjima qilish muammosi bir madaniyatga xos bo'lgan odamlar, xalqning tarixi, turli xil voqealar va odatlar boshqa madaniyatlarda tushunarsiz bo'lganda yuzaga keladi. Bugungi kunda, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda odamlarning kulgili kontentlarni tomosha qilishga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Insonlar asosan umumiylikka ega va hamma uchun bir xilda tushuniladigan hazil turlariga e'tibor qaratishadi, chunki bunday hazillar dunyo bo'ylab tushunarli va osongina qabul qilinadi. Kontent qanchalik neytral bo'lsa, shunchalik ko'proq odamlar uni tomosha qiladi, aksincha madaniyatga xos bo'lgan materiallar faqat o'sha madaniyat vakillari tomonidagina qiziqib ko'riladi. Masalan, ba'zi odamlar so'ngi yillarda maqollarni boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilishganlarida, ularning asl ma'nosi yo'qolganligini ko'rishimiz mumkin. Hajviy matnlarni tarjima qilganimizda ham xuddi shunday jarayon sodir bo'ladi, ya'ni tarjima asliyat matn qonuniyatlariga mos bo'lsada, unda anglashilgan ma'no yo'qoladi va tarjima tilida hazil kulgi yaratish vositasi kabi vazifani bajarmasligi mumkin.

Madaniyatni hisobga olmaganda, tarjimonlar oldidagi eng katta bahs-munozaralardan biri asliyat matn tiliga sodiq qolish yoki uni moslashtirish zarurligidir. Hajviy matnlar tarjimasiga kelsak, ko'plab tarjimonlar asliyat matnini to'liq va o'zidek takrorlash yaxshi variant emasligini tan olishadi. Agar hajviy matn tarjimai so'zma-so'z amalga oshirilsa, tarjimada kulgi hissi tushunchasi yo'qolishi mumkin. Shunday qilib, hajviy matnlarni tarjima qilish borasida ikki xil qarama-qarshi yondashuvning mavjudligini ispan tilshunos olimi Zabalbeasko 2005-yilda o'z ilmiy ishlarida ta'kidlab o'tgan. Birinchi yondashuv, ya'ni "asliyat matniga sodiq qolish," tarjimini so'zma-so'z tarjima qilish orqali asliyat matn qonuniyatlariga sodiq qolish bo'lsa, ikkinchi yondashuvda esa kulgini boshqacha tarzda, ya'ni madaniy va lingvistik o'zgarishlar bilan tarjima tiliga moslashtirishdan iborat. Birinchi yondashuv orqali biz matnning asosiy ma'nosiga zarar yetkazib qo'yishimiz mumkin va bunday tarjima ko'plab olimlar tomonidan rad etilgan. Ikkinchi yondashuv orqali qilingan tarjima asliyatga shakl jihatdan mos tushmasada, ma'no jihatdan muqobil variant topishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tarjimada madaniyatlararo kulgini saqlab qolish uchun tarjimon madaniy kontekstni chuqur tushunib, kulgining asosiy xususiyatlarini va uning ta'sirini o'zgartirmasdan, maslashtirishga harakat qilishlari lozim. Kognitiv va pragmatik jihatlar, shuningdek, madaniyatlararo farqlarni hisobga olishu, kulgi hissinu muvaffaqiyatli boshqa tilda ifodalashda (transfer qilishda) muhim ahamiyatga ega. Tarjimonlar o'z ijodkorligini va kreativlik qobiliyatini ishlatgan holda, ba'zan madaniy kontekstga mos yangi ifodalarni qo'llash orqali kulgi hissinu saqlab qolishga erishishlari mumkin. Boshqacha aytganda, hazilni tarjima qilish yoki madaniyatlararo almashishlarda asosan madaniy farqlarni va kulgining kontekstini to'g'ri anglay olish tarjima ishini yanada samarali qiladi.

ADABIYOTLAR

1. G'aybulloh as-Salom. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2003. 29-b.
2. Zabalbeascoa, P. Humor and translation – an interdisciplinary. International Journal of humor Research, 18(2). 2020.185-207p. <https://doi.org/10.1515/humor.2005.18.2.185>.
3. Zabalbeascoa, P. Translating jokes for dubbed television situation comedies. The Translator, 2(2).1996. 235-257 p.
4. Pedersen, J. Subtitling norms for television: An exploration focussing on Extralinguistic cultural references. John Benjamins Publishing, 2018.
5. Attardo, Salvatore. Linguistic Theories of Humor. Berlin and New York. Atherton, 2021.

6. Wickberg D. The Senses of Humor Self and Laughter in Modern America. Cornell University Press, 2018. 280 p.
7. Raskin V. Semantic mechanisms of humour. Holland: D. Reidel Publishing Company, 2016. 284 p.
8. Khalida Hamid T. Translating Cultural Humour: Theory and Practice. University of Baghdad.
9. Abaeva E. S. [Problems of translating extracts with humorous effect from Russian into English]. In: Russkii yazyk i kultura v zerkale perevoda. Vyp. 1 [Russian language and culture reflected in translation], Moscow, Higher School of Translation, Lomonosov Moscow State University Publ., 2017, pp. 7–16. Z
10. Vandaele J. Introduction. (Re-)Constructing Humour: Meanings and Means // The Translator. 2002. Vol. 8. Iss. 2. P. 149–172. DOI: 10.1080/13556509.2002.10799130.



UDK:81.(361).633

Nilufar TALIPOVA,

*Institute of National Variety Arts named after Batyr Zakirov under the state Conservatory of Uzbekistan
"Uzbek language, sports and social sciences" department associate professor v. b.
E-mail: javani779@mail.ru*

Based on the review of doctor of philology, Associate professor M.Abdullaeva

THE COURSE OF THE DERIVATIONAL PROCESS IN THE SYSTEM OF WORD COMBINATIONS IN ENGLISH AND UZBEK

Аннотация

This article presents a comparative analysis of the course of the derivational process in the system of word combinations in English and Uzbek. Derivation, an important aspect of linguistic evolution, is studied to reveal similarities and differences in how the two languages create new words and phrases. A cross-linguistic approach is used to shed light on the linguistic complexities that contribute to the richness of the lexical systems of English and Uzbek.

Key words: Linguistics, derivation, English, Uzbek, word combinations, comparative analysis, syntactic relationship, ruler-subject relationship, combination, components.

ХОД ПРОЦЕССА СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ СЛОВСОЧЕТАНИЙ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье представлен сравнительный анализ хода деривационного процесса в системе словосочетаний в английском и узбекском языках. Деривация, важный аспект лингвистической эволюции, изучается для выявления сходств и различий в том, как два языка создают новые слова и фразы. Кросс-лингвистический подход используется для прояснения лингвистических сложностей, которые способствуют богатству лексических систем английского и узбекского языков.

Ключевые слова: Лингвистика, деривация, английский, узбекский, словосочетания, сравнительный анализ, синтаксические отношения, отношения правитель-подлежащее, сочетание, компоненты.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SO‘Z BIRIKMALARI TIZIMIDA DERIVATSION JARAYONNING KECHISHI

Аннотация

Ushbu maqolada Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z birikmalari tizimida derivatsion jarayonning kechishining qiyosiy tahlili berilgan. Tilshunoslik evolyutsiyasining muhim jihati bo‘lgan derivatsiya ikkala tilning yangi so‘z va iboralarni qanday yaratishidagi o‘xshashlik va farqlarni ochish uchun o‘rganiladi. Ingliz va o‘zbek tillari leksik tizimlarining boyligiga hissa qo‘shadigan lingvistik murakkabliklarga oydinlik kiritish uchun tillararo yondashuv qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: Tilshunoslik, derivatsion, ingliz tili, o‘zbek tili, so‘z birikmalari, qiyosiy tahlil, sintaktik munosabat, hokim-tobe munosabat, birikma, komponentlar.

Introduction. The study of word combinations in world linguistics has long been a subject of wide discussion. In today's linguistics, within the framework of a specific study of the conceptualization of the world in the minds of language users and linguistic realization, consistent research is being conducted in structural-semantic, communicative-pragmatic, comparative-typological directions of units belonging to a certain thematic area. In particular, the opinions expressed so far about the nature, categorical signs and linguistic properties of prepositional word combinations that occupy a place in the system of syntactic constructions are diverse, sometimes extremely contradictory, so the theory of word combinations in science has not gained a unified and completeness.

The etymological origin of the word derivatology goes back to the Latin word *derivo*, meaning "to reject". Thus, derivatology is a science that studies derivation. In linguistics, the term derivation was until recently understood only as the formation of words (derivation - word formation). However, derivation is not only the science of word formation, it is used in a broader sense. Derivation covers the process of formation of words, sentences, grammatical forms of words, SBs, phraseological units, syllables, suffixes; and finally, texts, that is, all language units from phonemes to text. Consequently, derivation is the science of the processes of formation of language units. Word formation is one of the separate sections of derivation.

Analysis and results. Some ideas characteristic of modern derivation can be found in ancient sources. For example, the ancient Indian linguist Panini managed to create a grammar in

this time that gave information about how the roots of Sanskrit words are formed, how the sounds are replaced in the formation of words. It is no coincidence that the linguistic terminology "derivative" was formed in ancient Greek philology. The subject of study of derivation is derivation. In some research works, derivation is understood as the derivational relations between any units of the language, while in others, the process of forming a derivational unit itself is understood: "derivation is the formation of a derivational unit". In Uzbek linguistics, the problems of derivation also have their ancient history. When it comes to the initial studies of lexical derivation in linguistics, it is necessary to recall the scientific considerations reflected in the work of Mahmud Kashgari "Devonu lug‘atit turk". This work contains the first scientific descriptions of word formation in Turkic languages. A. Nurmonov noted that this source contains quite complete ideas about the affixation method, which plays a central role in the word formation of Turkic languages. Similar historical scientific considerations about word formation are also reflected in a number of works, such as Alisher Navoi's "Muhokamat-ul lug‘atayn" and Mirzo Mehdikhan's "Maboni-ul lug‘at". The sources specifically acknowledge that these works contain information about word-forming affixes for nouns, verbs and other categories, as well as hard and soft variants of these affixes, simple and compound types of coined words.

One of the important tasks of derivatology is the study of the internal causes of derivational processes. The operator is one of the main elements that create syntactic derivation and the derivational process in general. Without an operator, no derivation can take place. The operator is introduced into any derivational

process (except for macrons) from the outside, and as a result, it becomes the dominant element of syntactic derivation, its owner. The operator, in the same way, contributes to the formation of a new static unit and determines it, that is, it is an indicator of its being a derivative that is distinguished from others. For example, if we consider the words *writer* and *work*, they are given in an independent state at the same time, in a situation where one is not subordinate to the other. But if we bring them to the state of the SB in the form of the writer's work, syntactic derivation is formed. It is formed by the derivative - the conjunctive affix, and the operator is the affix. Therefore, affixes are considered derivational operators and become their dominant elements. The function of the operator is determined not only in the process of word combinations, but also in the process of syntactic formation of a sentence.

Research methodology. The role of operators can be played by words, conjunctions, prepositions, grammatical forms, as well as contexts. The second term used in the analysis of the theory of syntactic derivation is "operand". The concept of an operand implies an object that serves as the basis for the formation of syntactic derivation. For example, in the combination of a writer's work, we see that two operands are involved (*writer* and *work*). Thus, an operand is the necessary raw material for a new stage of syntactic formation. The term "derivative" (derivative) denotes the final product, the result of syntactic derivation. For example: to read a work SB as a whole is considered a derivative, that is, a derivative. At the moment, the words *asar* and *oqimoq* in SB require derivation operands. The derivation operator is expressed by the conjugation affix -. Derivation as a process of creating new units is not a phenomenon specific only to words, it is sometimes noticeable that researchers interpret derivation in a very narrow sense and cannot abandon the tradition of considering it only as a phenomenon specific to the word-formation system. Limiting the scope of the derivation process in this analysis may lead to the erroneous conclusion that the creative abilities and possibilities of the language are also limited, that it cannot demonstrate its power at levels other than speech. In recent years, linguists have been studying word-formation methods, formats, complex units of word-formation, valency is actively studied, and interest in other similar problems has significantly increased. One such problem that still awaits its full elucidation is the process of formation of free and stable word combinations in a language. As a result of derivation, secondary nominative units, i.e. units called derivatives, arise by changing the structure and semantics of the original unit.

In linguistics, the term *transposition*, which is derived from Latin and includes syntactic and morphological types in a narrow sense, and linguistic phenomena such as metaphor, metonymy in a broad sense, and linguistic forms such as tense, mood, and inflection, means "replacement."

The occurrence of transposition is based on the semantic or functional analogy of language units. The functional-semantic analogy of language units is carried out through the relationship between the base form, transposer, and transposer.

The initial application of the term *derivation* in linguistics is also carried out in its narrow sense, that is, in conjunction with the phenomenon of word formation. According to N.K. Turniyozov, the following meanings of the word *derivation* are recorded in the "French-Russian Dictionary": a) separation, branching; b) exclusion; c) word formation; g) detour; d) differentiation. Since only the concept of "word formation" is grammatically significant among the given meanings of the word *derivation*, up to the present stage of linguistics, the term "derivation" has been used only in the lexical sense, that is, in the context of word formation. Specific evidence of this can be seen in the "Explanatory Dictionary of Linguistic Terms" published after the second half of the 20th century, where this term is interpreted as "formation of a new word with the help of affixes", "formation of a word without the help of affixes and affixes".

A word (a linguistic unit) is used by a person to express his knowledge and subjective attitude to his thoughts through speech. Speech, as is known, always has two subjects, namely, a speaker or writer and a listener or reader (reader). Speech cannot exist without a listener. Even speech spoken without the

participation of a second person is evaluated as a person's communication with himself and is a psychological direction.

Such possibilities of derivatology are especially noted in the definition given by E.S. Kubryakova: "the study of derivation, principles and units of relations arising in the process of derivation is important for understanding the structure and functioning of the entire system". A little later, the scientist further clarifies this definition, recognizing that derivation covers the process or product of the creation of any kind of secondary sign, "since it can be explained by the application of various rules from the unit taken as a basis".

The model nature of the derivation process is one of these features. Because each of its manifestations is aimed at a specific goal, in which a specific semantic task is performed and a limited number of formal means are used to achieve the goal. Accordingly, it is confirmed that the derivation process can be studied in two directions, that is, by applying semantic and formal approaches. As a result, it becomes possible to model derivation processes.

Linguists talk about the creation and structure of various units (word, SB, sentence) on the basis of one or another model. Any model is constructed by generalizing the main features of existing units. As E.S. Kubryakova and Yu.G. Pankrats say, the process of "derivation" not only serves to determine the relationship and connections between the initial unit and the derived unit resulting from this process, but also reveals the internal relationships of this process in the state of parts of a whole. Indeed, all derivational processes observed in language are similar to each other, they not only proceed in a pattern, but also have a structure that reflects their own connections and relationships. "The structure of the process," the authors conclude, "is an integral part of its model, and it reflects the adaptation of substance, structure, and function."

Analysis and results. It is known that in the system of word combinations, the majority of units belonging to linear derivation are mainly formed on the basis of a uniform combination of their components, and this is reflected in their structural models. For example: if a compound such as *iron mask* has the N1+N2 model, then the corner of the room; the letter from a friend; a table at the window; the grass on the ground; a girl with the boy; gift for the teacher has the derivation model N1+pr+N2. Similarly, the compounds such as *father's birthday*; pupils' study have the N's+N model or the structural model of compounds such as *small house*; *wide street* has the Adj+N model; at the same time the compounds such as *laughing child*; *stolen purse*; *driven by a man* in the Ving+N, Ven+N and Ven+pr+N models are also the products of the linear derivation process. For example: *summer of that year we lived in a house in a village ... and the plain to the mountains. In the bed of the river there were pebbles and boulders, dry and white in the sun, and the water ... in the channels. Troops went by the house ... the leaves of the trees. The trunks of the trees ... the troops marching along the road and the dust rising and leaves, stirred by the breeze, ... the soldiers marching and afterwards the road is bare and white except for the leaves. The plain was rich with crops; orchards of fruit trees fighting in the mountains and ... the flashes from the artillery. In the dark it was like summer lightning, but the nights were cool and there was no feeling of a storm coming.*

Ernest Hemingway's "A Farewell, Gun!" On the first page of (A Farewell to Arms), we come across a number of phrases in one passage: *summer of ear; a house in a village; a house across the river; the plain to the mountains; bed of the river; pebbles in the sun; water in the channels; troops by the house; troops down the road; the dust raised; the leaves of the trees; trunks of trees; the troops marching; the troops along the road; the dust rising; stirred by the breeze; falling soldiers; soldiers marching; the road bare; white except for the leaves; the plain rich with crops; orchards of fruit trees; fighting in the mountains; the flashes from the artillery; summer lightning, the nights cool; the feeling of a storm (R.10-15).* The difference between the models given as an example is that the formal operators of the derivation are different. In the above combinations, the role of such operators is played by prepositions and the formant 's. The most active operators, in addition to prepositions, include the zero operator,

since in modern English the coordination of units in the syntagmatic sequence takes on a more analytical form. The derivational process in the system of SBs, the derivational operator of which is a preposition, can continue indefinitely, and all SBs included in this pattern, being activated in different speech texts, can have a complex structure.

Just like in the example given in English, we see the activation of SBs belonging to linear derivation, which are based on the uniform combination of their components, in the Uzbek text:

The weather was cloudy, the hospital yard was empty. The snow had already melted, but spring had not yet arrived. The yellow sawdust that had been "buried" over the flowers to protect them from the cold had not even been removed. The slush that had spilled over the flowerbed was patchy and had turned a light brown color. The earth, which had been soaked with rainwater

and darkened all winter, seemed to be sighing heavily in a sleepy mood. Only the occasional grass spikes visible along the edge of the still-uncut ditch were celebrating the approach of bright days. Just then, the branches of an apricot tree growing near the window swayed in the wind, as if sensing and rejoicing in the approaching spring.

Conclusions and suggestions. Through a comprehensive comparative analysis of the derivational processes in the English and Uzbek word systems, this study has revealed the multifaceted aspects of linguistic complexities, cultural influences, and the specific features of word formation. The comparative study began with the study of the derivational processes of the English language, a language whose vast vocabulary has been shaped by layers of historical borrowing and influence. As a global language, English incorporates the influence of different cultures, which contributes to the lexical diversity of the language.

REFERENCES

1. Hemingway E. A Farewell to Arms. <http://www.free.eBooks./com>. 2020. – 344 p (ushbu asardan olimgan misollar qavs ichida beti ko'rsatilgan holda beriladi).
2. Кубрякова Е.С. Панкрац Ю.Г. О типологии процессов деривации // Теоретические аспекты деривации. – Пермь, 1982. – С. 7-20.
3. Ҳошимов Ў. Нур борки, соя бор. – Тошкент, 1977. – 240 б. (Ushbu asardan olingan misollar qavs ichida beti ko'rsatilgan holda beriladi).
4. Турниёзов Н.Қ. Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш. – Самарқанд, 1990. – 55 б.
5. Ҳожиёв А.Ўзбек тили сўз ясашиши. – Тошкент, 1989. – Б. 11. Розенталь Д.Э., Тельникова М.А. Словарь - справочник лингвистических терминов. – М., 1976. – С. 92.
6. Кубрякова Е.С. Деривация, транспозиция, конверсия // Вопросы языкознания, 1974. – С. 61-72.
7. Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 1972. – Б37.



UDK:808.5

Nilufar XALIMOVA,

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: nilufar.khalimova.1992@gmail.com

O'zDJTU dotsenti, DSc I.Kaxarova taqrizi asosida

O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA BEVOSITA VA BILVOSITA TARJIMALAR XUSUSIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima jarayoni, uning bevosita va bilvosita turlari, har birining afzallik va kamchiliklari tahlil qilinadi. Bevosita tarjimada matnning asl mohiyati va uslubi saqlanib qolishi, bilvosita tarjimada esa ma'noni kengroq ochib berish imkoniyati mavjudligi yoritiladi. Shuningdek, maqolada tarjima jarayonida duch kelinadigan muammolar va ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Tarjima, bevosita tarjima, bilvosita tarjima, ekvivalentlik, ma'no, uslub, tarjima muammolari.

DIRECT AND INDIRECT TRANSLATIONS FROM UZBEK INTO ENGLISH

Annotation

This article analyzes the process of translation from Uzbek into English, its direct and indirect types, advantages and disadvantages of each. In the direct translation, it is illuminated that the original essence and style of the text is preserved, and in the indirect translation there is an opportunity to reveal the meaning more broadly. The article will also look at the problems encountered in the translation process and ways to eliminate them.

Key words: Translation, direct translation, indirect translation, equivalence, meaning, style, translation problems.

О ПРЯМЫХ И КОСВЕННЫХ ПЕРЕВОДАХ С УЗБЕКСКОГО НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

В данной статье анализируется процесс перевода с узбекского языка на английский, его прямые и косвенные виды, достоинства и недостатки каждого из них. Прямой перевод подчеркивает, что подлинная сущность и стиль текста сохраняются, в то время как косвенный перевод дает возможность более широкого раскрытия смысла. Также в статье будут рассмотрены проблемы, с которыми сталкиваются в процессе перевода, и способы их устранения.

Ключевые слова: Перевод, прямой перевод, косвенный перевод, эквивалентность, смысл, стиль, проблемы перевода.

Kirish. Tarjima jarayoni har bir tilning lingvistik va madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim bo'lgan murakkab jarayondir. O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda ikki asosiy yondashuv mavjud: bevosita va bilvosita tarjima. Bu ikki yondashuv orasidagi farqlar tarjimon oldiga turli muammolarni qo'yadi. Ushbu maqolada shu ikki turdagi tarjimaning xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bevosita tarjima – matnning asl holatiga imkon qadar yaqin shaklda, sintaktik va semantik jihatdan ekvivalent tarzda tarjima qilish jarayonidir. Bunda quyidagi xususiyatlar kuzatiladi: Sodda va tushunarli ifoda – asl matn tuzilishi buzilmaydi va so'zma-so'z tarjima amalga oshiriladi[1]. Til strukturasi saqlanadi – jumlarlar tartibi va tuzilishi asliyatga yaqin bo'ladi. Ma'no yo'qotilishi ehtimoli kam – tarjimon muallif uslubini iloji boricha asliyatga yaqin yetkazadi.

Bilvosita tarjima – matnning mazmuni, asosiy g'oyasi va mohiyatini saqlagan holda uni yangi til normalariga moslashtirish jarayonidir. Bu yondashuvning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat: Matnning erkinroq talqin qilish imkoniyati – tarjimon matnning o'qiluvchiga tushunarli va qulay shaklda yetkazishi mumkin. Madaniy tafovutlar inobatga olinadi – matndagi obraz va iboralar yangi madaniyat kontekstiga moslashadi. Matn uslubi yaxlit va tabiiy chiqadi – tarjima sun'iy yoki quruq ifodadan xoli bo'ladi[2].

Tarjima jarayonida bevosita va bilvosita yondashuvlarning har biri turli vaziyatlarda o'ziga xos afzalliklarga ega. Bevosita tarjima matnning sintaktik va semantik tuzilishini asliga yaqin saqlaydi, bu ayniqsa ilmiy, texnik va huquqiy matnlar uchun muhimdir. Shu bilan birga, u ba'zan matnning sun'iy va tushunarsiz bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin, chunki har bir til o'ziga xos grammatik va stilistik xususiyatlarga ega. Bilvosita tarjima esa matn mazmunini erkinroq talqin qilish imkonini beradi, bu badiiy adabiyot, ommaviy axborot vositalari va targ'ibot matnlari uchun samarali

usul hisoblanadi. Biroq, bu yondashuv tarjimonning shaxsiy talqiniga ko'proq bog'liq bo'lib, ayrim hollarda asl matnning ohangini yoki uslubini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Tarjima jarayonida tilning madaniy konteksti ham katta ahamiyatga ega. Masalan, o'zbek tilidagi maqollar, iboralar yoki milliy xususiyatlarga ega bo'lgan tushunchalar to'g'ridan-to'g'ri ingliz tiliga tarjima qilinsa, ular o'z ma'nosini yo'qotishi mumkin. Shunday hollarda bilvosita tarjima yoki ekvivalent ma'noli ifodalar tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Muhokama davomida shuni ta'kidlash kerakki, tarjimon uchun eng muhim masala – matnning ma'nosini aniq, tushunarli va madaniy jihatdan mos shaklda yetkazishdir. Bevosita va bilvosita tarjima orasida muvozanat saqlash orqali tarjimaning sifatini oshirish mumkin. Shu bois tarjimon matn turiga, maqsadiga va auditoriyasiga qarab mos usulni tanlashi kerak[3].

Ushbu maqolada o'zbek tilidan ingliz tiliga bevosita va bilvosita tarjima jarayonlarini o'rganish uchun sifatli (qualitative) tadqiqot metodlari qo'llanildi. Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslandi:

1. Taqqoslash usuli (Comparative Method)

O'zbek tilidan ingliz tiliga qilingan tarjimalar o'zaro taqqoslandi va bevosita hamda bilvosita tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Xususan, bir necha matn namunalarida so'zma-so'z tarjima va kontekstga mos moslashtirilgan tarjimalar solishtirildi.

2. Lingvistik tahlil (Linguistic Analysis)

Tarjima jarayonida grammatik, leksik va stilistik jihatdan qanday o'zgarishlar yuz berishi tahlil qilindi. Ayniqsa, o'zbek va ingliz tillarining sintaktik tuzilishi, iboralarining tarjimada qanday aks etishi ko'rib chiqildi.

3. Amaliy tarjima tahlili (Practical Translation Analysis)

Bevosita va bilvosita tarjima usullarining samaradorligi turli matn turlarida (ilmiy, badiiy, rasmiy-huquqiy va jurnalistik matnlar) tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali har bir usul qaysi turdagi matnlarga ko'proq mos kelishi aniqlandi.

4. Ekspert intervyulari (Expert Interviews)

Tarjima sohasidagi mutaxassislar bilan suhbatlar olib borilib, ularning bevosita va bilvosita tarjimaga bo'lgan yondashuvlari, tajribalari va tavsiyalari o'rganildi. Bu metod tarjimaning nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam berdi.

5. Kontekstual tahlil (Contextual Analysis).

Tarjima jarayonida madaniy tafovutlar va ularning ma'noni yetkazishdagi ahamiyati o'rganildi. O'zbek va ingliz tillarida ishlatiladigan metaforalar, iboralar va milliy xususiyatga ega bo'lgan so'zlarning tarjima jarayonida qanday o'zgarishlarga uchrashi ko'rib chiqildi. Ushbu metodlar yordamida bevosita va bilvosita tarjimalarining afzallik va kamchiliklari aniqlandi hamda tarjimonlar uchun samarali strategiyalar taklif etildi[4].

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima jarayonida bevosita va bilvosita yondashuvlarning har biri muayyan kontekstda samarali qo'llanilishi mumkin. Bevosita tarjima sintaktik va semantik jihatdan aniq va to'g'ri bo'lishi bilan ajralib turadi, biroq ba'zi hollarda tabiiylik yetishmaydi. Ayniqsa, ilmiy, texnik va huquqiy matnlarda bevosita tarjima aniq ma'lumot yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bilvosita tarjima esa matnning tabiiy va ravon bo'lishini ta'minlaydi, ayniqsa badiiy va ommaviy axborot vositalariga oid matnlar uchun mos keladi. Tadqiqotda o'zbek tilidagi metaforalar, iboralar va milliy madaniy kontekstni o'z ichiga olgan matnlarni tarjima qilishda bilvosita yondashuv ancha samarali ekanligi aniqlandi[5].

Xususiyat	Bevosita tarjima	Bilvosita tarjima
Ta'rif	So'zma-so'z yoki grammatik jihatdan aniq tarjima	Ma'noni saqlagan holda erkin tarjima
Qo'llanilish sohasi	Ilmiy, texnik, huquqiy matnlar	Badiiy, publitistik, reklama matnlari
Afzalliklari	Aniqlikni ta'minlaydi, aslyatga yaqin bo'ladi	Matn tabiiy va tushunarli bo'ladi
Kamchiliklari	Ba'zan sun'iy yoki tushunarsiz bo'lishi mumkin	Tarjimonning subyektiv talqini kuchli bo'lishi mumkin
Misol:	U kitob o'qiyapti.	U kitob mutolaasi bilan band.

Bundan tashqari, lingvistik tahlil shuni ko'rsatdiki, bevosita tarjimada grammatik jihatdan aniq mos keladigan so'zlar ishlatilgan bo'lsa ham, ular ingliz tilida noaniq yoki sun'iy tuyulishi mumkin. Aksincha, bilvosita tarjimada tarjimonning talqini va madaniy moslashtirish orqali matnning ma'nosi to'liq yetkaziladi. Ekspert intervyulari natijalariga ko'ra, tarjimonlar har ikki usulni kontekstga qarab moslashuvchan tarzda qo'llashi kerakligi ta'kidlandi. Ba'zi hollarda bevosita tarjima maqsadga muvofiq bo'lsa, ba'zan bilvosita tarjima o'quvchilar uchun qulayroq va tushunarliroq bo'ladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ideal tarjima usuli mavjud emas, balki tarjimon matnning janri, maqsadi va auditoriyasiga qarab mos yondashuvni tanlashi lozim. Bevosita va bilvosita tarjima usullarini kombinatsiyalash orqali tarjimaning aniqligi, tabiiyligi va samaradorligi oshirilishi mumkin.

Oxir-oqibat, ideal tarjima usuli yo'q – har bir matn va kontekst uchun eng mos yondashuv tanlanishi lozim. Bevosita tarjima aniqlik va rasmiylikni ta'minlasa, bilvosita tarjima tabiiylik va o'quvchiga yaqinlikni oshiradi. Shu sababli, tarjimon o'z mahoratini oshirish, til va madaniyatlararo tafovutlarni o'rganish orqali tarjimaning aniqligi va samaradorligini oshirishga intilishi lozim[6].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bevosita va bilvosita tarjima usullari bir-biridan farq qilsa ham, ikkalasi ham tarjima jarayonida muhim o'rin tutadi. Bevosita tarjima aniq va ekvivalent tarjima qilishda samarali bo'lsa, bilvosita tarjima matnning tabiiy chiqishini ta'minlaydi. Tarjimon ushbu ikki usulni matn turiga, maqsadga va o'quvchiga qarab mos ravishda qo'llashi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Baker, M. (2011). Boshqa so'zlar bilan aytganda: Tarjima bo'yicha darslik. Routledge.
2. Catford, J. C. (1965). Tarjima lingvistik nazariyasi. Oxford University Press.
3. Newmark, P. (1988). Tarjima bo'yicha darslik. Prentice Hall.
4. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969). Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Brill.
5. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1958). Fransuz va ingliz tillarining stilistik taqqoslovi. Didier.
6. House, J. (2015). Tarjima sifatini baholash: O'tmish va hozirgi zamon. Routledge.
7. Munday, J. (2016). Tarjima tadqiqotlariga kirish: Nazariyalar va amaliyotlar. Routledge.
8. Pym, A. (2010). Tarjima nazariyalarini o'rganish. Routledge.



UDK:811.521

Salomat XUSANOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining o'qituvchisi
E-mail: salomathusanova@gmail.com

F.f.d., DSc A.O'razbayev taqrizi asosida

CAN HALIMA KHUDOYBERDIYEVA'S POETRY REFLECT AN INTERACTION WITH THE WORLD OF ANNA AKHMATOVA?

Annotation

The article examines the mutual literary influence and shared themes in the works of Halima Khudoyberdiyeva and Anna Akhmatova. It provides a detailed analysis of the challenges faced by both poets, particularly personal losses, love, family struggles, creative difficulties, and the impact of social pressure on their poetry. The study also explores their portrayal of women's experiences and the fight for social justice.

Key words: Background, context, psychologism, philosophical, gender.

МОЖЕТ ЛИ ПОЭЗИЯ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ ОТРАЖАТЬ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ С МИРОМ АННЫ АХМАТОВОЙ?

Аннотация

В статье рассматривается анализ взаимного литературного влияния и общих тем Халимы Худойбердиевой и Анны Ахматовой. Наглядно анализируются трудности в жизни обеих поэтесс, особенно личные потери, любовные, семейные, творческие трудности, то, как социальное давление повлияло на стихи, женский опыт и борьба за социальную справедливость.

Ключевые слова: Фон, контекст, психологизм, философский, гендер.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA ANNA AXMATOVA OLAMI BILAN BOG'LIQ BO'LGAN UMUMIY HOLATLARNI O'ZARO TA'SIR SIFATIDA BAHOLASH MUMKINMI?

Annotatsiya

Maqolada Halima Xudoyberdiyeva va Anna Axmatova o'rtasidagi o'zaro adabiy ta'sir va umumiy mavzularga oid tahlil muhokama qilingan. Har ikki shoiraning hayotidagi qiyinchiliklar, ayniqsa, shaxsiy yo'qotishlar, muhabbat, oila, ijodiy sinov, ijtimoiy bosim she'rlarga qay darajada ta'sir qilganligi, ayollar tajribasi va ijtimoiy adolat uchun kurash to'g'risidagi tahlillar aniq berilgan.

Kalit so'zlar: fon, kontekst, psixologizm, falsafiy, gender.

Kirish. Anna Axmatova va Halima Xudoyberdiyeva – ikki buyuk shoir, ular turli adabiy ana'na va tarixiy sharoitlarda yashagan bo'lsalar ham, o'z she'riyati orqali insoniyatning eng chuqur va nozik tuyg'ularini o'rganishda umumiy ahamiyatga ega. Ularning she'rlari nafaqat milliy adabiyotlarining durdonalariga aylangan, balki xalqaro miqyosda ham tan olingan.

Anna Axmatova va Halima Xudoyberdiyevaning she'rlarida ko'rsatilgan kechinmalar, tasvirlangan til boyligi ikki madaniyat o'rtasidagi muhim adabiy aloqalar va o'zaro ta'sirning mavjudligini tasdiqlaydi. Ular she'riyati o'rtasidagi mushtarak jihatlar va adabiy aloqalarni o'rganish adabiyotshunoslikning yangi imkoniyatlarini ochishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rus shoirasi Anna Axmatova (1889-1966) o'zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyevaga (1947-2018) nisbatan og'irroq davrda yashagan. Uning hayoti mashaqqatlarga to'la.

Anna Axmatova asarlarida, avvalo, Sovet Ittifoqining siyosiy repressiyalari, shaxsiy va milliy azob-uqubatlari, ayolning ichki dunyosidagi kechinmalari aks ettirilgan. Uning she'rlarida sevgi, yo'qotish, yolg'izlik, umidsizlik va ayni paytda qarshilik kabi mavzular doimo markaziy o'rinda turadi.

Halima Xudoyberdiyeva esa o'z asarlarida asosan o'zbek ayolining ichki kechinmalarini, sevgi va qayg'u bilan bog'liq muammolari tasvirlaydi. Uning she'rlarida tug'ilishdan tortib o'limgacha bo'lgan jarayonlar, insonning qalbida iz qoldirgan azob va hayotning o'ziga xos go'zalligi yoritiladi. Halima Xudoyberdevaning asarlari, ayniqsa, milliy urf-odatlar va madaniyat bilan bog'liq an'analar orqali o'zining chuqur psixologik va falsafiy tahlilini taklif etadi. Uning she'riyati ayolning ichki dunyosini, uning ruhiy holatini va shaxsiy tajribalarini keng qamrovda aks ettiradi.

Tahlil va natijalar. Anna Axmatova va Halima Xudoyberdiyeva turli adabiy ana'na va sharoitlardan kelgan bo'lsalarda, ularni she'r orqali muhim mavzu va kechinmalarni

o'rganish istagi birlashtiradi. Har ikki yozuvchi ham o'z mintaqalarining adabiy kanoniga muhim hissa qo'shgan va ularning asarlari butun dunyo kitobxonlari va olimlari tomonidan o'rganilib, qadrlanib kelinmoqda. Ha, Halima Xudoyberdiyeva she'riyati bilan Anna Axmatova olami o'rtasidagi mushtarak xususiyatlarni o'zaro ta'sir deb bilishimiz mumkin. Ikkala shoir ham sevgi, yo'qotish va ayol tajribasi mavzularini o'rganib, asarlari o'rtasida adabiy dialog yaratadi.

Halima Xudoyberdiyeva va Anna Axmatovaning tarjimai hollarida ham umumiy jihatlarini uchratish mumkin. Ikkala shoir ham o'zlarining hayotiy sinovlari, shaxsiy yo'qotishlari va hissiy kurashlarini tasvirlaydi, bu esa ularning hayotiy hikoyalari o'rtasida chuqur bog'liqlik yaratadi.

Jumladan, 1921-yilning yozida uning turmush o'rtog'i bolsheviklar tomonidan otib tashlanishi, 1935-yilning 23-oktabrida o'g'li Lev Gumilyov hibsga olinishi kabi kechinmalarini shoir quyidagicha ifodalaydi: Tixo lyetsya tixiy Don / Jeltiy mesyats vxodit v dom. / Vxodit v shapke nabekren, / Vidit jeltiy mesyats ten. / Eta jenshina bolna, / Eta jenshina odna. / Muj v mogile, sin v tyurme, / Pomolites obo mne. ("Tixo lyetsya tixiy Don") [1]. Jim oqadi sokin Don, / Uyga kirdi sariq oy. / Kirdi bosh kiyim qiya / Sariq oy ko'rdi soya. / Bu ayol bemor ayol, / Bu ayol yolg'iz ayol. / O'g'lim yotar qamoqda, yorim esa qabrda, / Men uchun bo'ling doim duoyu-ibodatda. (shaxsiy tarjima – S.X.).

She'rda ayolning qayg'usi borligi, kasalligi, uyda yolg'iz yotgani, tun qorong'usida yolg'izligi va faqat oy uning tasallisi, oy uyini yoritib, umid baxsh etishi, yoqimli xotiralar qolishi, turmush o'rtog'i qabrda, o'g'li esa qamoqda ekanligi tasvirlangan.

H. Xudoyberdiyeva ham og'ir kunlarni boshidan kechiradi. 1994-yilda shoiraning turmush o'rtog'i Mavlon Umrzoqov ishdan olinadi. Elkam yag'ir, tanbal, surlar ostida, / Esiz umr fitna, sirlar ostida. / Olloh, nechun meni olov yaratding, / Qandoq yonay kir yomg'irlar ostida [1]. Ushbu to'rtlik orqali

shoira ahvolining og'irligini, uning ichki kurashi va mashaqqatli hayotini savollar orqali yetkazib bergan.

Xuddi shuningdek, 1946-yilda Bolsheviklarning Butunittifoq Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi tashkiliy byurosi tomonidan "Adabiy platformani ta'minlash uchun" "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi. Unda "prinsipialsiz, mafkuraviy zararli ishlari" uchun ikki sovet yozuvchisi - Anna Axmatova va Mixail Zoshchenkoni Yozuvchilar uyushmasidan chiqarib yuborilganligi haqida yozilgan [2].

F.G. Ranevskaya tomonidan yozib olingan: "Men "hukm"dan keyin uning oldiga qanday yugurganimni eslayman. Uy bo'sh edi. Puninning qarindoshlari qochib ketishdi. U jim qoldi, men ham unga nima deyishni bilmasdim. U ko'zlarini yumib yotardi. Dudoqlar ko'k va oq rangga aylandi. Yuzi qip-qizil qizarib, darhol oqarib ketdi. Men uni ovqatlanimoqchi edim. Uyda yeyiladigan narsa yo'q edi. Men do'konga yugurdim va nimadir sotib oldim. U ovqatlanishdan bosh tortdi. Ikkinchi ham jim qoldik. Keyin uni ko'chaga olib chiqishni boshladilar va bir necha kundan keyin u to'satdan dedi: "Ayting-chi, Gitlerna butun jihozlari bilan quvib chiqargan buyuk mamlakatim nega bitta kasal kampirning ko'krigidan barcha tanklari bilan o'tishi kerak edi" [2].

A.Axmatova quyidagi she'rida uning bosib o'tgan yo'li mashaqqatli, o'rquv, iztirobga to'la bo'lganini tasvirlaydi. Dorogoyu senoy i nejdannoy / YA uznala, chto pomnish i jdes. / A bit mojet, i mesto naydesh / Ti — mogili moyey bezimyanoy. [3]. Qimmatli va kutilmagan yo'l ila / Men bildim, sen eslaysan, kutasan. / Ehtimol, mening nomsiz go'ringa / Joy toparsan. (shaxsiy tarjima - S.X.).

She'rdagi "kutilmagan" so'zi bu anglash kutilmaganda sodir bo'lganligini anglatadi, go'yo u his-tuyg'ularini yoki xotiralarini bu tarzda boshdan kechirishini kutmagandek. Uning she'rlari chop etishdan to'xtatiladi.

"Turmush o'rtog'im qamoqqa tushgan vaqti menga ham ishdan bo'shash haqida ariza yozishni so'rashdi. Ikki yil men uyda o'tirganman. Uyda o'tirgan paytim biror joyda biror satrim ketmagan. Mana shu gap..."

Ohirgi nasriy to'plami haqida gapirar ekan, Halima Xudoyberdiyeva: "Bu—"Yuragimning og'riq nuqtalari", yani jamiyatdagi yuragimga og'riq bergan voqea-hodisalar aks etgan,"- deydi H. Xudoyberdiyeva. [4].

U "Yig'layolmadim" she'rida o'zining g'amini va yo'qotishlarini juda kuchli his-tuyg'ular bilan ifodalashga harakat qilgan, lekin ularni bildirishga qodir emasligini ko'rsatgan. Ajab, o'z yerimda yig'layolmadim, / Buyam bir sho'rimumda, yig'layolmadim. / "G'am"ni uzgarting, deb qildilar beruq. / Hattoki she'rimda yig'layolmadim. / Dardim tiqilsada bo'g'zimda tutdim, / Qushlar yig'lay oldi, yig'ladi terak. / Men umrbod yoshim ichimga yutdim, / Bir kun go'rimda qon yig'lasam kerak [5].

A. Axmatova va H. Xudoyberdiyeva she'rlaridagi qabr obrazi yo'qotish, unutish, dardini izhor etib bo'lmalik va fojiali muqarrarlik mavzusi bilan bog'langan. Ularning she'rlarida qabr nafaqat jismoniy o'limni, balki hissiy yoki ruhiy tugallanishni ham anglatadi.

Ijtimoiy va siyosiy sharoitlar bilan kurash mavzulari, shuningdek, dunyoda o'z o'rnini izlash ularning tarjimai holiva o'xshashlikni beradi. Bundan tashqari, ikkalasi ham boshqalar bilan murakkab munosabatlar haqida yozgan, bu esa avtobiografik hikoyaga shaxsiy va samimiy xususiyat qo'shadi. Bu ularning tajribalarini universal va o'quvchilar hozirjavobligini oshiradi.

Bundan tashqari, hissiy chuqurlik va falsafiy aks ettirishdagi o'xshashliklar ikkala muallifga ham ta'sir qiladigan madaniy va tarixiy kontekstlarni ko'rsatishi mumkin. Shuni ham hisobga olish kerakki, H. Xudoyberdiyeva A. Axmatovadan tarjimalar yoki adabiy an'analar orqali ilhomlangan bo'lishi mumkin, bu esa turli madaniyatlar she'riyatining o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi.

".....Ustozlarning bir yutug'imga o'n yutuq qo'shib maqtashlari, ba'zan imtihon paytlari Rasul Hamzatov, Silva Kaputikyan yoki Eduard Mejelaytisdanmi yo Bella Axmadullinadan birorta she'r o'qitib (o'zbekcha tarjimada albatta

yod o'qirdim) imtihon daftarchamga "5" baho qo'yib berishlari meni qanotlantirib yuborardi..."[6].

Halima Xudoyberdiyeva Moskvada ikki yil-1975-1977-yillarda tahsil oladi. "U erda o'tgan ikki yilni hech qaysi yillarga almashtirib bo'lmaydi. Moskva menga ko'p narsa bergan. Men u yerda dunyo adabiyotiga kirib bordim desam bo'ladi...O'sha davrda yaratilgan she'r ham ruhi boshqacha", -deydi u [7].

Andrey Voznesenskiyni "Yo'ldadirman" she'rini tarjima qilgan. Siz kutasiz. Men ham boraman. / Uchib borodurman xuddi o'q. / Faqat ...oldin xat yuboraman, / O'sha xatni yozganimcha yo'q.

Moskvada "Faxr" va "Oq olmalar" she'riy to'plamlari rus tilida tarjima qilinadi. Keyinroq esa, "Reshimost" nomli she'riy tarjima kitobi chop etiladi.

Shoirlarning umumiy xususiyatlarini tarixiy va madaniy fon kontekstida ko'rish mumkin. Ikkala shoir ham o'z ijodida o'z aksini topgan muhim o'zgarishlar va ziddiyatli davrlarda ijod qilgan. A. Axmatova ham, H. Xudoyberdiyeva ham o'rtoqlashgan hissiy samimiylik va nozik lirik chuqur bog'lanish hosil qilib, o'quvchilarga o'z kechinmalarida o'xshashliklarni topish imkonini beradi. Uslub, mavzu va falsafaning ta'siri har ikkala adabiy an'anani boyitib, o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin.

Masalan, turmush o'rtoqlariga bag'ishlangan she'rlarni taqqoslash haqiqatan ham A. Axmatova va H. Xudoyberdiyeva o'rtasidagi umumiy xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi.

A.Axmatova N.Gumilyovga bag'ishlagan she'rlarida ko'pincha muhabbat, judolik, sadoqat kabi murakkab tuyg'ularni ifodalaydi. "SHelesti o'proshlom stariy dub..." asarida u bilan bo'lgan hissiy bog'liqlik chuqurligi, yo'qotish azobi, o'tmish xotiralarini aks etgan. Bu she'r uning ehtirosli, ammo ayni paytda og'riqli kechinmalarini aks ettiruvchi tasvirlar bilan to'ldirilgan, sevgi qanday baxt va azob manbai bo'lishi mumkinligini tasvirlagan. Masalan, YA molchal tak mnogo tyakix let. / Pitka vstrech yeshe neotvratima / Kak davno ya znayu tvoy otvet: / YA lyublyu i ne bila lyubima. ("YA molchal tak mnogo tyakix let") [8]. Og'ir yillar o'tdi bir so'z demadim. / Qiynoq uchrashuvlar muqarrar hamon. / Javobing angladim anchadan buyon: / Sevilmanman-u, lek men sevardim. (shaxsiy tarjima - S.X.).

Ushbu she'r Axmatovaning yolg'izligining o'ziga xos muhitini, o'tmish, taqdir va ruh haqidagi fikrlarini aks ettiradi.

H.Xudoyberdiyeva, o'z navbatida, turmush o'rtog'i M.Umrzoqov haqidagi "Oshiqlik sizdan o'tardi...", «Derazada chiroq yoqaman» she'rlarida ham muhabbat, yo'qotish mavzulariga to'xtalib o'tadi. Oshiqlik sizdan o'tardi, ma'shuqalik bizdanam, / Bugun yiroqdasiz, dil muz, eruv bilmas muz tanam. / Bugun hijron dovullarin quchog'ida qaltirab, / Isinmoqqa o't izlayman Sizning maktub, so'zdanam.

Ularning birgalikdagi hayoti, quvonch va qiyinchiliklari, turmush o'rtog'iga bo'lgan tuyg'ulari uni shaxs va shoir sifatida shakllantirganini tasvirlaydi. Uning she'rlarida sog'inch, birgalikda kechinma va erishilgan yutuqlardan g'urur tuyg'usi ifodalangan chuqur hissiy birlik obrazini yaratadi.

Shayaxmetova V.I. asarida "A.Axmatovaning muhabbat lirikasining o'ziga xosligi" asarida Axmatovaning o'ziga xos psixologizmi haqida to'xtalib o'tadi: "...shoir she'rlarida psixologiya, tuyg'ular to'g'ridan-to'g'ri tasvirlash orqali emas, balki o'ziga xos, psixologiyalashgan detal orqali yetkaziladi. Axmatovaning she'riy dunyosida badiiy detallar, moddiy detallar va uy-ro'zg'or buyumlari juda muhimdir. Axmatova tafsilotlarni aytib berish texnikasidan foydalangan holda tushuntirish emas, balki ko'rsatish orqali tasvirning haqiqiylikligi va eng yuqori psixologik ishonitirishga erishadi. Bular kiyim qismlari (mo'yna, qo'llop, uzuk, shlyapa va boshqalar), uy-ro'zg'or buyumlari, fasllar, tabiat hodisalari, gullar va boshqalar bo'lishi mumkin" [9].

Anna Axmatovaning "Lyubov pokoryayet obmanno..." she'ri o'tmish haqida, qo'ldan boy berilgan imkoniyatlar haqida, chunki biz nimanidir yo'qotganimizdagina qadrlay boshlaymiz. U bu haqda to'g'ridan-to'g'ri gapirmaydi, u ishora qiladi va shu bilan sizni diqqat bilan o'qishga va undan javob izlashga majbur qiladi.

Nikolay Gumilyov Axmatovaning ishi haqida shunday yozgan: "... Anna Axmatovada ko'pincha og'riq, sog'inch, o'lim kabi so'zlar uchraydi. Bu tabiiy va shuning uchun go'zal yoshlik noumidligi hozirgacha "qalam mulki" bo'lib kelgan va she'riyatda

birinchi bo'lib Axmatova she'rlarida o'z o'rnini topganga o'xshaydi[10].

H. Xudoyberdiyeva ham A. Axmatova kabi "Begim sizni xudoyim..." she'ridagi ushbu misralarda turmush o'trog'iga bo'lgan tuyg'ularini shaxsiy va shoir tarzda shakllantirganini tasvirlash mix, tig', yonmoq, zardobli sharob, may, qon detallaridan foydalanadi va ushbu detallar orqali jismoniy va manaviy og'riqni aks etadi. Begim, ikkilanmasdan yer yuzin tashlang mixlab. / Mixning, tig'ning zahrini sezmay yonib boraman. / Ishq zardobli sharobdir, qonib-qonib boraman. / Hech kim bilan sirlashmay, hech kimsaga tutmay may, / O'z qonim bilan o'zim alvonlanib boraman.

Bu misralarda ishqning og'irligi, qiyinligi, uning inson hayotiga olib kelgan zaharli ta'siriga e'tibor qaratilgan. SHERda ishqni mustaqil, yolg'izlik bilan aloqador, ruhiy va jismoniy ozorni anglatadigan ramzlar orqali falsafiy, sirli va oliy ta'rif berilgan.

- Ibrohim G'ofurov "sher bu shoirning o'zi", deydi. Shoirning o'zi bo'lmasa, u yozgan she'r she'r bo'lmaydi. Chunki ifoda etilgan tuyg'ular rost chiqishi kerak-da! Agar dunyo shoirlari ijodini kuzatgan bo'lsangiz, shoirming zo'ri muhabbat lirikasida bilinadi. Binobarin, muhabbat haqida iliq-miliq she'rlar yozadigan shoirlar ijtimoiy mavzuda ham chaqnab chiqmaydi, iliq-miliq fikr aytishdan nariga o'tolmaydi – deydi H.Xudoyberdiyeva [11]

Xulosa. O'xshashlik nuqtai nazaridan Axmatova ham, Xudoyberdiyeva ham ayollarni ijtimoiy umidlari va zulmlarga 1-ilova.

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida Anna Axmatova olami bilan bog'liq bo'lgan o'xshash holatlar

№	Umumiy o'xshashliklar
1.	Halima Xudoyberdiyeva va Anna Axmatovaning tarjimai hollarida ham umumiy jihatlarni uchratish mumkin. Ikkala shoir ham o'zlarining hayotiy sinovlari, shaxsiy yo'qotishlari va hissiy kurashlarini tasvirlaydi, bu esa ularning hayotiy hikoyalari o'rtasida chuqur bog'liqlik yaratadi.
2.	A. Axmatova va H. Xudoyberdiyeva she'rlaridagi qabr obrazi yo'qotish, unutish, dardini izhor etib bo'lmilik va fojiali muqarrarlik mavzusi bilan bog'langan.
3.	Ijtimoiy va siyosiy sharoitlar bilan kurash mavzulari, shuningdek, dunyoda o'z o'rnini izlash ularning tarjimai holidagi o'xshashlikni beradi.
4.	Hissiy chuqurlik va falsafiy aks ettirishdagi o'xshashliklar ikkala muallifga ham ta'sir qiladigan madaniy va tarixiy kontekstlarni ko'rsatishi mumkin.
5.	H. Xudoyberdiyeva A. Axmatovadan tarjimalar yoki adabiy an'analari orqali ilhomlangan bo'lishi mumkin, bu esa turli madaniyatlar she'riyatining o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi.
6.	Shoirlarning umumiy xususiyatlarini tarixiy va madaniy fon kontekstida ko'rish mumkin. Ikkala shoir ham o'z ijodida o'z aksini topgan muhim o'zgarishlar va ziddiyatli davrlarda ijod qilgan.
7.	O'xshashlik nuqtai nazaridan Axmatova ham, Xudoyberdiyeva ham ayollarni ijtimoiy umidlari va zulmlarga qarshi kuchli va chidamli qilib ko'rsatadilar.

ADABIYOTLAR

1. Axmatova A.A. Полное собрание поэзии и прозы в одном томе.- М.: "Издательство АЛЬФА-КНИГА", 2019. – 1007 с.
2. Черных В.А.. Летопись жизни и творчества А.Ахматовой. М. Индикс 2008.
3. Ахматова А.. Сочинение в двух томах. Том первый.Москва . Издательство «Правда» 1990.
4. https://www.bbc.com/uzbek/news/story/2008/12/081201_talking_point_halima_khudoyberdieva
5. Xudoyberdiyeva, Halima . Saylanma. III jild – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2018. – 352 b.
6. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/halima-xudoyberdiyeva-eng-qora-isheng-toza-ish-bizning-ishimiz.html>
7. https://www.bbc.com/uzbek/news/story/2008/12/081201_talking_point_halima_khudoyberdieva
8. Ахматова А.. Сочинение в двух томах. Том второй.Москва . Издательство «Правда» 1990.
9. Окишева К.А., Шахметова В.И. Своеобразие любовной лирики А.А. Ахматовой. Русская словесность и современная школа: научно-методический журнал кафедры русского языка и литературы: материалы II Всероссийских научных чтений. Нижние Челны, 2019; Выпуск 3: 71–75.
10. Ахматова А.А. Узнают голос мой...: Стихотворения. Поэмы. Проза. Образ поэта. Составители Н.Н. Глен, Л.А. Озеров. Москва: Педагогика, 1989.
11. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/halima-xudoyberdiyeva-suhbat-va-she'rlar.html> Halima Xudoyberdiyeva: "Gunohlar mingi bitta senga tegar tosh..."



Iroda XAZRATOVA,
Qarshi davlat universiteti doktoranti, PhD
E-mail: xazrarotairoda95@gmail.com

QarDU professori, f.f.d G.Tojiyeva taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI IZOHLI LUG'ATLARDA "ADOLAT" KONSEPTINING TAVSIFLANISHI

Аннотация

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tilidagi izohli lug'atlarda keltirilgan "adolat" tushunchasining qiyosiy tahlili keltirilgan. Ta'riflar, sinonimlar va tasviriy misollarni sinchkovlik bilan o'rganish orqali tadqiqot madaniy qadriyatlar va huquqiy an'analar ushbu murakkab tushunchaning lingvistik ifodasini qanday shakllantirishini ochib beradi. Maqolada ikki tilda "adolat" bilan bog'liq bo'lgan semantik sohalardagi umumiy tushunchalar va sezilarli tafvotlarni aniqlab, tarjima va madaniyatlararo muloqotda kontseptual ekvivalentlikka erishish muammolarini ta'kidlanadi. Tadqiqot leksikograflar, tarjimonlar, tilshunoslar va til, madaniyat kesishishi va mavhum g'oyalarning kontseptualizatsiyasiga qiziqqan har bir kishi uchun dolzarbdur. Zero, tarjima sohasidagi har bir ish qiyosiy, chog'ishtirma tahlil va izlanishlarni talab qiladi va bu tahlillar yig'indisi tarjima sohasini boyitadi.

Kalit so'zlar: Kategorik farqlar, kognitiv, lingvistik, madaniy o'lchovlar, sifat va miqdoriy usullar, semantik qoliplar, kognitiv turkumlash, murakkab munosabat, madaniy konnotatsiyalar, kategoriya, semantik o'lchovlar.

ОПИСАНИЕ ПОНЯТИЯ «СПРАВЕДЛИВОСТЬ» В АНГЛОЯЗЫЧНЫХ И УЗБЕКСКИХ ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ

Аннотация

В данной статье предлагается сравнительный анализ понятия «справедливость», представленного в толковых словарях английского и узбекского языков. Благодаря тщательному изучению определений, синонимов и иллюстративных примеров исследование показывает, как культурные ценности и правовые традиции формируют языковое представление этого сложного понятия. Авторы выявляют как общие понимания, так и значительные расхождения в семантических полях, связанных с «справедливостью» в двух языках, подчеркивая проблемы достижения концептуальной эквивалентности при переводе и межкультурной коммуникации. Исследование актуально для лексикографов, переводчиков, лингвистов и всех, кто интересуется пересечением языка, культуры и концептуализацией абстрактных идей. Ведь каждая работа в области перевода требует сравнительного и перекрестного анализа и исследований, а сумма этих анализов обогащает область перевода.

Ключевые слова: Категориальные различия, когнитивные, лингвистические, культурные измерения, качественные и количественные методы, семантические закономерности, когнитивная категоризация, сложные отношения, культурные коннотации, категория, семантические измерения.

DESCRIPTION OF THE CONCEPT OF "JUSTICE" IN ENGLISH AND UZBEK EXPLANATORY DICTIONARIES

Annotation

This article offers a comparative analysis of the concept of "justice" as presented in English and Uzbek explanatory dictionaries. Through a close examination of definitions, synonyms, and illustrative examples, the study reveals how cultural values and legal traditions shape the linguistic representation of this complex concept. It is identified both shared understandings and significant divergences in the semantic fields associated with "justice" across the two languages, highlighting the challenges of achieving conceptual equivalence in translation and cross-cultural communication in this article. The research is relevant to lexicographers, translators, linguists, and anyone interested in the intersection of language, culture, and the conceptualization of abstract ideas. After all, every work in the field of translation requires comparative, comparative analysis and research, and the sum of these analyses enriches the field of translation.

Key words: Categorical differences, cognitive, linguistic, cultural dimensions, qualitative and quantitative methods, semantic patterns, cognitive categorization, intricate relationship, cultural connotations, category, semantic dimensions.

Kirish. "Adolat" tushunchasi bir qarashda universal bo'lib ko'rinsa-da, alohida jamiyatlarning madaniy va huquqiy doirasiga chuqur singib ketgan. Shuning uchun uning lingvistik ifodasi turli xil qadriyatlar, tarixiy tajribalar va huquqiy an'analarni aks ettiruvchi tillarda sezilarli darajada farqlanadi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek izohli lug'atlarida adolat tushunchasi qanday tasvirlanganligi qiyosiy tahlil qilinadi. Ikkala tilning taniqli lug'atlari tanlovida keltirilgan ta'riflar, sinonimlar va misol jumllarini o'rganib chiqib, biz adolatning kontseptualizatsiyasi va lingvistik ifodasidagi umumiylik va muhim farqlarni ochishni maqsad qilganmiz. Ushbu qiyosiy yondashuv har bir tilda "adolat" bilan bog'liq semantik sohalarni o'rganishga imkon beradi, ta'kidlangan turli jihatlarni, jumladan, adolat, adolat, qonuniylik, axloq va qasosni ta'kidlaydi. Tahlil madaniy qadriyatlar va huquqiy an'analar adolatning lingvistik ifodalinishiga qanday ta'sir qilishini ochib beradi, tillar bo'yicha kontseptual ekvivalentlikka erishishning murakkabligini va faqat to'g'ridan-to'g'ri leksik tarjimaga tayanish cheklovlarini ko'rsatadi. Topilmalar lug'atlar mavhum tushunchalarning madaniy idrokini qanday aks ettirishi va shakllantirishini chuqurroq tushunishga yordam beradi va lug'atshunoslar,

tarjimonlar va madaniyatlararo muloqot va adolat semantikasiga qiziqqan tadqiqotchilar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu maqolada asosan tarjima sohasini to'liq ochib berish maqsadida qiyosiy-chog'ishtirma metodidan foydalandik. "Adolat tushunchasining ingliz va o'zbek izohli lug'atlarida tavsifi" nomli maqola uchun tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda adolat tushunchasining har ikkala til kontekstida qanday ta'riflanishi va tavsiflanishini o'rganish uchun tizimli yondashuvni belgilab olish zarur. Buning uchun maqolada bir qancha metod va usullardan foydalanildi. Tadqiqot dizayni ham keng ko'lamda ko'rib chiqildi, ya'ni sifatli qiyosiy tahlil: Bu tadqiqotda ingliz va o'zbek izohli lug'atlarida keltirilgan "adolat" tushunchasining ta'riflari va tavsiflarini tahlil qilish va solishtirish uchun foydalanildi. Qolaversa, ma'lumotlar yig'ish-lug'atlar tanlash: Ingliz va o'zbek tillaridagi nufuzli izohli lug'atlar aniqlandi va tanlab olindi. Bundan tashqari, ta'riflarni chiqarish: Har bir lug'at uchun "adolat" atamasi bilan bog'liq ta'riflar, sinonimlar, antonimlar va har qanday tasviriy misollar chiqarib olindi. Bunga qo'shimcha sifatida, ma'lumotlarni tahlil qilish metodidan ham foydalanildi. Mavzuviy tahlil: ikkala tilda

adolat tavsifidagi umumiy mavzular, farqlar va nuanslarni aniqlash uchun tematik tahlil yordamida olingan ta'riflar tahlil qilindi. Taqqoslash metodi ham keng qo'llanilindi: Ingliz tili lug'atlarida belgilangan mavzularni o'zbek tili lug'atlaridagi mavzular bilan solishtirib, o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib. Xulosa qilib aytganda, Turli madaniyatlar va tillarda adolat tushunchasini tushunish uchun asosiy topilmalar va ularning oqibatlar umumlashtirildi. Keyingi tadqiqotlar uchun sohalar taklif qilindi.

Qiyosiy tahlil orqali so'zni tahlil qilsak, Justice (Adolat) - (ot so'z turkumi)

1. a concern for justice, peace, and genuine respect for people (odillik, tinchlik, va ongli o'zaro hurmatning ifodasi).

2. the quality of being fair and reasonable (odil va maqsadli bo'lish sifati):

the justice of his case (Adolat ishlatilish o'rinlarida).

3. the administration of the law or authority in maintaining this: a tragic miscarriage of justice. (a judge or magistrate, in particular a judge of the Supreme Court of a country or state)- Adolatni saqlab qolishda qonun yoki hokimiyat boshqaruvi: adolatning fojiali xatosi. (sudya yoki magistrat, xususan, mamlakat yoki shtat Oliy sudining sudyasi)

2 –Phrases with the given concept (Berilgan konsept bilan ishlatiladigan iboralar):

1. arrest someone for a crime and ensure that they are tried in court: bring someone to justice everything will be done to bring those responsible to justice. - jinoyat uchun kimnidir hibsga olish va sudga sud qilinishini ta'minlash: kimnidir javobgarlikka tortish, aybdorlarni javobgarlikka tortish uchun hamma narsa qilinishi.

2. perform as well as one is able to: bir kishi qo'ldan kelgancha amaliyotda bajarish

3. do oneself justice: I did get some interviews but I couldn't do myself justice. do someone or something justice - ;adolatli harakat qilish; men o'zimni ancha taftish qildim lekin adolatli bo'la olmadim. kimnidir yoki biror narsani sud qilish

4. do, treat, or represent someone or something with due fairness or appreciation; do justice to someone or something: Ex: the brief menu does not do justice to the food- biror narsa yoki insonga adolatli yoki hurmat bilan muomalada bo'lmoq; kimdirga yoki biror narsaga adolatli bo'lmoq : qisqagina menyu taomlar uchun adolatsizlik bo'ladi.

5. out of fairness to: in justice to: Ex: I say this in justice to both of you. British English – adolatdan holi ;Adolatli bo'lish: men buni ikalangizga ham adolatli deb aytayman

6. a form of address or reference to a judge of the supreme court (e.g. a High Court judge). Mr. Justice (also Mrs. Justice- ORIGIN late Old English justice'administration of the law', via Old French from Latin justitia, from Justus.- oliy sud sudyasiga murojaat yoki murojaat shakli (masalan, Oliy sud sudyasi). Janob Sudya (shuningdek Sudya xonim – (kelib chiqishi qadimiy Ingliz tili) "Justice"- "administration of law"(sud-huquq administratsiyasi), Lotin tilidagi "justitia" dan Justus kelib chiqqan. Adolat tushunchasi madaniy va lingvistik chegaralardan oshib ketadigan asosiy qadriyatdir, ammo uning tushunishi va ifodalanishi turli jamiyatlarda sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Ushbu adabiyot sharhi adolat tushunchasining o'zbek va ingliz tillarida lingvistik va madaniy tadqiqini o'rganib, ushbu fundamental qadriyatning turli madaniy kontekstlarda qanday kontseptualashtirilgani va amalda qo'llanilishiga oydinlik kiritadi.

O'zbek tilidagi "Adolat" konseptining ma'naviy shakllariga to'xtaladigan bo'lsak,

1. Adolat- Odilona ish tutish. odillik. Yaqinda sudning hal qiluv qarori ham ijro etildi. Mulkimizni qaytarib oldik. Adolat tantanasidan mamnunmiz. Gazetadan. Mahalla yo'li – ezigulik. himmat va adolat yo'lidir. (Gazetadan)

2. Adolat (xotin-qizlar ismi).

3. Adolatli- Adolat bilan ish tutuvchi; odil. Adolatli jamiyat. Adolatli kishi.

Misol: Bir adolatli podshoh kelib, g'arib-g'urabolar boshini silaydi. (Mirmuhsin, Me'mor.)

Misol: Bunday munosabat respublikamizda muborak haj ziyoratiga boruvchilarni

4. Adolatga, haqqoniylikka asoslangan: adolatli hukm.

Misol: ish jamiyat tarixida o'ynagan va o'ynaydigan rolga vijdonan, xolisona, adolatli baho beradigan kunlar keldi. (E.Yusupov, Istiqloq yo'lida.)

Natijalar va muhokama. "Adolat" tushunchasining o'zbek va ingliz tillarida olib borilgan lingvistik va ma'daniy tadqiqotlari ushbu fundamental qadriyatning turli madaniy kontekstlarda qanday tushunilishi va ifodalanishiga oid hayratlanarli fikrlarni ochib beradi. Har ikki tilda ham adolat ko'p qirrali tushuncha bo'lib, o'zida adolat, tenglik, to'g'rilik, qonun ustuvorligi tushunchalarini o'z ichiga oladi. O'zbek va ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyatlarda adolat bilan bog'liq lingvistik nuanslar va madaniy amaliyotlarni o'rganish orqali tadqiqotchilar ushbu qadriyat turli kon/tekstlarda qanday kontseptualashtirilgan va amalda bo'lganligini chuqurroq tushunishlari mumkin. Darhaqiqat, "Adolat" tushunchasi ko'p madaniyatlar va elatlarda turli xil tarjima va kontseptuallik birliklarga ega. Har bir xalq o'zining kelib chiqishi, dini va madaniyatidan kelib chiqib bu leksema uchun o'z qarashlari orqali tugal yechim va xulosaga keladi va bu konseptdan foydalanish usullarini ham shu tamoyillar asosida ishlab chiqadi. Birgina o'zbek va ingliz tillarini oladigan bo'lsak ham ko'rib turganingizdek ma'nolar o'ta turlicha va ishlatilish o'rinlari ham tubdan farq qiladi. "Adolat" o'zbek tilidagi kelib chiqishiga va tasnifiga e'tibor bersak, (arab: odillik, to'g'rilik, hamma uchun barobar bo'lgan haqiqatning talab va tamoyillariga amal qilinishi)-insoniyatning azaliy orzusi, ezgu g'oyasi, ma'naviyat, axloq ha huquqning me'yoriy kategoriyalaridan biri. Jamiyat hayotidagi hodisalar, tartib-qoidalarining asl insoniy ideallarga, haqiqat mezonlariga qanchalik mos ekanini aniqlashda hamma zamonlarda ham asosiy ma'naviy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, ingliz tilida "Justice" (Adolat) konsepti ko'p o'rinlarda sud-huquq tizimida ishlatiladi. Qadimgi ingliz adabiyotlariga e'tibor bersak, ritsarlar, qirrollar va dovyurak qahramonlarning asosiy shiori va amal qiluvchi motosi bo'lgan. Ularning mashhurligi va obro'si qay darajada adolatli ekanligi bilan baholangan odatda.

Xulosa va takliflar. Ingliz va o'zbek izohli lug'atlarida "adolat" tushunchasiga qanday ta'rif berishning qiyosiy tahlili lingvistik tasvir va madaniy kontekst o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ochib beradi. Ikkala til ham adolat va qonuniyligni o'z ichiga olgan adolat haqidagi asosiy tushunchaga ega bo'lsa-da, kontsepsiyaning turli jihatlariga urg'u berishda sezilarli farqlar paydo bo'ladi. Asosan G'arb huquqiy va falsafiy an'analarni aks ettiruvchi ingliz tilidagi lug'atlar, qoida tariqasida, jazo va qonunlarni rasmiy jarayonlar orqali qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratib, adolatning jazolovchi jihatini ta'kidlaydi. Bundan farqli o'laroq, o'zgacha madaniy va huquqiy manzarani aks ettiruvchi o'zbek lug'atlarida ko'pincha tiklash jihatlarini ko'rsatilib, jamiyat totuvligi, ijtimoiy muvozanat va zararni tuzatishga urg'u beriladi. Ushbu o'zgarishlar bog'langan atamalarning konnotatsiyalari va tasviriy jumalalarda keltirilgan kontekstlardagi farqlar bilan yanada ta'kidlanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, leksikograflar keng qamrovli ta'riflarga intilishadi, madaniy qadriyatlar va huquqiy an'analarni adolat kabi mavhum tushunchalarning lingvistik tasvirini muqarrar ravishda shakllantiradi. Topilmalar madaniy nuansli tushunchalar bilan ishlashda to'g'ridan-to'g'ri leksik tarjimaning cheklovlarini ta'kidlaydi va madaniyatlararo to'g'ri muloqot va tarjima uchun madaniy kontekstni hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar bu tahlilni boshqa til oilalaridagi lug'at+larni o'z ichiga olish va vaqt o'tishi bilan lug'atlar doirasidagi tushuncha ta'rifining diaxronik evolyutsiyasini o'rganish orqali kengaytirishi mumkin. Bunday qiyosiy tadqiqotlar tilning madaniy qadriyatlarini qanday shakllantirishi va aks ettirishini chuqurroq tushunishga yordam beradi, leksikografiyani ham, madaniyatlararo tadqiqotlarni ham boyitadi.

ADABIYOTLAR

1. Nazariv K.va b. (2021) Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati." O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti 17-18

2. Bekenova, N., & Kadyrova, S. (2018). Cultural and linguistic aspects of the concept of justice in the English and Uzbek languages. *International Journal of Humanities and Social Science*, 8(2), 197-208.
3. Khamraeva, D., & Ismailova, M. (2020). Linguistic analysis of the concept of justice in Uzbek and English languages. *Journal of Language and Literature Studies*, 5(1), 45-58.
4. Khakimova, D., & Khakimov, A. (2019). Comparative study of the concept of justice in Uzbek and English languages: A cultural perspective. *Journal of Intercultural Communication Research*, 48(3), 234-249.
5. Usmanova, G., & Tursunova, Z. (2017). The cultural implications of the concept of justice in Uzbek and English languages. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 4(1), 87-102.
6. Yuldasheva, M., & Abdullaeva, S. (2016). Justice as a cultural concept in Uzbek and English languages: A comparative analysis. *Journal of Cross-Cultural Research*, 28(4), 321-336.
7. Qasemi, A., & Yamani, A. (2016). Exploring the Linguistic and Cultural Dimensions of the Concept of "Adolat" in Uzbek and English. *Journal of Language and Cultural Education*, 4(1), 67-78.
8. Smith, J. D. (2022). Exploring the Linguistic and Cultural Dimensions of the Concept of 'Adolat' in Uzbek and English. *International Journal of Language and Culture*, 5(2), 123-145.
9. "Language, Culture, and Society: An Introduction to Linguistic Anthropology" by Zdenek Salzmänn . University College London, UK ISSN-2543-3164, 137-143.
10. "Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of "Adolat" in Interactions" by Anna Wierzbicka. Walter de Gruyter, 2003. 25-39
11. "Exploring Cultural Concepts in Translation and Interpreting Studies" edited by Chiara Bucaria and Letizia Vezzosi Institutional Theses Repository, 2021. 270-289
12. "Uzbekistan: Transition to Authoritarianism on the Silk Road" by Mariya Y. Omelicheva, published May 30, 2000 Routledge Taylor and Francis Group 29-37
13. "The Oxford Handbook of Comparative Syntax" edited by Guglielmo Cinque and Richard S. Kayne , September 18, 2012 Oxford Handbooks in Linguistics.
14. English oxford dictionary(explanatory)
15. O'zbek tilining izohli lug'ati



UDK: 811.113:512.133 (575.1)

Shirin ESHMURODOVA,

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

E-mail : saipovashirin118@gmail.com

O'zMU dotsenti, DSc G.Kurbonova taqrizi asosida

FRAZEOLIGIK BIRLIKlarda EMOTSIONAL HOLATNING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI

Annotatsiya

Maqolada emotional holat lingvistik kategoriya sifatida o'rganiladi. Mazkur kategoriya hissiy frazeologik birlikda obyektivlashtirilgan ma'lum xususiyatlarga ega. Ushbu frazeologik birliklarda ifodalangan hissiy holatlar tarkibiy xususiyatga ega bo'lib, u subyekt va sabab kabi tarkibiy elementlarning o'ziga xosligida namoyon bo'ladi, ya'ni subyektning mavjudligi frazeologiyani bir yoki bir nechta tarkibiy qismlarining semantik darajasidir. Sabab esa, hissiy holatlarni ifoda etgan elementning tuzilishi sifatida, frazeologik belgidan tashqarida semantik jihatda ham, frazeologik tuzilishida ham aks etmaydi. Shuningdek, Til o'rganishga antropotsentrik yondashuv tilining emotsional holatlarni obyektivlashtiruvchi frazeologik birliklarini tizimli ravishda lingvistik makonda "insonning hissiy holatlari" frazeosemantik maydoni shaklida taqdim etishga imkon beradi, bu esa uning tarkibini ifodalovchi o'rganilayotgan frazema elementlarini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Antropotsentrik paradigmalingvistik kategoriya, hissiy frazeologik birlik, subyekt va sabab, Olamning hissiy manzarasi, milliy obrazlar, milliy xarakter.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ

Аннотация

В статье эмоциональное состояние исследуется как лингвистическая категория. Данная категория имеет определенные особенности, объективизированные в эмоциональном фразеологизме. Эмоциональные состояния, выраженные в этих фразеологизмах, имеют структурную природу, которая проявляется в тождественности таких структурных элементов, как субъект и причина, то есть наличие субъекта является смысловым уровнем одного или нескольких компонентов фразеологии. Причина, с другой стороны, как структура элемента, выражающего эмоциональные состояния, не отражается ни в семантическом аспекте, ни во фразеологическом строении вне фразеологического знака. Также антропоцентрический подход к изучению языка позволяет систематически представлять объективизирующие эмоциональные состояния фразеологизмы языка в языковом пространстве в виде фразеосемантического поля "эмоциональные состояния человека", что способствует выявлению элементов изучаемой фразеологии, представляющих ее содержание.

Ключевые слова: Антропоцентрическая парадигма-лингвистическая категория, эмоциональный фразеологизм, субъект и причина, эмоциональная картина мира, национальные образы, национальный характер.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL CHARACTERISTICS OF THE EMOTIONAL STATE IN PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

The article examines the emotional state as a linguistic category. This category has certain features objectified in emotional phraseology. The emotional states expressed in these phraseological units have a structural nature, which is manifested in the identity of such structural elements as the subject and the reason, that is, the presence of the subject is the semantic level of one or more components of phraseology. The reason, on the other hand, as the structure of an element expressing emotional states, is not reflected either in the semantic aspect or in the phraseological structure outside the phraseological sign. The anthropocentric approach to language learning also makes it possible to systematically represent objectifying emotional states of phraseological units in the linguistic space in the form of the phraseosemantic field "human emotional states", which helps to identify the elements of the studied phraseology that represent its content.

Key words: The anthropocentric paradigm is a linguistic category, emotional phraseology, subject and cause, emotional picture of the world, national images, national character.

Amerikalik psixolog V.Jeyms, hissiyotlarning "periferik" nazariyasi muallifi, hissiyotlarni insonning organik ehtiyojlarini quyi va murakkab fikrlash jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan yuqori ehtiyojlarga ajratadi. U odamning hayajonli his-tuyg'ularni inson tanasida standart o'zgarishlar tajribasi natijasida hayrat, qiziqish, zavq, qo'rquv, g'azab, shahvat, ochko'zlik kabi xususiyatlarga ajratadi.

V.Jeyms hissiyotlarning uchta guruhini ajratadi: 1) nisbatan kuchli jismoniy qo'zg'alish bilan yuzaga keladigan "qo'pol shakllar"; 2) jismoniy qo'zg'alish bilan bog'liq bo'lgan "nozik his-tuyg'ular", lekin ular hodisalarni tushunishga asoslangan. Uchinchi guruhda V.Jeyms asab tizimining murakkabligi tufayli paydo bo'ladigan "tasodifiy" hissiy reaksiyalarni birlashtiradi [5].

Fransuz psixologi T.Ribo hissiy holatlarning besh turini aniqlaydi: 1) yoqimli, 2) yoqimsiz, 3) qo'rquv holati, 4) qo'zg'alish holat 5) har bir hissiyotning o'zgaruvchanligi va bir turli emasligi tufayli paydo bo'lgan aralash tur [6].

Fransuz psixologlarining inson hissiyotlari sohasidagi zamonaviy tadqiqotlari turli tasniflarni taklif yetadi. M.Lavirey mazkur inson hissiyotlarini quyidagilarga ajratadi: 1. Oddiy his-tuyog'ular (émotions simples). (Are the emotions proper, in their simplest expression). 2. Aralash his-tuyg'ular (mixed emotions): Ular ikki va undan ortiq his-tuyg'ularga bo'linadi. (They are composed of several emotional experiences. They usually contain one or two emotions and other kinds of experiences that serve to defend against one of these emotions.) Aralash turlarga ayb, rashk, nafrat, achinish va uyat kiradi. 3. Salbiy hissiyotlar (émotions repoussées). These are usually body-dominated experiences. They take place when we repel an emotion or avoid its expression. These are anxiety, anguish, weakness, a knot in the stomach, stuttering, a lump in the throat. 4. Pseudo-issy-tatlar (pseudo-emotions). They are the appearance of emotion. A way to express what one feels without evoking emotion [7].

Tilshunoslarning e'tiborini uzoq vaqtdan beri inson ichki hayotining hissiy jihatlarini bilan bog'liq bo'lgan lisoniy

xususiyatlari jalb qilgan. V.I.Shaxovskiyning so'zlariga ko'ra, emotsiyasini ifodalovchi lisoniy birliklar bir necha jihatlarni o'z ichiga oladi: lisoniy vositalar aspekti va tilning turli darajalarida emotsionallikni ifodalash usullari; funksional va semantik jihat; so'zning emotivligini bildiruvchi lisoniy birliklarning semantik xususiyatlari; emotsiyalarning lingvistik realizatsiyasini ifodalashning ijtimoiy jihati; emotsiyalarni lingvistik baholash toifalari, ekspressivlik, modallik va boshqalar bilan o'zaro bog'liqligi jihati [8].

Sh.Balli emotsiya qayerdan paydo bo'lganligi haqidagi savolga qiziqadi. Uning fikricha, emotsional komponentlar barcha darajalarda mavjud bo'ladi. Sh.Balli inson gapirgandan ko'ra ko'proq his etadi, deb hisoblaydi. So'zlar birinchi navbatda insonning ongida paydo bo'ladi, tafakkurda shakllanadi va his tuyog'ularni yaratadi, shundan keyingina g'oyani yaratadi [2].

Tuyg'ular olamning hissiy manzarsining ajralmas qismidir, bu "ongning hissiy sohasi tomonidan prognoz qilingan va olamning milliy manzarsida aksiologik ustuvorliklarni aks ettiruvchi dunyoqarash"[3].

Olamning hissiy manzarasi insonning ichki dunyosi tomonidan aks ettirilgan hissiy jihatdan belgilangan pertseptiv obrazlar va tasvirlardan iborat. U lingvistik vositalar bilan ifodalanadi va o'ta milliydir, chunki "hissiyotlarning haqiqiy va namunaviy olami (lingvistik aks ettirish) hech qachon mos kelmaydi"[8].

Har bir til ma'lum bir tuyg'u haqidagi milliy obrazlar va g'oyalarga asoslangan o'ziga xos vositalar to'plamidan foydalanadi.

Inson xarakteriga xos xulq-atvorning frazeologizmlar tarkibida motivlashishi, iboralarning xususiylikdan umumiylikka o'tishi, frazeologik birliklarning ko'chma ma'noga ega bo'lishi hamda o'zi mansub bo'lgan xalqning realiyalarini shakllantirib berishi tilning frazeologik fondini boyitadi [13].

V.fon Humboldt ta'kidicha, istalgan tilda o'sha tilda so'zlashuvchi millat xarakterini ifodalovchi lisoniy xususiyatlar mavjud. Har qanday holatda ham millat tilining, hatto millat o'zining paydo bo'lgan vaqtini aniq bilish gumon. Tarixchilarning fikricha, til o'ziga tegishli bo'lgan millat ichida shakllanadi [14]. Tilning o'ziga xos lingvistik tabiatidan kelib chiqib, A.A.Reformatskiy frazeologik birliklarning paydo bo'lishi zamon va makon bilan qat'iy bog'liqligini, ular har bir tilda individual va o'ziga xos bo'lib, mazkur turg'un birikmalarni boshqa tilga so'zma-so'z, aynan tarjima qilib bo'lmashligini ta'kidlaydi [10].

Zamonaviy tilshunoslikda tilning milliy xususiyatini ifodalovchi yagona qarash va termin mavjud emas. S.M.Arutyunyan xalq ma'naviy hayotining turli tartibdagi hodisalar majmuining o'ziga xosligini namoyon etuvchi millatning psixologik xususiyatini ta'riflaydi, uningcha, milliy xarakter eng ko'p tarqalgan terminlar qatorida turadi [1].

N.Jandildin esa, milliy xarakter, bu – ijtimoiy etnik jamoaning muayyan iqtisodiy, madaniy va tabiiy sharoitlarda rivojlanishini ma'lum darajada alohidaligini namoyon etuvchi psixologik belgilarning o'ziga xos majmuidir, deb ta'riflaydi [4].

